

Orifaxon Ergasheva



**TASVIRIY SAN'ATNI  
O'QITISH METODIKASI**

74,589373

E-74

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI


QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Ergasheva Orifaxon Xolmuratovna

# TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISH METODIKASI

O'quv qo'llanma

*(Oliy o'quv yurtlarining  
"60111200 - Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi"  
ta'lim yo'nalishlari uchun o'quv qo'llanma)*



"Farg'ona" nashriyoti  
2024

Mazkur o'quv qo'llanma O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 29-sentyabrdagi 438-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etildi.

*Taqrizchilar:*

**A. Turdaliyev** – *Qo'qon DPI Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası p.f.n. dotsenti*

**A. Amanullayev** – *NamDU Amaliy san'at kafedrası p.f.n. dotsenti*

UO'K: 75:378.091.33(075.8)

KBK: 85.14+74.58ya73

E 74

**Ergasheva Orifaxon.**

**TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISH METODIKASI**

[Matn] o'quv qo'llanma/ ilmiy nashr; lotin yozuvida; – Farg'ona: "Farg'ona" nashriyoti, 2024. – 400 b.

*Mazkur o'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarinining "60111200 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitish usullari hamda yo'nalishlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

*O'quv qo'llanma qulay, sodda, ravon tilda bayon etilgan bo'lib, talabalarning foydalanishlari uchun juda qulay. Talabalarning olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash maqsadida mavzu so'ngida nazorat savollari va tayanch iboralar berilgan.*

ISBN: 978-9910-8814-6-6

© Ergasheva O., 2024

© "Farg'ona" nashriyoti, 2024

## KIRISH

San'at-insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi bo'lib xizmat qiladi. U musiqa, teatr, kino, badiiy adabiyot, xoreografiya, tasviriy va amaliy bezak san'ati kabi ko'plab san'at turlarini o'z ichiga oladi. San'atning har bir turi o'z oldiga qo'yilgan vazifalarga ko'ra turli vositalardan foydalanadi, masalan, adabiyot – so'zdan, musiqa – tovushlardan, tasviriy san'at – rang va chiziqlardan va hokazo. Shu bilan birga, har bir san'at turi vana bir necha xil va janrlarga bo'linadi.<sup>1</sup>

Ma'lumki, Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishining bo'limlarida o'qitiladigan "Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi" fani mutaxassislikning asosiy o'quv fanlaridan biri hisoblanadi. Chunki, bu fan bo'lajak o'qituvchi-pedagoglarni estetika hamda san'at asoslari bilan qurollantiradi, tabiatdagi, jamiyatdagi va san'atdagi go'zallikni ko'ra bilishga o'rgatadi. Shuningdek, bu fan ayniqsa, o'qituvchilik kasbi uchun zarur hisoblangan rasm chizish malakasini shakllantiradi. Demak, boshlang'ich sinf o'qituvchisining rasm chizishni bilishi boshqa o'quv predmetlarni o'qitish samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Qo'llanmani yaratishda asosiy e'tibor Tasviriy san'at o'qituvchisi uchun zarur bo'ladigan bilim va ko'nikmalarini berishga qaratildi. Rasm chizish juda oddiy narsalardan

<sup>1</sup> S. ABDIRASILOV, B. BOYMETOV, N. TOLIPOV "TASVIRIY SAN'AT (Kash-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma)" Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2006. 3-bet.

boshlansa-da, uning o'quv materiallari Davlat standarti va dasturidan orqada qolmasligi zarur. Chunki qo'llanmada rasm chizishning ancha keng va murakkab jarayonlari bo'yicha nazariy va amaliy tushuncha hamda tavsiyalar beriladi. Qo'llanmada faqatgina rasm chizish haqida emas, san'atning barcha turlari, jumladan, rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, amaliy san'at, dizayn san'ati, fotosan'at, ikebana san'ati va me'morchilik san'ati kabilar haqida ham fikr yuritilgan, ma'lumotlar berilgan.

Bulardan tashqari, o'quvchi san'atning har bir turi bo'yicha shug'ullanish metodikasi haqida ham zarur tavsiya va ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyatiga ega.

Ushbu qo'llanma muallifning uzoq yillik tajribalari asosida tuzilgan "Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi" dasturi asosida yaratilgan bo'lib, R. Hasanov, N. Rostovsev, Y. Shoroxov, Q. Qosimov, M. Nabiyev, N. Abdullayev, S. Bulatov, P. Alekseyev, S. Saviskiy, V. Kuzin kabi metodist-olimlarning darslik, o'quvmetodik qo'llanmalaridan ijodiy foydalanildi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> B.N.ORIPOV "TASVIRIY SAN'AT VA UNI O'QITISH METODIKASI" (Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma 2-nashri) „ILM ZIYO“ TOSHKENT – 2012. 3-5-betlar.

## **I BOB. TASVIRIY SAN'AT O'QITISH METODIKASI FANINING NAZARIY MAZMUNI.**

### **Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi fanining maqsad va vazifasi**

San'at tabiat va jamiyatdagi voqea-hodisalarning badiiy tasvirlarda ifodalanishidir. San'at o'zida moddiy olamning umumiy holatini hamda rivojlanishini aks ettirish, odamlarga uni bildirishda muhim vosita bo'lish bilan birga, insonni siyosiy, axloqiy va badiiy jihatdan tarbiyalashning qudratli omili bo'lib xizmat qiladi. San'at voqelikni ifodalash uslubi, xarakteri, mazmuniga ko'ra, tasviriy san'at, me'morchilik, adabiyot, musiqa, sirk, teatr, kino, radio-televideniya kabi turlarga bo'linadi.

San'atning ijobiy va eng muhim xususiyati shundaki, u fandan farqli o'laroq, voqea-hodisalarni tushunchalarda emas, balki sezgi va his bilan idrok qilinadigan shakllarda, tipik badiiy obrazlarda ifodalaydi.

Ma'lumki, har bir jamiyat o'zining ma'lum iqtisodiy-siyosiy holatidan kelib chiqib, san'at rivojiga muayyan darajada sharoit yaratadi. Shu boisdan har bir jamiyat san'ati o'z davri uchun xizmat qiladi.

Har bir jamiyatdagi san'at erkinlik asosida vujudga kelsa, bu san'at o'zida insonparvarlik, vatanparvarlik va milliylik kabi ilg'or g'oyalarni ilgari suradi. San'at halqning maqsadi, orzu-umidlarini aks ettiradi. San'at insoniyatning ezgu niyatlarini, ularning orzu-umidlarini to'la ifoda etadi. Shu boisdan halqimiz o'z san'atini qanchalik ardoqlab, unga hurmat va ehtirom bildirsa, jahon halqlari

ham bugungi o'zbek san'atiga ana shunday ixlos va ehtiromlar bilan qaraydilar.

O'zbek rassomlari o'z asarlarida ana shu talab va prinsiplardan kelib chiqqan holda o'zlarini qiziqtirgan, hayajonga solgan narsalar, voqealarni milliylik asosida aks ettirmoqdalar.

Mustaqil O'zbekiston tasviriy san'atining milliyli- gi undan, avvalo, realistik pozitsiyada turishni, moddiy olamning obyektiv qonuniyatlarini e'tirof etgan holda tasvirlashni talab qiladi. Bu esa rassomdan narsa va voqealarni aniq, o'ziga o'xshatib, real holda ifodalashni va jamiyatning muhim jihatlarini aniq maqsad sari yo'naltirilgan, badiiy jihatdan yuksak talablarga javob beradigan san'at asarlari yaratishni talab qiladi.

Jahon realistik tasviriy san'ati – jahon halqlarining o'tmishi, hozirgi kuni va kelajakdagi hayotini ifoda et- chi, shuningdek, tabiat va jamiyatni tasvirlovchi haqiqiy ko'zgudir. Biz unda o'tmishni, bugunni va kelajakni ko'ramiz. Shu boisdan ham realistik tasviriy san'at ustalari o'tmish tarixini ham, materiya va taraqqiyotni ham, matematika, tabiiyot, geografiya va biologiyani ham yaxshi bilishlari lozim. San'at uzoq tarixga ega bo'lib, u jamiyatda mehnat faoliyatining rivojlanishi, takomillashuvi va ijtimoiy faoliyatning taraqqiyoti asosida shakllandi. U moddiy ishlab chiqarish, jamiyatning iqtisodiy tuzumi va mehnat munosabatlari hamda qurollarining takomillashuvi tufayli jamiyat ongining evolutsiyon taraqqiyoti jarayonida vujudga keldi va rivojlandi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> B.N.ORIPOV "TASVIRIY SAN'AT VA UNI O'QITISH METODIKASI" (Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma 2-nashri) „ILM ZIYO“ TOSHKENT – 2012. 7-bet.

Sinfy jamiyatning vujudga kelishi bilan san'at ham sinfy tus oldi. Har bir jamiyatda turli sinflar mavjud bo'lganidek, o'sha jamiyatning san'atida ham turli sinflar manfaati, siyosati, dunyoqarashi va axloqi aks etadi. San'atning sinfy xarakteri – uning qaysi sinf vakilini qanday mazmunda ifodalashga va qaysi sinfning iqtisodiy hamda siyosiy manfaatini, hayotini himoya qilishiga qarab belgilanadi. I. Repinning “Volga burlaklari” asarini kuzatar ekanmiz, unda mehnatkashlar ommasining hayoti, ularning og'ir turmushi va mehnati ifodalanadi va ularning manfaati himoya qilinadi.

Tasviriy san'atning muhim xususiyatlaridan biri – inson uchun faqat borliqni, tabiat va jamiyatdagi voqea-hodjalar va narsalarni bildiribgina qolmay, odamlarga yangi bilim, tasavvur va tushunchalar berib, ma'naviy boyituvchi, ijodiy yuksalishga boshlovchi qudratli omil bo'lib xizmat qiladi. Yoki bir so'z bilan aytganda, V. G. Belinskiy ta'rificha, “San'at – obrazli tafakkurdir”.

Ma'lumki, Oliy va o'rta maxsus pedagogika o'quv yurtlarida ta'lim mazmuni kunning eng dolzarb vazifalaridan biri bo'lib turibdi. Bu vazifani hal etish hozirgi davr o'qituvchisini o'z fani doirasida chuqur va keng bilimli, shuningdek, ijodkor va izlanuvchan bo'lishini talab qiladi. Shu maqsadda boshlangich ta'lim va tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishida “Tasviriy san'at o'qitish metodikasi” fani o'qitiladi. Bu fanning asosiy maqsadi talabalarni boshlangich sinflardagi “Tasviriy san'at” darslarini o'qitishga tayyorlash, tabiatdagi hamda tasviriy san'at asarlaridagi go'zallikni ko'ra bilish va idrok etish, badiiy did, ko'rish xotirasi, rangni sezish, fazoviy tasavvur, kuzatuvchanlik va badiiy ijodiy qobiliyatini o'stirishdan iborat.

<sup>1</sup> V.G. Belinskiy. Tanlangan asarlar. 3- tom. M., 1948- y. 67- bet

Ana shu obrazlar tasviriy san'atda o'zining yaqqolligi, ishonarliligi, obyektivligi, realligi bilan odam larning aqliy faoliyatiga tez va aniq ta'sir ko'rsatuvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Ammo tasviriy san'at asarlarini hamma ham tog'ri tushunavermaydi, uning badiiy jihatlarini to'g'ri baholay olmaydi. Bunday kishilar ko'rgazma zallariga, muzeylarga tashrif buyursalar, tezda zerikib qoladilar. Churki bunday tomoshabin asarni maroq bilan tushunib, ko'rolmaydi, his-hayajon va kuchli ehtiros bilan tahlil etolmaydi. Ular agar A. K. Savrasovning "Qora qarg'alar uchib kelishdi", Y. Levitaning "Oltin kuz", R. Temurovning "Bibixonim hovlisida bahor" kabi manzara janrida yaratilgan asarlarini tomosha qilsalar, bu rasmlarda "Qurib qolgan daraxtlami" yoki "Yoz issig'ida kuyib, jizg'anak bo'lgan daraxtlarni tasvirlashibdi", degan fikrga kelishlari mumkin.<sup>1</sup>

Biz, bir necha san'at asarlari reproduksiyalari haqida turli yoshdagi kishilarning fikrini bilmocchi bo'ldik. Ular manzara asarlarini kuzatib, "Daraxtlar va dalalarning rasmi chizilgan", – dedilar.

Z. Inog'omovning, "Choyga", V. Burmakinning, "O'rik gullaganda" kabi maishiy janrdagi asarlari bilan tanishtirib, asar haqida o'quvchilarning fikr-mulohazalari tinglandi.

Kuzatuvchi-tomoshabinlarga Belolining, "Cho'milayotgan ayol", Jorjonening "Uxlayotgan Venera", Rodinning, "Yeva", Renuarning "Yalang'och ayol", Rembrandtning, "Daniya", Falkonening, "Flora" asarlari reproduksiyasini kuzatishga berganimizda, "Yalang'och ayollarni tasvirlashibdi", ayrimlari hazil aralash, "Rasomlar chizadigan narsa topolmay qolishibdi, shekilli",

<sup>1</sup> S. E. ABDIRASILOV "TASVIRIY SAN'AT O'QITISH METODIKASI" (O'zbekiston Respublicasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan «5141600 - Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish» bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan) TOSHKENT-2012. 4-bet.

degan fikrlarni ta'kidlab o'tishdi. Faqat 1-2 kishigina, "O, men shunchalik rasm chizganimda baxtli inson bo'lgan bo'lardim", – deyishdi. Hatto, ayrim ayollar, "uyatsizlar", – deb ham qo'shib qo'yishdi.

Faqat bir kishigina, "Men bu haykalni Parijda ko'rganman. Mana bunisini Drezdenda ko'rganman, ammo bunisini ("Cho'milayotgan ayol") uchratmagan ekanman. Bunday asar yaratgan rassomga ofarin, kim ekan rassom, bu rasm qaysi muzeyda saqlanadi, bu, "klassikami?" – dedi. Yana bir tom oshabin, rasmlarni kuzatar ekan, o'ylanib qoldi, biroz turgach, "Men chet elda bo'lmaganman, ammo san'atni juda sevaman, rasmlarni to'playman, bularning hammasidan menda bor, mening albomlarim tematika va janrlar bo'yicha tayyorlangan. Rodinni yaxshi bilaman, u ko'proq psixologiya bilan shug'ullangan," – dedi. Yana biri, rasmlarni qo'lga olib, birbir ko'rib chiqdi-da, "Men bunaqalarga qiziqmayman, menga R. Ahmedov, Levitan, Shishkin, Ayvazovskiy, Tansiqboyev, Karaxanlar yoqadi. Ular tabiatni kuldirib yuborishadi, ko'pchilik buni tushunmaydi", – degan fikrni bildirdi.

Yana bir kishi biz bergan manzara, portret va turmush janridan reproduksiyalarni qo'lga olar ekan, u rasmlar orasidan O. Rodinning, "Yeve"sini, Falkonening, "Flora"sini ajratib olib, "Men haykallarni sevaman. Ular jonli insonlar, tasodifan bir daqiqaga sizga o'z go'zalligini namoyish etish uchun to'xtab, sizga boqadi, mana buni ko'ring-a, ana inson go'zalligi, o'zining go'zalligini yashirayotgan Yeve. Men bir martagina Parijga borsam edim, Rodinning muzeyiga albatta tashrif buyurgan bo'lar edim. Uning faqat 3-4 tagina asarini bilaman, xolos. Albatta Parijga boraman, uning asarlari fotonusxasini olib kelaman" – dedi.

Yuqoridagi fikrlardan, san'at asarlarini tushunish uchun albatta badiiy ma'lumot bo'lmog'i kerak, degan xulosaga kelish mumkin. Badiiy did kishilarni estetik jihatdan tarbiyalash va axloqiy jihatlarni mujassamlashtirish jarayonida vujudga keladi. Bu juda yoshlikdan, ya'ni oiladan boshlanib, keyinchalik turli tarbiyaviy jarayonlarda takomillashib boradi. Kimki san'at asarlarini diqqat bilan kuzatib, u haqida ma'lum tasavvur hosil qila olsagina, asar haqida biron-bir fikr ayta oladi. Buning uchun asar haqida qisqa bo'lsa-da, ma'lumotga ega bo'lmog'i zarur. Ota-onalar esa bolalarni yoshlikdan san'at asarlari reproduksiyasini yig'ishga, ulardan albomlar tayyorlashga o'rgatishlari maqsadga muvofiq. Umuman, asarni kuzatishda, uning muallifi, mavzusi va g'oyasiga e'tibor berib, ular haqida fikr bildirish lozim. chunki, har bir san'at asarida mavzu, mazmun va uning g'oyasi, rassomning maqsadi, asarda tasvirlanayotgan voqea-hodisa, kishilar hayoti rassomning badiiy mahorati voqitasida, rang va bo'yoqlar koloriti asosida ifodalab beriladi.

R.Ahmedovning, "Onalik" asarini kuzatar ekanmiz, kim qanday tushunsa, shunday ataydi, kimdir, "Onalik" desa, kimdir "Tong" deydi, yana kimdir "Qishloqda tong otmoqda" va hokazo. Haqiqatda ham bu asarda baxtli onalik, so'lim tong, qishloq havosi, go'zal manzara, yosh o'zbek oilasi tasvirlangan. Tomoshabin asarni tushunish va unga o'zi mavzu belgilashi uchun, uni umumiy kompozitsiyadan kelib chiqqan holda, har bir elementni kompozitsiyaga nima maqsadda kiritilganini, u narsa qanday holda va qanday harakatda ekanligini, bu harakat rivojlantirilsa, qanday voqea sodir bo'lishini aniqlab olsa, asarning mavzusi, g'oyasi va sujeti to'g'ri aniqlangan bo'ladi.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> B.N.ORIPOV "TASVIRIY SAN'AT VA UNI O'QITISH METODIKASI" (Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma 2-nashri) "ILM ZIYO" TOSHKENT - 2012. 7-11-betlar.

## II BOB. TASVIRIY SAN'ATNI CHET ELLARDA O'QITILISHI

### Chet ellarda tasviriy san'atni o'qitish tarixidan. Rossiyada qalamtasvir o'qitish metodlari.


N.Rostotsevning "Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi" kitobida "Tarix shohidkim, jahonga mashhur geograflar, tarixchi, adabiyotchi, shoir, yozuvchilar, konstruktor va boshqa soha allomalari rasm chizishni juda yaxshi bilganlar" deb yozilgani ham bejiz emas..

Shunga ko'ra Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Gyote, Gyugo, Anderson, Pushkin, Tagor, Mendeleyev, B.Zokirov kabi turli soha ijodkorlari rasm chizish bilan jiddiy shug'ullanib kelganlar. Tasviriy san'at o'qitishiga doir eng qadimgi va o'rta asr boshlaridagi (Misr, Yunon, Qadimgi Rim) ma'lumotlar. Tasviriy san'at o'qitish metodikasini rivojlantirishda Uyg'onish davri rassomlarining xizmatlari (Chennino Chennini, Leon Alberti, Leonardo da Vinchi, Albrect Dyurer). XVII-XIX asrlarda G'arbiy Yevropada rasm chizishni o'rgatish metodikasiga bo'lgan turli qarashlar.

Jahonda tasviriy san'atni o'qitilishiga dastlabki ma'lumotlar qadimgi Misr va Yunonistonda eramizdan avvalgi III asrlarga doir materiallar mavjud. Qadimgi Misrda tog' qoyalariga o'yib ishlangan haykallar, shuningdek, rangtasvir asarlari o'zining yuksak badiiyligi va ishlanish texnikasi jihatidan kishilarni hayratga solib kelmoqda.

Bunga eng qadimgi Misrda rasm chizishga o'rgatishga doir tarixiy manbalar guvohlik beradi. Tasviriy san'atni o'qitish ishi bilan odamlar qadimdan shug'ullanib kelgan-

liklari ko'proq qadimgi Misr manbalarida saqlanib qolgan. Misr maktablarida rasm ishlashga o'rgatish muntazam ravishda chizmachilik bilan bog'liq holda amalga oshirilgan. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda maktabni tugallab chiqayotgan yoshlar ma'lum maydon yuzasini o'lchash va uni qog'ozga tushura oladigan, bino planini chiza oladigan, ariq va kanallarning sxemasini tasvirlay oladigan bo'lishlari talab etilgan. Rasm bolalarni yozish savodini chiqarishda ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Masalan, harfni o'rgatish uchun narsalarning tasviri chizdirilgan. Bolalarni rasm chizishga o'rgatishda qo'lni erkin harakat qilishiga alohida e'tibor berilgan. Erkin, yengil, ravon chiziqlar chizish doskada yoki papirus qog'ozlarda bajarilgan<sup>1</sup>.



**1-rasm. Qadimgi Misr Odam tanasining kanoni.**

<sup>1</sup> <https://muhaz.org/fani-boyicha.html?page=2>

Odam tanasini o'rganishda 20 qismaga bo'lib o'rganish. Shuni ham alohida qayd qilish lozimki, bu davr maktablarida faqat bolalar o'qiganligi sababli ularga nihoyatda yuqori talablar qo'yilgan. Shuning uchun ham talab va ko'rsatmalarga rioya qilinmaganda bolalar qattiq jazolangan, hattoki, yog'och bilan kaltaklangan. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, Misrda rasm chizishga o'rgatish qadimgi Yunonistondan ancha avval boshlangan. Italiyalik XV asr me'mori, artisti, yozuvchisi va olimi L. B. Alberti shunday deb yozadi: "Misrliklarning yozishicha, rangtasvir ishlash ularda Yunonistondan 6 ming yil avval mavjud bo'lgan".

Rasm chizishga o'rgatish qadimgi Yunonistonda ham o'ziga xos yo'nalishda amalga oshirilgan. Rasm ishlash uchun yog'och taxta ustiga asalari mo'mi surtilgan va uning ustini bo'yoq bilan sidirg'a bo'yalgan. Rasm ana shu yuza ustiga o'tkir metall yoki suyak bilan chizilgan. Noto'g'ri chizilgan rasm qol bilan ishqalanib, chiziqlar o'rni to'ldirib o'chirilgan. So'nggra tekis yuzaga yangi rasm ishlangan.

Keyinchalik u barcha maxsus ya'ni Yunonistonda Efess, Fivan va Sakkion badiiy maktablarda vujudga keldi va rasm chizish shu maktablarda o'rgatildi. Yunon rassomlari borliqni va keyinchalik Yunonistonda rasm ishlashning bir necha o'ziga xos maktablari paydo bo'lgan. Ular orasida tasviriy san'at va uni o'qitish taraqqiyotida eng ko'zga ko'ringan maktab bu Sakkion maktabi katta rol o'ynagan va tasviriy san'atni rivojlanishiga katta hissa qo'shgan maktabdir. Bu maktabda o'qitish ishlari ilmiy asosda tashkil etilgan bo'lib, bolalar ko'proq tabiatga, uning qonuniyatlarini bilishga qaratilgan.

Sakkion maktabining asoschisi va shu maktabda o'qigan Pamfil shu maktabning mashhur rassomi bo'lgan. Pamfil rasm chizishning ta'lim va tarbiyaviy ahamiyatini ko'rsatib bergan. U tasviriy san'atga ilmiy nuqtai nazardan birinchilardan bo'lib shu fanni rivojlanishini oldinga surgan. Tasviriy san'atni asosi bo'lgan qalamtasvirga yuksak baho berarkan shunday deydi: "Qalamtasvir ishlashda yuqori darajada aniqlik va ilmiy asos berish kerak".

Bu haqda uning zamondoshi Pliniy shunday deb yozgan edi: "Uning sayharakati bilan avval Sakkionda, so'ngra Yunonistonda hamma bolalarga rasm chizishni o'rgatish lozimligi belgilab qo'yilgan. Boshlang'ich ta'lim rasm chizishdan boshlanishi qayd qilingan edi"<sup>1</sup>.

Uyg'onish davrida Italiya tasviriy san'ati va uni o'qitish metodi katta rol o'ynagan. Bu davrda rasm chizish umumiy ta'lim beradigan o'quv predmetlari qatoriga kiritildi. Mashhur rassomlardan Chennino Chennini, Leon Batista Alberti, Leonardo da Vinchilar bu borada e'tiborga loyiq ishlarni amalga oshirganlar. Ularning asarlarida fan va san'at o'rtasidagi aloqalar, proporsiya, perspektiva, anatomiya masalalari asosiy o'rinni egalladi. Ularning fikrlariga ko'ra naturaga qarab rasm ishlash o'qitishning asosini tashkil etishi lozim hisoblangan.

Ayniqsa, Leonardo da Vinchi tasviriy san'atni o'qitish metodikasi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. U o'zining, "Rangshunoslik," nomli kitobida rassomlikni jiddiy ilmiy fan sohasi deb qaraydi. U ko'p yillar davomida anatomiya, rang, kishi a'zolari o'rtasidagi mutanosiblik qonuniyatlarini ishlab chiqqan.

---

<sup>1</sup><https://ares.uz/storage/app/uploads/public/629/b97/0f4/629b970f4a-14b537506989.pdf>

Tasviriy san'atni o'qitishni takomillashtirishda Uyg'ornish davrining nemis rassomlaridan A. Dyurening xizmatlari katta bo'ldi. U birinchi bo'lib rasm ishlashni yengillashtirish uchun geometrik metodni o'ylab topdi<sup>1</sup>.



**2-rasm. A. Dyurer. Apparat yordamida perspektivada tasvirlash.**

Uning fikricha, har qanday buyum, narsalar asosida geometrik jism shakli yotadi. Shuning uchun u yoki bu narsalarni tasvirlashda avval geometrik jism shaklini chizib olinishi lozim, keyin ular umumlashtirilib, haqiqiy tasvir hosil qilinadi. Keyinchalik uning bu metodi Ash-be, Chistyakov kabilarning pedagogik faoliyatlarida keng qo'llanila boshlangan. Hozirgi kunlarda ham bu metod o'z kuchini yo'qotganicha yo'q<sup>2</sup>.

XVII-XIX asrlarda G'arbiy Yevropa. Keyinchalik Baloni akademiyasi ta'sirida Parijda, Venada, Berlinda, Madridda, Peterburgda, Londonda ana shunday akademiyalar ochildi.

<sup>1</sup> Альберти Л. Три книги о живописи. М., 1933. стр. 40

<sup>2</sup><https://ares.uz/storage/app/uploads/public/629/b97/0f4/629b970f4a-14b537506989.pdf>

Tasviriy san'atni hamma umumiy ta'lim maktablarida o'qitilishining foydali ekanligi buyuk chech pedagogi Ya. A. Komenskiy tomonidan uning "Buyuk didaktika" asarida rivojlantirildi.

Umumiy ta'lim tizimida rasm ishlashni takomillashtirishda fransuz olimi J. J. Russoning fikrlari diqqatga sazovordir. U o'zining "Емил или воспитание" nomli kitobida borliqni bilishda naturaga qarab rasm ishlashning ahamiyati katta ekanligini isbotlab bergan. Uning fikricha rasm chizishni ko'proq tabiat qo'ynida amalga oshirish samaralidir. Chunki, bolalar tabiat qo'ynida narsalami haqiqiy rangi, perspektiv qisqarishlarini ko'rgazmali ravishda o'z ko'zlari bilan ko'radilar, uning qonunlarini ongli ravishda tushunib yetadilar.

Yevropa pedagoglari orasida rasm chizishni umumiy ta'lim maktablarida alohida o'quv predmeti sifatida o'qitilishi va uni takomillashtirishda I. V. Gyote (Germaniya), I. G. Pestalotssi, I. Shmidt va P. Shmidt (Shvetsariya), A. Dyupyui va F. Dyupyuilar (Fransiya) katta hissa qo'shdilar. Umumiy ta'lim maktablarida rasm ishlashda natural metoddan ko'ra geometrik metodlarni afzalliklarini N. Pestalotssi, P. Shmidt va I. Shmidt kabi pedagoglar yoqlab chiqdilar. Natijada, maktablarda rasm chizishga o'rgatishda ikkita qarama-qarshi natural va geometrik metodga asoslangan ikki oqim paydo bo'ldi. Naturaga asoslangan rasm chizishni ustunliklarini Ya. A. Komenskiy, J. J. Russo, I. V. Gyotelar yoqlagan boisalar, geometrik metodni ko'proq I. G. Pestalotssi, I. Shmidt va P. Shmidt, F. Dyupyuilar asoslashga harakat qildilar.

Lekin XIX asming ikkinchi yarmidan geometrik metod Yevropaning ko'p mamlakatlarida qo'llanila boshlandi. Shunday qilib, XIX asr o'rtalariga kelib, Yevropada rasm


chizish fan tarzida umumiy ta'lim maktablarida o'qitilishi ancha rivoj topdi. Bu sohada rassom va muallimlardan tashqari san'atshunoslar, pedagog, psixologlar, shifokorlar shug'ullana boshladilar. Rasm chizishni o'qitish metodologiyasiga doir bir qator adabiyotlar nashr etila boshlandi. Bu borada Kulman, Prang, Eisner, Baumgml, Ausberg, Braunshvig, Tedd kabilar jonbozlik ko'rsatdilar. Bular tomonidan yaratilgan adabiyotlarda rasm chizish qoidalari, uning metodikasida qarama-qarshi fikrlar bo'lsa-da, biroq natural metod borasida bunday qarama-qarshi fikrlar ro'y bermadi<sup>1</sup>.

### **XVIII-XIX asrlarda G'arbiy Yevropada rasm chizishni o'rgatish metodikasiga bo'lgan turli qarashlar.**



Rasm chizish Rossiya maktablarida umumiy ta'lim o'quv predmeti sifatida XVIII asming boshlarida paydo bo'ldi. Bu davrda rasm chizish fani Dengiz akademiyasi, Xirurgiya maktabi va Kadetlar maktabida, fanlar akademiyasi qoshidagi Gimnaziya, qizlar tarbiya bilim yurtida o'qitilgan. Bu o'quv yurtlarida rasm chizishga o'rgatish rassomlar tayyorlash uchun emas, balki yoshlarni kasbiy faoliyati va kelajak hayotlarida foydalanishlari uchun kerak bo'ladigan soha deb qaralar edi.

1934-yilda rus rassomi A. Sapojnikov birinchi bor umumiy ta'lim maktablari uchun "Rasm chizish kursi" nomli darslikni yaratdi. Mazkur darslik naturaga qarab rasm chizishga asoslangan edi. Darslik realistik rasm ish-

<sup>1</sup> S. E. ABDIRASILOV "TASVIRIY SAN'AT O'QITISH METODIKASI" (O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan «5141600 - Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish» bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan) TOSHKENT-2012. 23-bet.



lash asosida qurilgan bo'lib, unda perspektiva, yomg'-soya qonunlari ham o'z aksini topgan edi. Shu bilan bir qatorda Sapojnikov sim, karton, gips kabi materiallardan narsalar tuzilishi, perspektiv qisqarishi, hajmiga doir metodik ko'rgazmali qurollar majmuasini ham yaratdi. Muallifning tavsiyalariga ko'ra har qanday natura asosiga turli hajmli va yuzali geometrik shakllar yotishi, shuning uchun ham rasm chizishda geometrik metoddan foydalanish maqsadga muvofiqligi bayon etilgan.



3-rasm. I. D. Preysler qo'llanmasi.

Rossiyada tasviriy san'atni umumiy ta'lim maktablarida o'qitilishiga doir yirik fundamental asar yaratganlardan biri G. A. Gippius bo'ldi. Uning "Очерки теории рисования как общего учебного предмета" nomli asarida o'sha davrdagi rasm chizishga o'rgatishdagi eng ilg'or g'oyalar o'z aksini topgan edi. Rossiya maktablarida

rasm chizish ommaviy tarzda o'qila boshlangach rassom-o'qituvchilarning yetishmasligi muammosi paydo bo'ladi.

Maxsus o'qituvchilar tayyoriash maqsadida 1825-yilda Moskvada va 1879-yildan esa Sank-Peterburg badiiy akademiyasi qoshida rasm o'qituvchilari tayyorlovchi kurs ochildi. Bu kurslar uchun dastur, metodik materiallar tayyorlashda badiiy akademiya professori P. Chistyakov faoliyat ko'rsatdi. Bu davrda tuzilgan dastur va qo'llanmalarda A. Sapojnikovning geometrik ko'chirish metodlari amaliyotdan chiqarilib, maktabda rasm darsi faqat natural metod asosida rasm ishlashdan iborat ekanligi qayd qilindi.



V.E.Savinsky.  
Qalamtasvir.

Rus sovet badiiy ta'limining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatganlardan biri D. N. Kardovskiy edi. Bu badiiy ta'lim tizimi realistlik san'at prinsiplariga asoslangan bo'lib, D. N. Kardovskiyning tashabbusi va sa'y-harakati bilan 1942-yili Moskva pedagogika instituti qoshida badiiy-grafika fakulteti ochildi. D.Kardovskiy. Rasm chizish qo'llanmasidan. Rossiyada rasm chizish metodikasini takomillashtirishda

1933-yilda tashkil topgan "Bolalar badiiy tarbiyasi markaziy uylari" muhim ahamiyat kasb etdi. Bu markaz faoliyati bilan bog'liq holda P. Ya. Pavlinovning "Графическая грамота", N. Radlovning "Рисование с натуры", "Сборник заданий по рисованию", Ya. Bashilov va E. Kondaxchanlarning "Детский рисунок" va boshqa qo'llanmalari chop etildi.

Rossiyada, shuningdek, sobiq Respublikalarda rasm chizishni rivojlanishida 1943-yilda tashkil topgan Rossiya pedagogika fanlari akademiyasi katta rol o'ynadi.

Keyinchalik bu akademiya asosida 1967-yilda sobiq pedagogika fanlari Akademiyasi tashkil topib, uning tarkibida badiiy tarbiya ilmiy tadqiqot instituti ochildi. Bu institut umumiy o'rta ta'lim maktablarida estetik tarbiyaga doir ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borishda asosiy markaz bo'lib qoldi. Bu borada Rossiya Maorif vazirligi tasarrufida tashkil etilgan maktablar ilmiy tadqiqot instituti va uning tasviriy san'atni o'qitishga oid laboratoriyasi diqqatga sazovor ishlarni olib bordi.


Rossiyada ikkinchi jahon urushidan so'ng samarali faoliyat ko'rsatganlardan biri E. Kondaxchan edi. U o'zining "Методика преподавания рисунка в средней школе" nomli qo'llanmasida bu boradagi ilg'or tajribalarga asoslanib realistik san'at va rasm chizishga o'rgatishning asosini naturaga qarab rasm ishlash egallashi lozim deb yozdi. U Rossiyada 1925-50-yillarda keng tashviqot qilib kelingan Bakushinskiyning "Erkin tarbiya" nazariyasiga qarshi chiqib, ta'lim va tarbiyada o'qituvchining katta rahbarlik faoliyatini qattiq turib himoya qildi. U "Erkin tarbiya" nazariyasi o'qituvchi rolini kamaytiruvchi va o'qitishda tartibsizlikni vujudga keltiruvchi "metod" deb o'z g'oyalarini asoslashga harakat qildi.<sup>1</sup>

XX asming ikkinchi yarmida Tasviriy san'at metodikasiga doir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Natijada, rasm chizish bo'yicha 1963-70-yillarda I-VI sinflar

<sup>1</sup> S. F. ABDIRASILOV "TASVIRIY SAN'AT O'QITISH METODIKASI" (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan «5141600 - Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish» bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan) TOSHKENT-2012. 23-26-betlar.

uchun sinov darsliklari tayyorlanib, nashr etildi. Bu darsliklar V. V. Kolokolnikov (1 va 2-sinflar), S. A. Fyodrov, M. N. Semyonova (3 va 4-sinflar), E. E. Rojkova, E. L. Xersonskaya (5-sinf), L.L.Makoed (6-sinf)lar muallifligida tayyorlandi.

Rossiya maktablarida ta'lim mazmunini islox qilish borasida hukumat qarorlari asosida rasm chizish o'quv predmetini maqsad va vazifalari va ta'lim mazmuni bir necha bor qayta ko'rib chiqildi. Natijada, 1970-yilda "Рисование" o'quv predmetining nomi "Tasviriy san'at" deb o'zgartirildi. Bu nomda tayyorlangan dasturda estetik tarbiya vazifalari hamda rassomlar asarlarini o'rganilishiga doir qismlar kengaytirilgan edi.



Rossiyada XX asrning ikkinchi yarmida "Tasviriy san'at" o'quv predmetini o'qitilishini yaxshilashda bir qator pedagog olim va metodistlar faollik ko'rsatdilar. Natijada "Tasviriy san'at" darsliklaridan tashqari ko'plab ilmiy-metodik va metodik adabiyotlar nashr etildi.

Bunda G. V. Labunskaya, V. V. Alekseeva, V. S. Sherbakov, A. G. Shimanskaya, A. V. Karlson, G. I. Orlovskiy, R. I. Korguzalova, A. S. Brajnikova, N. N. Rostovtsev, V. S. Kuzin, E. V. Shoroxov, T. Ya. Shpikalova, B. P. Yusov kabilar samarali mehnat qildilar<sup>1</sup>.

Rossiyada tasviriy san'atni o'qitishning psixologik asoslari haqida ham ilmiy tadqiqotlari olib borilib, bu haqda bir qator adabiyotlar nashr etildi.

Rossiyada 1970-yillarga kelib, umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitish mazmunini to'g'ri belgilash va uni takomillashtirish borasida bir qator olim va rassomlar guruhi paydo bo'ldi. Bulardan biri badiiy tarbiya ilmiy tadqiqot instituti tasviriy san'at laboratoriyasining mudiri, professor B. P. Yusov, ikkinchisi Rossiya maktablar ilmiy tadqiqot institutining tasviriy san'at laboratoriyasining mudiri, professor V. S. Kuzin, uchinchisi sobiq Ittifoq rassomlar Uyushmasining kotibi, uyushma qoshidagi estetik tarbiya komissiyasining raisi rassom B. M. Nemenskiy edi.

Ular mustaqil ravishda alohida-alohida olim va metodistlar guruhini tashkil etib, tasviriy san'atdan sinov dasturlarini yaratdilar. Birinchi va uchinchi guruh olimlari tomonidan tuzilgan dastur "Tasviriy san'at va badiiy mehnat" deb nomlanib, u I-X sinflarda o'qitish uchun mo'ljallangan edi. B. P. Yusov rahbarligida tuzilgan dastur har bir sinfdan bu o'quv predmetini ikki soatdan o'qitilishini nazarda tutgan edi.

V. S. Kuzin rahbarligida tuzilgan dastur esa 1-7-sinflarda haftasiga 1 soatga mo'ljallangan edi. Bu dasturlar 1985-yillarga qadar sobiq ittifoqining o'ndan ortiq mak-

<sup>1</sup><https://ares.uz/storage/app/uploads/public/629/b97/0f4/629b-970f4a14b537506989.pdf>

tablarida sinovdan o'tkazildi. Bu dasturlar katta ijobiy natijalar berganligiga qaramasdan amaliyotga joriy etilmadi. Biroq, undagi ayrim ilg'or g'oyalar yangi tuzilgan dasturlarda o'z ifodasini topdi.

Rossiyada 1970-2000-yillar davomida olib borilgan ishlar mazmuni turli-tuman bo'ldi. U estetik va badiiy tarbiyaga doir halqaro, federatsiya miqyosida ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazish, ilmiy-metodik to'plamlar naslir etish, o'quvchilarning ijodiy ko'rgazmalarini tashkil etish yo'nalishlarida amalga oshirildi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> S. F. ABDIRASILOV "TASVIRIY SAN'AT O'QITISH METODIKASI" (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan «5141600 - Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish» bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan) TOSHKENT-2012. 26-29-betlar.

### III BOB O'RTA OSIYO VA O'ZBEKISTONDA TASVIRIY SAN'ATNING O'QITILISHI

#### O'rta Osiyoda tasviriy san'atning o'qitilishi

Ma'lumki, rasm chizish barcha jahon xalqlari hayotida juda qadimdan shakllanib, u san'at hamda madaniyatning eng mukammal va doimiy mashg'uloti hisoblangan. Shu boisdan ham juda qadimdan bu mashg'ulotni rivojlantirish va takomillashtirish barcha xalqlarda sistemali amalga oshirib kelingan. Bizgacha yetib kelgan eng qadimgi qoyatosh rasmlari odamlar rasm chizish bilan ibtidoiy jamoa davrining paleolit yoki qadimgi tosh asridanoq shug'ullana boshlaganligidan dalolat beradi. Fransiya, Ispaniya, Old Osiyo, O'rta Osiyodan 5–10 ming yillik rasmlar topilgan, ularning yaratilganiga 5–10 ming yillarcha bo'lgan.

Ma'lumki, eramizdan avvalgi 3 minginchi yillarda odamlar mis, qalay, qo'rg'oshin va ruxni eritib, undan bronza olishgan. Bronzadan yasalgan buyumlar juda chiroyli qilib bezatilgan. Bu davrda ishlangan buyumlardagi rasmlar odamlar rasm chizish bilan jiddiy shug'ullanganliklaridan dalolat beradi.

Tarixdan ma'lumki, jamiyat taraqqiyoti Sharq mam-lakatlarida, jumladan, Misrda ancha tez va ancha oldin-roq boshlangan. Qadimgi Misrda grafika va rasm chizish san'atning bir tori sifatida shakllanib, juda erta taraqqiyot yo'liga chiqib oldi. Qadimgi Misrda tasviriy san'at, adabiyot va me'morchilik kuchli taraqqiy etdi. Bu yerda rasm chizish, grafika ishlari avloddan avlodga o'tib keldi. Keyinchalik esa bu sohada kichik maktablar tashkil etila boshlandi.

Haqiqiy rasm chizish maktablari eng avval Misrda, so'ngra Hindistonda va Xitoyda tashkil etildi. Bu maktablarda asosan yer o'lchash, yo'l, kanal va binolar qurish rejasini tuzish, chizmalar chizish, buyumlarga badiiy bezaklar ishlash o'rgatilar edi. Qadimgi Misrda belgi-yozuvlar (ierogliflar)ning yaratilishi tasviriy san'atning yanada tez rivojlanishiga imkon beradi (eramizdan avvalgi IV–III ming yillik). Chunki, bu belgi-yozuvlarda bir buyumning nomini anglatish uchun har biriga alohida- alohida rasm ishlanishi kerak edi.

Shuning uchun Qadimgi Misr maktablarida rasm chizish har bir kishini doimiy mashg'uloti bo'lgan. Maktablarda ham eng ko'p mashg'ulot rasm chizishga ajratilgan.

Qadimgi Yunonistonda ham rasm chizish maktablari juda erta tashkil topgan va asosiy e'tibor tabiatni chiroyli qilib tasvirlashga qaratilgan. Rasmlar simmetriya, matematik hisob, nisbatlar nazariyasi asosida chizilgan. Qadimgi Yunonistonda Sikion, Efess, Fivan kabi rasm maktablari shuhrat qozongan bo'lib, ularning har biri o'ziga xos yo'nalishda va uslublarda faoliyat ko'rsatar edi. Ulardan ayrimlari naturalizm uslubida ishlasa, boshqalari badiiylilik, ya'ni rasmni iloji boricha nafis, nozik qilib ishlash uslubida ijod qilgan. Bu maktablardan Pamfil, Melantiy, Pavziy, Appelass kabi mashhur 1870-yili esa Rus Badiiy akademiyasi qoshida rasm o'qituvchisi tayyorlaydigan kurs tashkil etildi.

XX asr boshlarida Peterburg, Moskva, Qozon, Odessa, Penzada rasm o'qituvchilari tayyorlaydigan bir qator bilim yurtlari ochiladi. Rus Badiiy akademiyasi qoshida rasmni o'qitish metodikasi bo'yicha maxsus komissiya ish boshlaydi. Bu komissiya tarkibida N. Ge, I. Kramskoy, P. Chistyakov kabi yetuk rassomlar faoliyat olib boradilar.

Sho'rolar davrida 1921-yildan rasm darsi o'quv predmeti sifatida o'rta umumta'lim maktablari o'quv rejasiga kiritildi. O'rta maktablar uchun 1921-yildan boshlab rasm darsi uchun dasturlar yaratila boshlandi. Maktabda rasm fanining o'qitilishi bo'yicha Kardovskiy, Rojkova, Pomicheva, Rostovsev, Shoroxov, Kuzin kabi rassom-pedagoglar shug'ullanib keldilar. XX asr boshlaridan AQSH, Italiya, Germaniyada ham o'rta umumta'lim maktablarida rasm fanining o'qitilishi yo'lga qo'yildi. Ular uchun o'quv-metodik qo'llanmalar, darsliklar, dasturlar yaratildi va takomillashtirib kelindi. O'tgan asrning 50-60-yillarida jahonning juda ko'p mamlakatlarida tasviriy san'atning o'qitilishi bo'yicha ko'plab amaliy ishlar qilindi. Chunonchi, 1955-yilda Lunda (Shvetsiya), 1958-yilda Bazella (Shvetsiya) 1960-yilda Maniles (Filippin), 1966-yilda Chexoslovakiya, 1972-yilda Germaniya, 1982-yilda Chexoslovakiya kabi mamlakatlarda halqaro simpoziumlar o'tkazilib kelindi<sup>1</sup>.

### **O'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitilishiga doir dastlabki ma'lumotlar**

Tadqiqotchilarning fikricha, mamlakatimiz hududlarida bundan million yillarcha muqaddam ham ajdodlarimizning yashaganligi haqida ma'lumotlar bor. Shuningdek, O'zbekiston hududida bundan qariyb 5-10 ming yillarcha muqaddam odamlar ishlagan rasmlar, buyumlar ko'plab topilgan. Sarmishsoy, Zarautsoy, Qoratepa, Oltintepa, Chust, Dalvarzin, Kaltaminor kabi manzilgohtardan topilgan eng qadimiy suratlar va buyumlar ajdodlarimizning san'at

<sup>1</sup> B.N.ORIPOV "TASVIRIY SAN'AT VA UNI O'QITISH METODIKASI" (Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma 2-nashri), "ILM ZIYO" TOSHKENT - 2012. 124-126-bet

vamadaniyati yaxshi rivojlanganligidan dalolat beradi. Qoyalarga o'yib yoki turli tabiiy bo'yoqlarda ishlangan rasm-suratlar ham ajdodlarimizning juda qadimdan rasm chizish bilan shug'ullanib kelganligini bildiradi.

Eramizdan avvalgi 1-ming yillik boshlarida O'zbekiston hududida dastlabki quldorlik davlatlari paydo bo'la boshlaydi. Bu "Katta Xorazm" davlati bo'lib, unda zardushtiyluk dini shakllanadi. Bu dinning paydo bo'lishi tasviriy san'atning rivojlanishiga imkon yaratdi. Chunki bu din tasviriy san'atni taqiqlamadi. Shu davrda qurilgan ibodatxona-yu, ehromlar katta e'tibor bilan bezatilgan. Shunga ko'ra bu davrda tasviriy san'atning ko'plab tur va janrlari rivojlandi. Endi rasm chizish, grafika, haykaltaroshlik, amaliy san'at va me'morchilik bilan maxsus kishilar shug'ullana boshlaydilar. Ular dastlab o'z san'atlarini oila a'zolariga, keyinchalik iste'dodli bolalami shogirdlikka olib, ularga o'rgatganlar. Ulardan iste'dodli rassomlar, me'mor, amaliy san'at ustalari yetishib chiqqanlar. Xorazm, Farg'ona, Surxondaryodagi manbalardan bizgacha yetib kelgan san'at asarlarining namunalari bundan dalolat beradi. Chunonchi, "Jangchi Sak", "Afrodita", "Ritonlar" devoriy rasmlarini ta'kidlab o'tish joiz. O'rta asr boshlarida O'zbekistonda san'at va madaniyat beqiyos darajada rivojlana boshladi. Qadimgi Xorazm, Termiz, Samarqand, Farg'onada san'atning barcha turlari rivoj topdi. Fanning buyuk allomalari, Xorazmiy (787–850), Forobiy (870–950), Beruniy (973–1048), Ibn Sino (980–1037) kabi fan daholari, buyuk me'morlar yetishib chiqdilar. Ular me'morchilik san'atining monumental nazariy asosini yaratdilar.

Forobiy o'zining 10 tomlik "Me'morchilik muhandisligi" nomli asari bilan jahon me'morchiligi san'atida ulkan

meros qoldirdi. Sodiq Afshor (Navoiy zamondoshi) rasm chizishni nazariy jihatdan asoslagan va rasm chizish uslubi haqidagi “Qonun as Suvor” – “Rasm chizish qonuniyatlari” nomli asarini yozib, tasviriy san’at nazariyasi va amaliyoti ravnaqiga o‘z ulushini qo‘shdi. Shuningdek, Qozi Ahmadning “Xattotlar va musav- virlar” nomli asarida rasm chizish, chiroyli yozuv, xattotlik, rang va uning qo‘llanishi haqida ma’lumotlar bergan.

VII–VIII asrlardayoq o‘zbek fitii, san’ati, adabiyoti jahon san’ati va madaniyatining rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan. VIII asrdan boshlab O‘rta Osiyo hududiga arablar kirib kela boshladi. O‘zbekistonga arablarning kirib kelishi ming yillar mobaynida yaratilgan san’at, madaniyat, tabiiy fanlarning ilmiy asarlari yo‘q qilib tashlandi. Shuningdek, tasviriy san’atning portret, anamalistik, haykaltaroshlik kabi tur va janrlari taqiqlab qo‘yildi. Shu boisdan bu tur va janrlar 1000 yillarcha rivojlan- may keldi.

VIII–IX asrlarga kelib O‘zbekistonda (Samarqandda) qog‘oz ishlab chiqarila boshladi. Bu voqea O‘zbekistonda kitob grafikasi san’atining rivojlanishiga asos soldi.

Islom dini taqiqlashiga qaramay, ijodkor halqimiz san’atning hamma janrlarida ijod qilib keldilar. Tarixdan ma’lumki, Ibn Sino sulton Mahmud (shoh) G‘aznaviy saroyidan qochib ketadi. Uni qidirtirib, rassomlarga 40 dona rasm-portretni ishlashni buyuradi va 40 tomonga tarqattiradi. Bu shuni ko‘rsatadiki, rasm ishlash qanchalik taqiqlanishiga qaramay, portret janri yashirin rivojlanib kelgan. Buyuk Amur Temur hukmronlik qilgan davrda tasviriy san’atning hamma tur va janrlarining rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratib berildi. Natijada temuriylar davrida O‘zbekiston yana o‘zining qadimiy san’ati, fani va

madaniyatini qayta tikladi va misli ko‘rilmagan darajada rivoj topdi.

Bu davrda K. Behzod, M. Muzahhib, A. Buxoriy, M. Samarqandiy kabi musavvirlar unumli ijod qildilar. Hirotida Navoiy rahnamoligi va Behzod rahbarligida san‘at maktabi yaratildi.

XVIII–XIX asrlarda me‘morchilik va amaliy san‘at yuksalib boradi. Ayniqsa, naqqoshlik, ganch, yog‘och o‘ymakorligi yuksak darajada rivojlandi. Xiva, Buxoro, Samarqand va Qo‘qonda ayniqsa, me‘morchilikka katta ahamiyat berilib, bu shaharlarda ko‘plab me‘morchilik inshootlari qurila boshlandi. O‘zbekistonga Yevropa san‘atining kirib kelishi bilan ularga mahalliy aholining qiziqishi ortib bordi.

Sho‘rolar davrida O‘zbekiston maktablarida ham rasm fani o‘qitila boshlandi. 1918-yili Samarqandda, 1919-yili Toshkentda 1920-yili Andijonda rasm chizishni o‘rgatuvchi maxsus texnikum maktablar ochildi. 1927-yili Toshkentda, 1929-yili Samarqandda badiiy bilim yurtlari tashkil etildi. O‘rta umumta‘lim maktablari o‘quv rejasiga rasm o‘quv fani kiritildi. 1-3-sinflarda 8–12 soatgacha rasm darslari o‘qitildi. 30-yillarda rassom I. Ikromov tashabbusi bilan matbuot sahifalarida rasmni o‘qitish bo‘yicha metodik tavsiyalar berila boshlandi. “Maorif va o‘qituvchi”, “Alanga” jurnallari sahifalarida I. Ikromovning metodik tavsiyalari e‘lon qilindi. 1932-yilda uning “Rasmni o‘rganish”, 1935-yili “Harf yozishni o‘rgan” o‘quv qo‘llanmalari nashr etildi.

40-50-yillarda dasturga estetik tarbiya elementlari kiritildi. 1950-yildan Toshkentdagi Nizomiy nomli pedagogika institutida oliy ma‘lumotli rasm o‘qituvchisi tayyorlana boshlandi. 1966-yildan rasm fani “Tas-

viriy san'at" deb atala boshlandi. 1960-yildan mahalliy materiallar asosida, "Lokolizatsiya" usulida yangi dastur ishlab chiqarildi. Shu yillarda O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutida R. Hasanov tashabbusi bilan, "Estetika" sektori ish boshladi. 1972-yildan boshlab Buxoro pedagogika instituti qoshida "Badiiy grafika" fakulteti faoliyat ko'rsata boshladi. 1973-yildan Andijon, Qo'qon, Buxoro, Samarqand, Xiva, Shahrisabz, Angor, Xo'jayli, Kattaqo'rg'on kabi shaharlarda tasviriy san'at o'qituvchilari tayyorlaydigan bilim yurtlari ochildi.

70-80-yillarda O'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitish uslubiyoti bo'yicha R. Hasanov, M. Nabiyeu, B. Ori-pov, Q. Qosimov, A. Inog'omov, A. Jilsova, A. Isoxo'jayev kabi pedagog-rassomlar jiddiy shug'ullana boshladilar. Shu yillarda O'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitishga e'tibor yanada kuchaydi. Xalq ta'limi vaziri falsafa fanlari doktori, professor S. Shermuhamedov tashabbusi bilan 1972-86-yillar mobaynida har yili estetik tarbiyaga bag'ishlangan Respublika ilmiy-amaliy konferensiya va har ikki yilda 7 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan o'smirlarning tasviriy san'at bo'yicha respublika ko'rgazmasi o'tkazila boshlandi.

Respublikaning bir qator maktablarida tasviriy san'atning o'qitilishi bo'yicha ilmiy-pedagogik tajribalar joriy etildi. Bunda rang va uning qo'llanishi haqida ma'lumotlar bergan<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> B.N.ORIPOV "TASVIRIY SAN'AT VA UNI O'QITISH METODIKASI" (Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma 2-nashri) "ILM ZIYO" TOSHKENT - 2012. 128-132-betlar.

## IV BOB. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT TA'LIMI MASHG'ULOTLARINING MAZMUNI

### **Tasviriy san'at o'qituvchilarini o'quv-metodik majmualar bilan ta'minlanishi.**

Maktablarning yangicha o'qitishga o'tishi sharoitida umumiy ta'lim standartlari fanlariga estetik tsikl muhim o'rin beriladi. Hozirgi vaqtda umumiy badiiy ijodning vazifalari ta'lim va tarbiya fan sohasi subektlari tomonidan hal qilinadi. "San'at" (musiqa, tasviriy san'at, jahon san'ati madaniyat), bu uzluksizlik doirasida badiiy-estetik tarbiya tamoyilini "San'at" fanini o'qitish tushunchalari amalga oshirish imkonini beradi.

Butun o'quv yiliga mo'ljallangan tasviriy san'at dasturiga mavzuli tasvirli jadval tuzish. O'quv yilining har bir choragiga dars mavzularini metodik jihatdan to'g'ri taqsimot qilishni o'rganish.

*Dasturni o'rganib chiqish va rejalashtirish. Mavzularga oid ko'rsatmalar tayyorlash.*

Namunaviy dastur asosida tasviriy san'at darslarini rejalashtirish - eng murakkab ishlardan hisoblanib, u mavzularni tasvirii rejalashtirish dasturi deb nomlanadi. Ta'lim-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish oldidan dasturni chuqur o'rganib chiqish zarur. Dastur asosiy bajariladigan topshiriqlarni va mashqlarni ro'yxatini beradi, ta'limni o'qitish mazmunini, yil davomidagi tartib va ketma-ketligini har bir topshiriqlarga ajratilgan soat hajmini va bajarish materiallarini ko'rsatadi.

Sinfda har bir o'quvchi o'zlashtirish lozim bo'lgan bilim va malakalarni, o'quv choraklari va haftalarga taqsimlanishi kerak. Dastur ta'limni o'quv vazifalarining

murakkablashuvini metodik ketma-ketlikda ochib bersa ham, ammo o'qitishning birmuncha xususiy savollariga (muammolariga) taalluqli emas. Ma'lumki, pedagogik jarayon - ijodiy dars san'ati. Shuning uchun ham dastur ma'lum bir yo'nalishga umumiy harakatdir. Dasturda ta'limning asosiy yo'nalishi berilgan xolos, uni amalga oshirilishi, birmuncha xususiy savollarning javobini yechilishi - o'quv jarayonini tashkil qiluvchi o'qituvchining o'ziga bog'liq.

Ayrim bo'lg'usi o'qituvchi so'rashi mumkin, bajarishga imkoniyat bo'lmaydigan tavsiyanomalar berilgan bo'lsa dasturni qanday qilib bajarish mumkin. Masalan, tasviriy san'at asarlari haqida suhbat o'tkazish darslarida ma'lum asarlar reproduksiyalari tavsiya qilinadi, lekin ularni har doim ham kitob do'konlaridan xarid qila olmaysiz. Yoki qalamtasvir bo'limida natyurmort ma'lum bir narsalardan tuzilgan bo'lishi mumkin, lekin qishloq joylarda ular bo'lmasligi mumkin.

O'quv dasturlari aynan asliga muvofiq to'g'ridan - to'g'ri bajarilishini talab qilmayapti. U faqat qanday rassomlar bilan o'quvchilarni tanishtirish va qaysi asarlari musavvirlarni ijodiy tomonlarini yaqqolliroq ko'rsatib berayapti. Yetarlicha tushunarli, agarda o'qituvchi fondida ko'rsatilgan u yoki bu musavvirni asar reproduksiyasi bo'lmasa, unda u boshqa rassom asarlari bilan almashtirilishi mumkin. Natyurmortga kerakli bo'lgan buyumlar ham yo'q bo'lsa, narsalarning shaklini murakkablik darajasini hisobga olgan holda shakli shunga o'xshash buyumlar bilan o'zgartirish mumkin.

Maktabda shaxsiy ish rejasini tuzishda o'qituvchi har bir sinf uchun yillik ish rejasini ishlab chiqishi zarur. Bunday yillik ish rejasini yaxshisi tasvirli bajarish

maqsadga muvofiqdir. Ular ishlarni barcha kompleksini yaqqol tasvirlaydi. Maktabda chorakni so'nggi darslarini suhbat yoki narsani o'ziga qarab rasm ishlash bilan tugallaydi. Bunday tuzilgan rejalashtirishni muvaffaqiyatli deb hisoblab bo'lmaydi. Agarda rejalashtirishda chorakni so'nggi darsida mavzu asosida yoki bezakli rasm ishlash belgilangan bo'lsa, bolalarga shu ishni ta'til vaqtida bayram bilan bog'lab davom ettirish imkoniyatini yaratib bergan bo'lamiz.

Mavzularni - tasvirli rejalashtirish dasturi, yutuq va kamchiliklarni yaqqol ko'rsatib turadi. Bundan tashqari, tasvirli rejada o'quv qo'yilmalarni (postanovkalarni) xarakterlarini va ularni metodik yo'nalishlarini aks ettirish yengil bo'ladi.

Eng qulay yillik ish rejasi uni jadval tarzida tuzish, chunki uning kataklarida o'quv materiallari chorak bo'yicha va alohida darslar bo'yicha taqsimlanadi. Har bir katakda o'quv ishlarni turlari, darsning mavzusi va mazmuni yaqqol ko'rgazmali tasvirlanadi.

Tasvirli - mavzuli reja dasturi o'ziga xos jadval sifatida to'rtta qatordan iborat (o'quv chorakning soniga qarab) bo'lib, ularni har bir chorakdagi o'tkaziladigan darslarning soniga qarab yana bir necha qatorlarga bo'linadi. Bu qatorlar esa o'z navbatida kataklarga bo'linadi. Bular mavzular asosida tasvirlar bilan to'ldiriladi.

Tasviriy san'atdan dars mashg'ulot ishlanmalari psixologik-pedagogik, ilmiy-metodik o'quv adabiyotlarni chuqur o'rganish asosida va shu bilan birga o'rta maktabning tasviriy san'at dasturlari doirasida va o'quv qo'llanmalari orqali bajariladi.

*Dars mashg'ulot ishlanmasida quyidagilar bo'lishi shart:*

- darsning turi;
- darsning mavzusi;
- darsning tipi;
- darsning ta'limiy-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari;
- darsning tuzilishi (qurilishi);
- og'zaki takrorlash uchun savollar;
- o'quv materialini ketma- ketlik bayoni va uning hajmi;
- darsning tushuntirish va mustahkamlashga ajratilgan vaqti;
- ijodiy xarakterdagi mashqlarni sifati va bosqichlari;
- mustaqil ishlarni mazmuni va bajarish usullari;
- texnika vositasi va o'quv ko'rgazmali qurollardan foydalanishi.

Konspekt matnini so'ngida darsga tayyorgarlik ko'rishda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ko'rsatiladi (kitobning muallifi, nomi, nashr etilgan yili, nashriyoti va hajmi). Dars mashg'ulot ishlanmasi illyustratsiyali bo'lishi mumkin. Unda sinf taxtasidan, sxemalardan, bosqichma-bosqich bajarilgan tasvirlardan, o'quv-buyumlar namunalaridan, o'quvchilarni ijodiy ishlaridan va boshqalardan foydalanish nazarda tutiladi.

Dars mashg'ulot ishlanmasini yozishda iloji boricha qog'oz varoq'ini o'ng tomonida ko'proq joy qoldirish maqsadga muvofiqdir. Chunki dars muhokamasi vaqtida bildirilgan mulohazalar va takliflar bilan to'ldirishlar kiritish mumkin.

Dars mashg'ulot ishlanmasi tushunarli yozuv bilan yoziladi yoki yozuv mashinkasida bajariladi. Muqova va titil varaqasi kafedra tomonidan tasdiqlangan sxema bo'yicha jihozlanadi.

Har bir talaba o'z mutaxassisligi bo'yicha har bir darsni yuqori darajada o'gishi uchun dars rejasi va uning ishlanmasini yozishi shart. Shuning uchun talabalarga yordam (eslatma) tariqasida darsning mashg'ulot ishanmasi namunasini keltiramiz.

Har bir o'quvchining o'tkazgan amaliy mashg'ulot darslari va o'quv-tarbiya tadbirlari guruhda professor-o'qituvchi ishtirokida tahlil va muhokama qilinadi. Bu muhokama va tahlillar umumdidaktik va metodik tomonlarini birlashtirib amalga oshiriladi.

Tahlil jarayonida eng muhimi, o'quvchi o'zini o'qituvchi sifatida tasavvur qilib o'z ishini uddasidan qanchalik chiqa olishini to'g'ri baholay bilishidir. Bo'lg'usi kichik mutaxassislar amaliy mashg'ulotlarda tasviriy san'at darslarini o'quvchilar oldida mashq qilinishi, ularning malakali o'sishiga yordam beradi.

O'quvchilar tomonidan o'tilgan tasviriy san'at darsining yoki tarbiyaviy tadbirlarning guruh tahlili, odatda, o'zini-o'zi baholashdan, o'zining hisobotini tahlil qilishdan, darsdagi holati va pedagogik taktini baholashdan boshlanadi. Bunda bo'lajak ijodkor uchun juda zamr bo'lgan sifatlar shakllanadi.

O'tilgan darslarning tahlil qilinishi dars berishdan ham muhimroqdir. Chunki shu tahlildan keyin ular yana nimalar ustida ishlashi kerakligi yoki qanday muvaffaqiyatga erishganligi aniq va ravshan ko'rinadi. O'tilgan darslarni tahlil etish quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

1. Darsning ta'lim-tarbiyaviy va rivojiantirish maqsadlarini aniqligi va ahamiyati;
2. Darsga tayyorgarlik ko'rishda va uni amalga oshirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olinishi;

3. Ta'lim-tarbiya vazifalarining dars tuzilishiga mosligi;
4. Darsni bayon etishning ketma-ketligi va mantiqiyli-gi, dars berish nutqining talaffuzi, ritmi, ta'sirchanligi.
5. Yangi materialning tanlanganligi va bayon etilishi. Bilimlar hajmi, material mazmuni dasturiga, o'quvchilarn-ing bilim darajasiga mos kelishi va darslik talablariga mu-vofiqligi.
6. Bayon qilinayotgan materialning ilmiy va g'oyaviy yo'nalganligi, hayotlilikgi, tarbiyalovchilik xarakterdaligi.
7. O'quv materiallarni bayon qilishda, didaktik prin-siplarga amal qilinishi, darsning bosqichlari va davomiyligi.
8. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirilishi, dars bosqichlarida o'quvchilarning diqqat-e'tiborini saqlab turish usullari. Avval o'tgan mavzular bilan bog'liqligini ta'minlanganligi. Mavzuni idrok qilish va anglab olishlari uchun o'quvchilarni ijodiy ishga jalb qilinishi.
9. Dars o'tish metodlarining optimalligi (suhbat, ko'rgazma, amaliy induktiv va deduktiv, reproduktiv va izlanish, mustaqil ishlash metodlari, ta'limni sifatini nazo-rat qilish metodlari). Darsni bayon etish tizimi va ket-ma-ketligi, obrazlilikgi, tushunarlilikgi. O'quvchilarning old-iga muammoli savollar qo'yilishi, mantiqiy masalalarning shakllanishi.
10. Dars o'tish mobaynida ta'lim shakllarini optimal birligi (umumsinfli, guruhli, individual li) va individual yondashishni amalga oshirilishi.
11. Darsni o'tish vaziyatida turli ko'rgazmali qurol-lardan, axborot texnologiyalardan, sinf taxtasidan unumli foydalanganligi.
12. Mavzuni mustahkamlashga berilgan ijodiy mustaqil ishlarning yo'nalishlarini optimalligi.

13. O'quvchilarning darsdagi zulqi, darsga bo'lgan munosabati, faoliik darajasi, qiziqishi, intizomining ahvoli, intizom buzilishining sabablari.

14. Uy vazifalarining turlari va hajmi, ularni bajarish to'g'risida o'qituvchining metodik ko'rsatmalari, uy vazifalarining mazmunini o'quvchilarning tushunib olishlari, ba'zilarga qo'shimcha (individual) vazifalar berish.

15. O'tilgan darsga umumiy xulosa yasash<sup>1</sup>.

### **Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at ta'limining maqsad va vazifalari, mashg'ulotlarining mazmuni**

“Tasviriy san'at” o'quv predmeti ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan badiiy madaniyatni uyg'un rivojlanishga xizmat qiladi va shaxs uchun muhim bo'lgan qator sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa o'quvchilarni milliy merosni o'zlashtirish hamda umuminsoniy qadriyatlar bilan yaqindan tanishishlari uchun imkoniyat yaratadi.

Binobarin, davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi degan so'zlarining zamirida keng ma'no mujassamdir. Shunday ekan san'at xususan tasviriy san'atni o'rganar ekanmiz, biz avvalo tasviriy san'atning maqsad vazifalari hamda tasviriy san'at va uning mohiyati, tur va janrlari haqida bilmog'imiz lozim. Ushbu Maqolada ham bu haqida fikr yuritamiz.

Tasviriy san'at va uning mohiyati, tur va janrlari  
Tasviriy san'at - eng qadimiy va keng tarqalgan san'at

---

<sup>1</sup> B.N.ORIPOV "TASVIRIY SAN'AT VA UNI O'QITISH METODIKASI" (Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma 2-nashri) "ILM ZIYO" TOSHKENT - 2012, 146-155-betlar

turlaridan biridir. Aslida san'atning turlari juda ko'p. Ular badiiy adabiyot, musiqa, tasviriy san'at, teatr, kino, xoreografiya, me'morchilik, amaliy bezak kabi boshqa san'at turlari ham mavjuddir. Odatda, haqqoniy borliqni tasviriy obrazlarda, shakllarda fazoviy kenglikda yoki tekislikda (qog'oz yuzasida) aks ettiradigan san'at tasviriy san'at deb ataladi. Tasviriy san'at tushunchasi keng ma'noga ega.

XIX asrgacha me'morchilik, haykaltaroshlik va rangtasvir tasviriy san'atning turlari bo'lib hisoblangan. Asrning oxirlarida esa grafika tasviriy san'atning eng muhim va hozirjavob turlaridan biriga aylandi. So'nggi 20 yil ichida san'atning dizayn kabi turi ham o'z o'rnini topdi. Tasviriy san'atning hamma turiari bir-biriga juda yaqin va ularning bir qator o'xshashliklari bor. Lekin har birining o'ziga xos tasvirlash uslublari va texnikasi mavjud. Bundan tashqari, ularning har biri ishlatilish o'rni, tasvirlaydigan mavzusi, ishlanish uslubiga qarab bir qator turlarga va janrlarga bo'linadi<sup>1</sup>.

**Rangtasvir** deb tekis yuzada turli rang va materiallar yordamida bajariladigan tasvirga aytiladi. Unga asosan bo'yoqlar - moyli bo'yoq, akvarel, guash, tempera shuningdek, rangli qalamlar, ko'mir, qalam, pastel, sous, sangina kabi badiiy materiallar bilan ishlash xarakterlidir.



<sup>1</sup><https://cyberleninka.ru/article/n/tasviriy-san-at-va-uning-mohiyati-tur-va-janrlari>



*6-rasm. Rangtasvir asarlari.*

Rangtasvir asarlari qog'oz, mato, karton, devor, oyna, yog'och kabi tekis yuzalarga ishlanadi. Rangtasvir asosini rasm tashkil etadi. Har qanday rangtasvir ishda avval uni rasmi ishlab olinadi. Unda kompozitsiya, yorug'-soya, rang asosiy o'rinni egallaydi. Rangtasvir asarlari bajarilishi texnikasi jihatdan turli-tuman bo'ladi. Ular moybo'yoq, tempera, freska, mozaika, vitraj, akvarel, guash, pastel hisoblanadilar.

Rangtasvirning quyidagi turlari mavjud: 1. Dastgohli rangtasvir. 2. Monumental rangtasvir. 3. Miniatyura rangtasviri. 4. Dekorativ rangtasvir. 5. Teatrd dekorativ rangtasviri.

**Dastgohli rangtasvir** deganda rassomlarning maxsus asbob-dastgoh (molbert) yordamida ishlaydigan suvratlari tushuniladi. Dastgohli rangtasvir asarlari uncha katta bo'lmagan o'lchovda yuqorida qayd qilib o'tilganidek mato, karton, oyna, faner kabi tekis yuzali materiallarga

moybo'yoq, akvarel, guash, tempera bo'yoqlari bilan ishlanadi. Bunda ko'pincha moybo'yoq qo'llaniladi.

**Monumental rangtasvir** atamasi monumental (maxobatli), ya'ni katta o'lchovdagi, rangtasvir ma'nosini anglatadi va u ko'pincha binolarning ichki va tashqi devorlariga tempera bo'yoqlari bilan ishlanadi.

Monumental rangtasvir asarlarining freska, mozaika, vitraj, panno kabi turlari mavjud.

**Freskalar** asosan bino devorlariga, pannolar esa matolarga bo'yoqlar bilan ishlanadi.

**Mozaika**- turli tabiiy va tashlandiq materiallar-rangli oyna parchalari, toshlar, sintetik materiallardan bino devorlariga yoki tekis materiallar ustiga ishlanadi.

**Vitraj** esa binolarning derazalari, eshiklari, oynalari ustiga bo'yoqlar yordamida ishlanadi. Vitrajlar uy ichkarisi va tashqarisidan ham bir xil ko'rinadi.

**Miniatyura** (mo'jaz) rangtasviri deganda bejirim, juda kichik, jaji, nozik san'at asarlari tushuniladi. Miniatyura rangtasviri o'rta asrlarda kitob bezagi bilan bog'liq holda rivoj topdi. U kitoblardagi bosh, yakuniy bezak, zarxal xarf, illyustratsiyalardan iborat bo'lgan. Rangtasvirning bu turi Sharqda, shu qatori Movaraunnahrda katta shuhrat qozondi. Hozirda u mustaqil san'at turi sifatida nafaqat kitoblarni, balki quticha, nosqovoq kabilarni bezatishda ham qo'llanilmoqda. Shuningdek, u katta bo'lmagan o'lchovda mustaqil san'at asari sifatida ham tayyorlanmoqda.

Dekorativ rangtasvir asarlari mustaqil amaliy ahamiyat kasb etib, u binolarni ichki va tashqi devorlarni bezatishda qo'llaniladi. Ular panno shaktida shuningdek, quticha, padnis, sandiq, shkaflarni bezatishda qo'l keladi. Bino ichini bezatishga xizmat qiladigan naqshlar, frizlar, namoyon kabi mayda elementlar ham dekorativ rangtasvirga kiradi.

**Teatr bezagi** o'z ichiga spektakl dekoratsiyalari, unda ishlatiladigan grim, butaforlar bilan bog'liq. Ular teatr rassomi tomonidan tayyorlanib, spektakl mazmunini tomoshabin tomonidan keng va chuqurroq anglab etishga yordam beradi. Bu bezaklarda rassomlar sahnadagi yorug'lantirish va ranglarni xisobga olib tasvirlaydilar. Spektakl bezaklari voqea sodir bo'layotgan joy, davr, muxit yuzasidan tomoshabin tasavvurlarini kuchaytiradi, uni idrok etishni osonlashtiradi va faollashtiradi.

Tasviriy san'at nazariyasi va amaliyotida akademik rangtasvir iborasi ham ishlatiladi. Akademik rangtasvir asosan o'quv jarayonida foydalaniladigan ko'rgazmali rangtasvir ishlarini nazarda tutadi.


**Haykaltaroshlik** rangtasvir kabi hayotiy voqea va xodisalarni turli uslub va tasvirlash texnikasi va materiallar yordamida ifodalaydi. Haykaltaroshlikda tosh, metal, gips, yog'och, vosk (mo'm), sim kabi materiallar keng qo'llaniladi. Haykaltaroshlik asarlari kesish, yopishtirish, ulash va o'yish, quyish orqali bajariladi.

Haykallarni ikki turi mavjud bo'lib, birinchisi to'liq yumaloq haykallar ikkinchisi relefli haykallardir. Yumaloq haykallarni har tomondan ko'rishi mumkin bo'lsa, relefni faqat bir tomondan, ya'ni oldindan ko'riladi. Releflar tekislik ustiga ishlanib, qisman bo'rtib chiqqan bo'ladi.

Relefni ikki xili bo'ladi:

1. Barclefda tasvirning qalinligi yarmidan kam bo'rtib chiqqan bo'ladi.

2. Gorelefda esa tasvir uning qalinligining yarmidan ko'prog'i bo'rtib chiqqan bo'ladi.



7-rasm. Haykaltaroshlik.

Haykaltaroshlikda ma'lum miqdorda rang ham o'laniladi. So'nggi yillarda mo'm (vosk) haykallar ish-ty boshlandi. Bunda rangli mo'mlardan to'liq foydalanilmoqda. Haykallar shakl va mazmun jihatdan realistik, dekorativ va abstrakt yo'nalishlarda bo'ladi.

Realistik haykallarda odam, xayvon va boshqalar haqiqiy ko'rinishda tasvirlansa, dekorativ haykallarda ular stilizatsiyalashgan, ya'ni shakl, o'lchov, proportsiya va boshqa jihatdan ma'lum miqdorda o'zgartirilib ifodalanadi. Abstrakt haykallarda tasvirlanuvchilar shakl, mazmun, o'lchov va boshqa jihatlardan movxumlashtirilgan holda tasvirlanadi.

Haykaltaroshlar o'z faoliyatlarida quyidagi asboblardan foydalanadilar: maxsus dastgoh, bolg'a, stek, bolta, tsirkul, iskana va boshqalar. Iskanalarning to'g'ri burchakli, uchburchakli, trapetsiya burchakli, yoysimon chuqur shakl beruvchi turlari bo'ladi. Shuningdek, haykal loyi ustidagi ortitsia qismini tortib olish uchun qattiq simdan tayyorlangan doira, ellips, uchburchak, to'rtburchak,

trapetsiya shaklidagi sidirg'ichlar qo'llanilaadi. Shuni ham qayd qilish lozimki, iskanalar turli o'lchovda, tuzilishda va shaklda bo'ladilar

Haykaltaroshlikning dastgohli, monumental, yodgorlik (me'morial), dekorativ va monumental-dekorativ turlari mavjud.

**Dastgohli haykaltaroshlik** iborasi haykallarni maxsus asbob (dastgoh)ga o'rnatib ishlanganligidan kelib chiqqan. Bunday haykallar mustaqil amaliy ahamiyat kasb, ular jamoat binolari va uy-joylarning ichki qismi, shuningdek, istiroxat bog'lari, muzey va ko'rgazma zallari uchun mo'ljallab yaratiladi.

Dastgohli haykallarning xarakterli xususiyatlaridan yana biri, ularni tasvirlanayotgan narsalarni haqiqiy o'lchovida yoki undan kichik bo'lishligidir.

Dastgohli haykaltaroshlik asarlari yaqindan ko'rishga mo'ljallangan bo'lib, unda portret asosiy o'rni egallaydi. Kishilar obrazni kalla qismini o'zi tasvirlanganda uni byust deyiladi. Agarda uni bo'yi-basti bilan tasvirlansa uni figurali portret deb yuritiladi. Shuningdek, yarim figurali portretlar ham bo'ladi.

**Monumental haykaltaroshlik** iborasi monumental, ya'ni yirik, maxobatli haykal ma'nosini anglatadi. Ular maydon va ko'chalarga keng halq ommasi uchun mo'ljallab o'rnatiladi. Bunday haykallar tarixiy voqealar yoki alohida mashxur shaxslarni nomlarini abadiylashtirish maqsadida o'rnatiladi. Monumental haykallar uzoqdan ko'rishga mo'ljallangan bo'lib umumlashtirilgan tarzda atrof-muhit bilan bog'liq holda yaratiladi. Monumental haykaltaroshlikning ko'rinishlaridan biri monumental-dekorativ haykaltaroshlikdir. Ular monumental haykal-

taroshlik asarlari kabi keng halq ommasi uchun mo'ljallangan bo'lib ko'proq bezak vazifasini bajaradi.

Monumental-dekorativ haykallar ko'cha va maydonlarni, bino va istirohat bog'larini, fontanlarni bezatishda ishlatiladi.

Ular odam, hayvon, baliq, qush tasvirida aks ettiriladi. Bunday xaykallar yirik o'lchovda bo'lganligi sababli, ularni uzoqdan ko'rishga mo'ljallab yaratiladi. Bunday haykallarni umumiy o'lchovi va xajmi uning proportsiyalari aniq va ifodali qilib tevarak-atrof, tabiat va binolarga moslab va bog'lab ishlanadi.

Monumental-dekorativ haykallar mahobatli bo'lsada ular ham to'fiq xajmli va relefi qilib ishlanishi mumkin.

Plastik haykaltaroshlik-haykaltaroshlikning bir turi sifatida monumental haykallarda, yodgorlik haykallarda, shuningdek binolarning ichki va tashqi bezak ishlarida ishlatiladi. Ular o'lchov jihatdan mayda bo'lib, mustaqil amaliy ahamiyat ham kasb etadi. Maxsus loydan ishlanadigan kichik o'lchovdagi o'yinchoq haykalchalar ham plastik dekorativ haykallar hisoblanadi.

Uni mayda-plastika deb ham atashadi. O'zbekistonda haykaltaroshlikning bu turida usta kulollardan X. Raximova, U. Jo'raqulov, A. Muxtorov kabi halq kulol ustalari samarali mexnat qilganlar.

Dekorativ haykaltaroshlikning yana bir turi borki ular mayda o'lchovdagi metal, mramor, yog'och, suyak, chinni kabi materiallardan ishlanadi. Ular ham dekorativ, ham realistik tarzda ishlanishi mumkin. Bunday haykallar kitob javonlari, yozuv stollarini bezatadi.

**Grafika** "grafika" lotincha so'z bo'lib, "yozaman, rasm ishlayman" degan ma'noni bildiradi va tasviriy san'atning turlaridan biri hisoblanadi. Grafikaning turlaridan biri

gravyuradir. Gravyura frantsuzcha soʻz boʻlib, “kesish” maʼnosini bildiradi. Bunda rasmlar qattiq materiallarga chizish va kesish orqali bajariladi. Bu rasmlar avvalo metall, yogʻoch, linoleum, tosh kabi materiallarda ishlanib, keyin undan qogʻozga koʻp tirajda koʻchiriladi. Metallda tayyorlanadigan gravyurani ofort, yogʻochdagisini ksilografiya, lenoliumdagisini linogravyura, tosh orqali tayyorlanadiganini esa litografiya deb yuritiladi. Grafika asarlarining qoʻllanish sohalari beqiyos kengdir. Xususan, estamp, kitob illyustratsiyalari, plakat, pochta markalari, gazeta-jurnal bezaklari, karikaturalar, etiketka va upakovkalar, teatr va kino afishalari, yoʻl va tovar belgilari, tashkilot va muassasalarning ish blankalari shular jumlasidandir.



**8-rasm. Grafik rasm**

Kitob grafikasining vatani Sharq hisoblanib, XII asrlarda bu sohada sharq musavvirlaridan Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzaxxib, Muhammad Murod Samarqandiy, Sulton Muhammad, Qosim Ali, Abdullo kabilar katta

shuhrat qozongan bo'lsalar, XX asrda O'zbekistonda I. Ikromov, B. Kedrin, O. Osheyko, Q. Basharov, T. Muhamedov, M. Kriakidilar bu sohada Respublika va undan tashqarida ham mashhur bo'ldilar.

Grafikaning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri bu uning katta o'lchovda bo'lmasligi va buyoqlar sonining chegaralanganligi hisoblanadi. Shuning uchun ham grafika asarlarida faqat chiziq yoki to'q dog' ishtirok etadi. Ba'zan grafik tasvirlar rangli bo'ladi. San'atning bu turida ayrim grafika asarlari katta o'lchovda va ko'p nusxada tayyorlanadilar hamda ular katta tarbiyaviy vazifalarni bajaradilar. Bu plakatlardir. Grafika san'atida estamp katta o'rinni egallaydi. Estamp frantsuzcha so'z bo'lib, shtamlash ma'nosini bildiradi.

Estamp yaratish uchun avvalo tasvir maxsus asboblar bilan qattiq materialga (tosh, yog'och, linoleum) o'yish orqali tushiriladi. So'ngra o'yilgan material ustiga bo'yoq beriladi va undan qog'ozga tasvir olinadi.

Estampga shu narsa xarakterliki, gravyura bosmadan chiqanidan so'ng rassom unga ba'zi bir tuzatishlar kiritadi va asar tagiga rassom o'z imzosini qo'yadi.

Grafika texnikasining keng tarqalgan turlaridan biri illyustratsiya lardir. Qadimda tasviriy san'at kitob bilan bog'langan edi. O'rta asrlarda Sharq va G'arb mamlakatlarida yaratilgan kitoblarning deyarli ko'pchiligi naqshlar va rangli rasmlar bilan bezatilgan. Bu rasmlarda kitob mazmuni o'z aksini topar edi. Keyinchalik bosma kitoblar nashr etish ixtiro qilinganidan so'ng illyustratsiyalar kitoblarda yanada katta o'rin egallay boshladi. Illyustratsiyaning ahamiyati shundaki, birinchidan u kitobni bezakli, chiroyli va yoqimli bo'lishiga yordam bersa, ikkinchidan adabiy obrazlarni konkret jonli

bo'lishiga, o'quvchining yodida yaxshi saqlanib qolishiga yordam beradi.

Illyustratsiyani ishlashga kirishishdan avval rassom asarni yaxshilab o'rganib chiqishi bilan bir qatorda, asardagi voqea sodir bo'layotgan davrga doir materiallarni to'plashi, o'sha davr odamlarning madaniyati va turmushini, mamlakat tabiatini bilib olish kerak bo'ladi.

Karikaturalar ham grafikaning bir turi hisoblanadi. Unda hayotdagi ayrim salbiy hodisa va ko'rinishlar, shaxslar obrazi hajviy yoki hazil tarzda rasmlar orqali tasvirlanadi.

Grafikaning keng tarqalgan turlaridan yana biri reklama, afisha, etiketika, upakovka hisoblanadi. Gazeta, jurnal grafikasi ham shriftlar bilan bog'liq bo'lib, amaliyotida keng qo'llaniladi<sup>1</sup>.

**Tasviriy san'at** - rangtasvir, haykaltaroshlik, grafikani birlashtirgan nafis san'at turi; voqelikni uning osongina ilg'ab olinadigan fazoviy shakllarda ko'rgazmali obrazlarda aks ettiradi. Tasviriy san'at turlari o'z xususiyatlariga qarab real borlikni obyektiv mavjud sifatlari – hajm, rang, fazo, shuningdek, predmetning moddiy shakli va nurhavo muhiti, harakat va o'zgarishlari xissini yaratadi, bunda tasvirning hissiy konkretligidan illyuzionizimga o'tish mumkin.

Tasviriy san'at faqat ko'rish mumkin bo'lgan narsalarnigina tasvirlab qolmay, balki asarlarida hodisalarning vaqtinchalik rivoji, uning u yoki bu qismi (fabula), erkin hikoyanavislik, dinamik harakatlarni ham aks ettirib, dunyoni g'oyaviy o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Tasviriy san'at insonning ruhiy kiyofasini,

---

<sup>1</sup> R.Xayrov. Tasviriy san'at tarixi. 2020 yil. 115 bet, <https://ocau.uz/uz/vidy-iskusstva>

uning o'zgaralar bilan o'zaro munosabatlarini, tasviriy holatning psixologik va emotsional mazmunini ham yoritadi.

Ba'zan mavjud bo'lmagan, rassom tasavvurining mahsuli bo'lgan obrazlarni ham yuzaga keltiradi. Insoniyat tarixidagi turli davrlarni aks ettiradi. Davrning faqat hissiy holatigina emas, balki uning g'oyaviy mohiyati, siyosiy, falsafiy, estetik va etik g'oyalari ham tasviriy san'atning mazmuniga aylanadi.

Tasviriy san'at obrazlarining ko'rgazmaliligi rassomga hayotning muayyan hodisasiga o'z munosabatini yuksak darajada ifodalashiga imkon beradi; shu tufayli hayotni bilishning faol shakli sifatida jamiyatning ijtimoiy hayotida, ma'lum tizimning ommaviy ongini qaror topishida muhim rol o'ynaydi. Olamni bilishning shakllaridan biri sifatida ijtimoiy ongni shakllantiradi hamda halq orzuumidlarini ifodalash shakli sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy sharoitda umumgoyaviy kurashlarning bir bo'lagi sifatida namoyon bo'ladi.

Insoniyatning mehnat faoliyati, e'tiqodlari, diniy qarashlari zaminida tasviriy san'at paydo bo'lgan va rivojlangan. Qadimgi tosh asrining ilk bosqichidayoq inson o'z ehtiyoji uchun zarur bo'lgan buyumlarni yaratish, libos, turar joylar tayyorlash jarayonida qulaylik, maqsadga muvofiqlik tushunchalari rivojlanib, ritm, simmetriya hissi ortdi. Marxumlar bilan vidolashuv, dafn marosimlarida marxumlar qabriga turli buyumlar ko'yish odatlarida Tasviriy san'atning fazoviy fikr yuritish, fazoviylik, kenglik, olam tushuncha va tasavvurlari shakllanib bordi. Tosh, suyak, keyinchalik sopoldan ishlangan turli shakl va haykallarda, qoyatoshlarga, gor devorlariga chizilgan, rangda ishlangan rasmlarda ibtidoiy insonning

mehnat faoliyati, dunyo, borliq haqidagi o'yxayollari, o'zga dunyo to'g'risidagi tasavvurlari mujassamlashgan (qarang Ibtidoiy san'at).

Ijtimoiy jamoa tuzumining inqirozi hamda mehnat taqsimotining yuzaga kelishi, aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralishi Tasviriy san'at rivojida muhim o'rinni egallaydi. Tasviriy san'at inson faoliyatining ma'lum sohasiga aylanib davr ruhiyati, uning siyosiy, ma'naviy va nihoyat estetik qarashlarini aks ettiruvchi manbaga aylandi. Qadimgi Sharq mamlakatlarida, jumladan Qadimgi Misrda Tasviriy san'at insonning dunyo, borliq to'g'risidagi tushuncha va tasavvurlarini, xudolar darajasiga ko'tarilgan fir'avnlarni ulug'lash quroliga aylandi. Yunonistonda Tasviriy san'at jamiyatning erkin fuqarosiga qaratilgan va antik mifologiyaning g'oyalari plastik moddiylashtirilgan ko'rinishida kamol topdi, Qadimgi Rim realizmida murakkab inson jismi namoyon bo'ddi.

Insoniyat sivilizatsiyasining muhim o'choqlaridan hisoblangan O'rta Osiyo, uning ajralmas qismi O'zbekiston hududida ham Tasviriy san'at ijtimoiy hayotda muhim o'rin egallab, davr hamda inson tafakkuridagi nozik o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi. Zarautsoy rasmlari, Xorazm, Sug'd, Baqtriya mahobatli haykal va rangtasvirlari shuning dalilidir.

O'rta asrlar Tasviriy san'ati uslub jihatidan rang-barang, turlari keng va xilma-xil, bu davrda mahobatli haykaltaroshlikning nodir namunalari yuzaga keldi. Hindiston, Indoneziya, HindiXitoy o'lkalarida betakror haykaltaroshlik asarlari yaratildi. O'rta Sharq mamlakatlarida miniatyuraning o'ziga xos turi yaratilgan bo'lsa, O'rta asr Yevropa madaniyatida haykaltaroshlik va rassomlik diniy e'tiqod va dunyoqarashlar zaminida o'ziga

xos yo'nalish va, mazmun kashf etdi, ikona san'ati ravnaq topdi. Roman uslubi va gotika barpo etilgan me'moriy obidalarda san'atlar sintezining ajoyib namunalari yaratildi.

XIII-XVI asrlar Tasviriy san'atida dunyoviy mavzu va qarashlarning kuchayib borishi tasvirlarda borlikda mavjud shakl va ko'rinishlarning ortishi bilan belgilanadi. Shu harakat va taraqqiyotda Tasviriy san'atning qonun-qoidalarini ilmiy asosda o'rganishga qiziqish ortdi. Optika, anatomiya, perspektiva, nursoya nazariyasiga oid muhim tadqiqotlar qilindi. Moybo'yoq texnikasi mukammallashdi, ijodkorlar antik san'at an'analariga tayangan holda Uyg'onish davri insonparvarlik g'oyalarini moddiylashtirishga harakat qildilar.

XVII-XIX asrlarda Tasviriy san'at uslub jihatidan rangbarang, milliy mahalliy maktablar rivoji bilan san'at olamining kengayishi boshlandi. Bu davrda, ayniqsa, monumental san'at o'zining haqiqiy gullash davrini boshidan kechirdi, rassomlar, me'morlar, haykaltaroshlar, hunarmandlar san'atlar sintezining ajoyib namunalari yaratdilar. Bu yutuklarda rassom va haykaltaroshlarning o'rni alohdda. Tasviriy san'at tur va janrlari ko'paydi, realistik yo'nalishdagi janrlar (portret, manzara, natyurmort, maishiy janr) yetakchi o'ringa chiqa boshladi. Uyg'onish davri Tasviriy san'atiga xos bo'lgan vazminlik, chiziq, rang, faktura mutanosibligi o'rmini jo'shqin shakl va ranglar o'yini egallab bezakdorlik xususiyatlarining ortishi kabilar kuzatiladi. 17-asrdan Tasviriy san'atda klassitsizm yo'nalishi hukm surgani holda borliqni o'ziga o'xshash shakllarda aks ettiruvchi asarlar yaratilishi ortib bordi. Akademik ta'lim tizimining yo'lga qo'yilishi professor san'at maktablarining taraqqiyotini ta'minladi. Mumtoz (klassik) realistik (akademik) san'at uslublaridan chekinish,

noan'anaviy uslublar izlashga intilish boshlandi. Bu hol impressionizm, postimpressionizm va boshqa uslublarning shakllanishi va rivojlanishida o'z ifodasini topdi.

XX asr Tasviriy san'ati murakkab va ziddiyatli. Bir tomonda klassik realistik san'atning talab va uslublari saklangani holda uni ifodaviyligiga e'tibor qaratilishida, ishlangan har bir obrazni chuqur majoziy mazmunlar bilan to'ldirishga intilish kuzatilsa, aksincha noan'anaviy Tasviriy san'at uslubida yangi ifoda va tasvir vositalarini topishga, butunlay yangicha san'at yaratishga intilish harakati kuchliligi namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston Tasviriy san'ati jahon hamjamiyatida sodir bo'layotgan jarayonlar bilan hamnafas bo'lib, g'ar bir ijodkor o'z qarash va kechinmalarini yangicha uslub va shakllarda ifoda etishga intilishi bilan xarakterlanadi<sup>1</sup>.

### **Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at darslarining mazmuni.**

Tasviriy san'at o'quv predmeti har bir inson uchun zarur bo'lgan badiiy madaniyatga doir elementar bilim va malakalar beradi. Chunki, har bir o'quvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar u ishdan tashqari vaqtlarida dam olishi, hordiq chiqarishi, ish vaqtida sarflangan quvvatini tiklashi kerak bo'ladi. Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan san'at asarlari bilan muzey, ko'rgazmalar va boshqa joylarda tanishish, ularni idrok etish, ulardan zavqlanish orqali erishadi. Shuningdek, ko'pchilik o'quvchilar o'zlarining kelajak hayotlarida ma'lum miqdorda rasm ishlashlariga to'g'ri keladi.

---

<sup>1</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Tasviriy\\_san%CA%BCat](https://uz.wikipedia.org/wiki/Tasviriy_san%CA%BCat)

Rasm chizishni bilish, faqat rassomlar, dizaynerlar, me'morlar uchungina emas, u o'qituvchilar, injenerlar, mediklar, quruvchilar, agronomlar, harbiylar, olimlar uchun ham zarurdir. Ularning har biri o'z faoliyatlarida rasm, sxemalar, diagrammalar, eskizlar orqali so'z bilan tushuntirib bo'lmaydigan o'z g'oya va fikrlarini tasvirlab ko'rsatishga harakat qiladilar. Lekin bu maktablarda tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atlaridan chuqur va keng bilim va malakalar berish kerak ekan, degan ma'noni bildirmaydi. Maktablar o'z nomiga ko'ra umumiy o'rta ta'lim maktablari deb nomlanib, bolalarga boshqa fanlar qatori tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atlaridan umumiy, elementar bilim va malakalar berishni vazifa qilib qo'yadi.

Yana shuni ham qayd qilish lozimki, umumiy o'rta ta'lim maktablari rassomlarni tayyorlamaydi, iqtidorli bolalar bilan ishlash, ularni rivojlantirish bilan ham shug'ullanishni nazarda tutmaydi. Rassomlar tayyorlash, iqtidorli bolalar bilan ishlash maktab to'garaklarida, maxsus maktab va akademik litseylarda, kollej va oliy o'quv yurtlarida amalga oshiriladi. Shuning uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarida haddan ziyod, bolalarni qiynab qo'yadigan, ortiqcha zo'riqishga olib keladigan topshiriqlar berishga harakat qilish to'g'ri emas. Maktablarda tasviriy san'atdan beriladigan elementar bilim va malakalarga yarasha o'qitish metodlarini qo'llash zarur bo'ladi. Biroq tasviriy san'atdan oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida qo'llanilayotgan o'qitish metodlarining ayrim jihatlaridan foydalanish inkor etilmaydi.

Shuningdek, ulardan to'laligicha umumiy o'rta ta'lim maktablarida foydalanish ham pedagogik jihatdan to'g'ri emas. Maktabda tasviriy san'at mashg'ulotlarining

vazifalari haqida to'xtalganda ularni shartli ravishda ikki qismga bo'lish mumkin:

1. Tasviriy san'at darslarining o'ziga xos, maxsus vazifalari hisoblanib ular: borliqdagi va san'atdagi go'zalliklarni ko'ra bilish, idrok etish, tushunish va qadrlashga o'rgatish; estetik va badiiy didni o'stirish; bolalar badiiy fikr doirasini kengaytirish; badiiy ijodiy qobiliyat va fantaziyani rivojlantirish; tasviriy san'atning nazariy asoslari (yorug'-soya, rangshunoslik, perspektiva, kompozitsiya) bilan tanishtirish; rasm ishlash, haykal yasash, badiiy qurish-yasash yuzasidan elementlar malakalar hosil qilish; kuzatuvchanlik, ko'rish xotirasi, chamalash qobiliyati, fazoviy va obrazli tasavvurlarni, abstrakt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish; tasviriy, amaliy me'morchilik san'at asarlarini tushungan holda o'qiy olishga o'rgatish; san'atga nisbatan qiziqish uyg'otish, uni qadrlashga, sevishga o'rgatish.

2. Tasviriy san'at darslarining qo'shimcha vazifalari, ular: borliqni, hayotni bilishga ko'maklashish; milliy g'urur va milliy istiqloq mafkurasini amalga oshirish; bolalarda axloqiy (vatanparvarlik, baynalminal); mehnat, jismoniy tarbiyani amalga oshirish; bolalarni turli kasb va hunarlarga yo'llash.

Tasviriy san'at o'quv predmetining maqsadi va vazifalari haqida to'xtalganda yana shuni qayd qilish lozimki, u maktabda o'qitiladigan deyarli barcha o'quv predmetlari bilan bog'lanadi va ular yuzasidan materiallarni o'zlashtirishga samarali ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, u o'qish, adabiyot, geografiya, tabiatshunoslik, biologiya, tarix, matematika, mehnat darslarida alohida ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san'at, hattoki fizika, jismoniy tarbiya, kimyo, musiqa darslari uchun ham foydalidir. Shuni ham

qayd qilish lozimki, tasviriy san'at estetik tarbiyani amalga oshirishga qaratilgan bo'lsada, u axloqiy, mexnat, ekologik, jismoniy tarbiya darslari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Har qanday o'quv predmeti ta'lim mazmunida, albatta, o'zbek halqi yaratgan beqiyos boy, madaniy va ma'naviy merosni o'ziga asos qilib olishi lozim. Shunday ekan, o'zbek halqining dunyoga mashhur bo'lgan me'morchilik, amaliy va tasviriy san'at asarlarini maktablarda boshqa materiallarga qaraganda kengroq va chuqurroq o'rgatilishi talab etiladi. Shu bilan birga maktablarda ta'lim mazmunining viloyat va shaharlar bo'yicha ta-baqalastirilishi ham maqsadga muvofiqdir.

Chunki, O'zbekistonning viloyat, shahar, hattoki qishloqlarida amaliy san'at va me'morchilikning rivojlanishida o'ziga xoslik bor. Buni Buxoro, Samarqand, Kattaqo'rg'on, Rishton, Shahrisabz, Nurota, Marg'ilon, G'ijduvon, Urgut, Xo'jayli va boshqa shaharlarning san'atida ham yaqqol ko'rish mumkin. Milliy san'atimiz bizning faxrimiz, uni biz keng o'rganishimiz tabiiy xoldir. Lekin, jahonda hamma halqlar tomonidan tan olingan umuminsoniy badiiy qadriyatlar ham mavjud. Ularni o'quvchilarga o'rgatmasdan turib, halqimiz jahon madaniyatida o'z o'rnini topa olmaydi. Aks holda, o'quvchilarimiz milliy qobiqqa o'ralishib qolib, jahon durdonalaridan bahramand bo'la olmay qoladilar. Shuni alohida qayd qilish lozimki, ko'p asrlik milliy-badiiy madaniyatimiz (tasviriy san'at, dekorativ-amaliy san'at, me'morchilik san'ati) haqida tegishli bilimlar berish bilan bir qatorda o'quvchilarga tasviriy va amaliy san'atdan beriladigan malakalarni unutmasligimiz zarur.

Maktabda tasviriy san'at estetik tarbiyani amalga oshirishga yo'naltirilgan asosiy o'quv predmeti hisoblanib, u quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- o'quvchilarning tabiat, san'at va hayotdagi go'zalliklarni idrok etishga o'rgatish:

- o'quvchilarning estetik didini tarbiyalash, go'zallikni baholay olish qobiliyati, xaqiqiy go'zallikni xunik voqea va narsalardan farqlay bilishga o'rgatish;

- shaxsning tasviriy-ijodiy faoliyatida o'zini ko'rsata bilishga, xatti-harakatini qo'llab-quvvatlash va hayotga go'zallik kiritish malakalarini o'stirish:

- bolalarning badiiy fikr doirasini kengaytirish va boshqalar.

Tasviriy san'at o'quv predmeti o'z xarakteriga ko'ra estetik tarbiyaning asosini tashkil etuvchi estetik idrok, estetik zavq, estetik his-tuyg'u, estetik did, estetik mulohaza, estetik baholash, estetik ijod kabi sifatlarni o'stirishda katta rol o'ynaydi.

Dekorativ kompozitsiya darslarida o'quvchilar naqshlar, amaliy san'at buyumlaridagi go'zallikni his qiladilar va o'zlari ham shunday kompozitsiyalar tuzishga harakat qiladilar. Shu maqsadda, bolalarga halq amaliy san'ati namunalari ko'rsatiladi, ularning shakl va ranglarini tahlil qilib beriladi. O'quvchilar o'zbek va qardosh halqlarning naqshlarini kuzatish va o'rganish orqali ularning shakl va ranglaridagi go'zalliklarni, shakl va rasm ranglarining garmonik birligini tushunadigan bo'ladilar. Ming yillar mobaynida ustadan-ustaga, qo'ldan-qo'lga o'tib, har jihatdan takomillashib, go'zallashib borgan halq san'ati namunalari bolalarni xayratga soladi va ularda tajribali ustalar kabi ifodali amaliy san'at asarlari yaratish ishtiyoqi paydo bo'ladi. Gullar, hayvonlar va parandalarni

natura sifatida kuzatish va tahlil qilish jarayonida o'qituvchi ularning tuzilishidagi shakl, rang, o'lchovlari, harakatlaridagi nafasatni qayd qiladi.

O'quvchilarni tabiatdagi narsalarning yorqin va yaltiroqligi, nafis va tozaligi, ular bo'laklarining qaytarilishi yoki almashinishi, simmetrik tarzda joylashuvi to'qinlantiradi. Tabiatdagi gullarning rang va shakllarining turli-tuman bo'lishi, kapalak va ninachilar, qushlarning engil parvozi, baxorgi va kuzgu manzaralarning chiroyi, manjuntolningsuluvligi, maysazorlarning quyoshnuri ostida jilvalanishi, uy derazalarining kechgi miltillab ko'rinishi hayajonlantiradi. Bolalarda bunday estetik his-tuyg'uning o'sishi, ularda predmet va hodisalar xususiyatlarini estetik baholash malakalarining shakllanishiga olib keladi. Bolalarning faoliyatlarida obrazli iboralarning, ya'ni "xushbichim", "quvonchli", "bayramdagidek" ishlatilishi ularda borliq va hodisalarni estetik idrok etish malakalari shakllanayotganligidan dalolat beradi.

O'quvchilarning estetik idrokini tarbiyalashda tabiatdagi rang gammalarining bolalar tomonidan idrok etilishiga alohida e'tibor beriladi. Bolalarni faqat rang nomlarini bilishlariga emas, balki ularni ko'ra bilishlariga, tevarakatdagi chiroyli rang birikmalarini qidirib topishga ham o'rgatiladi.

O'qituvchi shoxcha va barg chiqargan daraxtlarni bolalarga ko'rsatish orqali yosh barglarni rangi och yashil va nozik ekanligini qayd etadi. Bahorgi yomg'irdan so'ng o'simlik barglarining tozaligini, ularni xuddi yuvib qo'ygandek ko'rinishi, ulardagi yomg'ir donalarining kumushdek yaltirab ko'inishini takidlaydi. Kuz faslidagi tabiatda daraxt barglarining sariq va qizg'ish ranglarining oltin tusga kirganligini, to'kilgan barglarning shildirab

“gaplashishi” obrazli ko‘rinishida ifodalanadi. Bolalar o‘z rasmlarida uy, daraxt, qushlar, hayvonlar, odamlar, transport vositalarini tasvirlaydilar. Bundan uyar ular tasvirlanuvchilarning o‘lchovlari, proporsiyalari, fakturasi, shakllari, rangiga duch keladilar va ularni rassom kompozitsion jihatdan to‘g‘ri joylashtirishga harakat qiladilar. Bu esa ularning tuzilishidagi proporsionallik, mukammallik, maqsadga muvofiqlik haqida fikr yuritishga undaydi. Bolalar narsa va xayvonlarni shakl va rang jihatidan o‘ziga jalb etadigan tomonlari, ularni qaysi tomondan chiroyli ko‘rinishi, ularning yaxshi va foydali tomonlari nimadali haqida o‘ylaydilar. O‘quvchilar tabiatdagi narsa va hodisalar haqida o‘ylar ekanlar. o‘qituvchi o‘z e‘tiborini ularning tushunchasiga mos bo‘lgan voqea va hodisalarning go‘zalligi va mukammalligiga qaratadi. U go‘zallik kechinmalari orqali bolalarni tevarak – atrofdagi hodisa va voqealarni baholay olishga o‘rgatishga harakat qiladi, insonparvarlik, Vatanga muhabbat, mehnatga muhabbat his-tuyg‘ularini uyg‘otadi.

O‘qituvchi san‘atshunoslik asoslari darslarida o‘limiz tabiati, halqimizning fidokorona mehnati, buyuk ajdodlarimizning mustaqillik uchun qahramonona kurashi kabi mavzularda yaratilgan ko‘plab asarlarni namoyish etish va tahlil qilish jarayonida ulardagi nozik nafosatni ochib berishga harakat qiladi. Bu borada rassomlardan O‘. Tansiqboev, N. Karaxan, A. Mo‘minov, L. Salimjonova, I. Jabborov, Ch. Axmarovlarning yuksak badiiy saviyada yaratgan asarlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Tasviriy san‘at bolalarni borliqni, hayotni bilishga yordam beradi. Ular narsa va hodisalar rasmini chizishga kirishishdan avval narsalarning tuzilishi, shakli, o‘lchovlari, rangi, fazoviy holatlarini o‘rganadilar va ularni o‘z ishlari bilan

tasvirlaydilar. Kuzatilayotgan jonli narsalarning hayoti haqida ham tasavvurga ega bo'ladilar, natijada bolalarning dunyo haqidagi tasavvurlari chuqurlashadi va kengayadi, xotiralari rivojlanadi.

Tasviriy san'atning tarixiy, batal janridagi rangtasvir asarlari, adabiy asarlarga ishlangan illyustratsiyalarni kuzatish asosida bolalar ming yillar oldin yashab o'tgan ajdodlarimizning turmush tarzi, madaniyati, qiyinishi, ish qurollarini bilib oladilar. O'sha davrdagi binolar, o'simliklar, xayvonlar, buyumlarning tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Ma'lumki, bolalar, tarixiy, batal, manzara, turmush, natyurmort, animal, afsonaviy janrlarda ishlagan rasmlarda tarixiy voqealar, jangu-jadallar, halqlar hayoti, hayvonlar, shahar va tabiat manzaralari haqida ko'pgina bilimlarga ega bo'ladilar.

O'quvchilarni mantiqiy va abstrakt fikrlashga o'rgatishda tasavvur va xotirani, ijodkorlik va fantaziyani rivojlantirishda maktabda tasviriy san'atni oldiga tushadigan bironta ham o'quv predmeti yo'q. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ijodiy fikrlashga o'rgatishda katta o'rinni egallaydigan fanlardan matematika ham bunday imkoniyatga ega emas. Xususan, matematika darslarida o'nta masalani bir yo'l yoki bir formula asosida yechilsa, tasviriy san'at darslarida o'quvchilar bir masala (topshiriq) ni bir necha yo'l bilan echadilar, u so'zsiz bolalarni fikrlashga, ijodiy o'ylashga yo'naltiradi. Aytaylik, o'quvchi u yoki bu hayotiy yoki afsonaviy mavzularda kompozitsiya ishlash jarayonida, mavzu bilan bog'liq bo'lgan voqeani eslashga harakat qiladi. Bunda voqea qaysi davrda, qaerda yoki boshqa sayyoralardami, suv ostidami, tabiat qo'ynidami yoki uy ichidami, rasmda

odamlar tasvirlanadimi yoki hayvonlarni, tasvirlanadigan mavjudodlarning tuzilishi, shakli, ranglari, o'Ichovlari qanaqa bo'lishligi haqida o'ylaydilar.

Eng muhimi, qog'oz yuzasida mazmun kompozitsion jihatdan qanday joylashtirilishidadir. Shuningdek, tasvir variativlik, kombinatsiya, muqobillik va boshqalar asosida ishlanadi. Bolalar rasm ishlashda tasviriy san'atning nazariy asoslari yorug'-soya, rangshunoslik, perspektiva, kompozitsiyaning qonun va qoidalarini tasavvur qiladilar va qo'llaydilar. Ular o'z rasmlarini ijodiy, yangi, qaytarilmas mazmunda bo'lishligiga harakat qiladilar.

Tasviriy san'atni o'qitish jarayonida qo'yiladigan topshiriqlar esa o'quvchilarni birdan bir va betakror o'z shaxsini, aqliy imkoniyatlarini namoyon etishga yo'llaydi. Bolalar o'quv topshiriqlarini echishda o'zlarini ijodkor bo'lishga undaydilar. Ular ijodkor uchun avvaldan ma'lum bo'lgan yo'ldan muammoni tez va oson hal qilib qo'yaqolmay, balki masalani yangicha, qaytarilmas yechimlar orqali o'zlarining ijodkorlik va hayotlarini, me'yori va uyg'unlik sifatlarini ishga soladilar.

Natijada ma'lum miqdorda original, yangi qaytarilmas ijod mahsuli dunyoga keladi. Ijodkorlik, ijodiy fikrlaydigan shaxslar ular oddiy ijodchilar emas, ular jamiyatni rivojlantiruvchi asosiy kuchidir. Shuning uchun ham jamiyatimizga talabkor ijodchilar emas, fikrlovchi, izlanuvchan, ijodkor, tasavvurkor kishilar kerak. Jamiyatimizning ravnaqi ko'p jihatdan ana shunday kishilarga bog'liq. Jamiyatimizda fikrlaydigan, izlanuvchan, ijodkor, hayotda ko'ra bahutagan har qanday vaziyatlarda muammoni tez va oson yechimni topa oladigan kishilar halqimizni taraqqiyotga yangi bosqichga ko'taradilar.

Ijodiy tafakkur butunlay yangi g'oyalar va tasavvurlarni vujudga keltiradi, shaxsda yashiringan qobiliyat va imkoniyatlarni, o'ziga xoslikni ro'yobga chiqishga yordamlashadi. Shuni ham alohida qayd qilish lozimki, bunday sifatlar faqat olimlar uchungina emas, balki hamma sohada ishlovchilar (injenermi, vrachmi, dehqonmi, nonvoymi v.b) uchun muhimdir.

Shuning uchun ham ta'lim tizimida tafakkur va ijodkorlikni rivojlantirish asosiy vazifalardan biri deb qaraladi. Shu nuhtai nazardan qaraganda umumiy o'rta ta'lim maktablarida ijodiy tafakkurni o'stirishda tasviriy san'at darslari boshqa fanlar orasida eng katta o'rinni egallaydi.

O'quvchilarning ijodkorligi esa ko'proq bolalarda diqqat va tasavvurni o'stirishi bilan bog'lanadi. O'quvchi ayniqsa, boshqa sayyoralar, suv osti dunyosi, afsonaviy hayvonlar (dev, kentavr, suv parisi, dengiz shoxlari va boshqalar) bilan bog'liq rasmlar ishlaganda tasavvurni kuchli ishga solmasdan turib topshiriqni samarali hal qilolmaydi. Qolaversa har bir ijodiy ishni tasavvursiz va diqqatsiz echib bo'lmaydi. Shuningdek bu masala bolalarda his-hayajonni rivojlantirish bilan bog'liq. Ma'lumki, bolalar nihoyatda hayajonga boy bo'ladilar. Bolalarni narsalar tasviridagi turfa rang va shakllar, real va afsonaviy obraz va ko'rinishlar, voqea va hodisalar larzaga soladi, ularni to'lqinlantiradi.

Tasviriy san'at o'quv predmetining muhim vazifalaridan biri, u bolalarda kuzatuvchanlikni o'stirish, borliqni ko'ra bilish, qolaversa shu orqali xotirani rivojlantirish hisoblanadi. Ma'lumki, odamzod tevarak-atrofdan olayotgan axborotlarning deyarli 90 foizidan ortig'ini ko'z orqali oladi, qolgan 10 foizini quloq, burun, og'iz va

boshqa a'zolar orqali o'zlashtiradi. Bundan ko'rinib turibdiki, kishilar faoliyatida ko'z va xotirani rivojlantirish nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Bu sifatlar bolalar tomonidan borliqni idrok etish mashg'ulotlarida, shuningdek, naturadan tasvirlash, san'atshunoslik asoslari mashg'ulotlarida alohida ahamiyatlidir. Bunday darslarda o'quvchilar narsalar va hodisalarning tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari, fazoviy joylashuvi, harakat go'zalligini kuzatadilar hamda ularni o'z xotiralarida saqlab qolishga harakat qiladilar. Kuzatuvchanlikni mohiyati shundaki, bunda bolalar narsa va hodisalar haqida keng va chuqur tasavvurga ega bo'ladilar. Masalan, kuzatuvchanligi rivojlanmagan kishilar gulni kuzatar ekanlar unga nisbatan yuzaki yondoshadilar, ya'ni gul bandi, guli, yaproqlari, gul rangiga o'z e'tiborlarini qaratadilar.

Kuzatuvchanligi rivojlangan kishilar esa gullarning gul bandi, guli yaproqlari va boshqalarning o'lchovlari, o'lchov nisbatlari, har bir qismning rangi, yaproq va gulbarglarining joylashuvini bir ko'rishdayoq eslab qoladilar. Bolalarning kuzatuvchanligi va sinchkovligi o'z o'rnida narsalar haqidagi ma'lumotlarni xotirada yaxshi saqlanib qolishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham xotirani, ayniqsa ko'z xotirasini rivojlantirishda tasviriy san'at o'quv predmetining qanchalik ahamiyatli ekanligi oydinlashadi.

Tasviriy san'at darslarining eng muhim vazifalaridan biri tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atlari asarlarini o'qishga o'rgatishdir. Tasviriy san'at asarlari ertak, hikoya, doston, roman kabi ma'lum bir mazmunni aks etiradi. Biroq uni kitob o'qigandek o'qib bo'lmaydi. Tasviriy san'at asarlarini o'ziga xos tili bor. Ularni bilgan kishilargina o'qiy oladilar. Xususan, rassomlar chiziqlar, ranglar, o'lchovlar.

kompozitsiya, proporsiya, ritm, simmetriya shakl kabi ifodalilik vositalari yordamida asar mazmunini ochib beradilar. Bu borada shuni alohida qayd qilish lozimki, san'at asarlari, ayniqsa, tarixiy, turmush janridagi asarlar, ayrim halq va mamlakatlar haqida to'la-to'kis va keng qamrovli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bularni o'qiy olgan shaxslargina asarlarda ilgari surilgan g'oyalarni, tasvirlangan mazmunni chuqur idrok eta oladilar.

Shuningdek, ular asarning badiiy qiymatini aniqlay oladilar va unga tegishli bahoni ham bera oladilar. Shu bilan bir qatorda asarlardagi go'zallik, ko'tarinkilik, qaxramonlik kabi sifatlardan mamnunlik va zavqlanish hosil qiladilar. Tasviriy san'at o'quv predmeti yoshlarning estetik tarbiyasida ahamiyatli bo'libgina qolmay balki, ahloqiy tarbiyada ham salmoqli o'rinni egallaydi. Ayniqsa, tasviriy san'at darslari yoshlarda milliy g'urur va milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishda, vatanparvarlik va baynalminal tarbiyada, do'stlik va o'zaro yordam g'oyalarini tashkil toptirishda katta kuchga ega. Maktab tasviriy san'at dasturiga nazar solar ekanmiz unda Vatanimizning buyuk o'tmishi, vatandoshlarimizning mustaqillik uchun olib borgan kurashlari, O'zbekistonning nafosatga to'la tabiati, halqlar do'stligi g'oyalarini ifoda etuvchi tasviriy san'at asarlari bilan to'lib toshganligini shoxidi bo'lamiz.

Masalan, ona-tuproq uchun kurash olib borgan Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Spitamen, Muqanna kabi buyuk vatandoshlarimiz hayoti va obrazlarini, O'zbekistonning rangorang go'zal manzaralarini, o'zbek halqining Respublikamizda yashayotgan boshqa millat vakillari bilan tinch-totuv mehnat qilayotganligini ifodalovchi tasviriy san'at asarlari mavjud. Ularni o'rganish jarayonida bolalar san'atning qonun va qoidalari bilan

tanishadilar, yuqorida qayd qilingan mazmunda rasmlar ishlaydilar, O‘zbekistonning shirin-shakar va rangorang mevalari, gullaridan tuzilgan natyurmortlar rasmini ishlaydilar, natijada ularda Vatanga va o‘z halqiga nisbatan mehr–muhabbat, milliy g‘urur kabi sifatlar shakllantiriladi. “Daladagi ishlar”, “Ko‘chat o‘tkazish”, “Hosilni yig‘ib terib olish”, “Fermada”, “Bizning qurilishlarimiz ” kabi mavzularda rasm ishlash, halqimizning turli sohadagi (mediklar, kosmonovtlar, o‘qituvchilar, olimlar, madaniyat va san‘at arboblari, qishloq xo‘jaligi xodimlari va boshqalar) shijoatli mehnatini, mehnat qahramonlarining obrazlarini ifodalovchi tasviriy san‘at asarlarini namoyish etish orqali bolalarda mehnat tarbiyasi amalga oshiriladi.

Hozirda umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining vazifalaridan biri bolalarni turli kasb va hunarlarga yo‘llash hisoblanadi. Ma‘lumki, har bir bolada u yoki bu hunarga, ilmga havasi bo‘ladi. Bu havas har doim har bir bolada ochiq namoyon bo‘lmaydi, ayrimlarida ochiq, ayrimlarida yashiringan bo‘ladi. Maktab jamoasining, har bir o‘qituvchisi va tarbiyachisining vazifasi har bir boladagi mavjud havasni rivojlantirish, yashirincha havasini ro‘yobga chiqarib, ularni san‘atni tushunish va hurmat qilishga o‘rgatishdan iborat. Maktabdagi boshqa fanlar qatori tasviriy san‘at darslarida ham bolalarni ko‘pdan-ko‘p hunar va kasblarga yo‘naltirish, ularni tarbiyalash imkoniyatlari bor. Xususan, rassomlar tomonidan ishlangan san‘at asarlarida mashhur turli kasb egalari, bunday kishilarning ish jarayonlari (mehnat qahramonlari, xizmat ko‘rsatgan kishilar, militsiya xodimlari, olimlar, o‘qituvchilar, injenerlar, dehqonlar va boshqalar) aks etadi. Shuningdek, tasviriy san‘at haqida olib boriladigan

suhbatlarda mashhur halq amaliy san'ati ustalari, rassomlar, haykaltaroshlarning hayoti va ijodi haqida fikr yuritiladi.

Tasviriy san'at darslarida bolalar turli kasb va hunarlar haqida rasm ishlaydilar (Masalan, "Novvoy", "Fermada", "Qurilishlar", "Olimlar munozarasi", "Tsirkda", "Otchoparda", "Fazoga parvoz", "Sport o'yinlari", "Chavandoz", "Kurash", "Sahnadagi o'yin", "Hayvon o'rgatuvchi", "Hosilni yig'ib terib olish", "Dorbozlar", "Avtopoyga", "Sehrgar", va boshqalar). Bunday mashg'ulotlarda o'qituvchi so'zsiz suvratda aks etgan kasblarning mazmuniga to'xtaladi hamda bu kasblarga bolalarni qiziqtiradi.

Hozirgi kunda biz bolalar orasida maktabdan bezish hollarining ko'payish kuzatilmoqda hamda jinoyatchilik va qonunbuzarlikning oshib bormoqda. Bolalarda madaniyatning pastligi, ularning bo'sh vaqtlarini san'at, sport bilan band qilib qo'yilmaganligi, o'qish jarayonida bolalarning qiziqishlarining hisobga olinmaganligining, bolalarga maktabda inson emas mehnat resurslari sifatida qarab kelinayotganligi oqibati deb bilamiz. Bundan buyon ta'limni insonparvarlashtirish talabalaridan kelib chiqqan holda totalitar tuzum davrida maktablarda va maktablardan tashqari muassasalarda ro'y berib kelgan kamchiliklarni bartaraf etish, ta'lim va tarbiya ishlarini milliy istiqlol mafkurasi asosida amalga oshirish hozirgi kunning asosiy vazifalardan bo'lib turibdi. Shuni yaxshi bilish lozimki, badiiy madaniyat asoslaridan hisoblangan tasviriy san'at, bu bolalarning ko'ngil ochuvchi o'quv predmeti emas, balki bolalarga ijodkorlikni, tafakkurni badiiy-estetik didni, fahm-farosatni o'stiruvchi, shuningdek kuzatuvchanlik va hayotni bilishga, uni o'zgartirishga, ezgulikni yovuzlikdan farqlashga o'rgatuvchi o'quv predmeti deb qaramoq lozim.

Tasviriy san'at ijodiy ishlar jarayonida o'z vazifalarini bajara borib bolalarga quvonch va qalb ko'tarinkiligini olib keladi, ularning badiiy ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi<sup>1</sup>.

### **Tasviriy san'at davlat ta'lim standarti (maktab, oliy ta'lim).**

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at o'quv predmetining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan va ta'limning davlat standartlariga asoslangan holda ta'lim mazmuni aniqlanadi. Tasviriy san'at dasturida uning quyidagi besh turi belgilangan:

1. Borliqni idrok etish (1-4 sinflarda).
2. Badiiy qurish-yasash (1-4 sinflarda).
3. San'atshunoslik asoslari (5-7 sinflarda).
4. Naturaga qarab tasvirlash (1-7 sinflarda).
5. Kompozitsion faoliyat (1-7 sinflarda).

Borliqni idrok etish o'quvchilarning estetik idroki, didi, mazkur sohaga doir tushunchalari, tasavvur va xotiralarni o'stirishda muhim rol o'ynaydi. Borliqni idrok etish mashg'ulotlari odatda mavzuli kompozitsiyalarni bajarishdan oldin o'tkazilib, unda tabiatdagi va tevarakatrofdagi nafislik va go'zallikni ko'ra bilish, idrok etish natijasida olingan tassurotlardan amaliy badiiy-ijodiy faoliyatlarda foydalanish nazarda tutiladi. Shuningdek, tabiatga qilingan sayohat jarayonida zarur hollarda ayrim ob'ekt va hodisalarni qalam, bo'yoq va boshqa badiiy materiallar yordamida xomaki rasmlari ham ishlanadi.

Bunday darslarda bolalar sinf va sinfdan tashqarida o'simliklar, hayvonlar, qushlar, baliqlarni kuzatadilar,

<sup>1</sup> <https://fayllar.org/3--maruza-umumiy-orta-talim-maktablarida-tasviriy-sanat-talimi.html?page=2>

tabiatning turli fasllardagi ko‘rinishlari, kafiyyati (quvonchli, g‘amgin, o‘ychan va hokazo) haqida tasavvurga ega bo‘ladilar. Boshlangich sinflarda borliqni kuzatish va ular haqidagi suhbatlar o‘quvchilarga hayotdagi ba’zi bir hodisalarni kengroq bilib olishga yordam beradi. U narsalarning shakli, tuzilishi, rangi kabilarni ma’lum miqdorda tahlil qilish va umumlashtirishdek muhim sifatlarni o‘stirishga ham imkon beradi.

Tabiat va borliqni kuzatish jarayonida bolalarni uni sevishga, asrashga o‘rgatiladi. Tabiatga qilingan sayohatlarda ularning ayrim jihatlari fasllarga bog‘liq holda o‘zgarib turishligi bolalarga tushuntiriladi. Shuningdek, bunda bolalarni fazoziy tasavvurlari ham o‘stiriladi va planlik, chiziqli va havo perspektivasiga qam e’tibor beriladi. Borliqni kuzatish bevosita tasviriy ijodiy faoliyat bilan bog‘liq ekanligi, borliqni bilmasdan turib sifatti tasviriy ishlarni bajarish mumkin emasligi bolalar ongigi yetkaziladi.

Borliqni idrok etish mashg‘ulotlarini vazifalariga rioya qilgan holda quyidagi mazmunda mashg‘ulotlar o‘tkazish nazarda tutiladi:

1. Kuz, qish, bahor fasllarida tabiatni o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish;

2. Gullar, hashoratlar, dekorativ baliq va qushlarni kuzatish:

3. Tabiat mo‘jizalari, bahorgi va kuzgi ishlar bilan tanishish va boshqalar.

Yuqorida qayd qilinganidek, bunday mashg‘ulotlardan maqsad bolalarni borliqni bilish, undagi narsa va hodisalarni o‘ziga xos xususiyatlarini, ayniqsa, tuzilishi, shakli, rangi, o‘lchovlari, o‘lchov nisbatlari, fazoviy holatlari, ularni yil fasllariga qarab o‘zgarishlarini anglab

etishlariga erishishdan iboratdir. O'rganish zarur bo'lgan ob'ektlarni naturadan kuzatishning imkon bo'lmagan taqdirda o'qituvchi darsda bolalarni san'at asarlarining reproduksiyalari, slaydlari, foto nusxalarini namoyish etish orqali o'z maqsadiga erishadi.

Boshlang'ich sinf tasviriy san'at darslarida o'quvchilarning qiziqishlari va ijodkorliklarini oshirish va rassomchilikda ishlatiladigan turli materiallar bilan kengroq tanishtirish maqsadida badiiy qurish-yasash ishlari ham olib boriladi.

Tasviriy faoliyatning bu qiziqarli turi uchun dasturda alohida soatlar ajratilgan bo'lib, ular mashg'ulotlar mazmunini yanada boyitadi. Qurish-yasash uchun asosan uch xil materiallardan foydalanish nazarda tutiladi:

1. Badiiy materiallar (rangli qog'ozlar, folga, gul-qog'ozlar, plastilin, loy v.b.).

2. Tabiiy materiallar (daraxt barglari, shoxlari, ildizlari, po'stlog'lari, meva va sabzavotlarning urug'lari, rangli toshchalar, bug'doy va arpa poyalari v.b.).

3. Tashlandiq materiallar (ichimlik va dori darmondan bo'shagan sintetik idishlar, gugurt qutichalar, po'kak, penoplast, idish qopqoqlari) va boshqalar.

Badiiy qurish-yasash mashg'ulotlarida bolalarni qaychi bilan ishlash, kley yordamida yelimlash, qog'ozlarni narsalar shakliga mos holda buklash, o'rash, ayrim badiiy tashlandiq va tabiiy materiallarni bir-birlariga yaqinlashtirish, qo'shish orqali tasvir yaratish kabi malakalar hosil qilinadi. Bu malakalarni hosil qilish boshlang'ich sinflar dasturida bir qator topshiriqlarni bajarishni nazarda tutadi. Ular quyidagilardan iborat: Turli shakldagi qalamdon, quticha, havo shari, bayroqcha, choynak, lagan, mashina, samolyot, raketa va shu kabi narsalarni

rangli qog'oz va kartondan tasvirini yasash; hashoratlar - tilla qo'ng'iz, ninachi, kapalak va boshqalarni rangli qog'ozlarni qirqish orqali hosil qilish; rangli qog'ozlarni qirqish, buklash va yelimlash yo'li bilan osma o'yinchoqlar tayyorlash; tabiiy materiallar yordamida baliq, hashorat, qush, hayvonlarning tasvirlarini hosil qilish; rangli qog'oz, badiiy va tashlandiq materiallardan applikasiya, kollaj, pape-mashe, aralash usulda mazmunli kompozitsiyalar (masalan, "Ko'chada", "Kosmodromda",) ishlash; tashlandiq materiallar-sim, ip, kanop, gazlama parchalari, plasmass idishlar, gugurt qutichalari, po'kak, penoplast, idish qopqoqlari yordamida uncha murakkab bo'lmagan transport (qayiqcha, pirpirak, mashina, traktor v.b.), qushlar (qaldirg'och, to'ti, g'oz, chumchuq, laylak, o'rdak, sa'va v.b.), hayvonlar (tulki, bo'ri, quyon, ayiq, yo'lbars, it, sher v.b.) ning o'yinchoq tasvirlarini ishlash; quritilgan barglar, rangli qog'ozlar, shoxlar yordamida ochilgan gul, gullagan daraxt shoxchasi tasvirini tayyorlash v.b. Badiiy qurish-yasash ishlarida eng muhim vazifalardan biri badiiy, tashlandiq materiallarning o'ziga xos jihatlarini (qattiq, yumshoq, mo'rt, egiluvchan, og'ir, yengil, och, to'q, v.b.) bilish hamda ular bilan ishlaganda o'lchov va o'lchov nisbatlarini, tuzilishi, shakli ranglarini to'g'ri belgilash talab etiladi.

Shuningdek, qurish-yasash ishlarida qo'llanadigan o'quv qurollari va materiallarni bilish, tabiiy, badiiy, tashlandiq materiallarni bir-birlaridan farqlay olish ham talab etiladi.

Narsalar shaklini ko'ra olish ham badiiy faoliyatning bu turi vazifasiga kiradi. Bunday ishlarni bajarganda ish joyini ozoda batartib tuta bilishga ham o'rgatiladi. San'atshunoslik asoslari bo'limi o'quv predmetining

muhim qismlaridan biridir. U dasturda 5-7 sinflarda mustaqil bo'lim sifatida o'zining o'quv vazifalari tizimiga ega va u tasviriy, amaliy-bezak, me'morchilik san'atlari materiallaridan tashkil topadi. Mazkur bo'limning maqsadi o'quvchilar tomonidan san'at asarlarini ongli idrok etish va baholash, uning jamiyat va odamlar hayotidagi ahamiyatini tushunishga yordam berishdan iboratdir.

San'atshunoslik asoslari bo'limi o'quvchi shaxsining estetik rivojiga ko'maklashib, uni jahon madaniyatining buyuk durdonalari va san'at asarlari orqali tevarak-atrofdagi hayot go'zalliklari bilan tanishtiradi, badiiy didini shakllantiradi, san'atni sevishta o'rgatadi.

O'quvchilar bilan san'atshunoslik asoslari bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlarda ular mumtoz madaniy meros bilan tanishtirib boriladi, uning buyuk an'analari va san'atning halq uchun xizmat qilishi, san'atdagi turli oqimlar va yo'nalishlar to'g'risida tushunchalar hosil qilinadi.

Tasviriy va amaliy san'at asarlarini idrok etishga oid o'quv materiallari o'quvchilarning amaliy ishlari bilan bog'langandir. San'at asarlarining nushalarini bolalarga ko'rsatish va ularning tahlili o'quvchilarda san'atga qiziqish uyg'otadi va ularni shu sohaga yo'llaydi. Asarlarni namoyish etishda bolalar unda ifodalangan g'oya, asosiy fikr va qo'llanilgan badiiy-tasviriy vositalar bilan tanishtiriladi. Dekorativ-amaliy san'atga doir san'atshunoslik asoslari darslarida amaliy-bezak san'ati, halq amaliy-bezak san'ati, o'zbek halq amaliy-bezak san'ati, liboslar, o'zbek va chet el halqlarining milliy liboslari haqida bilimlar berish, halq ustalari ishlatadigan ish qurollari va materiallari bilan tanishtirish nazarda tutiladi. Bunday darslarda Toshkentdagi halq amaliy san'ati muzeyi va Respublikamizdagi halq

amaliy san'ati rivoj topgan markazlar, o'zbek halq amaliy san'atining mashhur nomoyondalari hisoblangan Usta Shirin Muradov, Ota Polvonov, Hamro Raximova kabilar haqida ham suhbatlar o'tkazish rejalashtirilgan.

Me'morchilik san'ati borasida esa me'morchilik san'ati va uni atrof-muhit bilan bog'liqligi, me'morchilikda go'zallik, maqsadga muvofiqlik haqida tushunchalar berish, individual va ijtimoiy me'morchilik, ularning turlari bilan tanishtirish, binolarning vazifasi va ularning estetik echimining o'zaro bog'liqligi, fasad va interyerdagi dekorativ bezaklarning xarakteri, me'morchilikda qo'llaniladigan asosiy atamalar haqida fikr yuritiladi. Binolarning tashqi va ichki badiiy bezaklarining xarakteri, ularda ishlatiladigan materiallar bilan ham tanishtiriladi.

Bu vazifalarni bajarish uchun O'zbekiston xududidagi eng qadimgi me'morchilik obidalari, O'zbekiston IX-XIX asr me'morchiligi, Sharq va Arab mamlakatlarida Uyg'onish davri me'morchiligi, O'zbekiston va jahonning hozirgi zamon ilg'or me'morchiligi yuzasidan mashg'ulotlar olib boriladi. Tasviriy san'atdan davlat ta'lim standartlarida qayd qilinganidek, bolalarga san'atshunoslik asoslaridan quyidagilar haqida bilimlar berishni nazarda tutadi:

1. Tasviriy san'at-san'atning bir turi ekanligi va uning kishilar hayotidagi o'rni va ahamiyati. O'zbekiston xududida tasviriy san'atning taraqqiyoti (Afrasiyob, Varaxsha, Tuproq qal'a va boshqa joylardan topilgan tasviriy san'at namunalari). Tasviriy san'atning turlari (rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik) va janrlari (manzara, turmush, natyurmort, portret, tarixiy, batal, animal, afsonaviy, marina). Rangtasvir turlari-dastgohli rangtasvir, monumental rangtasvir, miniatura rangtasviri. Rangtasvir texnikasi-freska, mozaika, vitraj.

2. Haykaltaroshlik turlari-dastgohli haykaltaroshlik, dekorativ haykaltaroshlik, monumental haykaltaroshlik; Relief (barelef, gorelef); yumaloq haykallar.

3. Grafika turlari-dastgohli grafika, estamp, plakat, kitob grafikasi; gazeta-jurnal grafikasi; targ'ibot va tashviqot grafikasi; etiketka, upakovka, v.b.

4. Movaraunnahr miniatura maktabi; Sharq miniatura maktablari. Evropada Uyg'onish davri tasviriy san'ati; O'zbekistonning hozirgi zamon tasviriy san'ati; Jahonning hozirgi zamon ilg'or tasviriy san'ati; jahon tasviriy san'atidagi asosiy oqimlar; dunyoning eng yirik tasviriy san'at muzeylari; O'zbekistonning eng yirik tasviriy san'at muzeyi. Jahonga mashhur eng buyuk rassomlarning hayoti va ijodi (Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi, O'rol Tansiqboev, Chingiz Axmarov v.b.).

Naturaga qarab rasm ishlash mashg'ulotlari narsalarning tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari, ularning xarakterli, tipik belgilarini bilish imkonini beradi. Shu orqali bolalarda kuzatuvchanlik, xotira, estetik did, obrazli tafakkur kabi eng muhim tasviriy malakalar shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Ular tik, yotiq, og'ma, egri, to'lqinsimon chiziqlarni chizish, bo'yoqlar bilan tegishli yuzani bir meyorda bo'yash, och tusdan to'q tusga va aksincha to'qdan ochga o'tish, o'quvchilar to'g'ri va egri chiziqlarni teng bo'laklarga bo'lish malakalarni o'zlashtiradilar. Chizilayotgan rasm mazmunidan kelib chiqqan holda qog'oz formatini to'g'ri tanlashni hamda rasmni qog'ozda kompozitsion jihatdan to'g'ri joylashtirishni o'rganadilar. Shuningdek, rasmni bosqichlar asosida ishlashni o'zlashtiradilar.

Naturaga qarab rasm ishlash mashg'ulotlarida o'quvchilar mo'yqalam, rangli qalamlar, akvarel, guash bo'-

yoqlari bilan ishlash yo'llarini o'rganadilar, imkoni bor joylarda ko'mir (ugol), sous, pastel, sangina kabi materiallar bilan ham ish olib boradilar.

Amaliy ishlarda odam, hayvon, qushlar gavdasining tuzilishi, ular qismlarining o'lchov nisbatlari, shakllarini to'g'ri aks ettirish malakalari takomillashtiriladi. Yorug'soya, rangshunoslik, perspektiva, kompozitsiya yuzasidan nazariy ma'lumotlar berish bilan bir qatorda o'ziga qarab alohida va natyurmort ishlash yuzasidan amaliy ishlar bajariladi.

Tasvirlash jarayonida naturani tahlil qilish, ularning qismlarini bir-biri bilan taqqoslash, umumlashtirish kabi ar rasm ishlovchining e'tibor markazida bo'ladi. Bunda, tyniqsa, chiziqalar ravonligi, ranglarning nafis va mutanosibligi, ifodalangan go'zallikni zehnlab tasvirlay olishga alohida e'tibor beriladi.

Yuqorida qayd qilingan vazifalar 1-2 soat davomida va qisqa muddatda (5-10 daqiqa) bajariladigan qoralama va ranglamalar shaklida bajariladi. Bu ishlar alohida mavzu asosida yoki mashg'ulot mazmunidan kelib chiqqan holda darsning boshlanish, o'rta yoki oxirida amalga oshiriladi. Yuqorida qayd qilingan vazifalar va topshiriqlar o'simlik va daraxt barglari, turli shakl va rangdagi gullar, meva va sabzavotlar, hunarmandchilik va amaliy san'at buyumlarini alohida va to'p holda natyurmort tarzida rasmini chizdirish orqali amalga oshiriladi.

Naturaga qarab bajariladigan topshiriqlar qush, hayvon, odam tasvirlarini to'la yoki xomaki rasmini ishlashni ham nazarda tutadi.

Boshlang'ich sinflarda ko'proq bolalarning tasviriy imkoniyatlariga mos keladigan bayroqcha, soat, havo shari, o'yinchoq mashinalar, ninachi, kapalak, tilla qo'ng'iz kabi

hashoratlarni rasmini ishlash nihoyatda qo‘l keldi. Bunday mashg‘ulotlar uchun natura tanlashda o‘qituvchi, ularning estetik ko‘rinishiga, shakl, rang jihatidan bolalarda qiziqish uyg‘otadigan bo‘lishligiga o‘z e‘tiborini qaratadi. Kompozitsion faoliyat o‘z mazmuniga ko‘ra uch qismga bo‘linadi. 1. Rangtasvir kompozitsiyasi. 2. Dekorativ kompozitsiya. 3. Haykaltaroshlik kompozitsiyasi. Kompozitsion faoliyat o‘quvchilarda badiiy-ijodiy qobiliyatni, o‘z fikr va taassurotlarini rasmda obrazli qilib tasvirlash hamda badiiy didni o‘stirishni maqsad qilib qo‘yadi.

Rangtasvir kompozitsiyasi mashg‘ulotlari tevarakatrofdan olingan ko‘rinish va hodisalarni uning barcha janrlarida (manzara, turmush, natyurmort, tarixiy, animallistik, afsonaviy, marina) amaliy ishlar shaklida bajarishni nazarda tutadi. Bu amaliy ishlar bevosita yorug‘-soya, rangshunoslik, perspektiva yuzasidan olib boriladigan nazariy bilimlar bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi. Bunday amaliy mashg‘ulotlarda bolalar naturani kuzatish, (qoralama, ranglama, uzoq davom etadigan rasim ishlash) xotiradan, tasviriy san‘at asarlaridan olgan bilim va malakalarga tayangan holda ish olib boradilar. O‘quvchilar tanlangan mavzuga ko‘ra uning elementlarini qog‘oz yuzasida bir-biriga bog‘liq holda joylashtirish, yaxlit kompozitsiyani hosil qilish, mavzu mazmuniga mos keladigan kompozitsiyani topish uchun bir qancha xomaki ishlar, eskizlar ishlaydilar. Kompozitsiya tuzishda bolalar obrazlarning tipik belgilarini tanlab olib, qismlarning o‘rnini almashtirib, qo‘shimcha detallar kiritish orqali kompozitsiya mazmunini boyitish kabilarga alohida e‘tibor beradilar. Unda kompozitsiyaning bir butunligi, qismlarni, shakllarni, ranglarni xillashtirish va ular o‘rtasidagi bog‘lanish va

kontrastlik, asardagi hamma vositalarning bosh g'oyaga bo'ysindirish kabi qonun va qoidalar hisobga olinadi. Rangtasvir kompozitsiyasi darslarida o'quvchilar bo'yoqlar bilan tasvirlash, tasvirda asosiyni bo'rttirib ko'rsatish, tasvirda uzoq-yaqinlikni ifodalashda perspektiva qoidalariga amal qilishni o'rganadilar.

Dekorativ kompozitsiya mashg'ulotlarida badiiy-bezak ishlarida foydalaniladigan yo'lsimon, kvadrat, to'rtburchak, doira naqshlar, ochiq va yopiq naqshlar, nomoyon naqsh namunalaridan ko'chirish va mustaqil ijodiy ishlarni o'rganadilar. Bu ishlar bevosita buyum bezagi bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Shuningdek, taklifnoma, tabriknomalar tayyorlash kabi amaliy ishlar ham bajariladi. Milliy va chet el xalqlarining liboslari uchun eskizlar tayyorlanadi, tabiiy shakllarni stilizatsiyalash yuzasidan mustaqil ishlar olib boriladi.

Dekorativ kompozitsiya mashg'ulotlarida halq ertaklari, hikoyalar, dostonlar, she'rlar mazmuniga eskizlar ishlash katta o'rinni egallaydi. Bunda bolalar kitoblarni ichki va tashqi (muqova) bezagiga doir (bosh bezak, yakuniy bezak, zarhal harf, illyustratsiya) ishlarni bajaradilar. Dekorativ ishlarda o'quvchilar buyumlarning vazifalari, ularning shakli, bezak elementlarining o'zaro bog'liqligi haqida elementar tushunchalarga ega bo'ladilar hamda yuksak mahorat bilan tasvirlangan narsalarni didsiz, palapartish ishlangan narsalardan farq qilishni o'rganadilar.

Dekorativ kompozitsiya darslarida bolalarga har qanday naqshlarning elementlari tevarak-atrofdagi narsa va hodisalardan olingani haqida tushuncha beriladi. Binobarin, naqsh ishlash mashg'ulotlarida rasm ishlovchi real shaklni o'zgartirishi, uni soddalashtirishi, unga yangi elementlarni qo'shishi mumkinligini o'rganib oladi.

Shu bilan birga o'quvchilar turli xalqlarning bugungi dekorativ-amaliy san'ati hamda dizayn san'ati bilan tanishadilar. Dizayn ishlarida bolalar dazmol, choynak uchun taglik, quticha, libos uchun bezak eskizi, televizor, kreslo, yengil avtomobilni yangi markasi eskizlarini ishlash bilan shug'ullanadilar.

Haykaltaroshlik kompozitsiyasi mashg'ulotlarida odam, hayvon, qushlarning alohida haykallari, sport, hayvonot olami mavzularida, xalq ertaklari asosida tasviriy ijodiy ishlar bajariladi. Dekorativ haykaltaroshlik o'quvchilarda turli dekorativ bezakli rel'effar va o'yinchoq haykallar ishlash orqali maxsus bilim hamda malakalar hosil qiladi. O'zbek halq kulolchilik san'ati an'analari asosida "Toychoq", "Qo'zichoq", "Bo'taloq" kabi o'yinchoq haykalchalar ishlanadi. Fantastik mavzularda, dev, ajdarho, kentavr, suv parisi, xumo qushi kabilarni dekorativ haykallari ijodiy tarzda bajariladi. Bunday mashg'ulotlarda bolalar stek bilan ishlash, loy yoki plastilinni dumaloqlash, bosib yapaloqlash, silliqlash, cho'zish usullarini o'rganadilar.

Haykaltaroshlik mashg'ulotlarida ikki xil ish uslubi mavjud bo'lib, ularning birinchisi alohida-alohida loy yoki plastilin bo'laklarini bir-biriga yopishtirish orqali haykal ishlash bo'lsa, ikkinchisi yaxlit loy bo'lagiga stek bilan ishlov berish orqali haykal ishlashdir. Bularni bolalar yakka yoki guruh bo'lib bajaradilar. Kompozitsiyalardagi obrazlar soniga qarab, guruhdagi bolalar soni kam yoki ko'p bo'lishi mumkin<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> <https://fayllar.org/3--maruza-umumiy-orta-talim-maktablarida-tasviriy-sanat-talimi.html?page=4>

## V BOB. TASVIRIY SAN'AT DARSINI TASHKIL ETISH VA O'QITISH METODIKASI.

### Tasviriy san'atni o'qitishda didaktik prinsiplar.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at darslarini didaktik prinsiplarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Faqat amaliyot bilan nazariyani uzviy bog'lagan Holdagina dars va darsdan tashqari ishlarda ta'lim va tarbiyaning samarali bo'lishiga erishish mumkin. Didaktik prinsiplar va ularning asosiy masalalari Evropaning buyuk pedagog-olimlari YA. A. Komenskiy, J. J. Russo, I. G. Pestalotssilar tomonidan ishlab chiqilgan. Shuningdek, didaktik prinsiplarni ishlab chiqishda F. A. Disterveg va K. D. Ushinskiylar ham katta hissa qo'shganlar. Ular tomonidan ilgari surilgan g'oya hozirgi zamon didaktikasining asosini tashkil etadi.

Didaktik prinsiplar hisoblangan ta'lim va tarbiyaning birligi, ko'rgazmalilik, ilmiylik, onglilik va faollik, muntazamlilik va ketma-ketlilik, ta'lim mazmunini bolalarning kuchi va yoshiga mos bo'lishi maktabda tasviriy san'atni o'qitishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Maktabda tasviriy san'atni o'qitishda didaktik prinsiplar professorlar N. N. Rostovsev, V. S. Kuzin, R. Hasanovlar tomonidan ishlab chiqilgan. Ta'lim va tarbiya birligi prinsipi didaktik prinsiplarning eng asosiylaridan hisoblanadi va bu tasviriy san'atni o'qitish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, bugungi kunda ta'lim-tarbiyaning asosiy qismlaridan biri o'quvchilarni milliy istiqlol mafkurasi ruhida tarbiyalash hisoblanadi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> <https://muhoz.org/fani-boyicha.html?page=5>

O' . Tansiqboevning "Jonajon o'lka", X. Rahmonovning "May tongi", N. Karaxanning "Oltin kuz", Z. Inog'omovning "Choyga", YU. Elizarovning "Natyurmot" kabi asarlarida O'zbekiston ko'rk-jamoli yorqin aks ettirilgan. O'quvchilarni bunday asarlar bilan tanishtirishda bolalarda ona-vatanimizga bo'lgan ilk muhabbat paydo bo'ladi, shu zaylda ularda ona-vatanga, o'lkaga nisbatan mehr-muhabbat tuyg'ulari yanada kuchayadi.

Tasviriy san'at darslarida millatlararo totuvlik va baynalminal tarbiyani amalga oshirish imkoniyatlari ham katta va u turli mavzularda kompozitsiya ishlash, boshqa millat va halqlar hayotini ifodalovchi surat-larning reproduksiyalarini, halq ertaklariga ishlangan illyustratsiyalarni namoyish etish orqali amalga oshiriladi.

"Mehmonlarimiz", "Chet el delegatsiyasini kutib olish", "Turistlar" mavzularida rasm chizdirish yuzasidan o'tkaziladigan suhbatlarda o'quvchilar ongiga millatlararo totuvlik, do'stlik tushunchalarini singdirishga harakat qilinadi. Asar mazmunini ochishga yordamlashuvchi suhbatlar, turli millat va halqlarning qiyofalarini tasavvur etish, bolalar ijodining takomillashuviga, tasavvurlarining boyishiga olib keladi.

Turli millat yozuvchilarining asarlari va halqlarining og'zaki ijodiga xos illyustratsiyalar o'quvchilarga boshqa millatlarning hayoti, orzusi, g'oyalari bilan tanishish, sevis va tushunish imkonini beradi.

Tasviriy san'at darslarida millatlararo do'stlik, totuvlik Respublikamiz va chet el rassomlari tomonidan yaratilgan asarlar orqali ham amalga oshirildi. Respublikamiz rassomlari tomonidan yaratilgan asarlar orasida o'zbek halqining hayoti va mehnati, uning boshqa halqlar va

millatlar bilan totuvligi, ba'zi chet halqlarining hayoti va mehnati aks ettirilgan suratlarni ko'rish mumkin.

P. P. Benkov ("Dugonalar"), A. Abdullaev ("Shomahmudovlar oilasi"), L. Abdullaev ("Demobilizatsiya qilinganlarni kutib olish"), Q. Husniddinxo'jaev ("Navoiy va Jomiy"), A. Siglinsev ("Mening uyim, sizning hamuyingiz"), O'. Tansiqboev ("Issiqko'l oqshomi") va boshqalarning bir qator asarlari millatlararo totuvlik, do'stlik g'oyalarini aks ettirganligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, tasviriy san'at dasturiga bir qator Sharq va G'arb mamlakatlari rassomlarining ijodini o'rganish ham kiritilgan. Leonardo da Vinchi, Rafael, Mikelanjelo, Rembrant, Rubens, Kent, Píkisso, Matiss va boshqa chet el rassomlarining asarlari do'stlik va hamkorlik g'oyalarini amalga oshirishda boy material bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, dasturda Misr, Hindiston, Xitoy, Eron, Yaponiya kabi mamlakatlarning me'morchiligini o'rgatish ham nazarda tutilgan. O'qituvchi bunday san'at asarlarini tahlil qilar ekan, ularning o'ziga xos hamda umumiy belgilarini ta'kidlab o'tishi maqsadga muvofiq.

O'quvchilar tasviriy san'at asarlarini o'rganish orqali chet el mamlakatlari halqlarining mehnati va mehnatdagi jasoratlari, an'analari, odatlari, turmush tarzi Hamda tabiati bilan oshno bo'ladilar.

Jamiyat qurilishining muaffaqiyati har bir kishining mehnat qilish darajasiga bog'liq. Shuning uchun kishilarning jamiyat uchun nafi bo'lgan mehnatga nisbatan xatti-harakati asosiy ko'rsatkich sanaladi. Bu sifat mehnat tarbiyasi jarayonida vujudga keladi.

Tasviriy san'at darslarini o'quvchilar mehnat tarbiyasini amalga oshirishdagi imkoniyatlari katta. Bu masala tasviriy san'at darslarining barcha turlari - naturaga

qarab tasvirlash, kompozitsiya, san'atshunoslik asoslari mashg'ulotlari mazmunida ko'zda tutilgan.

Naturani o'ziga qarab tasvirlash jarayonida o'quvchilar turmushda qo'llaniladigan turli buyumlar, sabzavot va mevalar tasvirini ishlaydilar. O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilar mustaqil ish boshlamaslaridan oldin naturani qisqacha tahlil qilib, faqat buyumlar shakli, proporsiyasi, rangi va tuzilishi haqidagina emas, balki ularni yaratish uchun sarflangan katta mehnat haqida ham gapirib beradi.

Masalan, turmushga qo'llaniladigan ayrim san'at buyumlarining o'ziga qarab rasmini chizdirishda o'qituvchi o'quvchilarga buyumlarning vazifasi, shakli, ularning qanday materiallardan yasalgani, buning uchun qancha mehnat sarflangani va hokazolar haqida to'xtaladi. Shuningdek, o'zbek halq amaliy san'ati haqidagi suhbat darslarida o'qituvchi ularning turlari va ustalarning mehnat shijoatining o'ziga xos jihatlari haqida gapiradi.

"Paxta terimi", "Fermada", "Hosilni yig'ib-terib olish", "Maktab yer uchastkasida", "Qurilishda" kabi ishlar o'quvchilarni kattalar mehnati bilan tanishtiradi. Ishlab chiqarish korxonalariga qilingan sayohat bu masalada muhim ahamiyat kasb etadi. Sayohatda bolalar kishilarning qanday menat qilayotganlarini kuzatadilar, mehnat sharoitlari va uni tashkil etish yo'llari bilan tanishadilar, kattalar mehnatining natijalarini ko'radilar. Sayohat chog'ida ular kattalar mehnatining ahloqiy tomonini, ularning mehnatga bo'lgan munosabatini, mehnatning jamoaviy harakterini o'rganadilar. Bolalarni sayohat jarayonida olgan taassurotlari ularning rasmlarida aks etadi, natijada o'quvchilarning mehnat haqidagi tasavvurlari yanada kengayadi.

Tasviriy san'at dasturida halqimizning fidokarona mehnati va uning go'zalligni aks ettiruvchi asarlarini o'rganish ham ko'zda tutilgan. O'.Tansiqboevning "Paxtani sug'orish", "Chorovoq qurilishida", Z. Inog'omovning "Choyga" va boshqa asarlari shular jumlasiga kiradi.

Bolalar o'zbek rassomlari asarlarining qahramonlari bo'lmish artist A. Hidoyatov, halq Hofizi Mulla To'ycha Toshmuxammedov, amaliy san'at ustasi U. Jo'raqulov va boshqa o'z baxtini mehnatdan topgan kishilar bilan suvratlar orqali uchrashar ekanlar, ular, mehnat jamiyat hayotining, har bir shaxsining asosiy qonuni ekanligiga ishonch hosil qiladilar. Bunday darslarda o'quvchilarni turli kasblarga yo'llash imkoniyatlari ham paydo bo'ladi.

Natijada, o'quvchilar mehnat inson baxt-saodatining ma'naviy va axloqiy manbai, har qanday inson mehnat qilmog'i va mehnatni sevmog'i lozim, degan xulosaga keladilar. Shuningdek, bolalar odamlar faqat o'zi uchun emas, jamiyat uchun mehnat qilishlari kerak, mehnat kishilariga va ular yaratgan buyumlarga nisbatan hurmat bilan qarash lozimligi haqida tasavvurga ega bo'ladilar.

Maktabda tasviriy san'at estetik turkumdagi o'quv predmeti xisoblanib, o'quvchilarda badiiy va estetik didning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, ya'ni tasviriy san'at darslarida san'atdagi va borliqdagi go'zallikni ko'rish, tushunish va qadrlay olish hissi takomillashadi.

Naturani tahlil qilish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning diqqatini buyumlar shaklining nafisligi, qismlarning proporsionalligi, shakl va rang uyg'unligi, mazmun, shakl va vazifaning mosligi kabilarga jalb etadi. Natijada, o'quvchilarda naturaga nisbatan emotsional - estetik munosabatlar oshadi.

O'quvchilar naqsh chizishda, dekorativ - bezak ishlarida tabiat elementlaridan foydalanadilar. Bunga tabiat mahsulotlari yaxshi material bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilar tabiat materiallari va hayvonot dunyosini stilizatsiyalashtirib, takrorlanmas va chiroyli naqshlar tuzadilar.

Borliqni idrok etish va kompozitsiya darslarida tabiatni kuzatish va uni rasmlarda aks ettirish bolalar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar dars jarayonida tabiatni kuzatar ekanlar, ular daraxtlarning tuzilishini, shoh-shabalarning shakli va yo'nalishini turli-tumanligi, barglarning rangi va shakli, nafisligi va yoqimlilikini bilib oladilar. Shuningdek, gullarning rangi va shakli, xilma-xilligi, bahor va kuz manzarasining go'zalligi, ninachi, kapalak, qushlarning yengil va nafis parvozi ham o'quvchilarni hayajonlantiradi.

Yuqori badiiy saviyada yaratilgan tasvriy san'at asarlarini o'rganishda o'quvchilar ulardan estetik zavq olishadi. Suvrat kompozitsiyasining muvaffaqiyatli echilishi, ranglarning hamohangligi, borliqning haqqoniy tasviri bolalarni hayajonlantiradi. Bu faqat estetik tarbiyaga taalluqligina bo'lmay, balki, bolalarning tasvriy ijodiga, ularning san'atga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalashga bevosita aloqadordir. Bu borada manzara va natyurmort janrlarining roli kattadir.

San'at asarlari haqidagi suhbatlarda o'qituvchi, rassom ko'rganini shunchaki aks ettiribgina qolmay, balki u borliqdagi eng qiziq, eng chiroyli narsa va hodisalardan ta'sirlanib chizganligi, lozim bo'lgan taqdirda, u ko'rgan - kechirganlari va eshitganlarini mubolag'a bilan tasvirlashini hikoya qilib beradi.

Naturaga qarab tasvirlash jarayonida bolalar buyumlarning shakli, rangi, tuzilishini tahlil qiladilar. Masalan, choynakli natyurmotni tahlil qilganda, bolalar e'tibori choynakni turmush uchun zarur bo'lgan buyumlardan biri ekanligiga, uning shakli mazmuniga mosligi, uning qanday vazifaga mo'ljallanganligi, maqsadga muvofiqligi, ishlatishga qulayligi va hokozalarga qaratiladi. Dekorativ bezak darslari o'quvchilarning badiiy didini, ijodiy qobiliyatini o'stirish imkoniyatlariga ega. Darslarda o'quvchilar simmetriya, ritm, ranglarning mutanosibligi, kompozitsiyaning qonun va qoidalari bilan tanishadilar.

O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlari naqsh chizish, kitob muqovasi uchun eskiz ishlash, otkritka, choynak va dazmol uchun taglik eskizini ishlash jarayonida o'stirib boriladi. O'quvchilarning estetik tarbiyasida N. Karaxanning "Oltin kuz", Yu. Elizarovning "Tarvuzli natyurmort", O'.Tansiqboevning "Tog'larda kuz", "O'zbekistonda mart", L. Salimjonovanning "Natyurmort" nomli asarlari alohida ahamiyat kasb etadi<sup>1</sup>.

**Ilmiylik prinsipi** didaktik prinsiplarning eng asosiy-laridan biri bo'lib, u fan asoslarini chuqur o'zlashtirmasdan o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish mumkin emasligini bildiradi. Boshqa o'quv predmetlaridagi kabi bu prinsip tasviriy san'at darslarida ham amalga oshiriladi.

Tasviriy san'at atrof-muhitni his etish, undagi voqea va hodisalarni o'ziga xos jihatlarini bilishni talab etadi. Shu boisdan tasviriy san'at darslarida o'quvchilar chiziqli va havo perspektivasi, yorug'-soya, rangshunoslik, kompozitsiya qonunlarini yaxshi bilishlari talab etiladi. Shuningdek, odam va hayvonlarning plastik anatomiyasi haqida yetarlicha ma'lumotlarga ham ega bo'lishlari

<sup>1</sup> <https://muha2.org/fani-boyicha.html?page=5>

lozim. Tasviriy san'at dasturida o'quvchilarning bu qonunlarni o'zlashtirishlari ko'zda tutiladi. Perspektiva qonunlarini o'zlashtirmasdan realistik tasvir yaratish mumkin emas, desak mubolag'a bo'lmaydi. Rassom yoki o'quvchining rasm chizish uslubi har xil bo'lishi mumkin, lekin rasm yoki san'at asarlarining qurilishi bir xil, ilmiy asosda bo'lishi shart. Perspektiva qonunlari hisoblangan chiziqli va havo perspektivasi, ufq chizig'i, kesishish nuqtasi, kuzatish nuqtasi, buyumni bir yoki ikki kuzatish nuqtasi asosida rasmini ishlash, o'lchovlarni o'zgarish perspektivasi, och-to'qlikni o'zgarish perspektivasi, ranglarni o'zgarish perspektivasi, shakl va chegaralardagi aniqlikni kamayishi perspektivasi va boshqa realistik rasm ishlashga o'rgatishning asosini tashkil etadi.

Ilmiylik prinsipi tasviriy san'at o'qituvchilaridan dars jarayonida va sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarga berilayotgan barcha material va ma'lumotlar ilmiy bo'lishligini, maktab amaliyotida tekshirilgan hamda o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishligini talab etadi.

Tasviriy san'atni o'qitishda san'atning inson hayotidagi rolini tushuna bilish juda muhimdir. Jumladan, san'at ijtimoiy ongning alohida shakli ekanligini nazarda tutish kerak. Tasviriy san'at o'qituvchisi shuni tushunishi kerakki, o'quvchilar borliqdagi narsalarni chizish jarayonida ularning faqat tashqi ko'rinishinigina emas, balki uning ma'lum qonuniyatlariga asoslangan ichki tuzilishni ham bilib olishlari talab etiladi. Ko'p hollarda bu qonuniyatlarni bilmaydigan o'quvchilar buyumlarning shaklini to'g'ri tasvirlashda yanglishadilar.

**Ko'rgazmalilik prinsipi** tasviriy san'atni o'qitishda borliqdagi narsa va hodisalarning mohiyatini bilishga, uning

xarakterli xususiyatlari va qonuniyatlarini o'rganishga ko'maklashadi.

Naturani o'rganish chog'ida (sinfda va plenerda) o'quvchilarning kuzatuvchanlik va mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

O'qituvchida har doim ham o'rganilayotgan obyektни ko'rsatish imkoni bo'lavermaydi, bunday hollarda unga ko'rgazmalilik yordam beradi. Bu esa o'quvchilarda mazkur sohaga bo'lgan qiziqishni jonlantiradi.

O'quvchi naturadan rasm chizish jarayonida doim izlanadi, shakllarni solishtiradi, naturaning tuzilishi, o'lchovlari, shakllari, rangi kabilarni bilib oladi. Shubhasiz, bularning hammasi o'quvchilarda kuzatuvchanlikni rivojlanishiga olib keladi.

Ma'lumki, bolalarda fikrlash konkretlikdan abstraktlikka borish jarayonida rivojlanadi. Tushuncha va obstrakt qoidalar ma'lum dalil, misol va obrazlar bilan mustahkamlangandagina o'quvchilar ongiga oson etib boradi.

Ko'rgazmalilik tasviriy san'at darslarida boshqa o'quv predmetlaridagidek yordamchi emas, balki o'quvchilarda tushuncha va tasavvurlar hosil qiluvchi asosiy materialdir.

Naturaning o'ziga qarab rasm chizish darslarida uni naturasiz tasavvur etib bo'lmaydi, bu o'rinda tasviriy san'at darslarida ko'rgazmalilik prinsipining roli juda katta.

Darslar uchun ko'rgazmali qurollar tayyorlash va tanlashda ularga quyidagicha talablar qo'yiladi:

1. Darsning maqsad va vazifalariga mosligi.
2. O'quvchilarning yosh xususiyatlariga mosligi.
3. Ko'rgazmaning aniqligi, tushunarli bo'lishi.
4. Tasvirning sifatli bo'lishi.

5. Ko'rgazmalar o'zining rang-barangligi bilan o'quvchilarda zavq va qiziqish uyg'otishi.

6. Estetik talablarga mosligi.

Rasmlar, asarlarining reproduksiyalari, badiiy asarlarga ishlangan illyustratsiyalarni tanlashda quyidagilar e'tiborga olinishi kerak:

1. Materiallarning g'oyaviyligi.

2. Badiiyligi.

3. Tasviriy san'at darslarining o'quv-tarbiya vazifalariga mosligi.

4. Bolalar idrokiga mosligi.

Ko'rgazmalilikdan o'rinni, maqsadga muvofiq ravishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda foydalanilsa, u yaxshi natijalar berishi mumkin.

Ko'rgazmalilikning ikki turi mavjud:

1. Tabiiy ko'rgazmali qurollar.

2. Tasviriy ko'rgazmali qurollar.

Tabiiy ko'rgazmali qurollarga shakli, rangi, tuzilishi tabiiy bo'lgan buyumlar (meva va sabzavotlar, turmush buyumlari, o'quv qurollari, amaliy san'at buyumlari va hokozo) ni kiritish mumkin.

Tasviriy ko'rgazmali qurollarga rasmlar, tablitsalar, hayvon va qushlarning tulumlari, suratlarning reproduksiyalari, geometrik gipsli shakllar, pedagogik rasmlar, fotografiya va boshqa sun'iy usul bilan tayyorlangan tasviriy vositalar kiradi. Sanab o'tilgan ko'rgazmali qurollar quyidagicha guruhlanadi:

1. Mehnat va turmush buyumlari. Bu guruhga geometrik shakllar, sabzavotlar, mevalar, qushlar, hayvonlar, gullar va o'simliklar, amaliy san'at buyumlari.

2. Buyumlarning tuzilishi, perspektiva qonunlari, yorug'-soya, rangshunoslik, dekorativ stilizatsiyaga bor.

geometrik shakldagi simdan yasalgan modellar, vidoiskatel va boshqa ko'rgazmalar.

3. Rasmlar va tablitsalar. Unda rasm va naqsh chizishdagi ketma-ketlilik, atrof-muhitning perspektiv ko'rinishlari, amaliy san'at asarlarining tasvirlari.

4. Rassomlar asarlarining reproduksiyalari, amaliy san'at asarlarining tasvirlari. Bunday ko'rgazmali qurollar yordamida yorug'-soya va rangshunoslik, kompozitsiya qonunlari tushunitiriladi.

5. Bolalarga naturani chizishda ketma-ketlilikni, har xil eksponatlar bilan ishlash uslubini, buyumlarning qurilishini, tasvirlanayotgan predmetlar va obyektarning fazoviy holatini ko'rsatuvchi pedagogik rasmlar va boshqalar.

6. Namoyish qilinadigan ko'rgazmali qurollar (diapozitivlar, diafilmlar, slaydalar, kinofilmlar). Bular orqali o'quvchilar turli rassomlar, halq amaliy san'ati ustalari bilan, tasviriy san'at asarlarini yaratish texnikasi va texnologiyasi bilan tanishadilar.

Ayrim o'qituvchilar ko'rgazmalilikning rolini noto'g'ri baholab, bu masalada qo'pol xatoga yo'l qo'yadilar. Ular ko'p hollarda ko'rgazmali qurolning mavjud emasligidan yoki ularning rolini noto'g'ri tushunganliklaridan o'quvchilarga turmushda uchraydigan buyumlar, o'simliklarning rasmini xotiradan tasvirlashni vazifa qilib beradilar. Xotiradan rasm chizishni suiste'mol qilish, atrof-muhitdagi buyumlarning shakli, tuzilishi, rangi, yorug'-soyasini noto'g'ri idrok qilishga olib keladi.

Har qanday turdagi narsaning o'ziga qarab rasmini chizish, kompozitsiya, san'atshunoslik asoslari darslarida va sinfdan tashqari ishlarda ko'rgazmalilik o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Illyustrativ rasm ishlash darslarida badiiy asar mazmuni bilan bog'liq o'sha davr kishilarining hayoti va mehnati, tabiat va me'morchilik ko'rinishlari, shuningdek mavzu bilan bog'liq tabiat obyektlarini kuzatishga aloqador bo'lgan ko'rgazmali qurollar namoyish etiladi.

Dekorativ kompozitsiya darslarida ko'rgazmalilikdan turli yo'nalishlarda foydalaniladi. Masalan, "Navro'z" bayrami uchun taklifnoma bezak eskizini ishlash darsida shu mavzulardagi otkritkalar ko'rgazma vazifasini o'taydi. Shuningdek, choynak va dozmol tagliklarining badiiy eskizini tuzish darslari uchun choynak, dazmol va turli xil tagliklar ko'rgazma bo'lib hisoblanadi.

San'atshunoslik asoslari darslarida rassomlar asarlarining reproduksiyalari yoki diapozitivlari, slyda, diafilm, kinofilmlar namoyish etiladiki, ularsiz san'at asarlari haqida fikr yuritish qiyin. Shuningdek, san'at asarlarining reproduksiyalari, rasm chizishdagi ketma-ketlilikni ko'rsatuvchi rasm-sxemalar, rangshunoslik, yorug'-soya, kompozitsiya va perspektiva yuzasidan tablitsalarni ko'rsatilishi, o'qitishda texnika vositalaridan foydalanish va boshqalar ham ko'rgazmalilikning samarali shakllaridan hisoblanadi.

Pedagogik rasm chizishning keng tarqalgan turi o'qituvchining doskada yoki qog'ozda rasm chizib ko'rsatishi hisoblanadi va u bolalarga amaliy yordam berishda qo'l keladi.

Pedagogik rasmning qiymati shundaki, u bevosita o'quvchilarning ko'z o'ngida bajariladi. U o'qituvchining fikrlarini o'quvchilarga oson va sodda qilib yetkazishda yordam beradi.

Doskadagi rasm o'qituvchining asosiy g'oya va fikrlarini o'zida aks ettirishi lozim. Tasodifiy va ikkinchi darajali rasmlarga sinf doskasida o'rin bo'lmasligi kerak.

Doskada rasm chizish hamma o'qituvchilarning ham (Hattoki tajribali va ma'lumotli o'qituvchining ham) qo'lidan kelavermaydi. U o'qituvchidan ma'lum tayyorgarlikni talab etadi. Bu tayyorgarlik esa alohida mashqlarni bajarishni nazarda tutadi.

Tasviriy san'atni o'qitish metodikasiga doir ko'rgazmali qurollar etarli bo'lmagan hollarda ularni o'qituvchilarning o'zlari tayyorlashlariga to'g'ri keladi. Bunda shuni hisobga olish lozimki, hamma ko'rgazmali qurollar ham foydali bo'lavermaydi, ba'zan ayrim ko'rgazmali qurollar o'quvchilarga tarbiyaviy ishlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi ham mumkin.


O'qituvchi ko'rgazmali quroldan foydalanish me'yori-bilgandagina u ijobiy natijaga erishishi mumkin. Ko'rgazmali materiallarning haddan tashqari ko'p bo'lishligi o'quvchilar diqqatini asosiy masaladan chalg'itadi va natijada asosiy narsa e'tibordan chetda qolishi mumkin. Ko'rgazmalilikning yetarli bo'lmasligi esa o'qituvchi tomonidan fikrni chala va yuzaki bo'lishgiga olib keladi.

Ko'rgazmali quroldan foydalanish masalalari o'qituvchining nutqi bilan ham bog'liq. Nutq va ko'rgazmalilikning uyg'unligi ikki jihatdan foydali bo'lishi ish joyda ko'rinadi. Chunonchi, birinchidan, o'qituvchining nutqi ko'rgazmalilikka ko'maklashsa, ikkinchidan ko'rgazmalilik o'qituvchi nutqiga ko'maklashadi.

Tasviriy san'atni o'qitishda, ayniqsa narsaning o'ziga qarab rasm ishlash va san'atshunoslik asoslari darslarida ikkinchi yo'l ko'proq qo'llaniladi.

Agar ko'rgazmalilikning birinchi yo'li bilim, qonun va tushunchalarni o'zlashtirishga yordam bersa, ikkinchi

yo'li pedagogga bu qonun-qoidalarni, atrof-muhitdagi hodisalarni isbotlashda o'qituvchiga ko'maklashadi. O'qituvchining so'zi sinfda zaruriy muhit hosil qilishda, o'qituvchilarning ijodiy faoliyatini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun o'qituvchining nutqi 'ravon, tushunarli va ma'noli bo'lishi lozim' (9-rasm).



9-rasm. Ko'rgazma tayyorlash jarayoni.

**O'qitishning ongli bo'lish va o'quvchilarning bilish faolligi prinsipi** o'quv jarayonining o'stiruvchi va tarbiyalovchi rolini oshirishga olib keladi. Onglilik prinsipining ahamiyati fan, texnika va madaniyat gurkirab rivojlangan hozirgi davrda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

<https://muham.org/fani-boyicha.html?page=5>

Bu prinsip o'qituvchi tomonidan berilayotgan bilimlarni ongli, tushungan holda o'zlashtirishni bildiradi. O'quvchilar bu bilimlarni ko'r-ko'rona emas, balki berilayotgan tushuncha ma'lumotlarni ma'no mohiyatini anglab etgandagina uning bilimlari chuqur va mustahkam bo'ladi va u bolalar xotirasida uzoq saqlanadi. Bunga erishish uchun o'quvchilarning faolligi diqqati va mustaqil ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, o'ziga qarab rasm chizish darslarida naturani sinchiklab o'rganish ularning tuzilishi, hajmi, shakli, o'lchov va ranglaridagi xarakterli xususiyatlarini bilish kerak bo'ladi.

Masalan o'quvchi:

- san'atni kishilar hayotidagi ahamiyatini tushunib etishi;

- kompozitsiya ishlaganda uning qonun va qoidalariga rioya qilishi;

- naturaning tuzilishi, o'lchovlari, shakllari, ranglariga qat'iy rioya qilishi;

- har qanday narsa asosida u yoki bu geometrik shakl yotishi;

- rasm chizganda ufq chizig'ini chizib olish va yagona ko'rish nuqtasiga rioya qilishi.

Tasviriylar san'at asarlariga oid materiallarning ongli o'zlashtirilishi ilmiylik prinsipidagidek perspektiva, rangshunoslik, optika va yorug'-soya qonunlari, anatomiyadan ba'zi ma'lumotlarga ega bo'lishi bilan bog'liq. Bu qonunlarni egallamasdan turib, o'quvchilar o'z tasviriylar faoliyatlarini to'g'ri amalga oshira olmaydilar.

Faraz qilaylik, o'quvchi uyida chizish uchun geometrik shakldagi turmush buyumlaridan natyurmot qo'ydi. U perspektiva qonunlari, ufq chizig'i, kuzatish nuqtasi, buyum va surat tekisligi, kesishish nuqtasi,

narsalarning o'Ichovlarini perspektiv qisqarishini bilmay turib o'z oldiga qo'ygan maqsadini to'g'ri hal qila olmaydi. Yorug'-soya qonunlari hisoblangan tabiiy va sun'iy yoritish, tushuvchi va shaxsiy soya, nutura yoritilganida soyalarning joylashuvi, yorug'-soya, yarimsoya, blik, refleks va boshqalarning bilmagan o'quvchi buyumlarning hajmini to'g'ri tasvirlay olmaydi.

O'qitishning samaradorligi ko'p hollarda o'quvchilarning uydagi va darsdagi faolligiga bog'liq. Bu faollik xilma-xil bo'lishi kerak.

Topshiriq yuzasidan mavzuni belgilashda o'quvchilarning hayvonlar, qushlar, sportga bo'lgan katta qiziqish uyg'otishini hisobga olish lozim bo'ladi.

O'quv jarayonini samarali bo'lishida solishtirish, taqqoslash, naturani kuzatish va tahlil qilishning ahamiyati katta. Natura tahlilini savol-javob shaklida o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi, aks holda o'quvchilar naturani yuzaki o'rganish bilan cheklanib qolishlari mumkin.

Buyumlarni to'g'ri chizish uchun ularning tuzilishi, shaklini to'g'ri belgilash bilan birga fazoviy holatini to'la tasavvur etish kerak bo'ladi. Shundagina predmetlar rasmini ishlashga o'tish mumkin.

O'quvchilardan tasviriy san'atga oid atamalarni ongli o'zlashtirishlarini talab etilishi va ularni buzib ishlatilishiga yo'l qo'ymaslik lozim. Rasm chizish jarayonida o'quvchilarning ba'zi atamalarni o'zlashtirib olishlarini o'zi etarli emas, ularga atamalarning kelib chiqishi, ahamiyati haqida ma'lumotlar berish kerak bo'ladi. Bu esa o'quvchilarga ilmiy tushunchalarni, atamalarni to'g'ri ishlatishlariga yordam beradi.

O'quvchilar hodisalarning bir-biri bilan o'zaro bog'liqligini tushunishlari juda muhim. Hodisalarni o'rganishda

ularning rivojlanishini nazarda tutgan holda qarama-qarshilikning sabablarini ham tushuntira olishlari kerak bo'ladi.

O'quvchilarning faolligini oshirishda maqsadga muvofiq yo'naltirilgan muommoli vazifalarni qo'llash katta yordam beradi. Tadqiqot natijalari va o'qituvchilarning ishlari shuni ko'rsatadiki, tasviriy san'atni o'qitishda o'zlashtirib bo'lingan bilim va malakalar ularni faqat tiklashgagini emas, balki yangi materiallarni chuqur anglashga, dunyoqarashga doir xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

Mantiqiy vazifalarni hal etish muammoli o'qitish bilan bog'lanadi. Muammoli vaziyatlar hosil qilish esa mantiqiy vazifalarni yechishga sharoit yaratadi. Mantiqiy fikrlash predmet va hodislardagi eng muhim tomonlarni ajrata olish, ko'p dalillar ichidan tipiklarini ko'rsata olish, shakllangan tushunchalardan to'g'ri foydalanish, perspektiva, rangshunoslik, kompozitsiyaning asosiy qonun va qoidalariga rioya qilish imkonini beradi.

O'quvchilar ufq chizig'i, chiziqli va havo perspektivasi, kesishish nuqtasi, buyumlar shaklining perspektiv qisqarishi haqida to'liq ilmiy tushunchalarga ega bo'lishlari kerak.

Dialektik tarzda fikr yuritish formal, mantiqiy fikrlash bilan bog'liq va unga doimo tayanishni nazarda tutadi. Mantiqiy fikrlash obyektiv borliq hodisalar mantiqini aks ettiradi. Qaysiki, unda hamma narsa o'zaro bog'liq va aloqadordir.

Atrof-muhitni to'g'ri tushunish uchun o'quvchilar hodisalarning sabablari va oqibatlarini ko'rib va bilib olishlari kerak. Bu esa dialektik fikrlash va xulosa chiqarishning shakllanishiga ko'mak beradi.

Bizningcha, o'qitishda o'quvchilarning mustaqil bilim olish jarayonini faollashtirishda va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda bilimlarning muammoli bayon etish yo'lidan keng foydalanish va qisman izlanish va ilmiy tadqiqot metodlarini qo'llash lozim. O'qitish jarayonining samaradorligini oshirish bevosita o'quvchilarning faol psixik faoliyati (intellektuallik, emotsionallik) bilan bog'liqdir. Bunda g'oyalarni chuqur tushunish kamlik qiladi. Lekin, shunday amaliy faoliyat tashkil qilish lozimki, unda g'oyalar ichki hissiyotlar tufayli to'la ongli ravishda harakat orqali yaqqol namoyon bo'lsin, mustahkamlansin. Bunga badiiy asarlarni ifodali o'qish, hikoya qilish, muzika tinglash, slaydlar ko'rsatish orqali erishish mumkin. Agar o'qituvchi voqea va hodisalarni ta'riflashda ularning go'zalligi, nafisligi, yoqimlilikiga alohida e'tibor bersa, talay natijalarga erishishi mumkin. Shuningdek, buyumlarning shakllari, o'lchovlaridagi proporsionallik, yorug'-soya nisbatlari va boshqalarni san'at asarlari orqali tahlil qilib berish lozim.

O'qitishni faollashtirish uchun o'quvchilarni muntazam va maqsadga muvofiq ravishda rag'batlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Yaxshi ishlarni butun sinfga ko'rsatish yoki ularni maktab ko'rgazmasiga tavsiya etish, o'z kuchiga ishontirish, obyektiv tanqid, turli xildagi yordamlar orqali o'quvchilarni rag'batlantirish mumkin.

O'qituvchining tajriba va bilimi kuchli o'quvchining mustaqil faoliyatiga qaratilgan bo'lishi kerak. Bolalarga ishora, yordamchi savol, ish yo'nalishi va kamchiliklarini ko'rsatish orqali yordam berish kerak.

Boshqa fanlarda bo'lganidek, tasviriy san'at darslarida ham materiallarni muntazam va ketma-ket bayon etish prinsipi muhim ahamiyatga ega. Bu prinsip butun kurs

davomida o'quv materiallarini mantiqan izchil joylashishini va har bir mavzu oldindan olingan bilim, malaka va tajribalarga suyanan holda, yangi materiallarni o'tilganlar bilan bog'lab bayon etilishi lozimligini nazarda tutadi.

Amaldagi tasviriy san'atdan davlat ta'lim standarti materiallarni bayon etishning faqat ma'lum ketma-ketlikda amalga oshirishnigina emas, balki uning muntazam bo'lishligini ham nazarda tutadi.

Ba'zan shunday hollar ham bo'ladiki, bunda o'qituvchilar bilim berishning bu muhim prinsipini to'g'ri baholay olmaydilar. O'quvchilarga berilayotgan vazifalarda bolalarning ilgari olgan bilim va malakalari hisobga olinmaydi. Natijada ular berilgan vazifani uddalay olmaydilar. Shuning uchun ish rejalarini shunday tuzish kerakki, o'quvchilar har bir darsda yangidan yangi masalalarni hal etsinlar. Lekin, yangi materiallarni o'quvchilar o'tilgan materiallarni o'zlashtirib va mustahkamlab olganlaridan so'nggina berish lozimligini hisobga olish lozim.

Narsaning o'ziga qarab rasim chizish darslarini kompozitsiya darslari bilan, san'atshunoslik asoslari darslarini narsaning o'ziga qarab, kompozitsiya darslari bilan bema'lol bog'lash mumkin. Tasviriy san'at darslarining har bir turini o'zaro bog'liqlikda amalga oshirish orqali yaxshi natijalarga erishish mumkin. Bir o'quv fanining boshqa o'quv fanlari bilan aloqasi tasviriy san'atni o'qitishda yagona tizimni tashkil etish imkonini beradi. Ayrim hollarda shunday bo'ladiki, hamma mavzular ham o'tilgan materiallar bilan bog'lanavermaydi. Bu o'qituvchidan o'quv materiallarini chuqur o'rganishni, natura uchun buyumlarni, suvratlar, reproduksiyalar, slaydlar va boshqa

ko'rgazmalarni tanlashga jiddiy munosabatda bo'lishlikni talab etadi.

Masalaga bunday yondashilganda materiallarni bayon etishda parallelizm va qaytarilishlarga yo'l qo'yilmaydi. Masalan, pedagog taqvimiy yillik mavzularni rejalashtirganda o'quvchilarning rangshunoslikdan oladigan bilimlari quyidagicha ketma-ketlikda bo'lishi mumkin: asosiy va hosila ranglar, hosila ranglarni hosil qilish, ranglar kontrastligi, qonunlari, iliq va sovuq ranglar, atrof-muhitni ranglar ta'sirida o'zgarishi, murakkab hosila ranglar, rang va yorug'lik, buyumlar rangini uning foni bilan aloqasi, havo perspektivasi va boshqalar.

Tasviriy san'atni o'qitishda nazariy materiallarni amaliy materiallar bilan bog'liqligi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Nazariya bilan amaliyotning bog'liqligi bolalarning tasviriy faoliyatida, dars jarayonida, to'garak mashg'ulotlarida, jamoa ishlarida, ya'ni devoriy gazetalar chiqarish, albom bezash va shu kabilar orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, tasviriy san'at janrlari yuzasidan nazariy mashg'ulotlardan so'ng ana shu janrlarda amaliy mashg'ulotlarni o'tkazilishi, o'tilganlarni mustahkamlash, yangisini oson o'zlashtirish imkonini beradi.

**O'qitishning o'quvchilar yoshiga va kuchiga mos bo'lishi prinsipi** berilayotgan bilimlar yoki ular o'zlashtirilishi lozim bo'lgan materiallarni murakkablik darajasini bolalar yoshiga va kuchiga mos bo'lishini nazarda tutadi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ayrim o'qituvchilar 5-7 sinflarda ham to'rtburchak, doira shaklidagi naqshlar ishlashni davom ettiradilar. Bu topshiriqlar 3-4 sinflardagi vazifalardan deyarli farq qilmaydi. Bulardan tashqari, o'quvchilarga doskaga chizilgan tayyor naqshdan nusxa ko'chirish tavsiya etiladi. Bundan, ular beriladigan

topshiriqlarning bolalarga oson bo'lishiligini nazarda tutadilar. Lekin, topshiriqlarning o'ta jo'n bo'lishi ham yaxshi emas, ular birinchidan bolalarning mustaqil fikrlashlarini susaytursa, ikkinchi tomondan ulardagi rivojlanishni to'xtatadi.

Ma'lumki, o'quvchilar harakat va qobiliyat jihatidan bir-birlaridan farq qiladilar. Bu vaziyat o'qituvchidan o'quvchilar bilan yakkama-yakka ish olib borishni talab qiladi, ya'ni o'qituvchi bolalarni bilim va malakalari darajasini hisobga olgan holda ularga turlicha murakkablikdagi vazifalarni ishlab chiqadi, ularning tasviriy ishlarini to'g'rilashga ba'zi nazariy va amaliy vazifalarni tushintirish maqsadida doskada rasm ishlab ko'rsatishiga to'g'ri keladi.

O'qitishning o'quvchilar yoshiga maosligi prinsipi qadimdan qo'llanib kelingan. Bunda, yaqindan uzoqqa, ma'lumdan noma'lumga, oddiydan murakkabga, osondan qiyinga, konkretlikdan abstraktlikka prinsiplariga asoslaniladi. Pedagogikada bu prinsip qadimdan tajribadan o'tganligi sababli o'qituvchini o'z faoliyatida shu yo'ldan borishi ko'zlangan maqsadga erishuviga asos bo'ladi. Kezi kelganda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, hamma oson narsalar ham bolalarga tushunarli bo'lavermaydi va aksincha murakkab materiallar tushunarli bo'lishi ham mumkin. Bunda o'quvchilarning yoshi, pedagogik-psixologik xususiyati, bilim darajasi, tayyorgarligi, qobiliyati muhim rol o'ynaydi. Masalan, tasviriy san'atni o'qitishda yaqindan uzoqqa borish prinsipida ish tutish maqsadida o'qituvchi avval bolalarga yaqin bo'lgan o'zbek halqining tabiati, turmushi, mehnatini tasvirlovchi O'zbekiston rassomlari asarlarini, so'ngra O'rta Osiyo, Sharq, Yevropa mamlakatlari san'atini o'rgatadi.

Yuqoridagi fikrlardan maktabda tasviriy san'atdan dars va darsdan tashqari ishlar jarayonida didaktik prinsiplarga rioya qilishning nihoyatda muhimligini sezib olish qiyin emas. Didaktik prinsiplar o'quvchilarning badiiy ta'limi, tarbiyasi va rivojlanishiga shart-sharoitlarni yaratadi<sup>1</sup>.

### **Boshlang'ich 1-4 sinflarda "Tasviriy san'at"ni o'qitish metodikasi.**

Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'atni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, avvalo bu sinflardagi ta'lim mazmuni kichik maktab yoshidagi bolalarning yoshlik xususiyatlari va psixologiyasi, qiziqishi, ulardagi mavjud bilim va qobiliyat hamda layoqatlariga qarab belgilanadi.

Ma'lumki, bolalarda tasviriy faoliyatga, xususan rasm chizishga ishtiyoq nihoyatda erta boshlanadi. Uni 2-3 yoshlardan boshlanishi tarixdan ma'lum. Shunisi xarakterliki, bolalar o'qish va yozishdan ko'ra rasm chizishni juda yoqtiradilar. Biroq ular chizadigan rasmlarning davomiyligi juda qisqa bo'ladi, 1-2 minut, ko'pi bilan 4-5 minutda har qanday rasmini tugallab qo'yadilar.

Bolalar tomonidan chizilgan rasmlar savodli bo'lmasada, biroq mazmunan biron-bir ko'rinishni, voqeani yoki buyumni o'z iqtidorlariga yarasha, ularning xarakterli belgilarini tasvirlay oladilar. Bo'yoqlar bilan ishlash ularga ma'lum qiyinchiliklar tug'dirishi sababli ulardan foydalanishni aytartik xush ko'rmaydilar. Lekin turli yorqin ranglar bilan bo'yalgan buyumlar bolalarda katta qiziqish uyg'otadi. Rasmlari yaxshi chiqmagan holda o'z ishlaridan ixloslari tez qaytadi. Bunday sharoitda o'qituvchining

---

<sup>1</sup> <https://muhaz.org/fani-boyicha.html?page=5>

bolalarga tez yordam ko'rsatishi va kayfiyatini ko'tarishga harakat qilishi foydadan holi bo'lmaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasviriy faoliyatlarining xarakterli jihatlaridan yana biri ularning chizadigan rasmlarini soddalashtirishga bo'lgan harakatlaridir. Ular ayrim narsalarning oldi ko'rinishini (uy, odam, kitob, soat, portfel) ayrimlarini yon tomonidan (mashina, qayvonlar, qushlar, baliqlar, bayroqcha v.b.), yana boshqalarini ustki tomonidan (kapalak, barg, ninachi, qo'ng'iz v.b.) tasvirlaydilar. Bunga asosiy sabab bu yoshdagi bolalar hali narsalarni yorug'-soya, perspektiv qisqarishi va ularning qoidalarini uncha tushunib yetmaganliklaridir. Bolalar ijodiga xos yana bir jihat bor, u ham bo'lsa tasvirlarni (buyumlarni) birbirlarini to'sib turgan (yoki qisman) holda tasvirlanmasligidir.

Chunki bolalar narsalarni doimo butun holda idrok etadilar. Yuqorida qayd qilingan tasviriy faoliyatlarning bu hususiyatlari bolalar tafakkurining konkret, obrazli va emotsional tarzda bo'lishligi bilan bog'lanadi. Endi boshlang'ich sinflarda tasviriy san'at darslarini o'tkazish metodikasining o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtaladigan bo'lsak avvalo uning quyidagi to'rt turi qayd qilinishi lozim:

1. Borliqni idrok etish.
2. Badiiy qurish-yasash.
3. Naturaga qarab tasvirlash (naturaga qarab rasm ishlash, naturaga qarab haykal ishlash).
4. Kompozitsion faoliyat. Borliqni idrok etish mashg'ulotlari 1-4-sinf dasturida aks etgan bo'lib, uning maqsadi bolalarni o'rab olgan borliq haqida, ulardagi narsa va hodisalarning tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari, o'lchov nisbatlari haqida tasavvur hosil qilishdir.

Chunki, bolalar tevarak-atrofni, ya'ni tabiat, hayvonlar va qushlar olami, hashoratlar va baliqlar, odamlar, obi-havo, predmet va buyumlar, qurilish va transport vositalari haqida yaxshi tasavvurga ega bo'lganliklari taqdirdagina ularning rasmlarini aniq-ravshan tasvirlaydilar. Borliqni idrok etish mashg'ulotlarining mazmunidan kelib chiqqan holda amaliyotda ularni o'rganishi kerak bo'lgan quyidagi yo'llar qo'llaniladi:

1. Buyumni, tabiatni o'ziga qarab kuzatish orqali o'rganish.

2. Borliq haqida o'qituvchining suhbatini orqali o'rganish.

3. Savol-javob orqali o'rganish.

4. Borliqni rasmini chizish orqali o'rganish.

5. O'qituvchining pedagogik rasmi orqali o'rganish v.b.

O'qituvchilar uchun namoyish etiladigan narsalar va tasvirlar avvalo mashg'ulot mavzusi bilan bog'liq holda bo'lib, ular o'z tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari bilan sodda, tushunarli, bolalarda his-hayajon uyg'otadigan bo'lishligi maqsadga muvofiqdir. Eng muhimi, bunday materiallar o'quvchilarni o'ylashga majbur etadigan, bolalarni yangi tushunchalar bilan boyitadigan bo'lishligi muhim.

Namoyish etiladigan narsalar, ularning tasvirlari haqidagi ma'lumotlarni bolalarga og'zaki yetkazishda ularning tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tahlil bevosita narsalarning tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari, ularning mohiyati haqida savol-javob tarzida o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Quyida borliqni idrok etish mavzusiga doir mashg'ulot ishlanmasi beriladi. Dasning mavzusi:

Kuzgi tabiat manzarasini idrok etish. Darsning vazifalari: Kuzatuvchanlik, sinchkovlik, diqqat va xotirani o'stirish. Tabiatdagi go'zallikni ko'ra bilishga va qadrlay

olishga o'rgatish. Kuzgi tabiat manzarasining o'ziga xos xususiyatlari va kuzgi ishlar bilan tanishtirish. Darsning jihozlanishi: Kuz fasli tasvirlangan rasm. Kuzgi ishlarga doir manzara tasviri. Tabiat qo'yniga sayohat. Uni tashkil etishning imkoni bo'lmagani taqdirda san'at asarlarining reproduksiyalaridan foydalanish mumkin. Masalan: O'. Tansiqboevning "Tog'da kuz", Z. Inog'omovning "Kuz", N. Karaxanning "Oltin kuz", I. Haydarovning "Oltin kuz", H. Basharovning "O'zbek kuzi. Shaftolilar", G. Chernuxinning "Farzandlar va nabiralar", Usta Mo'minning "Xirmonda" va boshqalar. Bu asarlarning hammasi bilan o'quvchilarni tanishtirish shart emas. Ulardan ayrimlari (o'z xoxishiga ko'ra) tanlab olinadi.

Darsning mazmuni: Mashg'ulot asosan ikki yo'nalishda olib boriladi. Birinchisi, kuzgi tabiat manzarasining xarakterli xususiyatlarini estetik idrok etish, ikkinchisi kuzgi ishlarning o'ziga xos tomonlari bilan tanishtirish. Bu vazifalarni amalga oshirish maqsadida o'qituvchi shunday obyektни tanlashi lozimki, bu obyekt ham kuz, ham kuzgi ishlar uchun xarakterli ko'rinishda bo'lsin.

Dars o'quvchilarni maktab bog'i yoki dalaga sayohatga olib chiqish va u yerda amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishtirishdan boshlanadi. Sayohat jarayonida o'qituvchi bolalar e'tiborini chiroyli kuz manzarasiga jalb etadi. Ularga kuz fasli va bu vaqtdagi o'zgarishlar haqida so'zlab beradi: "Bolalar, mana hozir kuz fasli. U nihoyatda chiroyli, chunki, kuzda havo soviy boshlaydi, natijada daraxtlarning barglari o'z rangini o'zgartiradi. Ba'zi barglar qizg'ish tusga kiradi. O't-maysalar sarg'aygan bo'ladi, qisqasi, ular oltin rangga burkanadilar. Osmonda yengil parcha-parcha bulutlar paydo bo'ladi. Ertalab kuzgi ekin va o'tlarning usti oppoq qirov bilan qoplanadi. Yerga to'kilgan daraxt

barglari oyoq ostida shitirlaydi. Oktabr oyida kech pishar mevalar terib olinadi va tokdagi shirinshakar uzumlar uziladi. Yong'oq qoqiladi, kechki kartoshka, sabzi, piyoz, lavlagi kabi savzavotlar yig'ishtirib olinadi. Bunday ishlarni amalga oshirishda o'quvchilar ota-onalariga, maktab bog'ida esa maktab jamoasiga yordam beradilar. Kuzda shahar va qishloqlarda ko'chat o'tkazish oyligi boshlanadi.

Bu ishlarda ham bolalar kattalar bilan bir qatorda qatnashadilar. Kuzgi yig'im-terim ishlari nihoyatda zavqlidir. Sayohat jarayonida o'qituvchi emotsional-estetik vaziyat hosil qilish maqsadida bolalarga kuz va kuzgi ishlar haqidagi she'rlardan namunalar o'qib beradi. She'r o'qib bo'lingandan so'ng, tabiatning ko'rinishi bolalar bilan birgalikda tahlil qilinadi.

Tahlil jarayonida kuzatilayotgan manzara yuzasidan bolalarga savollar beriladi. Bu savollar quyidagicha bo'lishi mumkin: – kuzda tabiatda qanday o'zgarishlar ro'y beradi? – qarshingizdagi manzarada qanday daraxt turlarini ko'ryapsiz? – daraxtlarning o'lchovi bir xilmi? – daraxtlarning shakli bir-biridan qanday farq qilib turibdi? – e'tibor bering, daraxt shoxlarining yo'g'onligi bir xilmi? – daraxtlarning tanasi va shox-shabbalarining tuzilishi qanday? – osmonga ham razm soling, uning rangi qanday? – osmondagi bulutlarning shakli yoki rangi qanday (bulutlar bor bo'lsa)? – o't va daraxtlarning rangida farq bormi? – tabiatni kuzatish jarayonida yaxshi taassurot qoldirgan narsa nima? Tabiatni kuzatish jarayonida bolalar ba'zi bir tabiiy materiallarni (urug'lar, barglar, mayda hashoratlar, ildizlar) kolleksiya uchun yoki tasviriy ishlar uchun yig'ishlari mumkin.

Kuzatilayotgan obyekt yuzasidan savol-javob tugagach, o'qituvchi suhbatga yakun yasab, bolalarning

javoblarini aniqlashtiradi, kamchiliklarini to'ldiradi, xatolarini tuzatadi. Agar dars sinfda o'tkaziladigan bo'lsa, o'qituvchi yuqorida nomlari qayd qilingan tasviriy san'at asarlarining reproduksiyalari, diapozitivlari, slaydlarini bolalarga ko'rsatib, sinfda o'quvchilar bilan birga tahlil qiladi. Lekin, shuni ham qayd qilish lozimki, dars sinfda qanchalik ilg'or metodlar bilan olib borilmasin, baribir u aynan tabiat qo'yniga qilingan sayohatning o'rnini bosa olmaydi.

Shuning uchun o'qituvchi darsni iloji boricha tabiat qo'ynida o'tkazishga harakat qilishi lozim. Uyga bolalarni yashash joylaridagi bironta oltin rangga kirgan tabiat manzarasini kuzatish vazifa qilib topshiriladi. Badiiy qurish-yasash mashg'ulotlarini boshlang'ich sinflarda o'tkazish rejalashtirilgan. Bunday mashg'ulotlarni o'tkazish uchun bolalarga turli-tuman tabiiy va badiiy materiallar zarur bo'lganligi sababli, o'qituvchi bu masalaga o'z e'tiborini ko'proq qaratishi kerak bo'ladi. O'qituvchi barcha bolalarni bunday materiallar bilan ta'minlay olmagani taqdirda bu ishga o'quvchilarni jalb etishi zarur bo'ladi. Tabiiy va badiiy, tashlandiq materiallarni to'plash uchun sinfda maxsus joy ajratilgan bo'lishligi, uni bolalar ishtirokida to'lg'izib turilishi kerak bo'ladi. Qurish-yasash mashg'ulotlariga xos bo'lgan bir muhim jihat shundaki, bunda o'qituvchi va bolalar amaliy ishlarning bir vaqtini o'zida bajaradilar.

Ayrim mashg'ulotlarda (ko'pincha 3-4-sinflarda) amaliy ish uchun hamma tayyorgarlik ishlari tugangani va topshiriq barcha bolalar uchun tushunarli bo'lganidan so'ng asosiy ishga o'tiladi. Badiiy qurish-yasash mashg'ulotlarida o'qituvchi bolalarni faqat bir xil material yordamida ishlash bilan chegaralab qo'ymasligi lozim. Ular ham

tabiiy, ham badiiy, ham tashlandiq materiallar bo'lishligi mumkin. Bunday mashg'ulotlarda o'qituvchi tabiiy va tashlandiq materiallar yordamida hashorat, qush, hayvon, odam kabilarning shaklini ko'rsatishi muhimdir.

Masalan, ildizda ifon, kaltakesak, ifon baliq, yong'oq po'chog'ida toshbaqa kosasi, tuxum po'chog'ida pingvin, jo'xori o'zagida hayvon tanasi shakllarini ko'rish mumkin. Badiiy qurish-yasash ishlarida o'qituvchi materiallarning xususiyatlari (qattiq, yumshoq, mo'rt, og'ir, yengil, yaltiroq, egiluvchan v.b.), ular bilan to'g'ri munosabatda bo'lishlik haqida ham bolalarga yetarlicha va keng tushunchalar berishi kerak bo'ladi. Turli materiallardan yasalgan narsalarni to'plab, ularni bolalarga tez-tez namoyish etib turish, ularning ijodkorligini faollashtiradi, tabiiy va tashlandiq materiallardan samarali foydalanishga yo'naltiradi.

Mashg'ulotlarning samaradorligi bolalarni uyda, kovchada, sayohat vaqtida tabiiy va tashlandiq materiallarni ko'plab yig'ish hamda maktabga olib kelishga ham bog'liq.

Shuning uchun o'qituvchi har bir darsda bu haqda bolalarga ko'rsatma berishi, yangi bajarilgan orginal qurish-yasash ishlaridan ularga ko'rsatib turishi yaxshi natijalar beradi. Quyida badiiy qurish-yasashga doir dars ishlamas beriladi. Darsning mavzusi: Hayvonlar tasvirini tabiiy materiallardan applikasiya ushida ishlash. Darsning vazifalari: O'quvchilarni tasviriy faoliyatda turli materiallardan foydalanish haqidagi tushunchalarini kengaytirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish. Narsalar shaklini va o'lchov nisbatlarini ko'ra bilishga o'rgatish. Applikasiya ishlash malakalarini o'stirish.

Darsning jihozlanishi: Hayvonlarni tabiiy materiallardan ishlangan rasmlari, yangi yoki quritilgan barglar, bolalar kitoblariga ishlangan illyustratsiyalar.

Darsning mazmuni: O'qituvchi bolalarning bilimlarini boyitish va tasavvurlarini o'stirish uchun ular ko'rgan hayvonlarini eslashni taklif etadi. O'qituvchi savol berib, bolalarni hayvonlarning nomi va tashqi qiyofasi haqidagi bilimlarini tekshirib ko'radi. Bunda u quyidagi savollarni berishi mumkin: "Bolalar, mana bu rasmlarga qarang, nimalarni ko'ryapsiz? Ularning tashqi qiyofalari bir-biriga o'xshaydimi? Ularni farq qiluvchi belgilarini aytib bering. Ulardan qaysilarini ko'rgansiz? Nomlarini ayting! Ana shu rasmdagi hayvonlarning barglardan ishlangan applikasiya tasvirini ko'rsating va xarakterli belgilariga ko'ra nomini ayting! O'z oldingizda turgan barglardan ko'rgazmali qurolda tasvirlangan birorta hayvonning tashqi ko'rinishiga mos keldiganlarini tanlab oling! Ana shu barglardan nima qilish mumkin? Mana bu applikasiya qanday barglardan ishlangan"? v.b. So'ng o'qituvchi o'quvchilarning javoblaridagi kamchiliklarni to'ldirib, ko'rgazmali qurol asosida ularning tushunchalarini yanada boyitadi.

Bunaqa o'qituvchi bolalarning diqqat-e'tiborini asosan hayvonlarning tashqi ko'rinishlariga, qiyofalariga, xarakterli belgilariga, o'lchovlari va o'lchov nisbatlariga qaratishi lozim. Asosiy ishga o'tishdan avval o'qituvchi bolalarga xar xil tabiiy va badiiy materiallarni ko'rsatib, ulardan turli hayvonlar ishlash mumkinligini bildiradi. Navbatdagi ish o'quvchilarga barglardan biror hayvonning tashqi ko'rinishini amaliy tarzda ko'rsatishdir.

Masalan, o'qituvchi bolalarga xo'roz tasvirini ishlab ko'rsatish uchun kattaroq bargni tanlab oladi va uni o'rtasidan qaychida qirqib, teng ikkiga bo'ladi. Bargn-

ing bir tomonidan xo'rozning bosh qismini tasvirlash uchun bir ozgina qiyib tashlaydi. So'ngra uni fon uchun tanlangan qog'ozga yopishtiradi. Keyin xo'rozning oyoqlarini mayda barglardan yasaydi. Mo'yqalam yordamida xo'rozning qora rang bilan ko'z va og'zini chizadi. Bolalar tayyorlangan barg shakllarini o'qituvchining ruhsati bilan, yopishtirishga o'tadilar. Bunda hayvon tasvirining qaysi detallari tasvirning tagida qolishi kerak bo'lsa, oldin o'sha qismi yopishtiriladi. So'ngra boshqa qismlarini yopishtirishga o'tiladi. Bunda o'qituvchi barglarni qog'ozga yopishtirishda ehtiyot bo'lishni, bargning orqa tomoniga mo'yqalamda yelim surgach, kerakli joyga qo'yib, ustidan latta bilan bosib, tekkislash va ortiqcha yelimni latta bilan astalikda artib olish kerakligini eslatadi.

Dars oxirida o'quvchilarning ishlari namoyish taxtasiga qo'yiladi va bolalar bilan birgalikda tahlil qilindi. Uyga xo'roz tasvirini kattaroq o'lchovda, boshqa shakldagi va rangdagi barglardan tayyorlash vazifa qilib topshiriladi<sup>1</sup>.

### **5-7 sinflarda "Tasviriy san'at"ni o'qitish metodikasi.**

Tasviriy san'atdan davlat ta'lim standarti bu fanni 5-7 sinflarda uch blokka bo'lib o'qitishni nazarda tutadi. Ular:

1. San'atshunoslik asoslari.
2. Naturaga qarab tasvirlash.
3. Kompozitsion faoliyat.

**San'atshunoslik asoslari.** San'atshunoslik asoslari mashg'ulotlariga 5-7-sinflarda katta o'rin ajratilgan bo'lib, u o'quvchilarda badiiy madaniyatni shakllantirishni maqsad

<sup>1</sup><https://nauka21veka.ru/articles/pedagogicheskie-nauki/boshlang-ich-sinflarda-tasviriy-san-atni-o-qitish-metodikasi-1537397350/>

qilib qo'yadi. San'atshunoslik asoslari mashg'ulotlari tasviriy, amaliy, me'morchilik san'atlari nazariyasi va tarixi, mashhur rassom, amaliy san'at ustalari, me'morlarning hayoti va ijodini o'rganishni o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich sinflarda ayrim san'at asarlaridan ko'rgazmali qurollar sifatida foydalanish, bolalarga rassomlar va ularning ishlagan suratlari yuzasidan ayrim ma'lumotlar berishni nazarda tutadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tasviriy san'atning tur va janrlari, uning nazariy asoslari hisoblangan kompozitsiya, yorug'-soya, rangshunoslik, perspektiva qonunlari va qoidalari haqida nazariy bilimlar berish og'irlik qilishi munosabat bilan ularni 5-7-sinflarda o'rgatish rejalashtirilgan.

San'atshunoslik asoslari mashg'ulotlarining 5-7-sinfardagi xususiyatlaridan biri shundaki, bunda nazariy mashg'ulotlar, amaliy ishlar bilan mustahkam aloqada olib boriladi.

Xususan, tarixiy janr yuzasidan suhbat o'tkazilgandan so'ng tarixiy mavzularda bolalar rasm ishlaydilar. Shuningdek, bolalar amaliy ishlarda tasviriy san'atning tur va janrlari, tasviriy san'atning nazariy asoslariga doir olgan bilimlaridan foydalanidilar. Natijada, nazariy bilim va malakalar mustahkamlanadi.

San'atshunoslik asoslarini o'qitish metodikasi kursida didaktikaning ilmiylik, ko'rgazmalilik, muntazamlik va ketma-ketligi, ta'lim va tarbiyaning birligi prinsiplariga rioya qilishni talab etiladi. Ayniqsa, bunday mashg'ulotlarni ko'rgazmaliksiz o'tkazish mumkin emas. Darsda o'qituvchi ko'proq kinofilm, videofilm, diafilm, diapozitiv, slayd, san'at asarlarining reproduksiyalari, foto nusxalaridan foydalanishi samaralidir. Shu bilan birga, viloyat markazlaridagi o'lkashunoslik muzeylarida

saqlanayotgan san'at asarlari, shahar va qishloqlardagi yodgorlik haykallar va me'morchilik obidalari, tasviriy san'atdan joylarda tashkil etilayotgan ko'rgazmalardagi san'at asarlarining asl nusxalari bilan tanishtirib borish muhimdir. San'atshunoslik asoslari mashg'ulotlarini ma'ruza shaklida emas, ko'proq savol-javob, munozara, o'yin tarzida tashkil etilishi bolalarni faollashtiradi, materiallarni puxta o'zlashtirilishiga yordam beradi.

Xususan, bironra rangtasvir asari tahlil qilinganda o'qituvchi bolalarga taxminan quyidagicha savollar bilan murojaat etishi mumkin:

Bu san'at asarini avvallari ko'rganmisiz? Bu asarni kim ishlagan? Asarda kim yoki qanday voqea tasvirlangan? Asarning nomini kim biladi? Asarda yilning qaysi fasli tasvirlangan? Uni qanday bilish mumkin? Asarda faslning qaysi davri tasvirlangan? Asarda kunning qaysi davri tasvirlangan? Asarning kompozitsiyasi qanday? Rassom o'z asarida tasvirlashning qaysi ifodalilik vositalaridan foydalangan? Asarning koloriti qanday? Rassom o'z asari bilan qanday g'oyani ifodalagan? Suvrat sizga yoqdimi, nega?

Bunday mashg'ulotlarda bolalar suratlardagi obrazlarni tushunib etadigan, asarning mazmunini o'qiy oladigan, ularning ifodaliligini, badiiy vositalarini anglab yetadigan, haqiqiy san'at asarlarini oddiy rasmdan farqini ajrata oladigan bo'ladilar.

San'atshunoslik asoslari mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda o'qituvchining tayyorgarligi muhim rol o'ynaydi. Avvalo, dars mavzusiga doir san'at asarlari tanlanadi. Bunda bir qator talablarga rioya qilish muhim. Ular asarlarning yuksak badiiy saviyada ishlaganligi, ularning mazmunini bolalaraga yaqin bo'lishligi, shu-

ningdek, surat reproduksiyasini a'lo sifatda bajarilgan bo'lishligi va boshqalar. Agarda o'rganish uchun tanlab olingan san'at asarlarining reproduksiyalari sifatsiz bo'lgani taqdirda yaxshisi, undan foydalanmaslik, unga mazmunan yaqin bo'lgan va sifatli bajarilgan boshqa san'at asarini tanlash maqsadga muvofiqdir.

San'atshunoslik asoslari mashg'ulotining tuzilishi va uni o'tkazish metodikasi haqida qat'iy bir tavsiya berib bo'lmaydi. U mashg'ulotning tuzilishi, mavzusi va darsning maqsadidan kelib chiqqan holda turlicha bo'lishligi mumkin. Masalan, san'atshunoslik mashg'ulotlarining mavzulari quyidagicha bo'ladi:

1. Tasviriy, amaliy yoki me'morchilik san'atlarining urlari va janrlari.

2. San'atning u yoki bu turidagi oqim va yo'nalishlar.

3. U yoki bu rassom, amaliy san'at ustasi yoki me'morning hayoti va ijodi.

4. U yoki bu davr san'ati.

5. Tasviriy, amaliy, me'morchilik san'atlarining nazariy asoslari (kompozitsiya, yorug'-soya, rangshunoslik, perspektiva).

Bu mavzulardan ko'rinib turibdiki, ularni bir xil metodika asosida o'tkazib bo'lmaydi.

San'at asarlarini tahlil qilishda ularni solishtirib o'rganish muhimdir. Shu maqsadda turli rassomlarning bir xil mavzudagi asarlarini namoyish etib, o'rganish foydalidir. Xususan, I. Levitan, O'. Tansiqboev, I. Shishkin, N. Karaxan, I. Haydarov, Z. Inog'omov, A. Savrasov, A. Kuinji, A. Mo'minov, A. Mirsoatov kabi rassomlarning yil fasllariga bag'ishlangan manzara janridagi asarlaridan 2-3 tasini namoyish etib va solishtirish orqali o'rganish mumkin.

Aytaylik, kuz mavzusidagi asarni tahlil qilishda faqat kuz mavzusidagi asar bilangina emas, balki bunday asarlarni bahor, qish mavzusidagi asarlar bilan ham solishtirib o'rgansa bo'ladi.

San'at asarlarini reproduksiyalarini texnika vositalari orqali namoyish etganda asarlardagi detallarni yirik holda ko'rsatilishi obrazlarni chuqur idrok etish, portretlarda shaxsning ichki dunyosini tushunib etishga imkon beradi.

San'atshunoslik mashg'ulotlarining muvaffiqiyati ko'p jihatdan ularni turli yo'llar va metodlarni qo'llash orqali o'tkazilishiga ham bog'liq. Xususan, bunday mashg'ulotlardan bolalarga san'at asari haqida insho yozdirish, san'at turlari yoki janrlariga oid reproduksiyalar yig'dirish yoki u yoki bu rassom haqida materiallar to'platish, tasviriy san'atga doir viktorina, chaynvord, krasvordlar yechtirish, o'zi yashaydigan joydagi rassomlar bilan uchrashib, ular haqida ma'lumot to'plash yoki albomlar tayyorlash mumkin. Bunday ishlar amaliy bezak, me'morchilik san'atlari yuzasidan ham olib borilishi mumkin.

San'atshunoslik asoslari mashg'ulotining samaradorligi, ularni maktabda o'qitiladigan boshqa fanlar bilan aloqadorlikda o'qitilishiga ham bog'liqdir. Ayniqsa, san'atshunoslik asoslari darslarini tarix, geografiya, adabiyot, zoologiya, musiqa darslari bilan aloqadorlikda o'tkazish imkoniyatlari mavjud. Bunday mashg'ulotlar o'zaro aloqadorlikdagi fanlar bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Quyida "San'atshunoslik asoslari" bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish metodikasiga doir dars ishlanmalaridan namunalar berilgan.

*Darsning mavzusi:* Kamoliddin Behzod–Sharqning buyuk musavviri.

*Darsning vazifalari:* O‘quvchilarni Kamoliddin Behzod hayoti va ijodi bilan tanishtirish. Mo‘jaz san‘at asarlarini idrok etishga o‘rgatish. San‘atga nisbatan qiziqish uyg‘otish.

*Darsning jihazlanishi:* Noma‘lum muallifning “Kamoliddin Behzod”, Kamoliddin Behzodning “Husayn Boyqaro”, “Muhammad Shayboniyxon”, “Samaqanddagi masjidida”, “Sulton husayn Mirzo saroyida ziyofat”, “Masjid ichidagi munozara” asarlarining reproduksiyalari.

*Darsning mazmuni.* O‘qituvchi dars mavzusini e‘lon qilgach, Kamoliddin Behzodning hayoti va ijodi haqida ma‘lumot berishga kirishadi.

Quyida Kamoliddin Behzodning qisqacha hayoti va ijodi bayon qilinadi. U taqminan 1455-yilda Xirotda kambag‘al hunarmand oilasida tavallud topgan. Uning vafoti haqida aniq ma‘lumotlar yo‘q. Ayrim ma‘lumotlarga qaraganda 100 yilga yaqin umr ko‘rgan. Behzod-uning ismimi yoki tahallusi ekanligi noma‘lum. Behzod ota-onasidan juda erta ajraladi. Uni Mirak Naqqosh o‘z tarbiyasiga olib, voyaga etkazadi va o‘zining Xirotdagi “Nigoriston”ida (San‘at akademiyasi) naqqoshlik hunarini o‘rgatadi. Bunday mashhur buyuk rassomning qo‘lida tarbiya olish katta ahamiyatga ega bo‘lgan, deb aytish mumkin. Shuningdek, Behzodning mohir san‘atkor bo‘lib etishuvida o‘sha davrda Xirotda muhitidagi bir talay yetuk rassomlar, xattotlar, musiqashunoslarni birlashtirib turgan san‘at akademiyasi ham katta rol o‘ynagan (5-rasm).

Behzodning dastlabki ijodi Sulton Husayn Boyqaro saroyida va u yerdagi juda ko‘p shoir, olim, san‘atkorlarning homiysi Amir Alisher Navoiy rahnomaligida boshlanadi. U

Alisher Navoiyning ustozlari Abdurahmon Jomiy, Xirotdagi xattotlar ustozlari Sulton Ali Mashqadiy bilan yaqin aloqada bo'lib, ijod qiladi.



*10-rasm.* **Kamoliddin Behzod.**

San'at va nafosatga ishtiyoqi kuchli bo'lgan Behzod mehnatsevarligi, zaxmatkashligi tufayli Xirotda mashhur mo'jaz san'at ustasi bo'lib etishdi. Shundan so'ng podsho Sulton Husayn Boyqaro Behzodni o'z huzuriga-saroyga chaqiradi va unga maxsus joy ajratib, uning ijodiy ishlariga hamma sharoitlarni yaratib beradi.

1487-yilda Kamoliddin Behzod podshoning shaxsiy farmoni bilan Xirotdagi saltanat kutubxonasining boshlig'i etib tayinlanadi. Shox farmonida shunday deyilgan edi: "Ijod va yaratish korxonasi musavvirining irodasi, yertu-osmon nigorxonasi muharririning qudrati bilan ...hukm qilurmizki, asr nodiri, musavvirilar peshvosi... Ustod Kamoliddin Behzod Xumoyun kitobxonasi ahliga: kotib,

naqqosh, muzaxxib, jadvalkash, halkor va zarko'blarga, shuningdek, mazkur ishlarga mansub bo'lgan Alloh panohidagi butun mamlakat jamoasiga boshchilik mansabi topshirilsin. Tahrir etildi 889-xijriy yil 27-jumai-ul avval (1487 yil 22 iyul).

1506-yilda Husayn Boyqaro vafotidan so'ng taxt ko'chmanchi o'zbek qabilalarining xoni Shayboniyxon qo'liga o'tadi. Shaybonixon ham Behzod ijodiga hurmat bilan qarab, unga tegishli sharoitlar yaratib beradi. 1510-yilda Eronning Safoviylar saltanati Shayboniyxonga qarshi urush ochib, uni yengadi. Shayboniyxon jangda halok bo'ladi. Shox Ismoil Safoviy 1512-yilda Xirotdagi bir necha iste'dodli san'atkorlarni o'zi bilan Xirotdan Tabrizga olib ketadi. Ular orasida Kamoliddin Behzod va uning bir qator shogirdlari ham bor edi.

Bu yerda Behzod o'zining shogirdlari bilan mo'jaz san'atning yirik maktabini yaratdi. 1514-yilda turk podshosi Eronga Hujum qiladi. Ularning qo'li baland kelishini bilgan Eron shoxi Ismoil Kamoliddin Behzod va mashhur hattot Shox Mahmud Nishopuriyni turklar olib ketib qolishlaridan xavfsirab, ularni bir g'orga yashirib qo'yishga farmon beradi. 1522-yilda Shox Ismoil Safoniyning maxsus farmoni bilan Behzod Tabrizdagi saltanat kutubxonasining boshlig'i etib tayinlanadi. Behzod o'z asarlarining ko'p qismini o'z ona yurti-Xirotdan uzoqda, ya'ni Tabrizda yaratdi, Erondagi jangu jadallar, alg'ov-dalg'ov va ur-yiqitlar Behzodning o'z ustozlari va yaqin do'stlaridan uzoqda yashashi, uning hayoti va ijodiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham musavvir "Tuyalar jangi" nomli asarini yaratganda uning bir chekkasiga "Qalami shikasta, nomurod, faqir Behzod umri 70 dan oshganda ushbu ishga qo'l urdi", deb

g'am-andux bilan imzo chekkan edi. Shunga qaramasdan Behzodni Eronda kechirgan hayoti tabiat, jamiyat va insonga bo'lgan kuchli muhabbat, ijodga bo'lgan jo'shqin ishtiyoq doimo ilgari yetakladi.

Kamoliddin Behzodning hayoti haqidagi suhbatdan so'ng o'qituvchi uning ijodiy ishlari, yaratgan asarlari va shogirdlari haqida to'xtaladi. Behzod ijodi haqida gapirganda, uning yuzdan ortiq asarlar ijod qilgan va bu asarlardan bir nechtasini eslab o'tadi. Darsda tahlil qilish uchun uning "Husayn Boyqaro", "Muhammad Shayboniyxon" portretlarini, "Sulton Husayn Mirzo huzurida ziyofat", "Masjid ichidagi munozara", "Sahrodagi Majnun" asarlarini bolalar bilan birgalikda tahlil qiladi.

Kamoliddin Behzodning "Husayn Boyqaro" surati musavvir ijodida muhim o'rin tutadi. Unda Xirot sultoni Husayn Boyqaro shoxlarga xos qiyofada, o'zining salobati bilan cho'kkalab o'tirgan qolda tasvirlangan. Uning keng elkali gavdasi, qiyiq ko'zi, yapaloq yuzi, shahona liboslari shunday xaqqoniy va ustalik bilan ishlanganki, uning gavda tuzilishidagi o'lchov nisbatlari, kiyim-kechaklarini ko'rib, XVI asrda bunday iste'dodli rassom bo'lganligidan hayratlanasan kishi. Suratning tagiga "Tasviri sulton Husayn Mirzo-Behzod", undan ham quyiroqda "Al-faqir Behzod" degan so'zlar ham yozilgan.

Suratda Husayn Boyqaro shunday zo'r mahorat bilan ishlanganki, uning yuzi-ko'zidan shohning butun qalbini, boy ichki dunyosini bilib olish mumkin.

Musavvirning "Muhammad Shayboniyxon" tasviri aks ettirilgan rasm ham diqqatga sazovordir. Ma'lumki, Shayboniyxon 1507-yilda temuriylardan Xirot taxtini tortib olgan shoxlardandir. Uning Behzod ishlagan surati eng nodir va muvaffaqiyatli ishlaridan hisoblanadi. U

suratda chordana qurib, ikki qo'lini tizzasiga qo'ygan holda o'ychan va ma'nodor nigoh tashlab o'tiribdi. Bu holat uning salobatli gavdasi, shohlarga xos ko'rinishini bildiradi. Shoh kiyimlari oddiy (ranglari yashil, to'q zangori, qizil) semiz va zuvalasi pishiq, qiyla qorin qo'ygan, ko'zlari qisiqroq, cho'qqisoqol ko'rinishda tasvirlangan. Bu tasvirda uning kuchli iroda egasi ekanligi, toju taxt uchun jon-jahdi bilan kurashuvchi sarkarda ekanligi ko'rinib turibdi. Uning oldida siyohdon, kitob, qalam, qamish (qamchi) kabilarni tasvirlashda ham ramziy ma'no bor. Siyoq, qalam, kitob ma'rifat va madaniyat timsoli bo'lsa, qamchi esa beayov, qattiqo'l xukmdor ekanligini bildiradi. Qizil rang-jangu jadallar, yashil rang islom bayrog'i timsolini bildiradi. Suratning o'ng yuqori burchagida "Surati Shoybekxon" va chap yuqori tomonida esa "Al-abd Behzod" deb yozilgan.

Behzodning "Sulton Husayn Mirzo saroyida ziyofat" nomli asarida oqshom paytida go'zal bog' ichidagi ziyofat aks ettiriladi. Sulton Husayn Boyqaro o'z ayonlari bilan panjaralar bilan o'ralgan katta supa ustida o'tiribdi. Suratning yuqori o'ng burchagida xizmatkorlar may quyish bilan ovora. U yerda sharbat solingan xumlar, ko'zachalar bor. Eshik oldida oq ro'molli xabash, xizmatkorlar yelkalaridagi obkash bilan xumchalarda sharbat tashimoqdalar.

Pastroqda boshida savat ko'tarib olgan yana bir xabash xizmatkor meva-chevalarni supa tomon eltmoqda. Uning oldida xum ko'tarib, supa tomon ketayotgan yana bir xizmatkor tasvirlangan. Suratning past va chap tomonida saroy xodimlaridan uchtasi mast holda aks ettirilgan. O'rtada ikki kishi qadahlariga sharob quyishmoqda. Xullas, saroy shohlar turmushiga xos bo'lgan xolda tasvirlanganki,

musavvir uni ham kompozitsiya, ham rang, ham mazmun, ham badiiylik jihatidan mohirona aks ettira olgan.

Kamoliddin Behzodning mashhur asarlaridan yana biri "Masjid qurilishi" deb nomlanadi. Bu asar Navoiyning "Hamsa" nomli asariga ishlangan bo'lib, hozirda Londondagi kutubxonada saqlanadi. Unda yirik masjid qurilishi aks etgan. Bu asarda quruvchilar uch guruhga bo'linib tasvirlanadi.



*11-rasm. Kamoliddin Behzod ijodi.*

*Birinchisi* – eng yuqorida aks etgan g'isht teruvchilar, *ikkinchisi* – o'rtadagi yordamchilar (material etkazib beruvchilar), *uchinchisi* – tayyorlovchilar (g'isht va toshtaroshlar) dir. Suratning yuqori va o'rtacha qismida yo'l-yo'l sallali, tesha va g'isht ushlagan kishi-usta tasviri bo'lsa kerak. Suratdagi ko'rinish shunday bir binoki, uni quruvchilar zo'r shijoat va ko'tarinkilik bilan qurishmoqda. Musavvir buni bildirish uchun ularning hammasini harakatda tasvirlagan, bironta ham dam olayotgan yoki tomoshabin bo'lib turgan befarq odam yo'q. Ularni kuzatayotgan nazoratchi ham yo'q. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, bino qurilishidagi kishilar qullar emas, o'z xoxishi bilan ishlayotgan kishilardir (11-rasm).

Surat bizga halqimiz tarixi, uning turmush tarzi, mehnati, kiyimlari, mehnat qurollari (tesha, cho'kich, narvon, bel, tog'ora, arqon v.b.), qurilish materiallari, binolar tuzilishi haqida ayrim ma'lumotlarni beradi. Asar orqali musavvir ajdodlarimizning mehnatga munosabati, islom yo'lidagi sa'y-harakatlarini haqqoniy aks ettiradi.

Behzod salkam bir asr hayot kechirdi. Uning hayoti va ijodi Sharq halqlari, jumladan O'rta Osiyo halqlari madaniyatida muhim ahamiyat kasb etdi. U o'z ijodi davomida Sulton Muhammad, Qosim Ali, Darvish Usta Muhammadiy, Muzaffar Ali, Shayxzoda Xurosoniy, Shoh Muzaffar, Mir Said Ali, Mahmud Muzaxxib, Abdullo kabi ko'plab shogirdlar tayyorladi. Kamoliddin Behzod ijodi Xirotda, Tabrizda, Buxoroda, Samarqandda, Sherozda, Isfahonda, Hindistonda va boshqa o'lkalarda mo'jaz san'at maktablari rivojining tarkib topishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Kamoliddin Behzodning ijodini Sharq va G'arbdagi ko'pgina buyuk kishilar yuksak baholaganlar. Xususan, uni "Sharq Rafaeli" deb atashgani ham bejiz emas.

Buyuk tarixchi Xondamir "Habib-us-siyar" nomli asarida Kamoliddin Behzod haqida shunday deb yozgan edi: "Kamoliddin Behzod ajoyib va g'aroyib suratlarni zohir qiluvchi, hunar nodirliklarini bunyod etuvchi. Moniy kabi surat chizuvchi mo'yqalamli, olam musavvirleri asarlarini yo'qqa chiqaruvchi va misli yo'q barmoqlari bilan bani odam hunarmandlari tasvirini mavq qiluvchidir...". Shayboniyxon, Vasifiy va boshqalar ham Behzodni Moniy sifat rassom, tengi yo'q musavvir, jonsiz narsa tasviriga jon bag'ishlovchi mo'yqalam sohibi deb ta'riflaganlar.

Kamoliddin Behzod ijodi faqatgina XV-XVI asrlar Movarunnahr madaniy hayotida ahamiyatli bo'libgina qalmay, balki butun Sharq, Hattoki Ovro'pada kitob grafikasining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Behzodning hayoti va ijodi ta'sirida XV-XVI asrlarda O'rta Osiyoda (Movarunnahrda) tasviriy san'atida keskin burilish ro'y berdi, olim va san'atkorlar uni san'at tarixida Uyg'onish (Renessans) davri deb atadilar.

Behzodning asarlari yuksak qadrlanib, O'zbekistondan tashqari, AQSH, Buyuk Britaniya, Turkiya, Rossiya, Eron, Fransiya, Germaniya, Misr kabi bir qator mamlakatlarning kutubxonalarida asrab-avaylab saqlanmoqda.

Darsda o'rganiladigan asarlar slayd yoki reproduksiya yordamida namoyish etiladi.

Uyga Behzodning asarlaridan birontasi haqida insho yozish vazifa qilib topshiriladi.

*Darsning mavzusi:* O'zbekiston hududida eng qadimgi tasviriy san'at va me'morchilik.

*Darsning vazifalari:* O'qituvchilarni O'zbekiston hududidagi eng qadimiy san'at asarlari bilan tanishtirish. Tasviriy san'at va me'morchilik asarlarini o'qitishga

o'rgatish. Bolalarda milliy g'ururni shakllantirishga ko'maklashish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

*Darsning jihozlanishi:* O'zbekiston hududidan topilgan eng qadimiy me'morchilik obidalari va tasviriy san'at asarlarining reproduksiyalari, foto nusxalari, slayd va diopozitivlari.

*Darsning mazmuni:* Yangi mavzuning bayoni bolalarning e'tiborini tortish va faollashtirish maqsadida quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. O'z qishlog'ingiz, shahringiz, tumaningiz, viloyatingiz hududidan topilgan qaysi san'at asarlarini bilasiz?

2. Ana shunday san'at asarlarining namunalari yana qaysi tuman, shahar va viloyatlar hududidan topilgan?

3. Qo'yqirilgan qal'a, Fayoz Tapa, Tuproq qal'a, Varaxsha, Ayrtom, Dalvarzin tepa, Afrosiyob kabi mashhur qazilmalar qaysi shahar, tumanlarda joylashgan?

4. Bu topilmalar nimadan guvohlik beradi?

Qisqacha bu savol-javobdan so'ng o'qituvchi dars mavzusi yuzasidan quyidagicha suhbat o'tkazadi.

O'zbek halqi o'zining qadimiy yuksak madaniyati va san'ati bilan faxrlansa arziydi. Buni O'zbekiston hududida olib borilgan arxeologik qazilma ishlari yaqqol isbotlaydi. Xususan, Varaxsha, Afrosiyob, Halchayon, Tuproqqal'a, Bolaliktepa, Ayrtom, Dalvarzintepa, Qo'yqirilgan qal'a qazilmalaridan topilgan yuksak badiiy saviyada yaratilgan ko'plab me'morchilik obidalari, devoriy rasm, haykaltaroshlik asarlari, amaliy san'at buyumlari fikrimizning yaqqol dalilidir.

Bu noyob qazilmalarni izlab topishda L. I. Rempel, G. A. Pugachenkova, V. A. Bulatov, B. P. Denike, M. E. Masson, V. A. Nilsen, V. A. Shishkin, A. Asqarov,

Y. A. G'ulomov, S. P. Tolstoy kabi arxeolog va san'atshunos olimlar samarali mehnat qildilar.

*Qo'yqirilgan qal'a* – miloddan avval III-IV asrlarga oid yodgorlik. U O'zbekistonning To'rtko'l shahridan 22 km uzoqlikda joylashgan.

Unda shoxlar zali, askarlar zali, g'alaba zallari ham bo'lgan. Bino ikki qavatli bo'lib, diametri 44,4m., balandligi 9,5 m.ni tashkil etadi. Devorga loy olingan joy suv bilan to'lg'azilib, qandakga aylantirilgan. Devor orasidan o'q otadigan tuyniklar bor. Bino ichida 8 ta gumbazli xona bo'lib, undan devoriy rasmlar, idish-tovoq, tobut, haykalchalar, devoriy naqshlar topilgan.

Bular orasida arfa chalayotgan ayol va qo'sh baraban chalayotgan erkak kishi, shuningdek, qisq ko'zli, qulog'iga sirg'a taqqan, gulli ko'ylak kiygan ayol rasmlari e'tiborga loyiqdir.

Devoriy rasmlarda ko'plab ayollar tasviri uchraydi. Erkaklar tasviri ham mavjud. Saroy zallarida devoriy rasmlar bilan bir qatorda ganchdan tayyorlangan releflar, haykallar ishlangan va ular ustidan ranglar berilgan. G'alaba zalidagi bir relefda shoh va uning atorfida ayonlar aks etgan, boshqa xonadagi releflarda esa kiyik, anor, shuningdek uzum daraxtlari tasvirlangan. Bu devoriy rasmlar va haykallardagi tasvirlar umumlashma shaklida tipiklashtirilgan obrazlar bo'lib, qadimgi san'atkorlarning yuksak mahoratidan darak beradi.

*Fayoztepa* – eramizning I-III asrlariga oid budda ibodatxonalari majmuasi bo'lib, Termiz shahridan 15 km narida, 1968-76-yillarda topilgan. Fayoztepa devorlari paxta va xom g'ishtdan qurilgan. U uch qismdan-markaziy qism, ibodatxona va xo'jalik binolaridan tashkil topgan. Ibodatxonadan balandligi 3 m.li erkak va ayol, shuningdek,

muqaddas daraxt tagida o'tirgan odam va uning yonidagi ikki roxib tasvirlangan haykallar topilgan. Fayoz tepa Eron qo'shinlari, keyinchalik arab istilolari natijasida butunlay vayron bo'lib, qum ostida qolib ketgan.

**Tuproqqal'a** – miloddan avval I asr va milodning VI asrlariga oid qidimgi shahar qal'a xarobasi. U hozirgi Qoraqolpog'istonning Beruniy tumani hududida bo'lib, u 1938-1950-yillarda topilgan. Buning asosini saroy, unga tutash Ark tashkil etadi. Ark maydoni 40x40 m. balandligi 25 m. bo'lgan. Saroyda 8 ta zal bo'lib, ular bo'rtma naqsh, rel'efli haykallar, devoriy rasmlar bilan bezatilgan. Devoriy rasmlar ganchli suvoq ustiga meneral bo'yoqlar bilan ishlangan. Tasvirlarda oq, qora, ko'k, zangori, pushti, qizil, sariq, och va to'q yashil, jigarrang, binafsha ranglardan foydalanilgan.

“Qizil xona” deb nomlangan xonada daryo manzarasi, hayvon, qush, baliqlar tasvirlangan.

**Bolaliktepa** – Termiz shahridan 30 km shimolda joylashgan qo'rg'on qal'a. Qal'a 1953-55-yillarda arxeologik qazishlar orqali er ostidan topilgan bo'lib, u V-VI asrlarda yaratilgan deb taxmin qilinadi. Qal'a ichida o'n xona bo'lgan. Bu qal'adan sopol, shisha, musiqa asboblarning siniqlari, chilim kabilarning bo'laklari topilgan. Xona devorlari devoriy rasmlar bilan bezatilgan. Bu rasmlar mehmondorchilik mavzusida bo'lib, loysuvoq ustiga elimli bo'yoqlar bilan ishlangan. Bu kompozitsiya va uning ranglari rassomning katta mahoratidan dalolat beradi. Odam tasvirlarida maxsi, chopon, belbog', zirak kabilar qam aks etgan.

**Varaxsha** – Buxoro shahridan 40 km g'arbda joylashgan qal'a xarobasi, hozirda bu joy cho'lga aylangan. Arxeologik qazilmalar shuni ko'rsatadiki, bu yerda

miloddan ming yil avval odamlar yashagan va u yerda tasviriy san'at yaxshi rivoj topgan. Varaxshadagi eng katta bino 9 gazni egallagan va balandligi 10 metrni tashkil etgan. U binoda hukumdorlar saroyi va ibodatxona, askarxona, aslaxa xonalar bo'lib, ulardan biri qizil xona hisoblangan. Rangtasvirda ov manzarasi aks ettirilgan bo'lib, unda ko'proq qizg'ish-kulrang, sariq ranglar ishlatilgan. Rasmda soyalar aks etmagan. Mazkur rangtasvirning ayrim namunalari Sankt-Peterburgdagi Ermitajda saqlanadi. Yer ostidan yuksak badiiy saviyada ishlangan haykallar ham topilgan.

*Ayrtom* – Termizdan 18 km., Amudaryo qirg'og'ida joylashgan qadimiy shahar, 1932-yilda topilgan. Qazish ishlari jarayonida turli haykal va frizlar qazib olingan. Ulardan arfa, qo'shnay, ud, nog'ora chalayotgan sozandalar, qo'llarida gulchambar, meva va idishlar ko'targan ayollar va erkaklar tasvirlangan. Bu frizlar ishlanish uslubi va kompozitsiyasi jihatidan Shimoliy Hindiston haykaltaroshligiga juda o'xshab ketadi. Bu I-II asrlarda budda dinini O'rta Osiyoga kirib kelishi va tarqalishi bilan bog'lanadi. Ular o'zining badiiyligi jihatidan nihoyatda yuqori.

1938-yilda Ayrtomdan I-II asrlarga oid budda dini ibodatxonasi ham topilgan. U yerda maxsus hujralar, budda haykali bo'lgan. Yuqorida qayd qilingan frizlar shu ibodatxonalarni bezagan bo'lishi ehtimoldan holi emas.

*Dalvarzin tepa* – Andijon viloyatining Dalvarzin qishlog'ining chekka qismida joylashgan turar joy qarobasi hisoblanib, u 1952-yilda topilgan. U davrimizning ikkinchi asriga to'g'ri keladi. Yer osti qazilganda u yerdan bronza quyish ustaxonasi, tosh yotqizilgan ko'chalar, g'alla omborxonalari, turli uy jihozlari, sopol buyumlar topilgan.

Dalvarzin tepada qadimda qishloq xo'jaligi, metall bilan ishlash, tasviriy va amaliy san'at rivojlangan. Yer ostidan naqshli idishlar va odam haykallari ham topilgan. Ganchdan ishlangan ayol kallasi eramizning II asrida yaratilgan deb tahmin qilinadi.

*Afrasiyob* – Samarqand shahri yonbag'ridagi xaroba bo'lib, u miloddan avval VI-V asrlarda mavjud bo'lgan. Afrosiyobni qazish ishlari XX asr boshlarida boshlanib, hozirda ham davom ettirilmoqda. Qazilma ishlari natijasida qal'a ichida saroy borligi aniqlanib, uning qadimiy ko'rinishi rekonstruksiya qilingan. Bu binoda bir necha xonalar bo'lib, ulardan biri mehmonxona ekanligi aniqlandi. Mehmonxonaning to'rt tomoniga turli devoriy rasmlar ishlangan. Mehmonxona devorlaridagi rasmlardan birida bir erkak va bir ayol suhbatlashib o'tirgani aks etgan.

Umuman, mehmonxonaning devorlarida to'y safari, daryoda cho'milish, elchilarni qabul qilish marosimi, ov kabilar aks ettirilgan.

To'y safari aks etgan rasmda oq rangdagi filda malika, somon ot mingan kuyov aks etgan. Shuningdek, malikani kuzatib ketayotgan kanizaklar ham tasvirlangan. Rasmdagi ayol qizil rangdagi ko'ylak, och kulrang ro'mol, sariq lozim, qora etik, qo'lida bilaguzukda mohirona tasvirlangan. Bu rasmda saroy xodimlaridan ikkitasi tuyalarga minib kuzatib kelayotganliklari ifodalangan. Ulardan biri chol, ikkinchisi undan yoshroq kishi. Ikkovlari ham serbezak kiyimda tasvirlangan. Ularning bellarida kichik xanjar va qilich osilgan, qo'llarida xassa. Bu ularni saroy amaldorlari ekanligidan dalolat beradi. Ularning orqasida oq rangli parrandalar ergashib kelmoqda. Bulardan tashqari oq kiyimli kichik kishi ham tasvirlangan. Ulardan biri qora rangli otni yuganidan tortib kelmoqda, ikkinchisi orqaorqda

qushlar yonida (u ot mingan holda bo'lishi eqtimoldan holi emas) tasvirlangan. Bu rasmlarni sinchkovlik bilan kuzatar ekanmiz, bir necha ming yillar burun ajdodlarimiz mohir san'atkor bo'lib, yuksak badiiy asarlar yaratganliklariga ishonch hosil qilamiz.

Mazkur darsda o'qituvchi har bir me'morchilik obidasi, rangtasvir va haykallarning reproduksiyalari namoyish etadi va ular yuzasidan savol javob tarzida suhbat o'tkazadi.

Mavzuga doir san'at asarlarining reproduksiyalari, fotolari, rasmlarini yig'ish va albomga yopishtirish uyga vazifa qilib topshiriladi.

**Naturaga qarab tasvirlash.** Naturaga qarab tasvirlash tasviriy san'at mashg'ulotlarida ikki bo'limdan tashkil topadi.

1. *Naturaga qarab rasm ishlash.* 2. *Naturaga qarab haykal ishlash.*

Bu ikkala bo'limga boshlang'ich sinflarda yetarlicha o'rin berilgan bo'lib ular bolalarda tasviriy malakalarni shakllantirishga qaratiladi. 5-7-sinflarda bu ikkala yo'nalishlar bo'yicha mashg'ulotlar davom ettiriladi.

**Naturaga qarab rasm ishlash** mashg'ulotlari boshlang'ich sinflardagiga qaraganda anchagina murakkablashadi va u o'quvchilarning yoshlik xususiyatlari, shuningdek, rasm ishlash malakalarining shakllanganligi bilan asoslanadi. Naturaga qarab rasm ishlashga 5-7 sinflarda savodli rasm ishlashdek jiddiy talablar qo'yiladi. Bunday mashg'ulotlarda bolalar yorug'-soya, rangshunoslik, perspektiva asoslari yuzasidan nazariy bilimlar beriladi.

Yorug'-soya, perspektiva qonunlari asosida kub, prizma, peramida, konus, shar va geometrik shakldagi predmetlar rasmini ma'lum ketma-ketlikda chizdirish maqsadga muvofiqdir. Keyinchalik topshiriqlar murakkablashib

borib, natyurmortlar bir necha predmetlardan tashkil topadi. Naturaga qarab rasm chizish darslarining oxirgi bosqichlarida bolalarga oddiy va kichik o'Ichovdagi amaliy san'at namunalari, murakkab tuzilishdagi gullar, mevalar, sabzavotlardan tashkil topgan natyurmortlar qo'yiladi. Bunday mashg'ulotlarda bolalar naturaning tuzilishini, rangini, shaklini, hajmini narsalarning asliga yaqinlashtirib ishlashlari talab etiladi.

Naturaga qarab rasm ishlash mashg'ulotlarida, ham qalamtasvir, ham rangtasvir ishlari bajariladi. Shuningdek, uzoq davom etadigan (1-2 soatli) mashg'ulotlar bilan birga qisqa vaqt davom etdagan (10-15 minut) qoralama va ranglamalar ham ishlatiladi (7-rasm).



*12-rasm. Natyurmort ishlash bosqichi*

Naturaga qarab rasm ishlash mashg'ulotlaridagi murakkab vazifalarni amalga oshirish uchun yorug'-soya, perspektiva, rangshunoslikning nazariy asoslarini o'rganish maqsadida gipsli shar, kub, piramida, konus, silindr kabi geometrik shakllarni chizdirish yaxshi samaralar beradi.

5-7-sinflarda natyurmort ishlash mashg'ulotlarida kolorit muammosi ham bor. Xususan, shu maqsadda halq amaliy san'ati namunalaridan (sovuq rangda ishlangan chinni servislar) chizish uchun sovuq koloritli natyurmotlar, kuzgi mevalar, gullar va predmetlardan iliq koloritli natyurmotlar qo'yiladi.



Natyurmotlar ishlashda bolalarni akvarelni ko'p qatlamli, qalin qilib ishlashlariga, oq bo'yoqdan foydalanishlariga yo'l qo'yilmaydi. Chunki, bunda rasm ranglari loyqalashib ketib, ranglar toza qo'rinmaydi.

5-7-sinflarda naturaga qarab rasm ishlash mashg'ulotlarining yana bir o'ziga xos xususiyatlari. bu faqat quruq qog'ozda emas, xo'l qog'ozda ham bo'yoq bilan rasm ishlashdir.

Natura uchun narsalar tanlash o'qituvchining eng muhim vazifalaridan hisoblanadi. Shuning uchun bu masalaga alohida e'tibor berib natyurmort uchun material tanlashda bir qator mezonlarga rioya qilish kerak bo'ladi:

1. Narsalarning estetik jihatlari, ya'ni ular shakl, rang jihatdan yoqimli bo'lib, bolalar e'tibori va diqqatini o'ziga tortuvchan bo'lishligi.

2. Narsalar har jihatdan bolalarga tanish, mohiyati jihatdan foydali, ularning hayotida uchraydigan, shuningdek, bolalarda qiziqish uyg'otadigan bo'lishligi.

3. Tanlanadigan materiallarni naturaga qarab rasm ishlash darslarining maqsad va vazifalariga mos bo'lishligi.

4. Narsalar yuzasini silliq va yaltiroq, rang-barang bo'lmasligi. Ular narsalar hajmi va ranglarini to'g'ri ko'rishni qiyinlashtiradi va chalkashtiradi.

5. Natura uchun tanlanadigan narsalar tuzilishi jihatdan tushunarli, bolalar idrokiga mos, yorug'-soyalari, blik, reflekslari yaqqol ko'rinib turishligi.

*Natyurmort ishlash mashg'ulotlarining metodikasi quyidagilarni e'tiborga olishni nazarda tutadi:*

1. Natyurmortlarni bolalar ishtirokida o'rnatish. Bunda natura bilan fon munosabatlarini to'g'ri belgilab olish zarur, ya'ni natura och rangda bo'lsa fonga to'q material tanlanishi narsalarni aniq ko'rinishini ta'minlaydi. Shuningdek, naturani o'rnatishda mayda narsalarni birinchi planga va yiriklarni orqa planga qo'yilishi maqsadga muvofiqdir.

2. Natyurmotni o'quvchilar tomonidan mustaqil va har tomonlama kuzatish va tahlil qilish.

3. Savol-javob asosida natyurmotni tahlil qilish. Bunda natyurmotni nimalardan tashkil topganligi, ularning joylashuvi, har bir narsani tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari, o'lchov nisbatlari, perspektiv qisqarishi aniqlashtiriladi. Natyurmotni bolalar tomonidan mustaqilrganilishi va uni savol-javob tarzida tahlilini solishtirma etod asosida o'tkazilishi nihoyatda muhim. Bunda bir predmetni ikkinchi predmetga nisbatan tuzilishi, shakli,

rangi, o'lchovlari o'rtasidagi farq, shuningdek, uning har bir bo'lagining o'lchov nisbatlari, hajmi, rangi, tuzilishlari bir-birlariga nisbatan solishtirib o'rganiladi.

4. Mavzuga yaqin bironta yoki bir nechta rassomning asarlarining reproduksiya yoki slaydlari namoyish etilib, ular ham shu tartibda savol-javob orqali tahlil qilinadi.

5. O'qituvchi naturani chizish tartibini tushintiradi. Bu bosqichda o'qituvchi natyurmortni qog'oz yuzasida kompozitsion jihatdan to'g'ri joylashtirish haqida gapirib, rasm eskizini chizib olishni tavsiya etadi.

6. O'quvchilarning mustaqil ishlari. Bu bosqichda o'qituvchi bolalar e'tiborini rasmni qalamni bosmasdan yengil chiziqlar chizish, narsalarning o'lchov, o'lchov nisbatlari, tuzilishi, rangi, shakli, yorug'-soyalari jihatdan tez-tez solishtirish, yordamchi chiziqlardan o'rinli foydalanish kabilarga qaratishi lozim.

O'qituvchi bolalarning mustaqil ishlari jarayonida ularning faoliyatlarini kuzatadi hamda tegishli yordamlar ko'rsatadi. Bunda u albatta bo'sh o'zlashtiruvchi bolalarga ko'proq e'tibor beradi. Ish jarayonida bolalar tomonidan muaffaqiyatli bajarilayotgan rasmlardan namunalar butun sinfga namoyish etiladi.

7. Dars ikki soatga mo'ljallangan bo'lsa, qalamtasvir birinchi soatda, uning rangtasvirini ishlash ikkinchi darsda amalga oshiriladi. Shuni ham qayd qilish lozimki, natyurmort qalamtasviri tayyor bo'lgach, ranglashdan avval uni toza suv bilan ho'llanadi, aks holda bo'yoq qog'ozga yaxshi yopishmasligi mumkin.

8. Darsni tugashiga yaqin o'qituvchi bolalar tomonidan 3-4 ta muaffaqiyatli ishlangan rasmlardan ajratib olib, ularni bolalar bilan birgalikda tahlil qiladi. Tahlilda rasmlardagi yutuqlar bilan bir qatorda ularning

kamchiliklari ham ko'rsatilib o'tiladi. Biroq, muvaffaqiyatsiz bajarilgan rasmlarni tahlil qilganda ularni haddan ziyod qattiq tanqid qilmagan ma'qul. Aks holda, bu rasm mualliflari tushkunlikka tushishlari, tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishlari so'nishi mumkin. Ko'rsatiladigan kamchiliklar tavsiya tarzida bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Quyida naturaga qarab rasm ishlash mashg'ulotlari metodikasiga doir dars ishlanmalari berilgan.

*Darsning mavzusi:* "Paxta" servisi natyurmotining rasmini ishlash.

*Darsning vazifalari:* O'quvchilarni tasviriy malakalari, badiiy didi, xotirasi, kuzatuvchanligini o'stirish.

*Darsning jihozlanishi:* L. Salimjonovanning "Qora kofe" nomli asarining reproduksiyasi yoki slaydi. "Paxta" chinni servisi (lagan, choynak, tarelka, piyola). Xorijiy mamlakat natyurmortchi rassomlarining servis tasvirlangan asarlarining reproduksiyalari.

*Darsning mazmuni:* Yangi mavzuga bag'ishlangan darsning boshlanish qismida natyurmot haqida qisqacha suhbat o'tkaziladi. U tahminan quyidagicha bo'lishi mumkin:

Bolalar, siz turli buyumlar, mevalar va sabzavotlar, gullardan tashkil topgan natyurmotlarni bir necha bor rasmini ishlagansiz. Bu mavzuda rasm ishlagan ko'pgina rassomlarni ham bilasiz. Qani, eslab ko'ring-chi, qaysi rassomlar ro'zg'or buyumlaridan natyurmotlar ishlagan. Rassomlarimizdan YU. Elizarov, Z. Kovalevskaya, N. Kashina, L. Salimjonova, M. Toxtaev, chet el rassomlaridan Sharden, Kalf, Snayderslar ham bu sohada shuhrat qozonganlar. Bu rassomlar o'z natyurmotlarida turmushda ishlatiladigan buyumlarni tasvirlar ekanlar, ularning nihoyatda go'zalligini, maqsadga muvofiq tuzil-

ganligini, rang va shakllarining betakrorligidan zavqlanadilar.

L. Salimjonovanning "Qora kofe" nomli natyurmorida asosan kofe ichiladigan idishlar tasviri berilgan. Kuzatish orqali bu asarning kompozitsiyasi, ranglari va boshqa tomonlari bolalar ishtirokida quyidagicha tahlil qilinadi:

- Bu predmetlar qanday materiallardan tayyorlangan?
- Natyurmortni umumiy eni kattami, yoki bo'yimi? Har bir predmetni-chi?
- Qaysi predmetlarda perspektiv qisqarish bor?
- Servisning badiiy bezagida qanday naqsh unsurlari ishlatilgan? Ularning shakli, o'lchovi, rangi qanday?
- Predmetlarda blik, yorug' - soya, yarimsoya, reflekslar bormi? Bo'lsa ular qaysi buyumda, qanday o'lchovda va qanday shaklda?

Bolalarga mustaqil kuzatish uchun ajratilgan vaqt tugaganidan so'ng ana shu savollar asosida natira tahlil qilinadi, o'qituvchi savol beradi, bolalar javob qaytaradilar.

O'qituvchi esa ularning javoblarini to'ldirib, kamchiliklarini tuzatib, asar yuzasidan bildirilgan fikrlarni umumlashtiradi.

O'qituvchi bolalarning navbatdagi vazifalarini tushuntirish uchun "Paxta" servisini taglik ustiga chizish uchun o'rnatadi. Natyurmortni o'rnatishda bolalar ham ishtirok etadilar. Chunki, u ma'lum vaqtni talab etdi va bu vaqt davomida bolalarni bu ishga jalb etish sinfda tartib-intizomni saqlash va bolalarni natira bilan kengroq va chuqurroq tanishishlariga imkon beradi.

"Paxta" servisi natyurmorti sinfning orqa tomonidagi o'tirgan bolalar uchun yaxshi ko'rinmasligi mumkin. Shuning uchun uni sinfning 2-3 yeriga o'rnatilishi maqsadga

muvofiqdir. Bu natyurmort boshqa predmetlardan bo'lishi ham mumkin.

Natyurmort o'rnatilib bo'lingach, sinfdagi hamma o'quvchilarning e'tibori unga qaratilib, uni bolalar mustaqil kuzatishlari uchun imkon beriladi.

- Kuzatish jarayonida o'quvchilar quyidagi savollarga javob topishlari lozim:

- Natyurmortni qanday nomlash mumkin?

- Natyurmort qanday predmetlardan tuzilgan?

- Natyurmortdagi predmetlarni boshqacha joylashtirsa bo'ladimi?

- Bu predmetlar qanday materiallardan tayyorlangan?

- Natyurmortni umumiy eni kattami yoki bo'yimi? har bir predmetni-chi?

- Servisning badiiy bezagida qanday naqsh unsurlari ishlatilgan? Ularning shakli, o'lchovi, rangi, qanaqa?

- Predmetlarda blik, yorug'-soya, yarimsoya, refleklar bormi?

Natyurmortning rasmini ishlash yo'li doskada chizib ko'rsatiladi. Rasm ishlash yo'llari bolalarga tushunarli bo'lganidan so'ng u doskadan o'chirib tashlanadi. Aks qola bolalar naturaga qaramasdan rasmni doskadan ko'chirib oladilar. Shuni ham yoddan chiqarmaslik kerakki, bolalarni rasmdan ko'chirib olishga emas, naturadan chizishga o'rgatish lozim. Tayyor rasmdan ko'chirish naturadan chizishga nisbatan ancha oson. Qolaversa, sinfdagi natyurmort turli tomondan turlicha ko'rinadi, ya'ni bolalarning biriga natura to'g'risidan, boshqasiga yonboshidan, yana biriga ma'lum burchak ostidan ko'rinadi. Shuning uchun har bir bola o'zi o'tirgan joydan qanday ko'rinsa shunday chizishi lozim.

Bolalarning mustaqil ishlari jarayonida o'qituvchi o'z e'tiborini ko'proq bo'sh o'zlashtiruvchilar bilan ishlashga qaratadi. Dars yakunida sinfda bajariladigan ishlardan ko'rgazma tashkil etiladi va ularni taqlli qilinadi. Ko'rgazmaga eng xarakterli rasmlar tanlab olinadi.

Uyga rassomlarning jurnal va kitoblarda berilgan natyurmortlar reproduksiyalari va otkritkalarini yig'ish va albomga yopishtirish vazifa qilib topshiriladi.

*Naturaga qarab haykal ishlash* mashg'ulotlari 5-7-sinflarda katta o'rinni egallamaydi. Chunki bolalarning naturaga qarab haykal ishlash yuzasidan malakalari 1-4-sinflarda ma'lum miqdorda shakllangan bo'ladi. Shu sababdan ham 5-7-sinflarda naturaga qarab haykal ishlashga e'tibor kamayadi va uning vazifalari ko'proq haykaltaroshlik kompozitsiyasi darslarida amalga oshiriladi.

Naturaga qarab haykal ishlash metodikasi boshlang'ich sinflardagidan deyarli farq qilmaydi. Ular asosan qo'yiladigan vazifalarni ma'lum miqdorda o'quvchilarning yoshlarini hisobga olib, murakkablashib borishi bilan farqlanadi. Bu farqlar ko'proq natura tuzilishining murakkabligi (hayvon, qush, odam), shuningdek, naturaning harakatda tasvirlanishi kabilarda ko'zga tashlanadi.


Quyida naturaga qarab haykal ishlash metodikasiga doir dars ishlanmasi berildi.

*Darsning mavzusi:* Burgut haykalini ishlash.

*Darsning vazifalari.* O'quvchilarni plastilin, loy, haykaltaroshlik asboblari bilan ishlash malakalarini rivojlantirish. Hayvonlarning shakli, o'lchovi va o'lchov nisbatlarini to'g'ri idrok etish va tasvirlashga o'rgatish. Bolalarni hayvonlar haqidagi bilim va tasavvurlarini kengaytirish.

*Darsning jihozlanishi.* Xalq ustalari, haykaltaroshlar, rassomlar tomonidan ishlangan burgut tasvirlari. Diopozitiv va slaydlar.

*Darsning mazmuni.* Yangi mavzuning bayoni bolalarga burgutlar haqidagi suhbat bilan boshlandi. Suhbatda qisqacha va lo'nda qilib burgutlarning tuzilishi, o'Ichovlari, hayoti, ularning odamlarga foydali jihatlari haqida umumiy ma'lumotlar beriladi. Burgut tasviriga oid materiallar topilmagani taqdirda kalxat, lochin kabi yaxshiy qushlar haykalini ishlash mumkin. Burgut yirtqich, yaxshiy qush. U qushlar orasida eng katta, chaqqon va kuchlisi hisoblanadi. Burgut tanasining uzunligi 1 metrgacha bo'ladi. Qanotlarini yoyganda 2 metrgacha boradi. Uning rangi to'q qo'ng'ir, boshi esa malla bo'ladi. Burgutlar asosan Yevropa, Osiyo va Shimoliy Amerikada ko'p uchraydi (13-rasm).



*13-rasm. Burgutlar haykali.*

O'zbekistonda o'troq holda kun kechiradi, tog' va ko'llarda, odamlar yashamaydigan joylarga, qoyalar orasiga, saksovullarga uya qo'yadi. Burgutlar asosan

kaklik, yumronqoziq, toshbaqa, quyon, tulki, o'rdak kabi mayda hayvonlar bilan ovqatlanadi. Odamlar burgutlardan hayvonlarni ovlashda foydalanadilar. Buning uchun ularni bolalikdan boqadilar va qo'lga o'rgatadilar. Uning ko'zi nihoyatda o'tkir bo'lganligi sababli o'z o'ljasini uzoqdan ko'ra oladi, tez uchishi sababli ularga tez etib oladi. Yevrope burgutlari ba'zan kichik 7-8 yoshli bolalar. qo'ylar yoki ozg'in chollarni ko'tarib ketgan vaqtlari bo'lgan.

Suhbat davomida bolalarga burgut rasmi yoki haykali ko'rsatilib, u o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinadi. Imkoni bo'lgan taqdirda burgutni biologiya xonasidan tulumini olib, namoyish etish yanada samaraliroq bo'ladi. Tahlil quyidagi savollar yordamida o'tkaziladi:

- Burgut qanday qismlardan tashkil topgan?
- Burgutning bo'yi kattami yoki enimi?
- Burgut qanotining bo'yi enidan qancha katta?
- Burgutning eni kattami yoki uzunligimi?
- Burgut qanotining uzunligi bo'yiga qaraganda qancha katta?

- Burgutning boshi, bo'yni, dumi uzunligining bir-biriga nisbati qanday?

- Burgut qanotidagi patlari qanday joylashgan?

Bu savol-javoblardan so'ng o'qituvchi turli holatlardagi burgut rasmlariga bolalar e'tiborini qaratadi. Xususan, qanotlarini yuqori ko'targan, yerga qo'nayotgan, parvoz paytida, o'ljasini bosib turgan va boshqalar. Bu ko'rinishdagi burgut rasmlari ham tahlil qilinadi. Haykallarni namoyish etganda o'qituvchi ularni har tomondan aylantirib ko'rsatgani ma'qul, chunki bolalar o'z tasviriy faoliyatlarida burgutning hajmli (bo'yi, eni, qalinligini) tasvirlaydilar.

O'qituvchining navbatdagi vazifasi burgut haykalining o'lchovi, o'lchov nisbatlari, kompozitsiyasi va unda burgutning holati haqida ma'lumot berishdan iborat. (Turli holatdagi burgut rasmlari). Shundan so'ng o'qituvchi burgut haykalini loydan yasash tartibini rasmdan tushuntiradi. Shuningdek, u o'zi yoki parallel sinf o'quvchilari tomonidan ishlangan burgut haykallarini namoyish etishi mumkin.

Ma'lumki, burgut qanotini yoygan yoki boshqa bironta murakkab holatlarda haykalini ishlash lozim bo'lsa, unda o'zak (karkas) yoki tirgovich simlardan foydalanish lozim bo'ladi. Bu tirgovich yoki o'zaklardan foydalanilmasa burgut haykali bo'linib ketishi mumkin. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun yordamchi materiallarning mohiyati tushuntiriladi va uni amaliy jihatdan ko'rsatilishi lozim.

Bolalarning mustaqil ishlari jarayonida o'qituvchi ularga amaliy yordam ko'rsatadi.

Mazkur topshiriq o'z mazmuniga ko'ra murakkab va bir dars davomida to'la bajarilmay qolishi mumkin. Bunday holda o'qituvchi ishni ikkinchi darsda davom ettirishi mumkin. Har bir darsning oxirida sinfda bajarilgan ishlarga yakun yasaladi va unda o'quvchilarning yutuq va kamchiliklari qayd qilinadi. Kamchiliklarni bartaraf etish yo'llari ko'rsatiladi. Hatto, darsda yaxshi ko'rsatkichlarga erishgan o'quvchilar rag'batlantirilishi ham mumkin.

*Uy ishi. Sinf ishini davom ettirish va yakunlash.* Topshiriqni bajarish birinchi darsda boshlanib, uyda yakunlanadigan bo'lsa, ikkinchi darsda bolalar burgut tasviri bilan bog'liq yangi kompozitsiya ishlashlari mumkin. Bir darsda topshiriqni bajarib ulgurmagan o'quvchi ikkinchi darsda ishni davom ettirib yakunlaydi.

*Kompozitsiya. Rangtasvir kompozitsiyasi.* 5-7-sinflarda rangtasvir kompozitsiyasining metodikasi 1-4-sinflar bilan umumiylikka ega va uning davomi hisoblansada, biroq ularning bir-birlaridan farqi bor. Bunda asosiy e'tibor mavzular va topshiriqlarni o'quvchilarning yoshi, qobiliyati, ularning avvallari o'zlashtirgan bilim va malakalari hisobga olinadi.

Rangtasvir mashg'ulotlari o'qitish metodikasi mazkur yo'nalish bo'yicha ta'lim mazmuni asosida tashkil etiladi. Bunda topshiriqlar o'qituvchi tomonidan tavsiya etilgan mavzular asosida o'tkaziladi. Ular asosan, manzara, turmush, tarixiy, batal, afsonaviy, marina, animal janrlar asosida bo'ladi.

Bolalar beshinchi sinfning dastlabki mashg'ulotlarida kompozitsiya, hajm, rangshunoslik, yorug'-soya, perspektivadan nazariy bilimlarni o'zlashtirganliklarini xisobga olib, 6-7-sinflarda rangtasvir kompozitsiyasidan beriladigan topshiriqlar ma'lum miqdorda murakkablashadi, ularni bajarishga ajratiladigan soatlar ham oshadi. Chunki, 5-7-sinflardagi rangtasvirdan kompozitsiya ishlash ma'lum tayyorgarlik asosida olib boriladi. Bunday mashg'ulotlar ko'proq rangtasvirchi rassomning ijodiy ish uslubiga yaqinlashadi.

Bunda o'quvchi mavzuni bilib olgandan so'ng shu asosda bironta g'oyani ilgari suradi. Aytaylik, o'zbek halqining mustaqillik uchun kurashini ko'rsatuvchi mavzu tavsiya etilsa, bolalar o'zbek halqining millatparvar, vatanparvar ekanligini, o'z halqi Vatani uchun jonini ham ayamastligini, halq jasoratini tasvirlashni o'z suvratining g'oyasi sifatida ilgari suradi. Ana shu g'oya asosida mavzu yuzasidan materiallar to'plashi kerak bo'ladi. So'ngra ana shu to'plangan materiallar asosida

suvratning bir necha variantdagi eskizlari ishlanadi. Suvrat mazmuni yuzasidan qat'iy bir eskiz tanlangandan so'ng uni bajarishga kirishiladi.

O'quvchilar rassomlar kabi yuqorida qayd qilinganidek katta tayyorgarlik ishlarini olib bormaslarda, har qalay ma'lum ishlarni bajarishlari kerak bo'ladi. Maktab sharoitida rangtasvirdan topshiriq mavzusi e'lon qilingach, o'qituvchi uni tushintiradi. Bunda faqat topshiriqni emas uni bajarish tartibi haqida ham fikr yuritadi.

Mavzu yuzasidan suhbatda o'qituvchi uning mazmuni haqida to'xtaladi. Bu mazmun, albatta, mavzu asosida bo'ladi. Ma'lumki, 5-6-sinflarning tasviriy san'at dasturida rangtasvir yuzasidan "Karvon", "Muqanna qo'zg'oloni", "Suv osti dunyosi", "Oltin kuz", "Oyim non yopyaptilar", "Jaloliddinning so'nggi jangi", "Ulug'bek rasadxonasida", "Xiva-qo'riqxonashahar", "Men sevgan kasb", "Darbozlar" kabi mavzular tavsiya etilgan. O'qituvchi esa avvalo mavzu mazmunidan kelib chiqib suhbat o'tkazadi. Keyin esa mavzuga doir san'at asarlarining reproduksiyalari, fotolari, otkritka, etyud va boshqa xomaki ishlar ko'rsatilib tahlil qilinadi.

Bunday ko'rgazmali materiallarni to'plashni o'qituvchi o'quvchilarga avvalgi darsda topshiriq tarzida bergan bo'ladi. Chunki, bunda bolalar mavzu haqida kengroq fikr yuritadilar va o'qituvchiga ko'rgazmali materiallarni to'plashga yordam beradilar.

Shundan so'ng o'qituvchi sinf doskasida kompozitsyaning 2-3-variantini chizib ko'rsatadi yoki uni o'zi avvaldan tayyorlab qo'ygan rasmi orqali tushuntiradi.

Har qanday kompozitsiya ishlash qat'iy ketma-ketlilik asosida bo'ladi. Xususan:

1. Mavzu yuzasidan mazmun tanlash.

2. Mavzu yuzasidan kuzatish ishlarni olib borish. Ayniqsa, manzara, turmush, animal janrlarda rasm ishlaganda bu metod qo'l kelsa, tarixiy, batal, marina janrlarida rasm ishlaganda esa san'at asarlarining reproduksiyalari, slayd, diopozitiv, diafilm, foto va otkritkalardan foydalaniladi.

3. Rasm o'lchovi va formatini tanlash.

4. Tanlangan mazmuni dastlabki kichik o'lchovdagi ishchi eskizda aks ettirish.

5. Rasm uchun qoralama, ranglamalarni bajarish. U dars, darsdan tashqari vaqtlarda ham bajarilishi mumkin.

6. Rangtasvirni chiziqli tasvirini ishlash.

7. Rangtasvirni bo'yoqlar bilan tasvirini ishlash.

Mazkur tartib mavzu, mazmun, o'quvchilarning tayyorgarligi, qobiliyati, tasvirlash imkoniyatlariga qarab o'zgarishi mumkin. Bu o'zgarish ish hajmini ko'payishi yoki kamayishi hisobiga, shuningdek, tayyorgarlik va rasm ishlash bosqichlarida ham bo'lishi mumkin.

Rangtasvir kompozitsiyasi mashg'ulotlariga ko'pincha 2-3-soat vaqt ajratiladi. Ularning birinchi soatida mavzu, mazmun aniqlanadi, material to'planadi, ishchi eskiz tayyorlanadi, chiziqli rasm ishlanadi. Mashg'ulotlarning ikkinchi soatida esa rasmni bo'yoqlar bilan bo'yaladi. Murakkab mazmundagi rasmlar ishlaganda esa, birinchi soatda tayyorgarlik, ikkinchisida eskiz va chiziqli rasm, uchinchisida, ish bo'yoqlar bilan bajariladi.

Bolalar o'z rasmlarini tezroq bo'yab tugallashga juda qiziqishlari oqibatida ularning rasmlari kompozitsiya jihatdan bo'sh va chala bo'lib qoladi. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun bolalar rasmni bo'yashga faqat o'qituvchining ruxsati bilangina o'tishlariga ruxsat etiladi.

O'quvchilarning fikrlarini boyitish va harakatlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida yordamchi ko'rgazmali materiallar faqat darsning boshlanish qismida emas, bolalarning mustaqil ishlari jarayonida ham amalga oshiriladi. Bu ko'rgazmali materiallar rasmdagi ayrim obrazlarga taaluqli detallar, kompozitsiya, sxematik rasmlar, perspektiva, yorug'-soya, bo'yoqlar bilan ishlashga oid bo'lishi mumkin.

Darsning oxirida sinf ishiga yakun yasash maqsadida muaffaqiyatli, o'rtacha va bo'sh ishlangan bolalar rasmlaridan ayrimlarini ajratib olinadi hamda ular butun sinf ishtirokida tahlil qilinadi. Bunda ishdagi yutuq va kamchiliklar aniqlanadi hamda ularning sabablari qayd qilinadi.

Quyida rangtasvir kompozitsiyasi mashg'ulotlari metodikasiga doir dars ishlanmalari berilgan.

*Darsning mavzusi:* "Suv osti dunyosi" mavzusida rasm ishlash.

*Darsning vazifalari:* o'quvchilarni suv ostidagi hayot haqidagi tasavvurlari va tushunchalarini yanada kengaytirish. Ularda ijodkorlik, fantaziya va badiiy didni o'stirish, tasviriy malakalarni rivojlantirish, tabiatga nisbatan mehr-muruvvatli bo'lishga, ularni asrab-avaylashga o'rgatish.

*Darsning jihozlanishi:* dengiz hayvonlari va o'simliklarning tasvirlari. Dengiz ostini aks ettiruvchi slayd, diapozitiv, diafilm va boshqalar. Dengiz ostini aks ettirishga bog'liq ishlangan kompozitsiya variantlari.

*Darsning mazmuni:* dars mavzusi qator tashkiliy ishlar va metodik suhbatlar o'tkazishni taqozo etadi. Ana shunday ishlardan biri suv osti dunyosiga bolalarning hayoliy sayohatini uyushtirishdir. Bu dars puxta tayyorgarlikni

talab etganligi uchun o'qituvchi avvalgi tasviriy san'at darsida bolalarga suv osti dunyosiga taalluqli bo'lgan rasmlar, reproduksiyalar to'plashni vazifa qilib topshiradi. Hayoliy sayohat quyidagicha mazmunda bo'ladi.

Ma'lumki, suv osti dunyosi, ya'ni okeanlar, dengizlar, ko'llar, daryolar nihoyatda turli-tuman g'aroyibotlarga ega. Xususan, okeanda hayvonlarning 160.000 dan ortiq, o'simliklarning 10.000 dan ortiq turlari mavjud. Suv hayvonlari orasida ko'pchiligini baliqlar, (kit, akula, delfin, laqqa baliq, bukri, qilich baliq, yapaloq baliq v.b.) tashkil etadi. Ularning eng kattasi kit hisoblanab, uzunligi 33 metrga boradi. Akulalarning uzunligi esa 10 metrgacha boradi. Suvlarda baliqlardan tashqari, dengiz toshbaqalari, sakkizoyoqlar, ilonlar, timsoqlar, qurbaqalar, tyulen va boshqalar ham hayot kechiradilar. Afsonalarga ko'ra dengiz va okean qa'rida yarmi ayol, yarmi baliq "Rusalka"lar, dengiz shohlari, dengiz otlari va devlari, ajdarlari yashaydi. Bu suv hayvonlarining tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari shunchalik turli-tuman, rang-barangki, agar ularni o'zaro solishtirilsa, ular har qanday odamni ham hayratlantirishi shubhasizdir.

Masalan, dunyodagi baliqlarning o'zi 25.000 turdan iborat bo'lib, ular ilon shaklida, yumaloq shaklda, pakana shaklda, yapaloq shaklda, boshi katta, tanasi kichik va aksincha, dumi o'zidan uzun, chiroyli va beo'xshov, beozor va vaxshiy, aqlli va beaql, serharakat, uchar va noharakat turli-tuman bo'ladilar. Bulardan ularning ranglari ham qolishmaydi. Ularning oppoqlari, yam-yashillari, qip-qizillari, qop-qora, zangori, jigarrang, qisqasi hamma rangdagilari bo'ladi. Hattoki 3-4 rangli baliqlar ham bo'ladi. Bir baliqdagi bir necha ranglar bir-birlariga yaqin, shuningdek, kontrast bo'lishi mumkin. Baliqlar suv

ostidagi qoyada, toshlar ichida, silliq toshlarning oralarida, o'simliklar, balchiq va qumlar ichida o'zlariga in yasab hayot kechiradilar.

Suv hayvonlari va o'simliklari haqida ham ana shunday turli-tumanlik mavjud. Ularning ham uzun, yapoloq, dumaloq shakldagilari, to'p bo'lib o'sadiganlari bo'ladi. Bunday umumiy su'batdan so'ng imkoni bo'lsa o'qituvchi suv osti dunyosidagi hayotni aks ettiruvchi diafilm yoki kinofilm namoyish etsa dars yanada samarali bo'ladi. Bu darsda bolalarga beriladigan topshiriq suv osti dunyosiga qilingan sayohat asosida uning tasvirini ishlashdan iborat bo'ladi.

Bolalar o'zlari ishlayotgan tasvirlarida quyidagi ko'rinishlardan birontasini aks ettirishlari tavsiya etiladi:

1. Suv ostidagi hayvonlarning tinch hayoti.
2. Suv osti hayvonlarining o'zaro jangi.
3. G'ovvoslarning suv osti dunyosini o'rganishlari.
4. Afsonaviy hayvonlarning (rusalka, dev, dengiz shohi, ajdar, suv otlari v.b.) suv ostidagi hayoti va boshqalar.

Topshiriqni bajarish texnikasini har bir o'quvchining o'zi tanlaydi. U akvarel, guash, rangli qog'ozdan, tabiiy materiallar (barg, ildiz, daraxt, shohlari, gazmol parchalari, tashlandiq materiallar, tosh, o'simlik v.b.) dan bo'lishi mumkin.

Bolalar ijodiy ishga kirishishlaridan avval o'qituvchining ularga mavzu yuzasidan tayyorlagan kompozitsiya riantlarini yoki ularning sxemalarini ko'rsatishi, topshiriqni yuksak darajada bajarilishiga yordam beradi. Unday materiallardan foydalanish o'qituvchi tomonidan oldindan hisobga olinishi hamda bu haqda bolalarga avvalgi darsda tegishli ko'rsatmalar berilgan bo'lishi lozim. Agarda dars jarayonida bolalar o'z ishlarini faqat

qalamda tasvirlab ulgurganlari taqdirda, uni tegishli badiiy va tabiiy materiallar bilan uyda davom ettirishlari mumkin.

O'qituvchi tomonidan ko'rgazmali qurol sifatida namoyish etilgan ishlar sinf doskasida dars oxirigacha saqlanadi. O'quvchilar ulardan bemalol foydalanadilar.



**Dekorativ kompozitsiya.** Dekorativ kompozitsiya mashg'ulotlari metodikasi uning mazmunidan kelib chiqqan holda olib beriladi. Ma'lumki, dekorativ kompozitsiya mashg'ulotlari quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi. 1. Choynak (dazmol), quticha, nomoyon kabilardan birontasi uchun eskiz ishlash. 2. Gazmol va liboslar uchun eskiz ishlash. 3. Televizor, kreslo, avtomobillarni yangi markasining eskizini ishlash. 4. Kitoblarni badiiy bezagi eskizini ishlash.

Dekorativ kompozitsiya mashg'ulotlari metodikasi, rangtasvir kompozitsiyasi mashg'ulotlari metodikasi bilan umumiylikka ega bo'lsada, biroq uning o'ziga xos jihatlari ham bor. Ular ko'proq dekorativ faoliyatning turli tumanligida ko'zga tashlanadi. Xususan, ular jihozlar, kiyimlar, in'terer, avtomobillar, kitoblarning badiiy bezagi bilan bog'liq holda olib boriladi. 5-7-sinflarda dekorativ kompozitsiya mashg'ulotlarining boshlang'ich

sinflardagidan yana bir muhim farqi ularning ko'proq ijodiy xarakterda bo'lishligidir.



*13-rasm. Dekorativ kompozitsiyalar.*

Boshlang'ich sinflarda dekorativ kompozitsiya nashg'ulotlarida naqsh namunalaridan ko'chirish katta o'rinni egallasa, 5-7-sinflarda bunday mashg'ulotlar faqat ijodiy tusda bo'ladi. Bunda bolalar faoliyatiga ko'proq

mustaqillik beriladi, ularning badiiy tafakkuri, fikri va tasvirlash malakalari oʻstiriladi.

Bunday mashgʻulotlarda sanʼatshunoslik asoslari boʻyicha bolalarga kompozitsiyadan berilgan nazariy bilimlarga tayanish va ularga rioya qilgan holda ijodiy ishlarni bajartirish muhim hisoblanadi.

Oʻquvchilarning tasviriy ishlarini baqolashda ularning kompozitsiyaning qonun va qoidalariga qanchalik rioya qilganliklari hisobga olinadi. Dekorativ kompozitsiya ishlash metodikasi quyidagi tartibda va ketma-ketlikda oʻtkaziladi: 1. Oʻquvchilarga dars mavzusi va topshiriqni tushuntirish. 2. Mazuga doir materiallar bilan tanishtirish. Bunda bolalarga amaliy sanʼatga doir fotolar, naqshlar, buyumlar uchun kompozitsiya eskizlari, bezak elementlari, bezak sxemalari koʻrgazmali qurol orqali namoyish etiladi, ulardan ayrimlari doskada chizib koʻrsatiladi. 3. Tasvirlanadigan dekorativ kompozitsiya elementlarini joylashuv sxemasi yoki eskizini chizib olish. 4. Dekorativ kompozitsiyaning oʻlchovi va formatini aniqlash. 5. Dekorativ kompozitsiyani qalamtasvirini chizib olish. 6. Bezak uchun zarur boʻlgan ayrim tabiiy materiallarni stilizatsiyalash. Bu bosqichda ayrim naqsh elementlari oʻzgartirilishi mumkin. 7. Dekorativ kompozitsiyani boʻyoqlar bilan ishlash.

5-7-sinflarda dekorativ kompozitsiya ishlash mashgʻulotlarining xarakterining turli-tuman ekanligini hisobga olib, ularning har biriga metodik jihatdan alohida-alohida yondoshish talab etiladi. Xususan, gazmollar, kiyimlar uchun bezak eskizini ishlash mashgʻulotlarida oʻqituvchi koʻproq koʻrgazmalilikka eʼtibor berib, turli mato-gazmol nusxalari, kiyimlarning fotolari yoki slaydlarini koʻrsatsa, birona adabiy asarga (hikoya, ertak, masal, doston v.b.)

illyustratsiya ishlash mashg'ulotlarida esa bolalar e'tiborini ko'proq asar mazmuniga qaratadi. Zaruriyat bo'lganda asami qayta-qayta o'qib yoki so'zlab beradi, savol-javob o'tkazadi.

Avtomobillarni yangi markasining eskizini ishlash mashg'ulotida esa ularning turli markadagi rasmlarini namoyish etadi, bir-biridan farqini ko'rsatib beradi.

Dekorativ kompozitsiya mashg'ulotlari metodikasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri ko'proq bolalarni mustaqil ishlashga yo'naltirishdir.

5-7-sinflarda dekorativ kompozitsiyadan amaliy mashg'ulotlar shu sinflarda beriladigan nazariy bilimlar bilan bog'lab o'tkaziladi. Ayniqsa, amaliy bezak va dizayn, liboslar yuzasidan nazariy mashg'ulotlar berilgandan so'ng dekortiv kompozitsiyadan amaliy ishlar bajariladi.

Dasturda o'zbek halq amaliy san'atini nazariy jihatdan o'rganishga alohida e'tibor berilgan bo'lib, u dekorativ kompozitsiyada o'quvchilar tomonidan bajariladigan barcha topshiriqlarni talablar darajasida amalga oshirishga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Chunki, bolalar tomonidan bajariladigan har bir dekorativ kompozitsiyada o'zbek halq amaliy san'atining milliy badiiy an'analari o'z ifodasini topgan bo'ladi.

Quyida dekorativ kompozitsiya mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasiga doir dars ishlanmalari berilgan.

*Dasrning mavzusi:* o'zbek milliy liboslari eskizini ishlash.

*Darsning vazifalari:* o'quvchilarning badiiy-ijodiy qobiliyatlari va rasm ishlash malakalarini rivojlantirish. Bolalarning milliy o'zbek kiyimlari haqidagi tasavvurlarini boyitish. Xalq san'atiga qiziqishlarini uyg'otish.

*Darsning jihozlanishi:* o'zbek milliy kiyimlarining suratlari, reproduksiyalari, diopozitivlari va slaydlari. O'qituvchining o'zi tayyorlagan bir necha milliy o'zbek kiyim eskizlari. Lotin Amerikasi, Afrika, Ovro'pa halqlari kiyimlarining rasmlari. Katta yoshdagi erkak va ayol, o'g'il va qiz bola gavdasi tasvirlangan rasm.

*Darsning mazmuni:* o'qituvchi darsning mavzusini e'lon qilgandan so'ng o'zbek milliy kiyimlari haqida qisqacha suhbat o'tkaziladi. Bu suhbatning boshlanish qismida o'zbek milliy kiyimlari bilan bolalar avvalgi darsda tanishganliklarini hisobga olib, ularga bir qator savollar beriladi. Bundan maqsad bolalarning o'zbek milliy kiyimlari haqidagi tasavvurlarini tiklash va boyitishdan iborat. Xususan, bu borada quyidagicha savollar beriladi:

- Qanday o'zbek milliy kiyimlarini bilasiz (erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlari haqida alohida-alohida to'xtalish zarur)?

- O'zbek milliy kiyimlari boshqa halqlar kiyimlaridan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?

- Erkaklar milliy kiyimlari ansambliga qaysi kiyimlar kiradi? Ayollarnikiga-chi?

- Ayollarning kiyimlarida yosh xususiyatlar qanday hisobga olinadi? Erkaklarda-chi?

- O'zbek milliy erkaklar kiyimlari bilan ayollar kiyimlari o'rtasida qanday farq bor?

Shundan so'ng o'qituvchi bolalar javoblaridagi kamchilik va xatolarni ko'rsatib, suhbatga yakun yasaydi. U quyidagi mavzuda bo'ladi:

Har bir halq o'z milliy kiyimlariga ega. Biroq ularning hammasida umumiylik bo'lib, ular bosh kiyim, ustki kiyim, oyoq kiyim, shuningdek, turli tuman taqinchoq kabilarda ko'zga tashlanadi.

Bu kiyim va taqinchoqlar majmuasi *kostyum* deb ataladi. Kostyumda kishi kiygan hamma kiyimlar (bosh, ustki, poyafzal, shuningdek, taqinchoqlar) bir-biriga shakl, rang, o'lchov jihatidan mos holda tayyorlanadi. Har bir halqning kostyumlari bir maqsadga qaratilgan bo'lsa-da, biroq ular bir-biridan farq qiladi. Hatto, O'zbekistonning har bir viloyatida tikiladigan va kiyiladigan kiyimlarni bir-biridan farq qiladigan tomonlari ko'p. Xususan, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari o'z uslubiga ega bo'lsa, Buxoro va Samarqand boshqa uslubga, Farg'ona vodiysi aholisi yana boshqa uslubga ega. Shunday fikrlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Toshkent, Sirdaryo kabi viloyatlarning kiyimlari yuzasidan ham aytish mumkin.

O'zbek halqi turlicha iqlim sharoitlarida har xil kiyimlar kiygan. Ular erkaklar, ayollar, bolalar kiyimlariga bo'lingan.

Qisqacha suhbatdan so'ng o'qituvchi milliy kiyimlardan namunalar ko'rsatib, ulardan qaysilari qaysi viloyatga tegishli ekanligini, qaysi birlari kambag'allar va qaysilari boylar uchun mo'ljallanganligini aniqlash yuzasidan ko'rsatmalar beradi.

Savol-javobdan so'ng o'qituvchi rasmdagi kiyimlardan 1-2 tasini bolalar bilan birgalikda tahlil etadi va bolalarning navbatdagi vazifasi o'zbek milliy kiyimlari eskizini tayyorlashdan iborat ekanligini qayd qiladi. So'ngra o'z ko'rsatmalarini quyidagi mazmunda davom ettiradi:

Bolalar, avvalo daftaringizga doskadagi ko'rgazmali qurollarda aks ettirilgan odam qomati rasmini ishlang, so'ngra uning ustiga o'zingiz xoxlagan o'zbek milliy kiyimlarining rasmini ishlaysiz. O'zbekistonning qaysi viloyatiga xos kiyim ishlamoqchi bo'lsangiz, uning o'ziga

xos tomonlarini saqlashga harakat qiling. Shuningdek, rasmingizda kiyimning qaysi mansabdagi yoki xizmatdagi kishilar uchun mo'ljallanganligini ham yodingizdan chiqarmang. Siz ishlagan kiyim eskizi yagona ansamblni tashkil etsin. O'zingiz ishlagan kiyim namunasini betakror bo'lishligiga harakat qiling. U kitoblarda berilgan va men ko'rsatgan kiyimlar tasviridan farq qilsin. Biroq rasmingizda o'zbek milliy kiyimlariga xos xususiyatlar bilinib tursin. Doskada namoyish etish uchun qo'yilgan kiyim rasmidan to'la ko'chirib olish mumkin emas, biroq ulardagi ayrim qismlarni, naqsh unsurlari, ranglari, shakllaridan foydalansa bo'ladi. O'qituvchi o'zbek kiyimlarining namunasini yaratish uchun ularni boshqa halqlarning milliy kiyimlari bilan solishtirib ko'rish kerakligini qayd qiladi. Shu maqsadda o'qituvchi bolalar e'tiborini boshqa halqlar kiyimlariga ham qaratadi. So'ngra bolalar mustaqil ravishda milliy kiyim namunasini yaratishga kirishadilar. Kiyim namunasining rangtasviri o'qituvchining ruxsati bilan amalga oshiriladi. Bunda o'qituvchi har qaysi bolaga alohida yondashadi. Chunki, ijodiy ishlar saviyasi hamma bolalarda bir xil bo'lishi mumkin emas. Liboslarning namunalari, ranglari haqida alohida to'xtalib o'tish lozim. Bunda u o'zbek ustalari yorqin toza ranglarni nihoyatda yoqtirishlarini qayta-qayta ta'kidlab o'tadi. Suhbat davomida o'qituvchi bolalarga shuni ham etkazishi kerakki, kiyimlar eskizini ishlashdan avval har bir o'quvchi ularni kimlar uchun (erkaklargami, ayollargami, qishlikmi, yozlikmi, bahor yoki kuzlikmi, yoshlargami, qariyalargami, boygami, kambag'algami, ziyoligami yoki amaldorgami, ruhoniygami, oddiy xizmatchigami) mo'ljallanganligini yaxshilab o'ylab olishi

kerak bo'ladi. Xuddi shuni hisobga olib, kiyim materiali, uning bezak guli, rangi, kompozitsiyasi tanlanadi.

Dars bolalarning ijodiy ishlari ko'rgazmasini tashkil etish va muhokama qilish bilan yakunlanadi.

Uyga sinf ishini yakunlash vazifa qilib topshiriladi.

*Darsning mavzusi:* Kitob saqifalarining badiiy bezagi eskizini ishlash.

*Darsning vazifalari:* Kitob badiiy bezagi haqida ma'lumot berish. Bolalarni kitob mazmuni va uning badiiy bezagi to'g'risidagi tushunchalarini kengaytirish. O'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini o'stirish. Rasm orqali o'z fikrlarini ifodalay olishga o'rgatish. Bilimlar manbai bo'lgan kitobga muhabbat uyg'otish va ularni avaylab asrashga o'rgatish.

*Darsning jihozlanishi:*

1. O'lchov, rang, shrift, bezak kompozitsiyasi jihatdan turlicha kitoblar.

2. O'qituvchi tomonidan bironta kitobga ishlangan bezaklar.

3. Kitob sahifalarini bezashga doir ishlangan parallel sinf o'quvchilarining ishlari.

*Darsning mazmuni:* yangi mavzuni bayon etish kitob haqida suhbat bilan boshlanadi. Bu suhbatda kitobning kishilar hayotidagi ahamiyati haqida gapiriladi. Kitob bilim manbai, u ko'pgina avlodlarning tajribasini o'zida aks ettiruvchi xazina, u o'qituvchi va tarbiyachidir. Kitob ijtimoiy ishlab chiqarishning hamma sohalarida (sanoat, qishloq xo'jaligi, fan, meditsina, madaniyat, san'at v.b.) ishlovchilar uchun amaliy ko'rsatmalar beradi. Maktabda u darslik, turli halqlar o'rtasidagi munosabatlar vositasini o'taydi. Ayniqsa, Hozirda kitobsiz Vatanni dushmanlardan himoya qilib bo'lmaydi. Murakkab texnikani o'zlashtirish

mumkin emas. Turli buyum va oziq-ovqatlarni ko'plab ishlab chiqarishni, fan va san'at sirlarini bilib bo'lmaydi. Usiz o'qimishli va madaniyatli kishilar tayyorlash mumkin emas.

Kitoblar o'lchov, shakl, bezak unsurlari, rangi, bezak kompozitsiyasi jihatdan nihoyatda turli-tuman bo'ladi.

Kitoblarni yaratish ishi bilan ko'pchilik mutaxassislar shug'ullanadilar. Kitob mazmunini yozuvchi yozadi, uning bezagini rassom bajaradi. Kitobning yaratilishida yozuvchi va rassomlardan tashqari, muharrirlar, korrektorlar, bos-maxona xodimlari ham ishtirok etadilar.

Texnika rivoj topmasdan avval kitoblar qo'l bilan bunyod etilar edi. Kitob matnining atroflari va oralari naqshlar va rasmlar bilan yuksak badiiy saviyada bezatilardi. Qog'oz kashf etilmasdan avval odamlar sopol, daraxt barglari, hayvon terilariga yozishgan.

Ayrim ma'lumotlarga qaraganda Respublikamiz xududida, ya'ni Samarqandda 560-yillaridayoq qog'ozga yozilgan kitoblar bo'lgan.

XI asrda Xitoyda, XII asrning 40-yillarida Germaniyada kitob bosishni ixtiro qilinishi kitob tayyorlash tarqqiyotida yangi davmi ochgan. Respublikamiz xududida bosmaxonalarda birinchi bor ko'p nusxali kitoblar 1868-yilda Toshkentda nashr etildi.

Kitoblarni nashr etishda rassomning ishi benihoyat katta. Rassomlar tomonidan kitoblarga ishlangan illyustratsiyalar, bezaklar kitob mazmunini aniqroq va tezroq tushunib olishga yordam beradi.

Qadimgi vaqtlarda ham kitoblarni bezatishga alohida e'tibor berilgan. Avvalgi davrlarda Respublikamiz xududida yaratilgan kitoblarni bezatishda rassomlardan, ayniqsa Kamoliddin Behzod, Sulton Mahmud, Qosim Ali, Mahmud

Muzaxxib, Abdullo, Muhammad Murod Samarqandiylar katta shuhrat qozonganlar.

XX asrning ikkinchi yarmida O'zbekistonda I. Ikromov, V. Kedrin, M. Reyx, A. Osheyko, H. Basharov, I. Kiriakidi, T. Muhammedov kabi ko'plab kitob bezagi ustalari etishib chiqqan. Ular kitob bezagi san'atining milliy, badiiy an'analarini davom ettirib, katta yutuqlarni qo'lga kiritganlar.

Kitob muqova jildi (superoblojka), muqova, titul varag'i, boshbezak, zarhal Harf (bosh harf), illyustratsiya, yakuniy bezak kabilardan tashkil topadi. She'riy kitoblarda satrlar orasida naqshiy bezaklar tasvirlanishi ham mumkin. Kitobning titul varag'ida muallifning familiyasi, kitobning nomi, nashr etilgan joyi, yili, nashriyot nomi va boshqalar yoziladi.

Kitob birinchi betining yuqori qismi badiiy bezatiladi. Bu bezak naqsh yoki mazmunli tasvirdan (shunchaki narsalar tasviri bo'lishi ham mumkin) iborat bo'ladi. Uni *boshbezak* deb yuritiladi. Ular katta-kichikligi jihatidan turlicha bo'lib, muvaffaqiyatli tasvirlangan taqdirda mazkur kitob bobini, ba'zan butun kitob mazmunini o'zida aks ettirishi mumkin. Shu bilan birga bosh bezak bu betni badiiy bezatish vazifasini ham o'taydi. Boshbezak haqida gap borganda uning kitobdagi o'rni, o'lchovi, rangi, shakli, tasvir unsurlari haqida to'xtalib o'tish lozim. Ularni tushuntirishda ertak, hikoya, she'r, doston, masal, roman kabi kitob bezaklaridan foydalaniladi.

**Zarhal harf** kitobning matnini har bir bob yoki paragrafining birinchi harfi hisoblanadi va u yirik holda ishlanadi, naqsh va turli real tasvirlar bilan bezatilgan bo'ladi. Zarhal harflar ko'pincha bolalar ertaklarida va she'riy kitoblarda ko'p qo'llaniladi. Zarhal harf namunalari

turli kitoblardan, shuningdek, o'qituvchining o'zi tayyorlagan ko'rgazmali quroli orqali ko'rsatiladi. Misol uchun "O'zbek halq ertaklari" kitobini namuna sifatida o'rganish va bolalarga ko'rsatish uchun tavsiya etish mumkin. Shu to'plamdagi ertaklardan birontasini tanlab olib, o'qituvchi shu asosda bolalar bilan ish olib boradi.

O'qituvchi yuqoridagi kabi illyustratsiya va *yakuniy bezak* haqida gapirib, ularning namunalarini turli kitoblardan ko'rsatadi. Yakuniy bezak ham boshbezak kabi o'lchovda, rangda, shaklda, kitob yoki bob oxirida beriladi. U ko'proq kitob yoki uning bobiga xulosa yasaydi. Kitoblarning matn qismlarining atroflari naqshli bezak bilan bezatilishi qam mumkin. O'qituvchi kitob bezaklaridan namunalar ham ko'rsatadi.

Kitoblarning ichki bezagi yuzasidan umumiy tushunchalar berib bo'linganidan keyin o'qituvchi asosiy vazifaga o'tib, uni tushuntiradi.

O'qituvchi ertakning qisqacha mazmunini bolalarga tushuntirib, uning ichki bezagini ko'rsatadi, ular yuzasidan savol-javob o'tkazadi. Savol-javobdan so'ng topshiriq yuzasidan qisqacha ko'rsatma beradi. U quyidagicha mazmunda bo'ladi:

Bezak ishlariga kirishishdan avval boshbezak, zarhal harf, yakuniy bezak, ishlanadigan kitob betlarining matn o'rmini albom varag'ida belgilab qo'yiladi. Shuningdek, bu varaqda bosh bezak, yakuniy bezak va zarhal harflarning o'z o'rmi ham belgilanadi. Kitob matni uchun qoldirilgan joyni albom varag'ining chekkasigacha taqalmaydi. Kitob varag'ining to'rt tomonidan joy qoldiriladi. Kitobning matn qismi paralel gorizontalar bilan belgilab qo'yiladi.

Ishni akvarel bo'yoq, flomaster, tush, guash bilan bajarish mumkin. Bezashga kirishishdan avval bolalar o'qituvchi ko'rsatgan kitob bezaklarini yana bir bor sinchiklab ko'rib

chiqadilar va ulardan ijodiy foydalanadilar. Hech vaqt kitoblardagi bezaklardan ko'chirib olishga ruxsat etilmaydi. Har bir o'quvchi o'z ishini mustaqil ravishda kitobdagi bezaklardan o'zgacharoq, yanada qiziqarliroq ishlashga harakat qilishi lozim. Vazifa bolalarga tushunarli bo'lgach, o'qituvchi ularni mustaqil ishga o'tishlariga ruxsat etadi. O'zi partalararo yurib topshiriqni bajarishga qiynalayotgan o'quvchilarga yordam berib boradi. O'quvchilarning ko'pchiligi bir xil xatolarga yo'l qo'yganlari taqdirda butun sinfni ishdan to'xtatib, ularning xatolarini tushuntiradi.

Darsni mustahkamlash maqsadida o'qituvchi o'tilganlar yuzasidan savol-javob orqali suhbat o'tkazadi. Suhbatda bolalar e'tiborini quyidagilarga qaratiladi:

1. Kitoblarning kishilar hayotidagi ahamiyati nimada?
2. Kitoblarning yaratilishida qaysi soha mutaxassislari ishtirok etadilar?
3. Kitoblar qanday qismlardan tashkil topadi?
4. Kitob badiiy bezagining qaysi bo'laklarini bilasiz?
5. Qadimda qaysi o'zbek musavvirlari kitob bezagi bo'yicha ijod qilganlar?
6. Hozirgi o'zbek grafik rassomlaridan kimlarni bilasiz?
7. Supermuqova, muqova, titul, boshbezak, zarhal harf, yakuniy bezak, illyustratsiya kabilarni har biriga alohida-alohida ta'rif bering.

O'qituvchi dars oxirida sinfda ishlangan eng muvaffaqiyatli, o'rtacha va bo'sh ishlangan ishlardan namunalar ajratib olib, ularni o'quvchilar bilan tahlil qiladi, kamchiliklarini ko'rsatadi. Uyg'a sinfda ishlangan kitob bezaklariga o'xshash boshqa kompozitsiya bajarish<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> <https://muhaz.org/fani-boyicha.html?page=7>

## **Tasviriy san'atni o'qitish metodikasidan topshiriqlar. Ularni nazorat qilish va baholash.**

**Tasviriy san'atdan topshiriqlar** o'quvchilarning tasviriy san'atdan faoliyatlari o'qituvchining ularga beradigan topshiriqlari yuzasidan dars va darsdan tashqari vaqtlarda amalga oshiriladi. Bu topshiriqlarni sinf va uy ishlari shaklida ifodalasa ham bo'ladi. O'quvchilarning sinfda bajaradigan ishlari mazkur darslikning "Maktabda tasviriy san'at mashg'ulotlari mazmuni" qismida bayon etilgan. Sinfda bolalarga beriladigan topshiriqlar mazmuni, asosan yangi bilim va malakalar berish maqsadida amalga oshiriladi<sup>1</sup>. Dars jarayonida topshiriqlarning quyidagi ikki shakli ko'p qo'llaniladi. 1. Sinfda bajariladigan topshiriqlar. 2. Uyda bajariladigan topshiriqlar. Sinfda bajariladigan topshiriqlarning quyidagi turlari mavjud. San'atshunoslik asoslari mashg'ulotlarida:

- tasviriy, amaliy, me'morchilik san'atlarining nazariy asoslari, tarixi, san'atkorlarning hayoti va ijodi yuzasidan suhbatlar o'tkazish;

- o'quvchilarning o'zlari ishlagan rasmlari yuzasidan insholar yozdirish;

- san'atshunosliklikka oid krossvord, chaynvord yechish, viktorina o'yinlarini o'ynash;

- o'rganish maqsadida mahalliy san'at yodgorliklariga, ko'rgazma va muzeylarga borish.

### ***Kompozitsiya mashg'ulotlarida.***

- O'qituvchi tomonidan tavsiya etilgan yoki erkin mavzularda mustaqil ravishda kompozitsiyalar ishlash;

- Avvalgi darsda boshlangan va yakunlanmagan topshiriqni davom ettirish.

<sup>1</sup> <https://muhaz.org/fani-boyicha.html?page=8>

- Kompozitsiya mashg'ulotlari bilan bog'liq eskiz, ranglama va qoramalar ishlash.

***Naturaga qarab rasm ishlash mashg'ulotlarida.***

- Naturaga qarab rasm ishlash bo'yicha o'qituvchi tomonidan sinfda o'rnatilgan naturaning rasmini ishlash;

- Avvalgi darsda boshlangan va yakunlanmay qolgan ishni davom ettirish.

***Badiiy qurish - yasash mashg'ulotlarida:***

- o'qituvchi tomonidan tavsiya etilgan mavzuda tabiiy, badiiy va tashlandiq materiallardan badiiy qurish ishlarini bajarish;

- avvalgi darsda boshlangan va yakunlanmay qolgan ishni davom ettirish;

- qurish-yasash ishlari uchun material to'plash;

- qurish-yasash ishlari uchun tayyorgarlik bosqichini bajaruvchi rasm ishlash.

***Nazorat turlari va baholash mezonlari.***

Pedagogik amaliyotda o'quvchilar faoliyatlarini baholash maqsadida nazoratning quyidagi turlari qo'llaniladi:

1. Og'zaki so'rov. 2. Mashq. 3. Tasviriy-ijodiy mustaqil ish. 4. Yozma (matnli) mustaqil ish. 5. Test. 6. Uy vazifasi.

**1. Og'zaki so'rov.** Nazoratning bu turida o'quvchilarning tasviriy amaliy, me'morchilik san'atlaridan nazariy bilimlari (kompozitsiya, yorug'-soya, rangshunoslik, perspektiva), maxsus atamalar, rassom va xaykaltaroslarning ishlatadigan asosiy ish qurollari va materiallari, tasviriy san'atning tur va janrlari, mashhur rassomlar va ularning asarlari haqidagi tushunchalari hajmi aniqlanadi. Og'zaki so'rov frontal va individual tarzda amalga oshiriladi hamda u o'quvchilarni tez-tez nazorat qilish imkonini beradi. Shuningdek, og'zaki so'rov

o'quvchilarni tasavvuri, tafakkuri, xotirasi va nutqini rivojlantirishga ham yordam beradi. Nazoratning bu turida hikoya qilish, tavsif berish, sharhlash va boshqa usullardan foydalanish samaralidir.

**2. Mashqlar.** Nazoratning bu turida o'quvchilarning qalam, mo'yqalam, stek va boshqa ish qurollari, badiiy materiallar bilan ishlash malakalari va ko'nikmalarining darajasi aniqlanadi. Bu ish ko'proq naturaga qarab rasm ishlash va kompozitsiya mashg'ulotlari bilan bog'liq bo'ladi.

**3. Tasviriy-ijodiy mustaqil ishlar.** Nazoratning bu turida o'quvchilarni badiiy tafakkuri va qobiliyatlari, rivojlanish darajalari aniqlanadi. Bu ish ko'proq rangtasvir, dekorativ ishlar va haykaltaroshlikdan kompozitsiyalarni bajarishda qo'llaniladi.

**4. Yozma (matnli) mustaqil ish.** Mustaqil ishning bu turida o'quvchilar tomonidan olingan bilimlarni qanchalik o'zlashtirilganligi aniqlanadi. U bevosita tasviriy san'atning san'atshunoslik asoslari kursi bilan bog'liq bo'lib, unda o'quvchilar chaynvord, krossvordlar yechadilar, viktorina savollariga javob qaytaradilar, tasviriy san'atdan insho va referatlar yozadilar.

**5. Test sinovlari.** Nazoratning bu turida o'quvchilar tomonidan tasviriy san'atning nazariy asoslari, maxsus atamalar, rassom, haykaltaroshlar va ularning asarlari, ish qurollari va ishlatadigan materiallari, bolalar tomonidan rang nomlarini o'zlashtirish darajasi aniqlanadi. Testlardan foydalanish tasviriy san'at darslarining barcha turlari (naturadan rasm ishlash, kompozitsiya, san'atshunoslik asoslari) bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

**6. Uy vazifasi.** Uy vazifalari sinfda o'tilgan mavzu bilan bog'liq bo'lgan ijodiy ishlarni bajarish, naturaga

qarab ranglama va qoramalar ishlash, mashqlarni bajarish, sinfda tugallanmay qolgan ishni tugatish, tevarakatrodagi ko'rinish va hodisalarni kuzatish, sinf ishiga doir adabiyotlar o'qish, muzey va ko'rgazmalarga, san'at yodgorliklariga borish, kelgusi dars uchun materiallar to'plash yoki tayyorgarlik ko'rish, sinfda o'tilgan mavzular bo'yicha insho, referatlar yozish, krossvord, chaynvordlar yechish, viktorina savollariga javob qaytarish, san'atkorlar, ota-onalar bilan topshirilgan mavzuda suhbatlar qilish, san'at asarlarining reproduksiyalari va foto nusxalarini, illyustratsiya va rasmlarni to'plash yo'nalishlarida namoyon bo'ladi.

Uy vazifalari tasviriy san'at mashg'ulotlarining barcha turlariga taaluqli bo'lib, u nafaqat yangi materiallarni o'zlashtirish, balki o'tilganlarni mustahkamlash, bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, malakalar va ijodiy qobiliyatlarni o'stirishga xizmat qiladi.

Nazoratning bu turlaridan barcha sinflarda bir xil foydalanib bo'lmaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshlik xususiyatlari, bilim va malakalari saviyasining pastligini hisobga olib, 1-2-sinflarda test sinovlari, 1-5-sinflarda yozma mustaqil ishlar (insho, referat, krossvord, chaynvord, viktorina) o'tkazish tavsiya etilmaydi.

### *1. Namunadan ko'chirilgan dekorativ ishlar.*

- tasvirni qog'oz yuzasida joylashuvi (komponovka);
- ishini mustaqil bajarilish darajasi;
- bezak elementlarining shakli;
- bezak elementlarining o'lchami va o'lchov nisbatlari;
- bezak elementlarining stilizatsiyasi;
- rang yechimi;
- bezak elementlarining shakli;
- qalam bilan ishlash malakalari;

- mo'yqalam bilan ishlash malakalari;
- ishning toza va tartibli bajarilishi.

## **2. Ijodiy ishlangan dekorativ kompozitsiya.**

- ishni mustaqil bajarilish darajasi;
- rasmni qog'oz yuzasida joylashuvi (*kompozitsiya*);
- bezak elementlarining o'lchov va o'lchov nisbatlari;
- bezak elementlarining stilizatsiyasi;
- bezak elementlarining shakli;
- ranglar yechimi;
- o'quvchini ishga ijodiy yondoshganligi;
- ishni bajarishdagi badiiy-estetik did;
- ish kompozitsiyasi;
- dekorativ ishlarning asosiy vositalaridan savodii foy-

dalanish (ritm, simmetriya);

- qalam bilan ishlash malakalari;
- mo'yqalam bilan ishlash malakalari;
- ishning toza va tartibli bajarilganligi.

## **3. Haykaltaroshlik kompozitsiyasi**

- ishning mustaqil bajarilishi;
- haykalni mavzuga mosligi;
- haykal kompozitsiyasi;
- ishni bajarishdagi badiiy-estetik did;
- haykal bo'laklari va ularning o'lchovlari hamda o'l-

chov nisbatlari;

- ishdagi narsalarning hajmi;
- haykaltaroshlik asboblari bilan ishlash malakalari;
- ishning toza va tartibli bo'lishi.

## **4. San'at asarlarining tahlili.**

O'quvchilar bilishlari lozim:

- asarning nomi;
- asarning muallifi;
- asarning yaratilgan yili;

- asarning mazmuni;
- asarda ilgari surilgan g'oya;
- asar kompozitsiyasi;
- asarning tasviriy savodxonlik darajasi (rang, perspektiva, yorug'-soya qonunlari, anatomiya, o'lchov va o'lchov nisbatlari v.b.)
- maxsus atamalar;
- asar saqlanayotgan joy;
- asarni yaratishda rassomning qo'llagan tasviriy texnikasi;
- asarni yaratishda rassom qanday tasviriy materiallardan foydalanganligi<sup>1</sup>.

### **O'quvchilar faoliyatini nazorat qilish.**

Maktabda tasviriy san'at mashg'ulotlarining samaradorligi ko'p jihatdan o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish hisoblanadi va u davlat ta'lim standartlari asosida amalga oshiriladi. U o'z o'rnida birinchidan, o'qituvchi faoliyatiga baho berish, ikkinchidan bolalar tomonidan materiallarni o'zlashtirish darajasini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, u bolalarni fanga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularning faoliyatlaridagi yutuq, kamchilik va nuqsonlarni aniqlashga yordam beradi. Oqibatda bolalarni o'z tasviriy faoliyatlariga bo'lgan munosabatlari o'zgaradi.

Pedagogika fanida har bir o'quvchining har qanday faoliyatini nazorat qilish, o'z vaqtida baholab turilishi lozimligi qayd qilingan. Ayniqsa, o'quvchilarning tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishi qo'llab-quvvatlanishi, past o'zlashtiruvchi bolalarni kamchiliklarini ko'rsatish va ularni tushuntirish samaralidir. Lekin past o'zlashtiruvchi

<sup>1</sup> <https://muhoz.org/fani-boyicha.html?page=8>

o'quvchilarga past baholar qo'yish va ularni kamsitish tavsiya etilmaydi. Ko'pchilik hollarda, masalaga bunday yondoshish o'quvchilarni tasviriy va ijodiy faoliyatga qiziqishlarini so'ndiradi. Ayrim hollarda ular tasviriy faoliyatdan butunlay sovit ketishlari mumkin.

Tasviriy san'atdan o'quvchilar faoliyatini o'z vaqtida va muntazam nazorat qilib turish va baholash nihoyatda muhimdir. Chunki o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bolalar ancha vaqt va kuch sarflab bajaradilar, ularni talablar darajasiga etkazishga harakat qiladilar. Ularni o'qituvchilarga yoqishni, yuqori baholar olishni hohlaydilar, topshiriq yuzasidan ko'p bilimlarga ega ekanliklarini ko'rsatmoqchi va maqtanmoqchi bo'ladilar. Bu kuni ular orziqib kutadilar. O'qituvchi esa topshiriq berib uni nazorat qilmasa bolalarning topshiriqlarni bajarishga bo'lgan ixloslari asta-sekin susayadi. Bora-bora ular topshiriqlarni butunlay bajarmay qo'yadilar. Shunday ekan, o'qituvchi faqat topshiriqni o'z vaqtida tekshirishi va uni sinf jurnalida qayd qilib turishi lozim. Topshiriqlarni nazorat qilishning bir qator shakllari mavjud. Ular joriy nazorat, oraliq nazorat va yakuniy nazorat deb yuritiladi.

Joriy nazorat muntazam ravishda xox u nazariy, xox amaliy bo'lsin, har bir darsda amalga oshiriladi. Uni yangi materiallarni bayon etish jarayonida, shuningdek, dars oxirida o'tkaziladi. Yangi materialni bayon etish jarayonida bolalarni darsdagi faolligi va topshiriqni bajarishdagi sa'i-harakati uchun baholar qo'yiladi. Nazoratning ikkinchi turida o'quvchining topshiriqni qanday darajada bajarganligi tekshiriladi va baholanadi. Bunda bolalarning darsdagi faolligi ham hisobga olinishi mumkin.

Amaliy ishlarni baholash bevosita bolalar tomonidan bajarilgan tasviriy ishlar (rasm, haykal, qurish-yasash)

asosida nazariy bilimlarni baholash esa savol-javob, suhbat tarzida amalga oshiriladi.

Joriy nazorat darsning boshlang'ich qismida, o'tgan darsda unga berilgan topshiriqlarni tekshirish maqsadida ham o'tkaziladi.

Bolalarning o'zlashtirishini nazorat qilish va obyektiv baholash uchun joriy nazoratni tez-tez o'tkazib turishi lozim. Nazorat shunday tashkil etilishi lozimki, chorak davomida hech bo'lmaganda har bir bolada 4-5 ta baho bo'lishi lozim. Shuni ham hisobga olish lozimki, tasviriy san'at darslari haftasiga bir marotaba va bir soatdan o'tkazilishi bolalar faoliyatlarini to'liq nazorat qilish uchun yetarli emas. Eng kichik chorak olti hafta hisoblansa, chorak oxirida har bir bolalar bittadan baho olishlari lozim. Aks holda, chorak oxirida har bir bolada oltitadan baho bo'lmaydi. Natijada choraklik baholar obyektiv chiqmaydi.

Tasviriy san'atdan nazariy mashg'ulotlarda hamma bolalarni bir darsda baholashning imkoni yo'qligini hisobga olsak, chorak davomida har bir bolada 4-5 tadan baho bo'lishi lozim.

Amaliy ishlarni har bir darsda har bir bola faoliyatini nazorat qilish va baholash imkoni bor. Ularni ma'lum qismini darsning boshlang'ich qismida, bir qismini dars davomida, qolgan qismini, bolalar ishlarini yig'ib olib o'qituvchi darsdan so'ng tekshirsa bo'ladi.

Bolalarning darsdagi faolligini taqdirlash, qiziqishini oshirish maqsadida ular tomonidan bajarilgan ishlarnigina emas, topshiriqlarni bajarishga bo'lgan munosabatlari, harakati uchun ham baholar qo'yish mumkin. Shuningdek, har qanday baho qo'yganda butun sinfni nima uchun shunday baho qo'yilganligidan xabardor etish lozimki, bolalar baho mezonlarini ongli ravishda tushunib

yetsinlar. Bolalarning topshiriqlarni bajarishga bo'lgan munosabatlariga qo'yilgan baholar faqat ijobiy emas, salbiy bo'lishi ham mumkin. Shuni ham alohida qayd qilish lozimki, pasaytirilgan baholar asoslagan holda va bolalarni tushkunlikka tushirib yuboradigan bo'lmasligi lozim. Bir topshiriqni baholashda bolaning avvalgi darslardagi o'zlashtirishlarini ham hisobga olish lozim. Muntazam yaxshi o'zlashtirib kelgan o'quvchini avvalgi muvaffaqiyatlari va harakatlarini hisobga olib, bu galgi qoniqarsiz ishiga yomon baho qo'ymasa ham bo'ladi.

Oraliq nazorat dasturdagi u yoki bu bo'limning tugashi va chorak davomida bajarilgan ishlarning yakunini nazorat qilish maqsadida o'tkaziladi. Oraliq nazorat savol-javob, suhbat, test, insho, amaliy tasviriy ishlarni tahlil etish kabi yo'llar bilan amalga oshiriladi.

Oraliq nazoratda faqat chorak davomida qo'yilgan baholarni umumlashtirish bilan chegaralanib qolmasdan, chorak oxirida bolalarga qayta tekshiruv topshiriqlari ham beriladi. Bu topshiriqlar bolalar tomonidan mustaqil ravishda bajariladi va ular tasviriy, shuningdek yozma insho shaklida bo'ladi. Bolalarni qayta tekshiruv topshiriqlari va chorak davomida olingan baho natijalari umumlashtirilib yagona oraliq nazorat baholari qo'yiladi. Yagona oraliq nazorat baholarini qo'yishda o'qituvchi bolalarni tasviriy san'atdan darsdan tashqari ishlarini bajarishdagi harakatlari, faolligi va yutuqlarini hisobga olishi lozim va u o'quvchilarni bu sohadagi yangi ishlarga ilhomlantiradi. baholarni obyektivligini ta'minlaydi.

Yakuniy nazorat o'quv yili davomida o'quvchilarning tasviriy faoliyatlari natijalarini aniqlash va umumlashtirish maqsadida o'tkaziladi. Yakuniy nazoratning bu turida baholar o'quvchilarni choraklar, qayta tekshiruv natijalari,

ularning sinfdan va maktabdan tashqari olib borgan ishlari, ularning bu fanga qiziqishlari, harakatlari asosida qo'yiladi.

Ba`zan shunday bo'ladiki, bolaning o'zlashtirishi chorakma-chorak yaxshilanib boradi yoki aksincha yomonlashib boradi. Bunday holda o'quvchining so'nggi chorakdagi baholari, qayta tekshiruvdan olgan baholari hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ayrim hollarda tasviriy san'atdan baholarni biroz ko'tarib qo'yish hollari uchrab turadi. Buni inkor etish mumkin emas. Lekin, u asoslangan holda bo'lishi lozim. Bunga quyidagi hollarda rioya qilish muhim:

1. O'quvchining shu fanga qiziqishi katta, harakati kuchli.
2. Berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajaradi.
3. Sinfdan tashqari ishlarda faol ishtirok etadi.
4. Tasviriy san'at to'garagiga qatnashadi.
5. Darsdan tashqari vaqtlarda mustaqil ishlaydi (kitob o'qiydi, rasm ishlaydi, ko'rgazma va muzeylarga boradi, rassomlar bilan aloqalari bor.)<sup>1</sup>

### **Tasviriy san'atda borliqni idrok etish.**

Bolalarning tasviriy ishlari va bilimlarini baholashda bir qator mezonlar qo'llaniladi. Tasviriy faoliyatning har bir turida alohida *baho mezonlari* ishlatiladi.

Xususan:

1. Borliqni idrok etish.
2. Badiiy qurish-yasash ishlari.
3. Naturadan ishlangan rasmlar.
4. Naturaga qarab ishlangan haykallar.
5. Rangtasvir kompozitsiyalari.
6. Dekorativ kompozitsiyalar.
7. Haykaltaroshlik kompozitsiyalari.
8. San'atshunoslik asoslari.

---

<sup>1</sup> <https://muhaz.org/fani-boyicha.html?page=8>

### ***Borliqni idrok etish.***

- borliqni mustaqil kuzata olishi;
- tevarak-atrofnı bilishga qiziqishi;
- narsalarning tuzilishi haqidagi tasavvuri;
- narsalarning rangi haqidagi tasavvuri;
- narsalarning shakli haqidagi tasavvuri;
- narsalarni o'lvhovlari haqidagi tasavvuri;
- tabiat va borliqdagi narsalarni go'zalligini sezishi;
- tevarak-atrofdı mavjud narsalarning turlari haqidagi tasavvuri;
- narsalarning xarakteri (yuradi, uchadi, o'rmalaydi v.b.) ni bilishi;

### ***Badiiy qurish-yasash.***

- badiiy qurish-yasashga oid ish quollarini bilishi;
- badiiy qurish-yasashga doir ish quollari bilan to'g'ri munosabatda bo'lishi;
- badiiy qurish-yasashga doir ish quollari bilan ishlashni o'zlashtirilganligi;
- tasvirni qog'oz yuzasida joylashuvi (komponovka);
- tasvirni mustaqil bajarilganligi;
- ishga ijodiy yondoshuvning mavjudligi;
- ishni bajarishdagi estetik didi;
- ishning kompozitsiyasi;
- ishda tasvirlangan narsalarning shakllari;
- kompozitsiya uchun materiallarni (badiiy, tabiiy, tashlandiq materiallar v.b.) to'g'ri tanlanganligi;
- kompozitsiyadagi narsalar o'lvhovi va o'lvhov nisbatlari;
- ishning toza va tartibli bajarilishi.

### ***Naturaga qarab ishlangan haykallar. Naturaga qarab ishlangan rasmlar.***

- Rasmni qog'oz yuzasida joylashuvi (komponovka);

- ishni mustaqil bajarilish darajasi;
- naturaning o'lchovi, o'lchov nisbatlari;
- natura va natura bo'laklarining shakllari;
- qalam bilan ishlash malakalari;
- mo'yqalam bilan ishlash malakalari;
- narsalardagi yorug'-soyalarni tasvirlanishi;
- narsalar rangini tasvirlanishi;
- narsalarning perspektiv tasviri;
- ishning toza va tartibli bajarilishi.

***Naturaga qarab ishlangan rasmlar.***

- ishni mustaqil bajarilganligi;
- haykal o'lchovlari va o'lchov nisbatlari;
- haykal va uning bo'laklarining shakllari;
- haykaltaroshlik asboblari va qo'l bilan ishlash malakalari;
- haykaldagi hajmning tasvirlanishi;
- ishning toza va tartibli bajarilishi;

***Rangtasvir kompozitsiyasi.***

- rasmni qog'oz yuzasida joylashuvi (komponovka);
- ishni mustaqil bajarilishi;
- rasm mazmunini uning mavzusiga mosligi;
- bajarilgan ishdagi badiiy-estetik did;
- rasm kompozitsiyasi;
- ishga ijodiy yondoshuv;
- narsa va hodisalarning o'lchov va o'lchov nisbatlari;
- narsa va hodisalarning shakli;
- rasmda ranglar yechimi;
- rasmda narsalar tuzilishining yechimi;
- qalam va mo'yqalam bilan ishlash malakalari;
- ishda perspektiva qonunlariga rioya qilinganligi;
- rasmni toza va tartibli bo'lishi.

***Borliqni idrok etish mashg'ulotlarida:***

- Yil fasllarida tabiatdagi o'zgarishlarni, ulardagi go'zallikni, turli fasllardagi kishilarning mehnat jarayonlarini kuzatish, tabiat manzaralarining go'zalligi, qush va hayvonlarning hayotini ko'rsatuvchi filmlarni tomosha qilish va o'rganish;

- mavzu bilan bog'liq bo'lgan gullar, daraxtlar, qush, Hayvonlar rasmlarini ishlash.

*Uyda bajariladigan topshiriqlarning quyidagi turlari xarakterlidir:*

San'atshunoslik asoslari mashg'ulotlari bo'yicha.

- San'at asarlarining reproduksiyalari, otkritkalari. fotolari, rasmlarini to'plash.

- San'at va san'atkorlar haqida kitoblar, hikoyalar. maqolalar o'qish.

- San'at asarlari, san'atkorlar haqida insholar yozish.

- San'at va san'atkorlar haqida viktorina, chaynverd, krossvordlar yechish, to'qish, topishmoqlarni topish.

- San'atkorlar bilan suhbatlashish.

- Muzey, ko'rgazma va san'at yodgorliklariga borish.

- Mavzuga doir san'at va san'atkorlar haqida o'ta-onalar, tanish-bilishlar bilan suhbatlar qilish.

*Kompozitsiya ishlash mashg'ulotlari bo'yicha.*

- Sinfda ishlangan chala kompozitsiyani davom ettirish.

- Sinfda ishlangan mavzu bo'yicha yangi kompozitsiya ishlash.

- Ishlanadigan kompozitsiya mavzusi yuzasidan materiallar to'plash.

- Kompozitsiya mavzusi yuzasidan borliqni, hayotdagi voqea va hodisalarni kuzatish.

- Kompozitsiya mavzusiga aloqador qoralama va ranglamalar ishlash.

- Erkin mavzuda kompozitsiya ishlash.

- Kompozitsiya mavzusiga doir (sirk, televidenie, musobaqalar, bayramlar, o'yinlar, spektakllar, kinofilmlarda ko'rganlarni eslab kelish.

- Sinfda va uyda bajarilgan ishlarni ko'rgazmaga qo'yish uchun tayyorlash.

- Kelgusi darsda ishlanadigan kompozitsiya mavzusi yuzasidan tayyorgarlik ko'rish.

- Dars uchun o'quv qurollarini tayyorlab kelish.

***Naturaga qarab rasm ishlash mashg'ulotlari bo'yicha.***

- Naturaga qarab qoralama, ranglama natyurmort va boshqa rasmlar ishlash.

- Turli materiallar (sangina, sous, pastel, ugol, retush v.b.) bilan mashqlar bajarish.

- Sinfda ishlangan mavzu bo'yicha uyda naturaga qarab rasmlar ishlash, dars uchun o'quv qurollarini tayyorlash.

***Badiiy qurish-yasash mashg'ulotlari bo'yicha.***

- Mavzuga doir tabiiy, badiiy, tashlandiq materiallarni to'plash.

- Sinfda boshlangan va yakunlanmay qolgan ishni davom etdirish.

- Sinfda bajarilgan mavzuda yangicha kompozitsiya ishlash.

***Borliqni idrok etish mashg'ulotlari bo'yicha.***

- Yil fasllari davomida tabiatdagi o'zgarishlarni kuza-tish.

- Yil fasllari haqida she'rlar yodlash.

- Bahor, kuz faslidagi mehnatkashlarning mehnat jarayonlarini kuzatish.

- Yil fasllari va mehnat jarayonlari haqida, ularning go'zalligi haqida insholar yozish<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> <https://muhaz.org/fani-boyicha.html?page=8>

## **Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi fanidan darsdan tashqari ishlarni tashkil etish metodikasi.**

Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi kursidan bajari-ladigan mustaqil amaliy ishlar, talabalar mazkur fan bo'yicha bilim va malakalarini mustahkamlash bilan bir qatorda kelajakda ularni o'qituvchilik faoliyatlaridagi amaliy ishlari uchun zamin yaratadi.

Talabalarning mustaqil amaliy ishlarining quyidagi turlari mavjud:

- umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun yaratilgan tasviriy san'at darsliklarini o'rganish va ularni yozma ravishda tahlil qilish.

- tasviriy san'atni o'qitish metodikasiga doir bironta mavzu yuzasidan referat yozish.

- tasviriy san'atni o'qitish metodikasiga bironta mavzu b'yicha auditoriyada ko'rgazmali dars o'tish.

**Darsliklarni o'rganish.** Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun bir qator tasviriy san'at darsliklari yaratilgan bo'lib, darslar asosan ana shu darsliklar asosida tashkil etiladi. Bu fandan mashg'ulotlar olib boradigan har bir o'qituvchi, shuningdek, talaba ana shu darsliklarning mazmuni haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishi lozim. Buning uchun talaba darsliklarni sinchkovlik bilan qayta-qayta o'qib o'rganishi, tahlil etishi, undagi barcha yutuq va kamchiliklarni bilib olishi zarur bo'ladi. Buning uchun avvalo darsliklar haqida to'liq tushunchaga ega bo'lishi talab etiladi.

Darsliklar quyidagi qismlardan tashkil topadi:

1. Darslik nomi.
2. Topshiriqlar yoki o'zlashtirilishi lozim bo'lgan materiallar.

3. Bilim va malakalarni o'zlashtirish, topshiriqlarni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar. Ular matnli yoki illyustrativ tarzda bo'lishi mumkin.

4. O'tilganlarni mustahkamlash uchun savollar va amaliy ishlar.

5. Uy topshiriqlarining mazmuni.

Darsliklar asosiy, qo'shimcha va izohli materiallardan tashkil topadi. Asosiya nazariy va amaliy materiallar kiradi.

Nazariy materiallar esa asosan tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atlarining tur va janrlari, san'at tarixi hamda kompozitsiya, perspektiva, rangshunoslik, anatomiya, yorug'-soya qonunlari va qoidalari, rassom, usta, me'morlarning hayoti va ijodi, san'at asarlarining tahliliga doir ma'lumotlardan tashkil topadi.

1. **Amaliy xarakterdagi materiallarga** naturani yoki bironta mazmuni ifodalash yo'llarini ko'rsatuvchi tasvirlar, misol va mashqlar kiradi.

2. **Qo'shimcha materiallar** qatoriga sinfda olingan bilim va malakalarni sinfdan tashqarida mustahkamlash va kengaytirishga qaratilgan ma'lumotlar kiradi. Unga darsliklarning badiiy bezagi va mundariyasi ham taaluqlidir. Ular sxemalar, diagrammalar, tablitsalar, savollar, topshiriqlar, she'rlar, ertak va hikoyalar, chaynovord, krossvord, rebus, bolalar rasmlari bo'lishi mumkin.

3. **Izohli materiallar** sharhlar, savollar, kirish so'zlar, atamalardan tashkil topadi.

Ma'lumki, darsliklar matnli, va illyustrativ qismlardan tashkil topadi.

Darsliklarning matn qismini adabiy tilda, ixcham, lo'nda, tushunarli, sodda bo'lishi talab etiladi. Matn qismini darslik varog'ida erkin joylashuvi va shriftlarning

o'Ichovi bolalar yoshini hisobga olib tanlangan bo'lishligi lozim.

Darslik illyustratsiyalari esa avvalo mashg'ulot mavzusi va mazmuni bilan bog'liq bo'lishligi, ular asar muallifi tomonidan yuksak badiiy saviyada yaratilgan bo'lishligi, ularni bolalar idrokiga mosligi, ularni ko'p ham, kam ham me'yorida bo'lmasligi, ularni matnli qism joylashgan joyga yaqin bo'lishligi, ular darslikda mazmunli va yuqori badiiy saviyada ishlangan bo'lishligi lozim. Shuningdek, bu materiallar darslik betida kompozitsiya jihatidan to'g'ri joylashtirilgan, rangli, o'zbek san'atining milliy badiiy an'analarini o'zida aks ettirgan bo'lishi muhimdir.

Umuman esa tasviriy san'at darsligiga bo'lgan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim mazmunini milliy istiqloq mafkurasi va tarbiya bilan uzviy bog'liq holda yoritilganligi.

2. Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi asosida tuzilgan bo'lishi.

3. O'z tuzilishi va kompozitsiyasi jihatidan sodda va bolalar yoshiga mosligi.

4. Darslikdagi materiallar yangi va o'quvchilarda qiziqish uyg'otishi, ularni o'ylashga, izlanishga majbur etishi.

5. Har bir dars materiallari o'quvchilarda badiiy estetik didni, tasviriy malaka, ijodiy qobiliyatlarini o'stirishga qaratilgan bo'lishi.

6. Tasviriy san'atni boshqa fanlar, o'quv fanidagi blok va mavzulararo aloqalarni e'tiborga olishi.

7. Materiallarni didaktik prinsiplarga rioya qilgan holda bayon etilishi.

8. Matnli qismni ko'p bo'lmasligi, sodda va adabiy tilda bayon etilishi.

9. Ta'lim mazmuni o'quvchilarni sinfdan tashqari mustaqil ishlarini kuchaytirishga yo'naltirilgan bo'lishligi.

10. Ta'lim mazmuni tevarak-atrof, mehnat, o'quvchilarning hayoti bilan bog'liq bo'lishi.

11. Ta'lim mazmunining ishlab chiqishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga rioya qilinishi.

**Referat yozish.** Yuqorida qayd qilinganidek, amaliy ish tasviriy san'atni o'qitish metodikasi yuzasidan referatlar tayyorlashni ham nazarda tutadi.

U o'tilgan mavzuga aloqador bo'lib, talabadan ko'p vaqt va mas'uliyat talab etadi.

Referatlar yozish orqali talabalar tasviriy san'atni o'qitish metodikasini puxta o'zlashtiribgina qolmay, balki uni takomillashtirishning ayrim qirralarini ochish imkoniga ham ega bo'ladilar.

Referat maktabda tasviriy san'at darslariga doir borliqni idrok etish, badiiy qurish-yasash, naturaga qarab tasvirlash, kompozitsion faoliyat, san'atshunoslik asoslari bloklari bo'yicha, shuningdek, ayrim mavzularni o'tish metodikasini takomillashtirish yuzasidan bo'lishi mumkin.

Ma'lumki, referatlar yozishda, uning muallifi faqat adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish, xulosa bilan chegaralanib qolmasdan, uni ko'proq ilmiy yo'nalishda olib borishi kerak bo'ladi. U o'z o'rnida maktabda tasviriy san'at darslarini kuzatish, unda tajriba - sinov ishlarini o'tkazish, muammoning tarixiga murojaat etishi, arxiv materiallaridan foydalanish referatni ilmiylikini ta'minlaydi. Keyinchalik bu referat kurs ishi, bitiruv malakaviy ish mavzuga aylanishi mumkin. Qolaversa, u magistratura, aspiranturadagi tadqiqot ishiga asos bo'ladi.

Talabalar yil davomida kamida 2 ta referat yozishlari talab etiladi.

Referatlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarni milliy istiqlol mafkurasi ruhida tarbiyalash.

2. Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarni estetik didini o'stirish.

3. Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarning badiiy-ijodiy faolligini oshirish.

4. O'quvchilarni tasviriy san'atga qiziqtirishning samarali yo'llari va metodlari.

5. Tasviriy san'atni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash.

6. Tasviriy san'at darslarida turli materiallar va tasvirlash texnikasini qo'llash.

7. Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarning kuzatuvchanligi va xotirasini o'stirish.

8. Maktabda tasviriy san'atning nazariy asoslarini o'rganishning samarali yo'llari va metodlari.

9. Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarni bilish faolligini oshirish.

10. Tasviriy san'at darslarida fanlararo aloqalar.

11. Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarni axloqiy jihatdan tarbiyalash.

12. Tasviriy san'at darslarida o'zbek halqining milliy, badiiy an'analaridan foydalanish.

13. Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarni tasviriy malakalarini o'stirish.

14. Tasviriy san'at darslarida turli kasb va hunarlarga yo'llash metodikasi.

15. Tasviriy san'atdan o'quvchilarning bilim va malakalarini nazorat qilishni takomillashtirish.

16. Tasviriy san'atni chuqur o'rgatadigan maktablar va sinflarda ta'lim mazmuni va metodikasining o'ziga xos xususiyatlari.

17. Maktabda tasviriy san'atdan olib beriladigan (amaliy san'atdan) to'garak mashg'ulotlarining mazmuni va metodikasining o'ziga xos xususiyatlari.

18. Ta'lim tizimida badiiy ta'limning shakllanishi va taraqqiyoti.

19. Tasviriy san'atdan o'quvchilarni mustaqil ishlarini tashkil etish metodikasi.

20. Tasviriy san'atni o'qitishga tabaqalashgan yondashuv.

**Tasviriy san'atdan namunaviy dars o'tish.** Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi kursining muhim qismlaridan biri hisoblangan namunaviy dars o'tish talabalarni o'quvchilar jamoasi orasida o'zlarini to'g'ri boshqarish, o'qituvchi bilan bolalar, o'quvchilar oralarida ro'y beradigan kelishmovchilik va situatsiyalarni bartaraf etish yo'llari bo'yicha ma'lum bilim va malakalar hosil qiladilar. Shu bilan bir qatorda bunday darslar talabalarni maktabdagi faol pedagogik amaliyotlari hamda kelgusidagi o'qituvchilik faoliyatlarida ham qo'l keladi.

Namunaviy dars o'tish uchun talaba belgilangan mavzu asosida tayyorgarlik ko'radi. Bu tayyorgarlik mazkur darslikni amaliy ishlar qismida bayon etilgan bo'lib, u quyidagi qismlardan tashkil topadi:

1. Dars konspektini muxtasad qilib tayyorlash.
2. Dars ishlanmasini qoidasiga ko'ra ishlab chiqish.
3. Ko'rgazmali qurollar tayyorlash.
4. Tayyorlangan materiallar asosida mustaqil ravishda dars o'tishni mashq qilish.

Namunaviy dars uchun dars konspekti va dars ishlanmasi talabanning avvallari tayyorlagan konspekti dars ishlanmasi bo'lishi mumkin. Tayyorlangan konspekt, dars ishlanmalari va ko'rgazmali qurollar metodika o'qituvchisiga ko'rsatilib, uning ijobiy fikr olingandan so'ng auditoriyada talabalar oldida namunaviy dars o'tiladi.

Bu darsda talabalar o'quvchilar o'mida faollik ko'rsatishlari maqsadga muvofiqdir. Qirq besh minutlik darsdan so'ng o'qituvchi va talabalar orasida namunaviy o'tkazilgan dars muhokama etiladi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> <https://muhoz.org/fani-boyicha.html?page=8>

## **VI-BOB TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHISI JIHATLARI.**

### **Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi o'qituvchisi tashkilotchi, metodist va ijodkor.**

O'qituvchi kasbi barcha kasblar orasida eng faxrlisi va mohiyati jihatidan nihoyatda jamiyat uchun zaruri hisoblanadi. Bu kasb jamiyat hayoti, uning barcha jumboqlari haqida yoshlarga, ularni butun hayoti davomida kerak bo'ladigan bilimlarni beradi. Yosh avlodni yuksak va oliyanob fazilatlar bilan qurollantiradi, kishilardagi nodonlik va yomon illatlar bilan kurashishga o'rgatadi. Kishilarning o'tmishdagi tarixiy tajribalarini yoshlarga o'tkazadi. Bu borada jamiyatimiz uchun vositachilik qiladi. Natijada jamiyatimiz taraqqiyoti uchun zamin yaratiladi.

O'qituvchilik kasbi hamma zamonlarda ham ma'suliyatli va sharafli kasb ekanligi e'tirof etib kelingan.

O'zbekistonning hozirgi taraqqiyot bosqichida bu kasb yanada katta ahamiyat kasb etayapti. Chunki, o'zbek halqi chet el bosqinchilarining ko'p yillik zulmi ostida o'zining ma'naviyati va madaniyati, an'anasi va urf-odatlarini unutayozgan edi. O'zbek halqi oldida turgan muhim vazifalaridan biri o'z-o'zini anglash, milliy istiqlol mafkurasi asosida o'z Vatani va halqiga sodiq bo'lgan, yangi barkamol avlodni shakllantirishdan iborat. Bu borada o'qituvchi benihoyat katta rol o'ynaydi.

Barcha mutaxassislardan farqli o'laroq o'qituvchi shunday shaxski, u moddiy boyliklar ishlab chiqarishi bilan emas, yosh avlodni ichki dunyosini, ma'naviyatini shakllantirish bilan shug'ullanadi. Bundan bu kasbni qiyin, biroq mas'uliyatli ekanligini bilib olish mumkin. Boshqa

kasb mutaxassislari o'z faoliyatlarida xato qilishlari mumkin bo'lsa-da, muallim xato qilishi mumkin emas. Chunki bu xato yosh avlod kelajagini barbod qilishi yoki mamlakatda nodon kishilarning bir butun avlodini vujudga keltirishi mumkin<sup>1</sup>.

O'qituvchining birovlarini o'qishga majbur etib o'rgatishi ham, o'zini-o'zi majbur etishi ham oddiy ish emas. Hamma gap shundaki, hamma yoshlar bir xil emas. Birovlari o'qishga o'zlari harakat qilsalar, boshqalarni majburlash kerak bo'ladi. Ko'pchilik hollarda bir emas, butun bir jamoani majburlash kerak bo'ladi. Bunday hollarda yoshlarni ishga jalb etish, intizomli bo'lishga erishish ayniqsa og'ir kechadi. Maqsadga erishish uchun eng avvalo shu jamoa orasida obro' qozonmoq zarur. O'qituvchilik kasbining yana bir muhim xususiyati shundaki, u o'z tengqurlari bilan emas, boshqa yoshdagilar bilan ishlaydi. O'qituvchi bilan bolalarning hayotiy tajribalari, bilimlari, dunyoqarashlarida ancha farq bor. Bu esa ularni bir-birlarini tez tushunib etishlariga imkon bermaydi. Shunday ekan, o'qituvchi bolalarni yoshlik xususiyatlari, dunyoqarashlari, qiziqishlari, bilim darajalarini yaxshi bilishi kerak bo'ladi. Shundagina uning ishi samarali kechishi mumkin.

O'qituvchi kasbining yana bir muhim jihati shundaki, bu kasb kishiga mamnunlik va xursandchilik keltiradi. Bu mamnunlik, unga o'z faoliyati natijalarini ko'rganida, o'z shogirdlarini turmushda, ilmu-fan va yuksak mansablarni egallaganlarida, hayotda o'z o'rinlarini topganliklarida ko'zga yaqqol tashlanadi. Shunda, o'qituvchilar o'z mehnatlarini zoye ketmaganligini his etadilar.

---

<sup>1</sup> <https://muhaz.org/fani-boyicha.html?page=9>

O'qituvchilik kasbida iste'dod katta rol o'ynaydi. Ya'ni o'qituvchilikda o'z kasbiga mehr, qiziqish, uni egallashga intilish bo'lishi lozim. Bu sifatlar ko'pchilik hollarda bolalarni sevganda, bolalarning shovqin-suronidan, jovdiragan ko'zlaridan zavqlangandagina namoyon bo'ladi.

Muallimlik iste'dodi uni tug'ma bo'lishligini bildirmaydi, shunga qaramasdan, u kishilarda yoshligidan, ochiq yoki berk holda paydo bo'ladi. Muallimlik iste'dodi kishilarda bolalar bilan bog'liq hayotiy voqealar zahirida, kishilarning yoshlik chog'larida bo'lishi ham mumkin. Kishilarda bo'ladigan ruhiy bu sifatlar ularni o'qituvchilik kasbiga qiziqtiradi.

Iste'dod kishilar baxti uchun kurashish istagi, O'zbekistonning kelajagi, buyuk davlat qurish uchun kurashi bilan bog'lanadi. Mahorat o'zbek o'qituvchisi hayot va jamiyatga ilg'or nazar bilan qarovchi, mustaqillikni mustahkamlash yo'lida tinimsiz mehnat qiluvchi shaxsdir.

O'qituvchining yana bir muhim sifati bu yoshlarga namuna, ibrat bo'lish shogirdlariga qattiq qo'l va o'z o'rnida mehribon bo'lishda ifodalanadi. Masalan, soqoli o'sib ketgan, kiyimlari tozalanmay, yoqasining yag'iri chiqib ketgan o'qituvchi so'zsiz bolalarga ibrat bo'la olmaydi. O'qituvchi bolalarga faqat tozalik borasida emas, hamma sohada ibrat bo'ladigan bo'lishi lozim. Xususan, u odobi, bir so'zligi, haloligi, sof vijdonliligi, adolatparvarligi, mehribon bilan ajralib turadi.

Bolalar o'z xislatlariga ko'ra kuzatuvchan, qiziquvchan, tahlidchan bo'lib, o'qituvchilarni doimo kuzatib yuradilar, ularga o'xshashga harakat qiladilar. Buni o'qituvchi hech vaqt unutmasligi lozim.

Bolalardagi bu sifatlar o'qituvchini o'ziga nisbatan talabchan bo'lishlikni taqozo etadi. Bu esa, uni doimo o'zi

ustida mustaqil ishlashi, ilmiy metodik adabiyotlarni, gazeta va jumallarni muntazam o'qib borishga yo'llaydi. Shu bilan birga, o'qituvchi respublikamizning madaniy hayoti bilan bir safda borishi, konsertlar, spektakllar, tasviriy san'at ko'rgazmalariga doimiy ravishda borib turishi zarur bo'ladi. Badiiy adabiyot o'qish ham o'qituvchiga nihoyatda zarur. Chunki o'qituvchi o'zining badiiy madaniyati bilan ham bolalarga namuna bo'lishi darkor. O'qituvchilarga qo'yiladigan talablar orasida eng muhimlaridan biri bu o'qitiladigan barcha fanlardan ta'lim mazmunini va uni o'qitish metodikasini yaxshi bilishi hisoblanadi. Chunki, ta'lim mazmuni ham, o'qitish metodlari ham borgan sari takomillashib turadi' (14-rasm).



*14-rasm.*

Ilmiy tadqiqotlar va ilg'or tajribalar yuzasidan muallimning eng muhim vazifalaridan biri tadqiqot natijalarini va ilg'or tajribalarni o'rganish bilan chegaralanib

<sup>1</sup> <https://muhaz.org/fani-boyicha.html?page=9>

qolmasdan, balki bu tajribada uning o'zining ham ishtirok etishi hisoblanadi. Buning uchun u o'z faoliyatida to'xtovsiz tajriba-sinov ishlarini o'tkazib turishi, boshqalarning ilg'or tajribalarini o'rganib borishi kerak bo'ladi.

Shuni ham qayd qilish lozimki, o'qituvchi ishining murakkabligi shundaki, u ham ta'lim ham tarbiya beradi. Bu esa o'qituvchidan ko'p vaqt, mas'uliyat va ijodkorlikni talab etadi.

O'qituvchi bolalarning tasviriy san'atdan bilim va malakalari haqida tasavvurga ega bo'lish bilan birga, ularning sog'ligi, psixik xususiyatlari, qiziqishlari, odobi, uydagi shart-sharoitlari, ularning ota-onalari haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Shu bilan birga bolalarning uylariga tez-tez borib turishi, bolalar haqida ularning ota-onalari bilan muloqotda bo'lib turishi pedagogik faoliyatning samaradorligini yanada oshiradi.

Yuqorida qayd qilinganidek, tasviriy san'at o'qituvchisi bolalarning psixologik xususiyatlarini yaxshi bilgandagina u kutilgan natijalarga erisha oladi. Bu narsa ko'proq o'qituvchining kuzatuvchanligiga bog'liq. U faqat tevarak-atrofdagi voqea va hodisalarnigina emas, bolalarda va ularning harakatlarida sodir bo'layotgan jarayonlarni kuzatib borishi, ulardan tegishli xulosalar chiqarib olishlari, shunga yarasha tegishli choralar ko'rishi kerak bo'ladi. Kuzatuvchan o'qituvchi bir vaqtning o'zida juda ko'p jarayonlarni hayolidan o'tkazadi. Xususan, dars berayotganda, qaysi bola nima haqida o'ylayapti, nega shunday harakatlar qilayapti, rost gapirayaptimi yoki yolg'onmi, qaysi bolalarga yordam berish kerag-u, qaysinisiga shart emas, qaysi bolalar mashg'ulotga qiziqmoqdalar, qaysilari yo'q v.b.

O'qituvchining xotirasi yaxshi bo'lmasa, u o'qituvchilik qilishi mumkin emas. Aks holda, bolalar o'rtasida ziddiyatlarni kelib chiqishi tabiiydir. O'qituvchi mashg'ulot jarayonida ko'p qirrali fikr yuritadi. Birinchidan, bolalarga berish kerak bo'lgan bilimlarni xotirlaydi, ikkinchidan beriladigan bilimlarni yengil va tez etkazish yo'llari haqida o'ylaydi, uchinchidan bolalar berilayotgan bilimlarni o'zlashtirayaptilarni yoki yo'qmi? O'qituvchining bunday aqliy faoliyati tafakkur deb yuritiladi. Bu narsa o'qituvchining tafakkuri har jihatdan rivojlangan bo'lishini ko'rsatadi. Agarda bola o'quv materialini yaxshi o'zlashtirmasa, uning sabablarini izlashi, shu maqsadda, u bilan suhbatlashishi, uni kuzatishi, ota-onalari bilan muloqotda bo'lishi kerak bo'ladi. Bu esa o'qituvchining to'xtovsiz o'ylashi, ta'lim jarayonlarini takomillashtirib borishini talab etadi.

O'qituvchining psixik jarayonlaridan hisoblangan tasavvur, uning faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Agarda uning bu xususiyati yaxshi rivojlangan bo'lsa, u mashg'ulotlarda narsalar va hodisalarning o'lchovi, shakli, rangi, tuzilishi, holati, harakati kabilarni tezda va jonli tasavvur etib, ularni bolalar ongiga osongina yetkaza oladi. Natijada, uning bolalarga beradigan ma'lumot va tushunchalari ishonarli chiqadi. Tasavvuri yaxshi rivojlangan o'qituvchilar o'zlarining gaplari bolalarga qanday ta'sir ko'rsatishi, qanday fikr tug'ilishini oldindan bila oladilar va shunga yarasha o'zlarini tayyorlaydilar.

O'qituvchi faoliyatida nutq beniqoyat katta rol o'ynaydi. Nutqi yo'q o'qituvchining bolalarga ta'limiy ham, tarbiyaviy ta'siri ham yuqori bo'lmaydi. Nutq orqali u san'at asarlari yuzasidan suhbat, munozara qilishi mumkin. O'z nutqida o'qituvchi faqat leksika, fonetika, talaffuz, gap

tuzish, urg'ularni joy-joyiga qo'yishi bilan chegaralanib qolmasdan balki, uning ta'sirchanligi va ifodali bo'lishiga e'tibor bermog'i lozim. Shuningdek, bu nutq tushunarli va bolalarning hissiyotiga ta'sir ko'rsata oladigan, maroqli, jonli, aniq, ravshan, sermazmun bo'lgandagina yaxshi samara beradi. Lekin, bu nutqni ashulaga aylantirib yuborish kerak emas. Nutq zerikarli, uzundan-uzun, haddan ziyod baland yoki past, bir xil ohangda bo'lmasligi lozim. Bunday nutqlar bolalarni e'tiborini susaytirishi yoki asabiylashtirishi mumkin. Nutq kerak joyida balandroq yoki pastroq ohangda bo'lgani ma'qul.

O'qituvchi "aktyor" bo'lishi lozim deyishadi. Chunki sinfda turli xil vaziyatlar paydo bo'ladi. Bolalar o'rtasida yoki o'qituvchi va bolalarning o'rtalarida shunday og'ir vaziyatlar bo'lib qolganda, uning aktyorlarga xos xislatlari yordam beradi. O'qituvchi biror bo'lgan yoki bo'lmagan voqeani so'zlaganda, uni faqat nutq bilan emas, xatti-harakatlari bilan shunday tushuntirishi lozimki, bolalar uning bu gaplariga hech ikkilanmasdan ishonsinlar.

Odatda o'qituvchi bolalar kabi hissiyotga boy bo'lsa yaxshi o'qituvchi bo'ladi. Yaxshi o'qituvchi bolalarning qilayotgan ibratli ishlari, yaxshi javoblaridan mamnun bo'libgina qolmay, balki, ulardan quvonadi, zavqlanadi, ularga bo'lgan muhabbati yanada oshadi. Muallimlar bolalarni sevib, ularni kamchiliklariga befarq bo'lib qolishlari, ularni haddan tashqari erkalab, taltaytirib yuborishlari to'g'ri emas. Aks holda bolalarda manmansirash, boshqalarni mesimaslik kabi alomatlar paydo bo'ladi. Muhimi shundaki, o'qituvchi, o'z o'quvchisining muvaffaqiyatidan qanchalik mamnun bo'lmasin, qanchalik hissiyotlari jo'sh urmasin, u o'zining tashqi harakatlari, ovozinig ohangi bilan ham hursanligini

sezdirmaslari lozim. Aks holda, bolalar ustozlarning bu ruhiy kechinmalarini sistemol qiladilar, manmanlik, maqtanchog'lik kabi salbiy sifatlarni o'zlariga ep ko'radigan bo'lib qoladilar.

O'qituvchida iroda bo'lmasa, u uzoq vaqt ishlay olmaydi. Iroda, ham toqat, ham chidam, ham intizomli bo'lish kabi sifatlarni o'z ichiga oladi. Muallimlik shunday bir murakkab kasbki, unda irodaning bo'lmasligi, o'qituvchini nihoyatda noxush ahvolga tushirib qo'yishi mumkin. Ayrim hollarda u o'qituvchini o'z kasblarini tark etish darajasigacha olib boradi.

O'qituvchilarga xos xususiyatlardan yana biri, bu uning estetik didli, ozoda va batartibli bo'lishligidir. Bu sifatning o'qituvchida bo'lishligi nihoyatda ahamiyatlidir. Shuni alohida qayd etish lozimki, bolalar o'qituvchiga nisbatan nihoyatda tahlidchan bo'lib, ko'pincha unga o'xshashga harakat qiladilar. O'qituvchi estetik didli va ozoda bo'lsa, bolalar ham shunday bo'ladi. O'qituvchi haqiqiy go'zal narsalarni sun'iy go'zallikdan farqlay bilishi, go'zallik har qanday narsada va harakatda bo'lishligini, uning mohiyatini tushunib yetishi zarur.

**O'qituvchi mahorati.** Mahoratli o'qituvchida o'z sohasiga doir bilim va malakalarni, pedagogik va psixologik zarur bilimlarni bo'lishligi yetarli emas. U boshqa oddiy o'qituvchilardan bir pog'ona yuqorida turadi. U ilg'or pedagogik texnologiyalarni egallash bilan bir qatorda o'zi ham bu texnologiyalarni yaratishda ishtirok etadi. U puxta bilimlar berish bilan birga har qanday pedagogik og'ir sharoitlardan osongina chiqib ketadi. U doimo izlanish, bolalar ustida tajriba-sinov ishlarini o'tkazib turadi.

Mahoratli o'qituvchi xoh darsda, xoh darsdan tashqari vaqtlarda bo'lmasin o'z o'quvchilarini bir daqiqa e'tibordan

qochirmasligi, ularni har birini ko'rib, kuzatib turishi, ular shu vaqtda nimalar haqida o'ylayotganliklari, ularning qanday orzu-umid va tashvishlar bilan yashayotganliklarini bilishi, ular bilan shunga yarasha ish olib borishi kerak bo'ladi.

Mohir o'qituvchining bolalarni sevishi, ularga inson sifatida munosabatda bo'lishi etarli emas. Uning mahoratga erishuvi ikki komponentdan tashkil topadi:

1. Tafakkur, aql-idrok. 2. Tajriba. O'qituvchi mahoratining asosini esa avvalo kasbiy bilimlar egallaydi. Bunday bilimlarga ega bo'lgan o'qituvchi dars vaqtida bolalarga ko'proq bilim va malakalar berishda qiynalmaydi. Darsda esa u ko'proq bilimlarni qanday yo'llar bilan yetkazish haqida o'ylaydi. Pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi o'z faoliyatida quyidagilarga alohida e'tibor beradi:

- sinfda odob va intizomga qat'iy rioya qilish;
- o'quvchilarni o'qishga qiziqitira olish;
- bolalar psixologiyasini yaxshi bilish;
- o'quvchi bilim va malakalari darajasini bilish va shunga yarasha ular bilan munosabatda bo'lish, ta'limiy ishlarni olib borish;

- mashg'ulotlarda bolalarga individual va tabaqalashtirilgan holda munosabatda bo'lish;

- doim tetik, sinfda paydo bo'lgan turli muammo yoki ziddiyatlarni to'g'ri baholay olish, sog'lom fikr yuritish;

O'qituvchi bolalarni majburlab, zo'rlab, zulm o'tkazish yo'li bilan emas, tushuntirish, ishontirish, pedagogik takti saqlagan holda xushmuomilalik bilan ish olib borgandagina, yaxshi natijaga erisha oladi.

Mahoratga ega bo'lishning bir qator yo'llari bor:

- o'z sohasi bo'yicha to'xtovsiz o'qish, o'rganish, o'z bilimini muntazam boyitib borish;

- o'qituvchilarning ilg'or tajribalarini o'rganish va tahlil etish;

- o'z darsida ilg'or pedagogik texnologiyalar yuzasidan tajriba-sinov ishlarini olib borish;

- o'zining shaxsiy metodikasiga ega bo'lish, unga intilish;

- bolalarni to'xtovsiz kuzatib yurish, e'tibordan qochir-maslik;

- ta'limni tashxis orqali amalga oshirish;

- har bir bola bilan olib borilayotgan individual ishni chala yoki yarim yo'lda tashlab ketmaslik, uni oxiriga yetkazish;

- o'z ishiga sidqi-dildan yondoshish, zavq-shavq bilan mehnat qilish, tushkunlikka tushmaslik;

O'qituvchilik mahorati har bir bolaning ko'ngliga, diliga yo'l topa-bilishlik, u bilan til topa bilishlik, bir-birlarini tushuna- bilishliklarida ham ifodalanadi. Shuning uchun o'qituvchi buni doimo o'z e'tiborida saqlashi lozim.

Mahoratli o'qituvchi bo'lish uchun, uni shunchaki odobli bo'lishi yetarli emas. U odobning yuksak namunasiga ega bo'lishi lozim. Bu sifat o'qituvchidan inson-parvarlikni, har qanday og'ir sharoitlarda ham o'zini tuta bilishlikni, sabr-toqatli, tavoze va odobli, sahovatli, qimmatli, muruvvatli bo'lishlikni, xayrihohlikni talab etadi. Bu sifatlari o'qituvchida o'z-o'zidan emas, to'xtovsiz mehnat qilish, o'rganish, ijod qilish, bolalar ta'limi yuzasidan tajriba-sinov ishlarini o'tkazish, ish natijalari yuzasidan o'rtoqlashish, muhokama o'tkazish jarayonida hosil bo'ladi.

O'qituvchining mahoratli bo'lishi ko'p jihatdan uning madaniyatli bo'lishiga ham bog'liq. Bunda ko'proq axloqiy va estetik madaniyat nazarda tutiladi. Mahoratli o'qituvchi o'z ishiga o'ta mas'uliyatli va talabchan bo'ladi, u doimo o'zini muallimlik mahoratini qanchalik uddasidan chiqqanligini tekshirib borishi, bola ongi va qalbiga yo'l topishiga harakat qilishi kerak bo'ladi. Mahoratli o'qituvchi uni 30-40 sinchkov qorako'z kuzatib turganligini, uni ma'naviy madaniyati, adolatparvarligi, tashqi qiyofasi, mehribonligidan bolalar namuna olishlarini doimo yodda tutishi lozim.

Mohir o'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ilg'or o'qituvchilarning tajribalarini tinimsiz o'rganib boradi. Bunda quyidagilar nazarda tutiladi:

1. Tashhis ta'lim asosida ish yuritish.
2. Texnika vositalaridan keng foydalanish.
3. Modulli o'qitish metodini bilish.
4. Ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilish, bolalarni ijodiy fikrlashga o'rgatish.
5. Ta'limga individual va tabaqalashtirilgan holda yondoshish.
6. Darslarni munozarali o'yin va musobaqa tarzida o'tkazish v.b.

Ilg'or tajribani o'rganish, undan ko'r-ko'rona o'z faoliyatida foydalanish degan ma'noni bildirmaydi. Uning ayrim jihatlaridagina foydalanish mumkin. Chunki, har bir maktabni, har bir sinfni, har bir o'quvchini, u yerda olib borilayotgan ishlarning o'ziga xos xususiyatlari bo'ladi.

Har bir o'qituvchi mahorati, avvalo o'z sohasini yaxshi bilishiga bog'liq. Bunda quyidagilar nazarda tutiladi:

- tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atlarining tarixi va nazariyasini bilish;
- o'zbek san'atining milliy, badiiy an'analari yuzasidan huquq bilimlarga ega bo'lish;

- tasviriy malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish hamda uni muntazam takomillashtirib borish;

- tasviriy san'atning pedagogik-psixologik asoslari haqida ma'lumotlarga ega bo'lish;

- tasviriy san'atni o'qitish metodikasiga doir ilg'or zamonaviy texnologiyalarni chuqur egallagan bo'lish;

- tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atlarining u yoki bu turi yoki janrlari bo'yicha ijodiy ishlar bilan shug'ullanish;

- o'quvchilarning tasviriy faoliyatiga doir to'xtovsiz tajriba-sinov, ilmiy-metodik ishlar bilan shug'ullanish;

- tasviriy san'atni o'qitish metodikasiga doir ilg'or tajribalarni muntazam o'rganib borish;

-tasviriy san'atni o'qitish metodikasi, san'atshunoslikka doir adabiyotlarni va tadqiqot natijalarini muntazam o'rganib borish;

- maktabda o'qitiladigan barcha fanlardan (ayniqsa, adabiyot, tarix, matematika, biologiya, chizmachilik, mehnat v.b.) ta'lim mazmuni bilan tanishgan bo'lishlik.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, bir o'qituvchi boshqa bir o'qituvchi metodikasini o'rganib shu asosda to'liq ish olib borishi mumkin emas. Har bir o'qituvchi o'zining shaxsiy o'qitish metodikasiga ega bo'lishi lozim. Chunki o'qitish ishlarida yagona retseptdan foydalanib bo'lmaydi. Har bir ta'lim-tarbiya retsepti har bir tuman, maktab, o'qituvchining ish sharoiti va o'ziga xos xususiyatlari asosida belgilanadi.

Alisher Navoiy o'qituvchilik kasbining nihoyatda sharaffi ekanligini o'zining "Mahbub ul-qulub" asarida qayd qiladi.

*Huq yo'lida senga harf o'rgatmish ranj ila,  
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.*

Yuqorida qayd qilingan fikrlardan o'qituvchilik kasbi- ni murakkab, og'ir, mushkul kasb ekan, degan xulosa chiqarimaslik va tushkunlikka tushmaslik lozim. O'z ishiga mas'uliyat bilan qaragan har bir o'qituvchi mohir muallim bo'lib etishishi muqarrardir. Shuningdek, o'qituvchilik kasbi qanchalik mashaqqatli bo'lmasin, uning sharaffli kasb ekanligini unutmaslik lozim<sup>1</sup>.

### **Mahoratli o'qituvchi va zamonaviy innovatsion va interfaol usullari, axborot va pedagogik texnologiyalar.**

O'qituvchilik kasbi o'z mohiyatiga ko'ra o'ta individualdir. Har bir o'qituvchining muhim hayotiy o'rni, uning o'z ishining ustasi bo'lishidir. O'qituvchi mahorati uning faoliyatida ko'rinadi. O'qituvchi avvalo pedagogik jarayonning qonuniyatlari va mexanizmlarini yaxshi egallagan bo'lishi lozim. Shu ma'noda pedagogning umumlashgan malakalari va uning pedagogik texnikasi katta ahamiyatga molik bo'ladi. Biroq mahorat – bu alohida qudrat. Yuqori va kichik darajada Usta bo'lishi mumkin emas. Mahoratga erishish ham, erishmaslik ham mumkin. Haqiqiy usta mehnat faoliyati chog'idadagim go'zaldir. Pedagogik mahoratga yetishish o'qituvchining muayyan shaxsiy sifatlari bilan amalga oshadi.

*Pedagogik mahorat yuksak darajadagi pedagogik faoliyatning taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallashni, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi, fuqarolik va kasbiy mavqeini ifodalaydi.*

“Pedagogik mahurat” bir kategoriya sifatida o'zining ilmiy asoslariga ega. 1987-1997-yillardagi ilmiy yondashu-

<sup>1</sup><https://muhaz.org/fani-boyicha.html?page=9>

ular bu favqulodda hodisaga nisbatan quyidagicha xulosa qilishga imkon berdi: Pedagogik mahorat kasbiy faoliyatdagi individuallikning yorqin ko'rinishi sifatida tushuniladi. Pedagogik mahorat kategoriyasi kasbiy faoliyat nuqtai nazardan kishining individualligini xarakterlaydi.

Hozirgi tadqiqotlarda pedagogik mahoratning o'ziga xosligi quyidagi kategoriyalarda jamlanadi:

Pedagogik mahorat (A. S. Belkin, V. I. Zagvyazinskiy, N. P. Lebednik, I. A. Zyazyun, T. F. Kuzina, N. V. Kuxarev, S. B. Elkanov, A. K. Markova);

Pedagogik yod (V. V. Belich, V. I. Zagvyazinskiy, V. A. Kan-Kalik, N. D. Nikandrov, A. K. Markova, T. V. Frolova, T. Kaloshina, G. F. Poxmelkina, S. Yu. Stepanov);

Novatorlik (V. I. Zagvyazinskiy, A. K. Markova);

Kasbiy bilimdonlik (I. A. Zyazyun, N. P. Lebednik, A. K. Markova);

Faoliyat uslubi (A. K. Markova);

Innovatsion faoliyat (E. P. Morozov, P. I. Pidkassistiy, N. V. Yusufbekova); Pedagogik texnologiya (N. E. Shurkova, V. Yu. Pityukov, Y. A. Osipova);

Mahorat (N. V. Kuzmina, T. V. Frolova, T. Yu. Kaloshina, G. F. Poxmelkina, S. Yu. Stepanova). Turli tadqiqotchilar ishlarida ayni bir hodisani tavsiflash uchun turlicha tushunchalardan foydalanish boshqacha ma'no va mazmun tomonlariga ega. Turli muallif asarlarida pedagogik mahoratning yagona, tan olingan ta'rifining yo'qligi uni tadqiqotning jonli jarayoni deb xulosa chiqarishga asos bo'ladi. Tushunchalar, fikrlarning turli-tumandligi bu hodisaning murakkabligi va ko'p qirraliligidan dalolat beradi. Barcha ta'riflarda urg'u shaxsga beriladi va shu tariqa ular pedagogik mahoratning sotsial mohiyatini aks ettiradi. I. A. Zyazyun va N. A. Lebedniklar shaxsning

sotsial yetukligi va kasbiy mahoratining o'zaro bog'liqligini isbotlab berdilar. Mahorat talabalar tomonidan ularning sotsial yetuldikka erishish darajasiga qarab bosqichma-bosqich egallanadi.

Sotsial yetuklik komponentlari pedagogik mahorat komponenti bilan quyidagi nisbatda bo'ladi. Bo'lg'usi pedagogning sotsial yetuklik komponentlariga ushular kiradi:

- sotsial o'z-o'zini belgilash – o'zining pedagogik qobiliyatlari va e'tiqodini namoyon qilish;

- sotsial faollik – odamlar bilan ishlay olish va boshqalarni tarbiyalash tajribasini takomillashtirish;

- sotsial masuliyat – o'qituvchining bilimdonligiga aylanadigan bilimlar. Pedagogik mahorat komponentlari N. V. Kuzmina, V. A. Slastenin, I. A. Zyazyun, V. I. Zagvyazinskiy, G. I. Xozyainov, T. F. Kuzina, A. I. M yashenko, N. P. Lebednik, T. Noyner, Yu. K. Babanskiy, N. V. Kuxarevlarning tadqiqotlarida o'rganilgan.

Ular pedagogik mahoratning asosiy yo'nalishlarini muayyan mantiqiy izchillikda belgilab berdilar. Pedagogik mahorat asoslariga: kasbiy pedagogik bilimlar, insonparvalikka yo'nalganlik, pedagogik texnika, kasbiy pedagogik faoliyatni amalga oshirish tajribasi, pedagog shaxsi taalluqlidir. Mahoratning shakllanish bosqichlariga: reproduktivlik (boshlang'ich), ijodiylik, ijodiy-novatorlik kiradi. Pedagogik mahorat darajalari o'qituvchi ish darajasining davomi hisoblanadi:

- reproduktiv (o'ta past);

- moslashuvchan (past);

- lokal (chegaralangan)- modellashtirish (ofrtacha qoniqarli). Bu daraja talabalar bilan bo'ladigan o'quv-tarbiya

ishlarining ayrim yo'nalishlarida yuqori sifati bilan xarakterlanadi:

- izchil modellashtirish (yuqori). Bu bosqichda, pedagog faoliyatining barcha turlarida yuqori sifatga erishiladi;

- izchil modellashtirish (oliy). Bunda, faoliyatning barcha turlarida ijodiy munosabat namoyon bo'ladi, o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini 137 oshirish yo'llari izlanadi.

Pedagogik mahorat komponentlari kasbiy faoliyatga kasbiy vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan malaka nuqtai nazardagi qarashlarni aks ettiradi. Tadqiqotchilar malaka deganda xatti-harakatlar tizimini uni amalga oshirish maqsadi va shart-sharoiti bilan muvofiq ravishda samarali bajarish imkoniyatini tushunadilar. Pedagogik mahorat komponentlarini hosil qiladigan quyidagi malaka guruhlarini farqlanadi:

- loyihalash;
- konstruksiyalash;
- tashkilotchilik;
- muloqot;
- bilish va reflektivlik.

Keyingi yillarda pedagogik mahorat kategoriyasiga nisbatan yangicha qarashlar paydo bo'ldi. Pedagogik mahoratning an'anaviy izohlaridan bir qadar chekinish ham yuz berdi (I. A. Zyazyun, N. V. Kuzmina, V. A. Slastenin). Pedagog tadqiqotchilarning Sankt-Peterburg maktabi, pedagogik mahoratni kishining alohida holati – ya'ni uning kasbiy mashg'uloti keng ma'noda kishilar bilan ishlashning o'ziga xos sohasi bo'lgan pedagogika hisoblanadi, deb tavsiflaydi. Pedagogik mahoratning asosi pedagogik bilimdonlikdir. Pedagogik bilimdonlik, deganda konkret tarixiy

davrda qabul qilingan me'yorlar (normalar), standartlar va talablarga muvofiq pedagogik vazifani bajarishga qobillik va tayyorlik bilan belgilanadigan integral kasbiy-shaxsiy tavsifnoma tushuniladi.

Pedagogik bilimdonlik pedagogik sohada mahorat bilan ishlayotgan kishining ta'lim va ta'biya ishida insoniyat to'plagan barcha tajribalardan ratsional foydalanish qobiliyatini ko'zda tutar ekan, demak, u yetarli darajada pedagogik faoliyat va munosabatlarning maqsadga muvofiq usullari va shakllarini egallashi lozim bo'ladi.

Kasbiy-pedagogik bilimdonlikning bosh ko'rsatkichi bu insonga, shaxsga yo'nalganlikdir. Kasbiy-pedagogik bilimdonlik pedagogik voqelikni izchil idrok eta bilish va unda izchil harakat qila olish malakasini qamrab oladi.

Bu xislat pedagogik jarayon mantig'ining yaxlitligicha va butun tuzilmasi bilan birgalikda ko'ra olish, pedagogik tizimning rivojlanish qonuniyatlari va yo'nalishlarini tushunish imkoniyatini ta'minlaydi hamda maqsadga muvofiq faoliyatni konstruksiyalashni osonlashtiradi.

*Bilimdonlik o'qituvchi uchun o'ta muhim bo'lgan uchta holat bilan bog'langan zamonaviy pedagogik texnologiyalami egallashni taqozo etadi:*

- odamlar bilan o'zaro aloqada bo'lishda, madaniy mu-loqatda bo'lish;
- fani sohasi bo'yicha axborotlarni qabul qila bilish va o'qitish mazmuniga moslab qayta ishlash va undan mustaqil tahsil olishda foydalana olish;
- o'quv axborotlarini boshqalarga bera olish.

*Kasbiy-pedagogik bilimdonlik asosan to'rtta kompo-nenti bilan xarakterlanadi:*

- shaxsga, insonga yo'nalganlik;
- pedagogik voqelikni izchil idrok etish;

- fan sohasiga yo‘nalganlik;
- pedagogik texnologiyalarni egallash.

Hozirgi ta‘lim sharoitida kasbiy-pedagogik bilimdonlik yana uch komponent bilan to‘ldiriladi:

- bilimdonlik, umuman, o‘z faoliyatini jahon pedagogik madaniyati darajasida ishlab chiqilgan tajribalar asosida tashkil etish qobiliyati hamda unga va vatanimizdagi pedagogikaga integrasiyalasha olish;

- o‘z safdoshi tajribasi va innovatsion tajribalar bilan o‘zaro samarali munosabat o‘rgatish qobiliyati;

- o‘z tajribalarini umumlashtirish va boshqalarga bera olish malakasida namoyon bo‘ladi.

Pedagogning kasbiy bilimdonligi kreativlik bilan xarakterlanadi.

Kreativlik – bu kasbiy hayot usuli, ko‘p qirrali ta‘lim jarayoni va tizimining maqsadlari, mazmuni, texnologiyalari sathida yangi pedagogik voqelikni yaratish istagi va malakasidir. Kreativlik o‘qituvchiga innovatsion o‘zgarishlar oqimiga moslashib olishiga yordam beradi. Har qanday darajadagi kasbiy bilimdon pedagogik refleksiyaqa qodirdir.

Refleksiya–fikrlashning maxsus usuli bo‘lib, pedagogik voqelikka, tarixiy-pedagogik tajribaga, muayyan kasbiy mavqening tashuvchisi bo‘lgan o‘z shaxsiyatiga qayta nazar tashlashdir. Yuqoridagi kasbiy-pedagogik bilimdonlikni tashkil etuvchi barcha komponentlar murakkab tuzilmani hosil qilib, mutaxassisning ideal modelni shakllantira boradi va pirovard natijada zich birlashib ketadi hamda o‘qituvchi shaxsi faoliyati tavsifini belgilaydi. Bilimdonlik faqat faoliyat jarayonida va faqat konkret kasbdoirasida namoyon bo‘ladi va baholanadi.

Pedagogik muhitda o'qituvchi faoliyatini baholashda, odatda, "pedagogik madaniyat" termini qo'llanadi.

Pedagogik madaniyat kasbiy faoliyatning individual mazmuni bilan bog'lanadi.

Pedagogik bilimdonlik o'qituvchining yuksak natijalarga erishishini ta'minlaydi.

Pedagogik madaniyat faoliyat va munosabatlaiga estetik shakl beradi.

Pedagogik faoliyat pedagogik madaniyat tushunchasi tahlili omili bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik madaniyat umuman madaniyatning namoyon bo'lishidir. Madaniyat faoliyat jarayoni va natijasi o'laroq subyektning dunyo obyektlarini o'zlashtira borishdagi barcha xatti-harakatlarini qamrab oluvchi sotsial hodisani bildiradi. Madaniyat inson yaratgan, shuningdek, qanday vosita va metod bilan yaratgan barcha hodisalarni o'zida birlashtiradi.

Pedagogik madaniyatda, umuman madaniyatda bo'lganidek, predmethosila va texnik-texnologik jihatlar mavjud. Pedagogik madaniyat bir qator tizim hosil qiluvchi unsurlarga ega. Ularga quyidagilar kiradi: Pedagogik loyihalash madaniyati.

U obyektiv imkoniyatlar bilan talab va istaklarni o'zaro nisbatlagan holda maqsadni to'g'ri tanlay olish, vazifalarni belgilab olish, ularning yechilish bosqichlarini rejalashtirish hamda zarur qurollarni tanlab olish malakasidir. Loyihalash madaniyatini namoyish qilish bu ijodga, ya'ni favqulodda yangini yaratish, o'rnatilgan me'yorlar va namunalar chegarasidan chiqib keta olish qobiliyati hamdir. Bilimlilik madaniyati. U pedagogik bilimlarning turli-tumanligi va pedagog tomonidan bu bilimlarni egallanishini bildiradi.

Dunyoqarash madaniyati. Uning darajasini aksariyat hollarda pedagog va o'qituvchining o'zaro munosabatlari jarayoni va natijalari belgilaydi. Turli namunadagi dunyoqarashning mavjudligi, xususan. stixiyali, muntazam, ilmiy va mistik, irratsional, optimistik va pessimistik, dogmatik va tanqidiy, diniy, ateistik, ratsional va pedagogik faoliyat subyektining ham bir necha namunasi borligini taqozo qiladi. Dunyoqarashmadaniyati fan, falsafa, din kabi ma'naviy madaniyat unsurlari bilan tanishish chog'ida shakllanadi. Pedagogik madaniyatning yana bir unsuri fikrlash madaniyatidir. Fikrlash madaniyati ham kundalik hayot jarayonida odatdagi vositalar, ham maxsus vositalar (uning tarkibiga formal mantiqni o'rganish ham kiradi) da vujudga keladi.

*His etish madaniyati.* U insonlar oliy kechinmalarining keng uyg'unligi hosilasi bo'lib, ularsiz pedagogik jarayonda muloqotning bo'lishi mumkin emas. Baholash madaniyati u yoki bu sabab va hodisalar bo'yicha axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy, diniy yoki falsafiy xarakterdagi malakali hukm chiqarish qobiliyatidir.

Muloqot madaniyati pedagogik madaniyatning eng muhim komponenti bo'lib, u pedagogning o'quvchilar, ota-onalar hamda rahbariyat yoki quyi vazifa egallovchi shaxslar, shuningdek, pedagogik ish doirasidan tashqaridagi barcha insonlar bilan muloqot qilish madaniyatlarini qamrab oladi.

Tashkiliy madaniyat ham pedagogik madaniyat tizimiga kiradi va u o'qitish hamda tarbiya jarayonini pedagogik doiraning turli darajalarida (jamiyatda, o'quv yurtlarida, bolalar guruhlarida) tashkil etish imkoniyatini beradi. Shunday qilib, pedagogik mahoratning tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

- har bir (fquvchi uchun dolzfirb bo'lgan hayotiy mazmun rivojlanishini, (fquvchining shu rivojlanish kesmasida, harakat qila olishida, uning hayot mazmunining ochilishi va amalga oshishida o'qituvchi qanday bilim bilan unga yordam ko'rsata olishini "ko'ra olish" qobiliyati;

- ayrim o'qituvchilar rivojlanish mazmuni va kesmasi integrasiyasi hisoblangan hamda jonli organizm sifatida o'quvchilar (sinf va b.) guruhini uning rivojlanish va mazmun kasb eta borish jarayonida "ko'ra olish" qobiliyati;

- sinfning integral mazmuni va integral rivojlanish kesmasini "ko'rish" va idrok etish malakasi;

- organizmini yuksak darajada anglash. Sinf, o'quvchi o'z istaklari, motivlari, afzal ko'rish jihatidan ular uchun zarur bo'lgan haqiqiy axborotlarni ajrata olish malakasi;

- shaxsiy xususiyatlar oqibati sifatida vujudga keladigan turli buzilish vazjyatlaridan idrokni chalgitish;

- o'z sezgilarining nozik farqlanish imkoniyatlari vo-sitasida yuqori his bilan boshqarish;

- keng boshqaruv repertuari, boshqarishning xilma-xil uslublari, axborotlarni uzatish "qurollari": ovoz, xatti-harakat, mimika va boshqalarni egallash;

- kasbiy usullar va metodlarning keng jamgarmasi;

- metodologiyani egfillash<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> N.N. AZIZXO'JAYEVA "PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT"( Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan ta'lim yo'nalishining barcha sohalari magistratura talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan) O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti TOSHKENT-2006. 134-141-betlar.

## **O'qituvchining tasviriy ijodiy ishlari va tabaqalashtirib o'qitish.**

Tasviriy san'atni tabaqalashtirib o'qitish maktabda tasviriy san'at darslari samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samarali turlaridan biri hisoblangan tabaqalashtirilgan ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabaqalashtirilgan ta'lim o'quvchilarni individual tarzda, shuningdek, guruhlariga ajratib o'qitish, ularning mustaqil ishlarini to'g'ri va maqsadga muvofiq tashkil etish orqali sinfdagi barcha o'quvchilar bilim va malakalarini dinamik rivojlanishiga xizmat qiladi. Bunda o'qituvchi har bir o'quvchining qiziqishi, qobiliyati, layoqatini hisobga olib, mashg'ulotlarni tashkil etish orqali dars samaradorligini oshirishga erishadi.

Ma'lumki, sinfdagi barcha o'quvchilarning qobiliyatlari, fanga qiziqishlari, psixologik va estetik xususiyatlari turlicha bo'lganligi sababli berilayotgan bilimlar va shu asosda tashkil etilayotgan metodika hamma o'quvchilarga bir xil ta'sir ko'rsatmaydi. Natijada, sinfdagi barcha o'quvchilar o'quv materiallarini bir xil o'zlashtirmaydilar. Bundan bolalarga qanday pedagogik ta'sir ko'rsatilganda ko'zlangan maqsadga erishish mumkinligi muammosi paydo bo'ladi. Uning samarali yo'llaridan biri ta'limga tabaqalashtirilgan yondoshuvdir.

Ayrim pedagog olimlarning asarlarida tabaqalashtirilgan ta'limning mohiyati, uning ilmiy asoslari chuqur tahlil qilib berilgan, ayrim ilg'or boshlang'ich sinf o'qituvchilari esa bo'sh o'zlashtiruvchi yoki qoloq o'quvchilar bilan individual ishlash bo'yicha tajriba to'plaganlar.

Pedagogika nazariyasida pedagog olimlar tomonidan tabaqalashtirilgan ta'limni ikki turi qayd qilinadi: 1. Darajali tabaqalashtirish. 2. Ixtisoslashtirilgan tabaqalashtirish.

*Darajali tabaqalashtirish ikki turga bo'linadi:*

*1. Individual ta'lim.* Bunda o'quvchilarning qobiliyati va imkoniyatlariga qarab har bir o'quvchi bilan alohida-alohida ish olib boriladi.

*2. Guruhli ta'lim.* Bunda o'quvchilarni qobiliyati va imkoniyatlariga qarab ularni ikki va undan ortiq guruhlariga ajratib o'qitiladi.

Ixtisoslashtirilgan tabaqalashtirish esa u yoki bu fanni chuqur o'rgatish, turli kasblarga yo'naltirish yoki ularni asoslarini o'zlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Bular qatoriga tasviriy san'atni chuqur o'rgatadigan maktablar (sinflar), fakultativlar, to'garaklar kiradi.

Ta'lim nazariyasi va amaliyotida tasviriy san'atdan tabaqalashtirilgan ta'limning quyidagi turlari mavjud:

- tabaqalashtirilgan maktablar ta'limi;
- tabaqalashtirilgan sinflar ta'limi;
- tabaqalashtirilgan guruhlar ta'limi;
- individuallashtirilgan ta'lim.

Bu yo'nalishlar ham darajali, ham ixtisoslashtirilgan bo'lishi mumkin. Ko'p yillardan buyon pedagogik amaliyotda boshqa fanlar qatori taviriy san'atdan ixtisoslashtirilgan maktablar va sinflar, fakultativ kurslar faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Tabaqalashtirilgan ta'lim haqida fikr yuritganda avvalo uni ham ijobiy va salbiy jihatlari haqida etarli tasavvurga ega bo'lishlik nihoyatda muhim. Darajali tabaqalashtirib o'qitishning ijobiy jihatlari haqida to'xtalganda quyidagilarni qayd qilish lozim.

Bunda:

1. Sinfdagi barcha o'quvchilar dastur materiallarini o'zlashtirishga erishadilar.

2. Sinfdagi barcha o'quvchilarning bilim va malakalarida, ijodiy ishlarida o'sish kuzatiladi va u o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

3. Sinfdagi barcha o'quvchilarning faolligi oshadi. Chunki, past o'zlashtiruvchilar guruhidagi har bir bola yuqori o'zlashtiruvchilar guruhiga o'tishga harakat qiladi.

Yuqori o'zlashtiruvchilar guruhidagi bolalar esa past o'zlashtiruvchilar guruhiga tushib qolmaslik uchun harakat qiladilar.

4. O'quvchilarni qobiliyati va imkoniyatlariga qarab bilimlar berilayotganligi sababli, ular tomonidan o'quv yuklamalarini o'zlashtirishga zo'riqish hollari ro'y bermaydi.

5. Sinfdagi iqtidorli o'quvchilarning chuqur va atroflicha bilimlar olishga bo'lgan ehtiyojlari ham qondiriladi.

6. Tabaqalashtirilgan ta'lim uni demokratiyalashtirish va insonparvarlashtirishga yordam beradi.

Ko'pchilik mutaxassislar o'quvchilarni (past, o'rta, yuqori) o'zlashtiruvchi bolalar guruhlariga ajratib o'qitishning ma'qullagan holda, uni yuqori, shuningdek, past o'zlashtiruvchi bolalar faoliyatlarida salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkinligini ham qayd qilishadi.

Xususan, ular yuqori o'zlashtiruvchi bolalarda manmanlik, boshqalardan o'zlarini ustun qo'yish yoki ularni mensimaslik, o'ziga ortiqcha baho berish, boshqalar bilan qo'pol muomalada bo'lish kabi xislatlarda kuzatilishini qayd qilishadi. Shu bilan birga bu toifadagi bolalarda qo'rquv qissi ham paydo bo'ladi. Chunki, ular topshiriqlarni yuqori darajada bajarmaganliklari oqibatida yuqori guruhdan quyi guruhga tushib qolishlari ham mumkin.

Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar esa tabaqalashgan guruhlarda o'zlarini kamsitilgan, o'quvi yo'q deb hisoblaydilar. Ko'pincha tengdoshlari, aka-uka, ota-onalari orasida o'zlarini aqli kalta bolalardek his etadilar.

Natijada ular tushkunlikka tushib, o'qishga havaslari qaytadi. Sinfdoshlariga qo'shilmay, ular bolalarga aralashmaydigan odamovi bo'lib qoladilar. Bora-bora bu toifadagi o'quvchilarga o'qituvchi, ota-onalar, sinfdoshlari tomonidan bildiriladigan turli tanbeh va dashnomlari ularning ruhiyatiga yomon ta'sir ko'rsatishi mumkin. Natijada, bu hol ularni hamma narsaga, har qanday gaplarga befarq bo'lib qolishlari va rivojlanishdan to'xtab qolishlariga olib keladi. O'qituvchi tabaqalashtirilgan ta'limni amalga oshirishga kirishar ekan, uning yuqorida qayd qilingan ham ijobiy, ham salbiy jihatlariga to'g'ri yondoshib ish olib borishi kerak bo'ladi.

Masalaning ana shu nozik jihatlarini hisobga olib, bolalarni guruhga ajratganda sinfdagi qobiliyatli, qobiliyatsiz, o'zlashtiruvchi, o'zlashtirmovchi, yuqori, quyi so'zlarning o'miga oddiygina qilib birinchi, ikkinchi, uchinchi guruhlar deb qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Tabaqalashtirib o'qitishning samarasi katta ekanligi bilan bir qatorda uning murakkab jihatlarini ham mavjudligini alohida qayd qilish lozim. Uning murakkabligi o'qituvchining uch xil darajadagi dasturlar asosida mashg'ulot olib borishi bilan bog'liq. Buning uchun har bir guruh uchun tasviriy san'atdan alohida darsliklar, metodika, didaktik va tarqatma materiallar, texnika vositalari kerak bo'ladikim, ularsiz mashg'ulotlarni talablar darajasida tashkil etib bo'lmaydi. Bu esa quyidagi yo'nalishlarda ifodalanadi:

1. Tabaqalashtirilgan tasviriy san'at ta'limini ilmiy asoslarini puxta egallagan bo'lishlik.

2. Mashg'ulotlar uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik majmualar bilan qurollangan bo'lishlik.

3. Mashg'ulotlar uchun zarur bo'lgan maxsus xona va moddiy-texnikaviy bazaga ega bo'lishlik.

4. O'qituvchi o'z fanidan o'quvchilarni bilim va malakalari saviyasi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishligi v.b.

Muammoning qiyin va murakkab jihatlaridan biri bu o'qituvchining o'quvchilar haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishligidir. Ma'lumki, har bir shaxs, o'zicha bir dunyo, shu qatori tasviriy san'atdan bilim malakalari ham bir-biridan farq qiladi. Buning ustiga bolalardagi o'ziga xoslik shunchalik turli-tumanki, ularni aniqlash nihoyatda mushkul.

Bolalarni har jihatdan bilish uchun o'qituvchi tomondan bolalar orasida pedagogik va psixologik tashxis o'tkazishi zarur bo'ladi. Bu ish bevosita quyidagilar bilan bog'liq: o'quvchining umumiy qobiliyati, uning xarakteri, qaysi fanga qiziqishi va ularni qaysi darajada bilishi, o'qishga bo'lgan qiziqishi, tasavvur, tafakkur va ijodiy fikrlash darajasi, faolligi va fantaziyasi, xotira va kuzatuvchanligi, diqqati, tashabbuskorligi, mustaqilligi, uyda mashg'ulotlar uchun bo'lgan shart-sharoitlari va boshqalar. Tashhisda o'quvchilarni sog'ligi va fiziologik o'sishini bilish ham foydadan holi emas.

Shuningdek, bolalarni qush va hayvonlarga, kasb-hunarlariga, san'at turlariga, sport turlariga qiziqishlarini bilish ham muhim. Chunki, bolalarga pedagogik ta'sir ko'rsatishda ularni ana shunday qiziqishlariga qarab ta'lim

berishning samarali ekanligi fanimizda anchadan buyon ma'lum.

Yuqorida qayd qilingan sifatlar bilan bir qatorda o'qituvchi o'z fanidan o'quvchining tasviriy san'atga doir xususiyatlarini ham bilishi kerak bo'ladi. Bu borada o'qituvchi dars jarayonida har bir bolaning bilim va malakalaridagi o'sishni ham bilib turishi zarur.

O'quvchini bilim va malakasidagi rivojlanish darajasiga qarab bilim berish yana shuning uchun ham muhimki, bunda zaruriyat tug'ilganda o'quvchilarni u guruhdan bu guruhga o'tkazish imkonini beradi.

Darajali tabaqalashtirib o'qitishning yana bir ko'rinishi mavjud bo'lib, unda bolalarni fanlar bo'yicha bilim va malakalarining darajasiga qarab emas, balki umumiy tarzda tabaqalashtirilishidir. Bunda bolalarni temperamenti asosiy rol o'ynaydi. Bunday sifatlar bo'yicha tabaqalashtirilganda bolalar xoleriklar, sangvinlar, flegmatiklar va melonxoliklar guruhlaridan tashkil topadi.

Chunki, o'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarga topshiriqlar berganda, biron narsani talab qilganda, ularning psixologik xususiyatlariga tayanish samarali kechadi. Ishning saviyasi ko'p jihatdan bolalarni ana shu sifatlarini bilib, to'g'ri munosabatda bo'lishlikka bog'liqdir.

O'qituvchi bolalarning diqqati, idroki, xotirasi, tafakkuri, nutqi, his-tuyg'ulari, xarakteri haqida ham tasavvurga ega bo'lishi talab etiladi.

O'quvchilarning bilim va malakalari, ijodiy qobiliyat-lari, qiziqishlari, idroklarini hisobga olib o'tkaziladigan pedagogik tashhis ishlari quyidagi tashkiliy ishlar bilan bog'liq:

- o'quvchilar bilimlarini aniqlash uchun test material-larini tayyorlash;

- o'quvchilarning bilim va malakalarini aniqlash uchun anketa va savolnomalar tayyorlash;

- o'quvchilarni bilim va malakalarini baholash mezonlarini ishlab chiqish;

- o'quvchilarni bilim va malakalarini aniqlashga doir didaktik materiallar tayyorlash;

O'quvchilarning bilim va malakalarini tashhis etish bilan masalaning yechimi tugamaydi. Yangi materialni bayon etish va uni o'quvchilar tomonidan to'liq o'zlashtirilishi uchun tegishli metodika zarur bo'ladi. Bu bosqichning muhim jihatlaridan biri tashhisdan o'tgan guruhlarda o'quvchilarning tasviriy san'atdan bilimlar hajmi va darajasini aniqlashdir.

Gap shundaki, yangi mavzuni idrok etishga guruhdagi barcha o'quvchilar tayyormi yoki yo'qmi, axir guruhdagi barcha bolalarning bilim va malakalari bir xil emasku?! Bir guruhdagi bir o'quvchi ikkinchisiga qaraganda ozmi, ko'pmi kengroq va chuqurroq bilimga ega. Shunday ekan, guruhdagi barcha bolalarni o'qituvchi yangi materialni idrok etishi va o'zlashtirishi uchun tayyorlashi lozim bo'ladi.

Tabaqalashtirish faqat guruhlar bo'yicha emas, har bir o'quvchi bilan ham yakkama-yakka ish olib borishni ham nazarda tutadi. U dars jarayonida, uya topshiriqlar berganda amalga oshiriladi. Shuningdek, individual ta'lim faqat bo'sh o'zlashtiruvchi bolalar bilan ishlashni emas, bir yo'la iqtidorli, qobiliyatli bolalar bilan ishlashni ham nazarda tutadi.

Maktabda tasviriy san'atdan darajali tabaqalashtirishning ikki yo'nalishi tavsiya etiladi:

1. O'quvchilarning idroki va qobiliyatini hisobga olib tabaqalashtirish. Bu yo'nalishga bolalarni o'qituvchi tavsiya etadi.

2. O'quvchilarni qiziqishiga qarab tabaqalashtirish. Bunda guruhlarni bolalarning o'zlari tanlaydilar.

Maktabda bolalarning tasviriy san'atga qiziqishi, idroki, qobiliyatlarini hisobga olib, ularni bir necha guruhga bo'lish mumkin:

1. Idroki past, bilim va tushunchalarni sekin va qiyin o'zlashtiruvchi bolalar, ularni o'qishga havasi yo'q va qobiliyati qoniqarli emas, ijodkorlik hislatlari sezilmaydi.

2. O'qishga havasi va qobiliyati o'rtacha, nazariy bilimlarni o'zlashtirishi va ijodkorligi o'rtacha.

3. O'qishga havasi, ijodiy qobiliyati va fantaziyasi kuchli, berilayotgan bilimlarni tez va puxta idrok eta oladilar.

Mana shu xususiyatlar asosida tasviriy san'atdan ta'lim mazmuni tabaqalashtiriladi. Tabaqalashtirilgan ta'lim mazmunini, o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, u uch toifaga bo'linadi:

1. Dasturning minimum darajasi. U tasviriy san'at o'quv predmetidan ta'limning davlat standartlarida belgilangan bilimlarni nazarda tutadi. Ta'lim mazmunining bu toifasida bolalarning bilim va malakalari, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish minimum darajada bo'ladi.

2. Dasturning o'rtacha darajasi. Tasviriy san'atdan beriladigan bilimlar va malakalar ta'limning davlat standartlarida ko'rsatilgan minimum darajadan yuqoriroq bo'ladi. O'quvchilarda ijodiy fikrlash va fantaziyani talab etadigan topshiriqlar minimum darajada qoladi.

3. Dasturning yuqori darajasi. Tasviriy san'atdan o'quvchilarning idroki, qobiliyatini hisobga olgan

holda ularga keng bilim va chuqur malakalar beradigan, ularning ijodkorligini, iste'dodini ro'yobga chiqaradigan mashg'ulotlardan tashkil topadi.

Ma'lumki, darajali tabaqalashtirishning ikki yo'li mavjud:

1. Bir sinf o'quvchilaridan ikki va undan ortiq guruh tashkil etib o'qitish.

2. Maktabdagi bir necha parallel sinf o'quvchilaridan quyi, o'rta va yuqori o'zlashtiruvchi o'quvchilar sinflarini tashkil etib o'qitish.

Ta'limning ikkinchi yo'li o'qituvchiga unchalik katta qiyinchilik tug'dirmasada, birinchi yo'li katta mas'uliyat talab etadi. U ancha murakkab jarayon bo'lib, bunda bir vaqtning o'zida o'qituvchi uch guruh bilan ish olib borishi kerak bo'ladi. Bunda o'qituvchi uch xil ta'lim mazmuni, dastur va darsliklar, turli-tuman didaktik materiallar va turli metodikalardan foydalanadi.

O'quvchilarni tabaqalashtirib o'qitishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'quvchilarni mustaqil ishlarini to'g'ri amalga oshirishga bog'liq. Bolalar topshiriqlarni mustaqil bajarish ko'nikmalariga ega bo'lganlaridagina bu boradagi ishlar samarali kechadi. Tabaqalashtirib o'qitishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun tasviriy san'atdan mustaqil ishlarni quyidagi shakllarini qo'llash maqsadga muvofiqdir:

1. Tarqatma materiallar bilan ishlash. 2. Darslik bilan ishlash. 3. Kompyuter bilan ishlash. 4. Ijodiy ishlarini bajarish. 5. Kitob o'qish. 6. Mashg'ulotlar mavzusiga doir sayohat qilish. 7. Ota-ona, mutaxassis, do'st-dugonalar bilan suhbat va munozaralar qilish. 8. Topishmoq va kross-vordlar yechish va boshqalar.

Shuni ham qayd qilish lozimki, tabaqalashtirilgan sinf va guruhlarda har bir guruh uchun tuzilgan ta'lim mazmuniga

mos metodika qo'llaniladi. Ta'lim mazmunidan kelib chiqqan holda barcha guruh bolalari bilan mashg'ulotlar frontal, shuningdek, guruhli yoki individual holda amalga oshirilishi mumkin.

Tabaqalashtirilgan guruhlarga topshiriqlar turli shakl va turli mazmunda ham tavsiya etiladi. Ularning asosiy shakllari:

1. Har bir guruhga tasviriy san'atdan alohida mazmun yoki mavzularda topshiriqlar tavsiya etish.

2. Bir necha guruhga bir xil mazmun yoki mavzuda, biroq turli murakkablikda topshiriqlar tavsiya etish. Yagona mavzuda topshiriq berilganda uni uch toifadagi o'quvchilar guruhiga uch xil murakkablikda tavsiya etiladi.

3. Guruhlarning ayrimlarida tasviriy san'atdan nazariy, boshqasida amaliy xarakterdagi mashg'ulotlar olib borish.

4. Ayrim guruhlarga o'quvchilarning to'la mustaqil ishlari uchun topshiriqlar berilsa, boshqalariga o'qituvchining ishtirokida bajariladigan vazifalar tavsiya etiladi.

5. Tabaqalashtirilgan guruhlarning ba'zilarida rangtasvir, boshqalariga haykaltaroshlik yoki san'atshunoslik asoslari bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazsa bo'ladi.

6. Ayrim guruhlarda yangi material bayon etilsa boshqasida o'tilganlarini qaytarish ham mumkin.

7. O'qituvchi topshiriqlarni bir necha variantlarda tavsiya etadi, o'quvchilar ulardan o'zlariga ma'quli va kuchlari etadiganini tanlab oladilar.

8. Ayrim guruhlar bilan mashg'ulotlarni sinfda boshqalar bilan sinfdan tashqarida amalga oshirish.

9. Zaruriyat tug'ilganda bolalar erkin mavzularda ish bajarishlari ham mumkin.

Tabaqalashtirilgan ta'limni amalga oshirishda birinchidan, bolalarga tasviriy san'atdan beriladigan bilim va

malakalarning dozasi, topshiriqni bajarishga ketadigan vaqt, o'quvchining bu topshiriqni bajarishga bo'lgan layoqatini o'qituvchi tomonidan aniq tasavvur etilishi lozim. Ikkinchidan, ta'lim mazmunini bolalar ongiga singdirish uchun metodikani to'g'ri tanlash hamda bu metodikani amalga oshirishga xizmat qiladigan moddiy-texnikaviy asosning yaratish muhimdir.

Buning uchun o'qituvchi avvaldan darsga puxta tayyorgarlik ko'rgan, uni ssenariysini atroflicha va chuqur ishlab chiqqan bo'lishi kerak. Shu bilan birga har bir darsda bolalarning bilim va malakalaridagi o'zgarishlarni bilib turish ham ahamiyatlidir. Tabaqalashtirilgan ta'limda yangi bilimlarni bolalar tomonidan o'zlashtirilishiga erishish uchun avvaldan ularni tayyorlash lozim va bunga o'quvchi to'la ishonch hosil qilgandan so'ng yangi mavzuni bayoniga o'tishi lozim<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> <https://muhaz.org/fani-boyicha.html?page=7>

## **VII BOB. TASVIRIY SAN'AT XONASINI TASHKIL ETISH**

### **Tasviriy san'at o'qitish metodikasi xonasini tashkil etish va jihozlash.**

Zamonaviy tasviriy san'at xonasi maxsus jihozlar bilan ta'minlanishi kerak: qog'ozni mahkamlash va badiiy materiallarni joylashtirish uchun yelimli sirtli ish stantsiyalari; tashqi ishlab chiqarishlar uchun burchak, maxsus spotli yoritish, katta taxta va boshqalar.

Ofis zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlanishi kerak. Eng keng tarqalgani slayd-proyektor, magnitofon va pleer (videomagnitofon, multimedia proyektorli kompyuter).

Tasviriy san'at sinfining jihozlari: yorug'lik (shimoli-g'arbiy); suv quvurlari; katta kvadrat; stollar orasidagi o'tish; o'chirilgan rang; qora pardalar; mebel estetik; doimiy bezak (devor rasmlari, DPI kompozitsiyalari va boshqalar); vaqtinchalik bezak (bolalar asarlari ko'rgazmasi, rang fanidagi ishlanmalar); shkaf jihozlari: doska, magnit doska, plexiglass taxtasi, reproduksiya va stollarni saqlash uchun shkaflar, ekran, ekran apparatlari uchun stend, yoritish moslamalari, tabiat uchun stendlar, bo'r, bo'yoqlar va boshqalar.

Tasviriy san'at kabinetining asosini uslubiy fond tashkil etadi. U o'quv materialini tushuntirish uchun dala ishlab chiqarishlarida qo'llaniladigan turli obyektlarni o'z ichiga oladi. Ko'pincha bunday fond o'qituvchining faol ishi va bolalar va ota-onalarning yordami natijasidir.

Har bir alohida ta'lim muassasasida kabinet har xil estetik va semantik yukni ko'taradi.

Laboratoriya xonalari, muzey xonalari, ma'ruza xonalari va boshqalarni ko'rishingiz mumkin. Lekin bundan qat'i nazar, xona o'qituvchining pedagogik konsepsiyasiga muvofiq tasviriy san'atni yuqori darajada o'rganishni ta'minlashi kerak. Ofis dizayni, birinchi navbatda, o'qituvchining estetik pozitsiyasiga, uning kasbiy fazilatlariga va ikkinchidan, ta'lim muassasasining moliyaviy imkoniyatlariga mos keladi.

OFIS-WORKSHOP o'quvchilarni yorug'lik chiroqlari, bo'yoqlar hidi, haykaltaroshlik ishlari bilan yoritilgan ko'plab ochiq chiqishlari bilan kutib oladi. Devorlarga turli yillardagi san'at asarlari osilgan.

OFIS-MUZEY maktabda o'quvchilarning sinf makonida badiiy madaniyatning u yoki bu qismini ko'rgazmali tarzda aks ettirish imkonini yaratish maqsadida tashkil etilgan. Kabinetga insoniyat badiiy taraqqiyotining asosiy bosqichlarini ochib beruvchi illyustratsion turkum yoki eng ajoyib san'at asarlarining alohida reproduksiyalari taqdim etilishi mumkin. Ko'pincha bunday kabinetlar o'z ona yurtining halq amaliy san'ati va hunarmandchiligiga bag'ishlangan muzeylardir. Butun dunyo - bolalar, ularning ota-onalari, o'qituvchilari tomonidan to'plangan ushbu muzeylar kichik vatanning badiiy va ma'naviy an'analarini saqlash va davom ettirish funksiyalarini bajaradi. Muzeylar sinfxonalarida halq sayillari, ekskursiyalar o'tkaziladi.

Umumta'lim muassasalari uchun tasviriy san'at bo'yicha o'quv qurollari va o'quv jihozlari ro'yxati (Umumta'lim maktablari uchun o'quv jihozlari va ko'rgazmali qurollar ro'yxati: Ro'yxatlar to'plami / Yu. I. Dik, Yu S. Pesotskiy tahrirlari. - M.: Pedagogika, 2003)

O'quv jarayonini markazlashtirilgan vositalar (re-produksiyalar, plakatlar, jadvallar va boshqalar) bilan ta'minlash imkoniyatiga qaramay, o'qituvchi ko'pincha bunday vositalarni o'zi bajarishi, darsning vizual doirasini kengaytirish va boyitish, bolaga o'z mazmunini tushunishga yordam berishi kerak, muayyan vizual vazifani hal qilish.

Ko'rgazmali qurollarni mustaqil bajarib, o'qituvchi o'zining badiiy qobiliyatini ro'yobga chiqarish, rassomning kasbiy mahoratini va o'qituvchining mahoratini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bundan tashqari, o'qituvchi o'zi tomonidan o'ylangan ta'lim va tarbiya maqsadiga muvofiq vizual seriya tayyorlaydi, ushbu maqsadga muvofiq vazifalarni bajarish metodikasini quradi. Bunday qo'llanmalar muallifning ma'lum bir darsning vizual diapazonini yarata-di. Bundan tashqari, ko'rgazmali qurollar, qoida tariqasida, o'quvchilarning qiziqishini uyg'otadi, o'quvchilarning ijodiy kuchlarini faollashtiradi, ijodkorlikda ishtirok etishga intiladi<sup>1</sup>.

### **Tasviriy san'at xonasini jihozlash.**



<sup>1</sup><https://studfile.net/preview/9933560/page:10/94>.



Tasviriy san'at xonasi quyidagi 15-rasmdagi ko'rinishda bo'lishi kerak:





*15-rasm. Tasviriy san'at xonasi jihozlanishi.*

## VIII-BOB. TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.

### **Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi mashg'ulotlarining zamonaviy ta'limi.**

Hozirda ilm-fan, madaniyat va boshqa sohalarda ro'y bergan kashfiyotlar hamda ular yuzasidan to'plangan axborotlar, umumiy o'rta ta'lim mazmuniga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa o'zo'rnida ta'lim mazmunini kengaytirish va chuqurlashtirishni taqozo etadi. Bu muammo har bir o'qituvchidan yangi kashfiyotlar, yangiliklar, o'qitishdagi zamonaviy texnologiyalar bilan muntazam tanishib turish kerakligini talab etadi. Aks holda, o'qituvchi zamon bilan hamnafas ravishda o'z ishini tashkil eta olmaydi. O'qituvchi zamon talablari darajasida dars o'tishi uchun muntazam ravishda o'z malakasi va bilimlarini oshirib borishi kerak bo'ladi. Uning ikki yo'li mavjud:

1. Maxsus malakani oshirish kurslaridan o'tish.
2. O'z bilim va malakalarini mustaqil ravishda oshirib borish.

Malaka oshirish kurslarida bilim olish besh yilda bir marta amalga oshirilishi sababli u o'qituvchiga davr bilan hamnafas bo'lishiga yetarlicha imkon bermaydi. Besh yil davomida ilm-fan, madaniyat va boshqa sohalar o'zgaradi, yangiliklar bilan to'lib beradi. Demak, muallim kundalik jarayon bilan tanishib borishi, o'qib, o'rganib, o'zlashtirib borishi foydadan holi bo'lmaydi.

*Maktab tasviriy san'at o'qituvchisining faoliyati quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:*

**Tasviriy san'at nazariyasi va tarixi.** Mazkur yo'nalish tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atlarining nazariy

asoslari hisoblangan kompozitsiya, rangshunoslik, yorug'-soya, perspektiva qonunlarini, bu borada yaratilgan asarlarni chuqurroq o'rganishni, shuningdek, so'nggi yillarda ochilgan yangiliklar bilan muntazam tanishib borishni nazarda tutadi. Bu esa yuqorida qayd qilganimizdek, tasviriy, amaliy-bezak va me'morchilik san'atlari tarixini kengroq va chuqurroq o'rganishni talab etadi.

Ayniqsa, bu borada so'nggi yillarda O'zbekiston hududi xarobalaridan topilgan devoriy rasmlar, haykaltaroshlik asarlari va me'morchilik obidalari katta o'rinni egallaydi. Ular orasida Ayrtom, Varaxsha, Afrosiyob, Dalvarzin tepa, Jonbos qal'a, Toxariston, Bolalik tepa, Tuproq qal'a va boshqa joylardan topilgan san'at namunalari alohida ahamiyat kasb etadi. Sharq me'morchiligining qadimiy mashhur obidalari, Yevropa va Amerika mamlakatlarining hozirgi zamon mashhur me'morchiligini chuqur o'rganish talabetiladi. Bu esa tasviriy san'at dasturiga me'morchilikka oid mavzularni kiritilishi bilan izohlanadi. Shuningdek, tasviriy san'at tarixiga doir materiallar qatoriga Sharq va Movarounnahr miniatyura rangtasvir maktablari ham kiradi.

O'qituvchining mustaqil ishlari jarayonida IX-XX asr me'morchiligi, ayniqsa, Temur va temuriylar davridagi me'morchilikni chuqur va atroflicha o'rganish talab etiladi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida qurilgan me'morchilik binolari bilan o'quvchilarni tanishtirish o'z Vatani qaqidagi tasavvurlarini yanada boyitadi.

O'zbekistonning mustaqillik yillarida tasviriy san'atning taraqqiyoti, O'zbekiston badiiy akademiyasini tashkil topishi, milliy rassomchilik va dizayn institutining ochilishi bu davrda iqtidorli yosh rassomlarning jahon madaniyati va san'ati Sarhadlaridan o'rin olishi hamda

bu rassomlarni yuksak badiiy saviyada yaratgan asarlarini o'rganish nihoyatda muhimdir. Shu bilan birga jahonning ilg'or tasviriy san'ati, uning buyuk vakillarining ijodini o'rganish o'qituvchilarning orqaga surib bo'lmaydigan vazifalaridan hisoblanadi.

Tasviriy san'at o'qituvchisi o'zbek halq amaliy san'atini o'rganishi nihoyatda muhim. Chunki, san'atning bu turi mamlakatimizda shunchalik keng rivojlandiki, uni tasavvur etish qiyin. Ayniqsa, naqqoshlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, misgarlik, kashtachilik, sopol-do'zlik, zardo'zlik san'atlari dunyoda shuhrat qozondi. Tasviriy san'at o'qituvchisi amaliy san'atning nazariy asoslari bilan bir qatorda, bu sohalarda ijod qilgan mashhur ustalarning (T. Arslonqulov, U. Jo'raqulov, A. Qosimjonov, SH. Murodov, YA. Raufov, M. Rahimov, T. To'xtaxo'jaev, M. Usmonov, H. Haydarov, J. Hakimov, S. Hamidov v.b.) hayoti va ijodini, mamlakatimizda halq amaliy san'ati keng rivoj topgan markazlarni (Samarqand, Buxoro, Qo'qon, Shahrisabz, Marg'ilon, Urgut, Chust, Kitob, Rishton, Kattaqo'rg'on, G'ijduvon, Xo'jayli, Nurota, Xiva, Andijon, Namangan, Sherobod. Toshkent v.b.), o'ziga xos xususiyatlarini bilish talab etiladi.

#### **Tasviriy san'atni o'qitishning psixologik asoslari.**

Shaxs, shaxsni individual xususiyatlari, bilish jarayonlari, tasavvur, tafakkur, nutq, xotira hayajon va iroda kabi psixologik jarayonlarni bilmasdan turib tasviriy san'at darslarini talablar darajasida amalga oshirib bo'lmaydi. Bunda uning quyidagi jihatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

**Shaxs psixologiyasi:** a) shaxs, shaxsning dunyoqarashlari, e'tiqodi, ehtiyoji va g'oyalari. Shaxsni shakllantirishda o'qituvchining roli; b) faoliyat, shaxs faoliyatida bilim, malaka, ko'nikma va odatlar; v) diqqat.

Diqqatning turlari va xususiyatlari. Tasviriy faoliyatlarda diqqatning roli.

**Bilish jarayonlari:** a) Sezish. His etish. Uning turi va asosiy qonuniyatlari. Ranglarni his etish qonuniyatlari. Bolalarda his etishni o‘stirish; b) Idrok etish. Fazoni idrok etish va tasviriy faoliyat. Idrok etish jarayonining umumiy qonuniyatlari va tasviriy faoliyat. Bolalarda idrok etish va kuzatuvchanlikni o‘stirish. v) xotira, xotira turi va jarayoni. Ko‘z xotirasini o‘ziga xos xususiyatlari. Bolalarda xotirani o‘stirish; g) Tafakkur, uning tur va shakllari. Kishilarda fikrlash faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari. Badiiy tafakkurni o‘ziga xos xususiyatlari. Bolalarda fikrlashni o‘stirish; d) Nutq, uning turlari. Rassom tasviriy tilining o‘ziga xos xususiyatlari; e) Tasavvur, uning turlari. Badiiy ijodda tasavvur. Bolalarda tasavvurni o‘stirish.

**Hayajon va iroda jarayonlari:** a) Hayajon va hissiyot. Hissiyot turlari. Hissiyot va tasviriy faoliyat. Bolalarda hissiyotni o‘stirish va shakllantirish; b) Iroda. Shaxsni irodaviy xususiyatlari. Bolalarda irodani o‘stirish va tarbiyalash.

**Shaxsni asosiy individual-psixologik xususiyatlari:** a) Xarakter, uning tuzilishi va xususiyatlari. Xarakterdagi individuallik va tipiklik; b) Qobiliyat, badiiy qobiliyat va iste‘dod. Badiiy qobiliyatlarning psixologik tavsifi. Bolalarda badiiy qobiliyatlarni o‘stirish va shakllantirish.

**Tasviriy san‘at darslari-ta‘lim va tarbiyaning asosiy shakli.**

Dars maktabda ta‘lim-tarbiyaning asosiy shakli bo‘lganligi uchun o‘qituvchi bu borada ko‘p va jiddiy ish olib borishi kerak bo‘ladi. O‘qituvchi o‘zining bu boradagi ishlarini quyidagi yo‘nalishlarda olib borishi maqsadga muvofiqdir:

1. Tasviriy san'atni o'qitishga bo'lgan zamonaviy talablarni xis etish.

2. Tasviriy san'at darslarini maxsus xonada o'tkazishni takomillashtirish.

3. O'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirish.

4. Darslarni sinfdan tashqari ishlar bilan bog'lab olib borish.

5. Ko'rgazmali qurollardan foydalanishning yangi samarali shakllarini qo'llash.

6. Tasviriy san'atni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda o'tkazish.

7. Tasviriy san'at darslarida ta'lim va tarbiya birligi.

8. Tasviriy san'at darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash.

**Sinfdan tashqari ishlar mazmuni va metodikasi.**

O'qituvchining bu yo'nalishdagi mustaqil ishlarini quyidagi uch yo'nalishda olib borilish maqsadga muvofiqdir.

1. To'garaklar va ularning mazmuni.

2. Sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlar mazmuni.

3. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar metodikasi.

**Tasviriy san'at darslarini takomillashtirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish.**

O'zbekistonning mustaqilligi ta'limni tubdan isloh etishni talab etmoqda. Bu islohotlar badiiy ta'lim sohasida zamonaviy texnologiyalarni quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishini nazarda tutadi:

1. Bolalar badiiy ta'limini tashhisli asosda tashkil etish.

2. Tabaqalashtirilib o'qitish. (darajali tabaqalashtirish, ixtisoslashtirilgan tabaqalashtirish).

3. Modulli o'qitish.

4. O'quvchilarni mustaqil ishlashga yo'naltirilgan holda o'qitish.

5. Baxs va munozarali darslar yordamida o'qitish.

6. Sarguzasht va sayoHat orqali o'qitish.

7. Darslarni o'yin shaklida tashkil etib o'qitish. (rolli o'yinlar, musobaqa, krossvord, chaynovordlar yechish, kim ko'p biladi o'yini, ajurli arra o'yini, aqliy hujum o'yini v.b.).

8. Kompyuter grafikasi, audiovizual, video v.b, texnika vositalari orqali o'qitish.

9. Darslarni ochiq havoda tashkil etib o'qitish.

10. Muammoli vaziyatlar hosil qilib o'qitish va boshqalar.

### **O'qituvchining ijodiy ishlari.**

O'qituvchining ijodiy ishlari ikki yo'nalishda bo'lishi mumkin:

1. Ilmiy metodik ishlar. 2. Tasviriy ijodiy ishlar.

Ilmiy metodik ishlar, ilg'or tasviriy san'at o'qituvchilarining ish tajribalarini o'rganish, metodist olimlar bilan aloqada tajriba- sinov ishlarini olib borishni nazarda tutadi. Natijada o'qituvchi maktab, tuman, shahar, viloyat, respublika, halqaro anjuman va kengashlarda tadqiqot natijalari asosida ma'ruzalar o'qiydi matbuotda, ilmiy to'plamlarda maqolalar e'lon qiladi.

O'qituvchi o'rganilgan ilg'or tajribalardan o'z faoliyatida foydalanadi. Ilg'or tajribalarni o'rganib tasviriy san'at o'quv predmeti mazmuniga yangitdan kiritilgan mavzularda ilmiy izlanishlar olib boradi. Ayniqsa, tabiiy materiallar (barg, shox-shabba, bug'doy poya, ildizlar, ayrim meva va sabzavotlarning urug'lari, qush patlari, rangli toshlar), tashlandiq materiallar (sintetik va shirin

ichimliklarning idishlari, dori-darmondan chiqqan idishlar, gazmol parchalari, folga qog'ozlar, sim, g'altak, kanop, gugurt qutisi v.b.) ning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va ulardan badiiy qurish-yasash ishlarida foydalanish nihoyatda samaralidir.

Tasviriy ijodiy ishlar o'qituvchining shaxsiy tasviriy mahoratini oshirib borishga xizmat qiladi. U o'qituvchini o'zi ma'qul ko'rgan tasviriy yoki amaliy san'atning tur va janrlaridan birontasi bo'yicha ijodiy ishlar olib borishini taqozo etadi. Ijodiy ishni bu shakli bo'yicha o'qituvchi olib borgan ishlarining natijalari yuzasidan ko'rgazma va tanlovlarda qatnashadi.

### **Texnika vositalari bilan ishlash.**

Ma'lumki, hozirda ta'lim jarayonlarini texnika vositalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. So'nggi yillarda texnika vositalarining yangidan-yangi turlari paydo bo'lmoqdaki, ular ta'lim sifatini zamon talablari darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi.

Tasviriy san'at ta'limining hozirgi ahvoli shuni ko'rsatmoqdaki, o'qituvchi ta'limni tashkil etuvchi davlat va jamoatchilik tashkilotlaridan shart-sharoitlar kutmasdan o'z faoliyatini o'zi qayta qurishi zarur. Hozir va bundan buyon ham ta'lim jarayonlarida texnika vositalari muhim o'rinni egallaydi hamda dars samaradorligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shunday ekan o'qituvchi bu borada bir qator ishlarni amalga oshirishi kerak bo'ladi.

1. Foto apparat bilan ishlash va undan ta'lim jarayonida foydalanish. Ayniqsa, u san'at asarlarining slaydalarini tayyorlashda nihoyatda qo'l keladi.

2. Audiovizual (magnitli yozuvlar, video) vositalarni ishlash tartibini o'rgatish va ularni badiiy ta'lim va tarbiya sharoitlarida qo'llash<sup>1</sup>.

3. Proeksion apparatlar hisoblangan diaproektor, epi-diaskop, filmskop, kompyuter kabilar bilan ishlashni puxta o'zlashtirish, ulardan ta'lim jarayonida unumli foydalanish.

Audiovizual o'qitish vositalari (AVSO) (boshqacha qilib aytganda, lotincha audire dan "eshitish" - eshitish va vizual vizual) - bu o'quv jarayonida eng ko'p qo'llaniladigan texnik o'qitish vositalarining maxsus guruhi bo'lib, ko'rgazmali va ko'rgazmali tasvirlash uchun mo'ljallangan ekranli va ovozli vositalarni o'z ichiga oladi. Eshitish ma'lumotlari.

Bo'linadi (Lyaxovitskiy tasnifiga ko'ra):

Vizual (vizual) vositalar (videogrammalar) - chizmalar, jadvallar, diagrammalar, rasmlardan reproduksiyalar, bannerlar, kino lentalar, transparentlar;

Eshitish (eshitish) vositalari (fonogrammalar) - gramofon yozuvlari, magnitli yozuvlar, radioeshittirishlar;

Aslida audiovizual (vizual-eshitish) vositalar (video-fonogrammalar) - kino, televidenie va ovoz jo'rliqidagi film lentalar, kompyuter dasturlari.

AVSO ning yana bir tasnifiga ekran, ovoz va ekran-tovushli vositalar kiradi (Zelmanov tasnifi bo'yicha).

Audiovizual o'qitish vositalari quyidagilar bo'lishi mumkin:

1) til darslari uchun maxsus ishlab chiqilgan va uslubiy qayta ishlangan o'quv materiallarini (ko'rgazmali qurollarni) o'z ichiga olgan o'quv;

---

<sup>1</sup> <https://muhaz.org/fani-boyicha.html?page=9>

2) o'quv, boshqa fanlar bo'yicha darslar uchun yaratilgan, lekin tilda o'quv materiallari (ko'rgazmali qurollar) sifatida jalb qilingan;

3) ta'lim jarayoniga kiritilgan tabiiy ommaviy aloqa vositalari.

Ular eng kuchli tarbiyaviy ta'sirga ega, chunki ular o'rganilayotgan materialni majoziy idrok etish va uni idrok etish va yodlash uchun eng qulay shaklda vizual konkretlashtirishni ta'minlaydi; faktlar, hodisalar, hodisalarni san'at elementlari bilan ishonchli ilmiy taqdim etishning sintezi, chunki hayot hodisalarini namoyish qilish badiiy vositalar (kino va fotografiya, badiiy o'qish, rasm, musiqa va boshqalar) orqali amalga oshiriladi<sup>1</sup>.

### **Tasviriy san'atni o'qitishda AKT vositalaridan foydalanish.**

O'quv jarayonini axborotlashtirishning muhim tarkibiy qismi bu darsda AKTdan foydalanish tajribasini to'plashdir. Vazifa – axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni har bir fan o'qituvchisi faoliyatida keng tarqalgan va tanish bo'lib, har qanday darsning ajralmas, uzviy qismiga aylantirishdan iborat. Zamonaviy tadqiqotlarga ko'ra, eshitilgan materialning 1/4 qismi, ko'rilganning 1/3 qismi, eshitilgan va bir vaqtning o'zida ko'rilganning 1/2 qismi, materialning 3/4 qismi inson xotirasida qoladi, agar qo'shimcha ravishda talaba o'quv jarayonida faol harakatlarda ishtirok etadi. Kompyuter o'quv jarayonining samaradorligini oshirish uchun shart-sharoitlarni yaratish-

<sup>1</sup> <https://studfile.net/preview/9933560/page/11/>

ga imkon beradi, yoshga bog‘liq ta‘lim imkoniyatlarini kengaytiradi<sup>1</sup>.

***Ta‘limda axborot texnologiyalaridan foydalanishning maqsadlari:***

- o‘quv materialining ko‘rinishini yaxshilash;
- o‘qitishning faol usullari doirasini kengaytirish;
- o‘quv materialining mazmunini diversifikatsiya qilish;
- o‘quv materialini taqdim etish shakllarini diversifikatsiya qilish.

***AKTdan foydalanishda talabalarning darsda motivatsiyasi:***

- ko‘rinish;
- o‘qitish usullarini faollashtirish;
- sinfda o‘qitishning turli shakllari;

***O‘qituvchi motivatsiyasi:***

- jarayonning murakkabligini kamaytirish (o‘qitish va nazorat qilish)
- “zamonaviy o‘qituvchi” bo‘lish qobiliyati.

MHK tasviriy san‘at darslarida o‘quv materialini taqdim etishda men o‘zim yaratgan tayyor dasturiy vositalar yoki taqdimotlardan foydalanaman, bu esa o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Kompyuter dasturlari yordamida buyuk rassomlar, haykaltaroshlar, me‘morlar ijodi, jahon san‘ati durdonalari bilan tanishamiz.

Maktab darslarida AKT dan foydalanish yangilik, shuning uchun ta‘lim jarayoni uchun dasturiy va uslubiy materiallarni jamlash, ularni takomillashtirish, yangi usul va dasturlarni ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Men o‘z oldimga qo‘ygan pedagogik maqsad:

---

<sup>1</sup> <https://fayllar.org/axborot-kommunikatsiya-texnologiyalari.html>

- talabalarning bilim sifatini oshirish;
- AKTdan foydalangan holda tasviriy san'at va MHK darslarini o'tkazish metodikasini takomillashtirish;
- ta'lim jarayonida o'quvchilarga tabaqalashtirilgan yondashuvni ta'minlash;
- zamonaviy axborot jamiyatida bolalarning moslashuvi uchun shart-sharoitlarni ta'minlash.

Belgilangan maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish kerak:

- san'at bo'yicha to'plangan kompyuter dasturlarini takomillashtirish. Maktabda o'quv jarayoni uchun yangi kompyuter dasturiy mahsulotlarini yaratish;
- tasviriy san'at va MHKni o'qitishda AKTdan foydalanish usullarini ishlab chiqishni davom ettirish;
- ishlab chiqilgan metodlarni umumta'lim maktabining o'quv jarayoniga qo'llash texnologiyasini takomillashtirish;
- to'plangan dastur va uslubiy materiallarni o'quv jarayoniga keng joriy etish;
- o'qituvchining kasbiy AKT kompetentsiyasini oshirish;
- tasviriy san'at o'qituvchilarining tajribalarini umumlashtirish va almashish;
- ta'lim jarayoni ishtirokchilarining ruhiy va jismoniy holatiga AKTning ta'sir darajasini aniqlash maqsadida o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining psixologik tadqiqoti va diagnostikasini o'tkazish.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchiga bolalarga tasviriy san'at, MHK fanlarini o'rgatish motivatsiyasini oshirishga yordam beradi va bir qator ijobiy oqibatlarga olib keladi:

- o'quvchilarni majoziy-kontseptual yaxlitligi va hissiy bo'yalishida bilim bilan boyitadi;

- maktab o'quvchilarining materialni o'zlashtirish jarayonini psixologik jihatdan osonlashtiradi;
- bilim faniga katta qiziqish uyg'otadi;
- bolalarning umumiy dunyoqarashini kengaytiradi;
- darsda vizualizatsiyadan foydalanish darajasi oshadi;
- o'qituvchi va o'quvchilarning darsdagi mehnat unumdorligini oshiradi.

Axir, estetik sikl darslarida AKTdan foydalanishning foydali va samaradorligi nimada

#### 1. Darslarni illyustrativ qo'llab-quvvatlash muammosi.

Ma'lumki, tasviriy san'at va MHK darslarida juda ko'p sonli reproduksiyalarni ko'rsatish kerak. Ba'zan san'at tarixidagi faqat bitta postulatni tasdiqlash uchun san'at asarlarining o'nlab tasvirlarini namoyish qilish talab bo'ladi.

Elektron ta'lim resurslari, internet, skaner, proyektordan foydalanish orqali quyidagi muammolar hal qilinadi;

Yuqori sifatli bosib chiqarish ko'rsatkichlarida yetarli miqdordagi ko'rgazmali qurollarning etishmasligi;

Jahon tasviriy san'atining mashhur durdonalari saqlanadigan muzeylar va ko'rgazma zallaridan uzoqda joylashganligi.

2. Tarqatma materiallar – bosma mahsulotlarning amalda mavjud bo'lmagan bu sohasi tasviriy san'at darslarida uslubiy yordam sifatida ko'rsatilmaydi. O'qituvchi materialni o'zi ishlab chiqishi kerak, chunki bunga ehtiyoj juda muhimdir. Bola dars davomida tarqatma materialdan foydalanadi, unga qayta-qayta murojaat qiladi. Badiiy darslarda ko'nikma va malakalarni shakllantirishda tarqatma materiallar muhim o'rin tutadi.

Skaner, printer, nusxa ko'chirish mashinasi ko'rsatilgan muammoni hal qilishga yordam beradi.

### 3. Usul taqdimotlar kabi o'quv qurollari.

Tasviriy turkumlardan tashqari, taqdimotlar tuzilishi va maqsadiga qarab darsdagi aniq muammolarni hal qilishga yordam beradi. Ular o'qituvchining yangi mavzuni tushuntirishiga hamroh bo'lishi mumkin, ular harakatlar algoritmi bo'lishi mumkin, ular yordamchi referat yozishda, asosiy fikrlarni ajratib ko'rsatishda va hokazolarda yordamchi bo'lishi mumkin.

4. Elektron shakldagi dars konspekti matn bilan ishlash qulayligini (tuzatishlar, qo'shimchalar, o'zgartirishlar), shuningdek, materialni turli tadbirlarda (loyihalar, tanlovlar va boshqalar) takrorlash va ishlatish imkoniyatini ta'minlaydi. Shuningdek, agar kerak bo'lsa, o'qituvchi darsda murojaat qiladigan bosma kontur yoki dars rejasining estetik ko'rinishi, shubhasiz, qo'lda yozilganidan ustundir.

5. Elektron ta'lim resurslari (CD) qayta ishlash va ular asosida o'z mahsulotingizni yaratish uchun ishlatilishi mumkin. Shuningdek, taklif qilingan navigatsiyadan foydalanish va hatto o'quvchilarni berilgan ma'lumotni mustaqil izlash, istalgan testni bajarish va hokazolar uchun darsga jalb qilish qulay bo'lishi mumkin.

6. Veb-sahifadan dars uchun ham, bolalar bilan muloqot qilish uchun ham foydalanish mumkin. Ota-onalar va hamkasblar maktab vaqtidan tashqari (ta'lim jarayoni).

7. Internct. Darsdan tashqari – ma'lumot qidirish, sinfda - bu real vaqt rejimida ulkan axborot maydoniga kirish va ma'lum sharoitlarda - bu sinfda tarmoqni tashkil etish.

8. Texnik vositalardan multimedia proyektorini ajratib ko'rsataman, chunki badiiy obyektlar uchun u juda katta rol o'ynaydi. Ushbu aloqa vositasi sizga ma'lumotni translyatsiya qilish va darsda qimmatli vaqtni yo'qotmasdan

bir vaqtning o'zida butun sinf bolalariga materialni katta, yuqori sifatli namoyish qilish imkonini beradi.

Darslarimda AKTdan foydalanish tufayli men quyidagi natijalarga erishdim:

- bolalar san'atning turli sohalariga qiziqishni sezilarli darajada oshirdi, ular ko'proq savollar berishni boshladilar;
- ko'pincha bolalar uyda, internetda yoki bosma adabiyotlardan qo'shimcha ma'lumotlarni topadilar va uni darsga olib kelishadi;
- tashabbus ko'rsatish va topilgan material bilan faol harakat qilish;
- Ijodiy ishlarning sifati oshdi (mavjud illyustrativ va xborot materiallari tufayli);
- bolalar shaxsiy hayotlarida san'atning globalligi va ahamiyatini anglaydilar va ko'pchilik darsda nimani o'rganganlarini ko'rish uchun dunyoning turli mamlakatlariga sayohat qilishni orzu qila boshlaydi!

Shunday qilib, AKTdan foydalanish menga o'qituvchi sifatida malakali, professional, texnologik darsni loyihalash imkonini beradi. Va bu, o'z navbatida, talabalarning asosiy kompetensiyalarini, ya'ni universal bilim, ko'nikma va malakalarning yaxlit tizimini shakllantirish imkonini beradi.

AKTdan foydalanish tajribasi:

- elektron ta'lim resurslari (CD) to'plami yig'ildi;
- darsda taqdimotlar, tarqatma materiallar to'plami, ko'rgazmali qurollar ko'rinishida foydalanish uchun bir qator uslubiy ishlanmalar va didaktik materiallar yaratildi;

- turli mavzulardagi illyustrativ materiallarning raqamli to'plamlari, shuningdek, bolalar asarlarining raqamli to'plamlari shakllantirildi<sup>1</sup>.

Maktabda tasviriy san'at darslarida AKT dan foydalanish atrofidagi dunyoning axborot oqimlarida harakat qilish qobiliyatini rivojlantirish, axborot bilan ishlashning amaliy usullarini o'zlashtirish, zamonaviy texnik vositalardan foydalangan holda ma'lumot almashish imkonini beradigan ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi.

Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda tasviriy san'at darslari nafaqat olingan bilimlarni kengaytiradi va mustahkamlaydi, balki o'quvchilarning ijodiy va intellektual salohiyatini sezilarli darajada oshiradi. O'quvchining tasavvuri va o'z fikrini ifoda etishga bo'lgan ishtiyoqi katta bo'lgani uchun uni imkon qadar tez-tez, jumladan, AKT yordamida ham o'z fikrini ifoda etishga o'rgatish maqsadga muvofiqdir<sup>2</sup>.

San'at darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish bolalar mehnatini ratsionalizatsiya qilish, o'quv materialini tushunish va yodlash jarayonlarini optimallashtirish, eng muhimi, bolalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini yanada yuqori darajaga ko'tarish orqali fanni o'qitishni o'zgartirishi mumkin.

Milliy loyihani amalga oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biri innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi ta'lim muassasalarini qo'llab-quvvatlashdir.

Hozir butun umumta'lim tizimini isloh qilish va modernizatsiya qilishning dolzarb masalasi turibdi. Hozirgi vaqtda umumta'limning butun tizimini yangilash zarura-

<sup>1</sup> <https://infourok.ru/ispolzovanie-ikt-na-urokah-izobrazitel'nogo-iskusstva-744968.html>

<sup>2</sup> <https://fayllar.org/axborot-kommunikatsiya-texnologiyalari.html>

ti aniq paydo bo'ldi. Bu, birinchi navbatda, maktabning zamonaviy jamiyatdagi yangi pozitsiyasi: bolalarni yangi ijtimoiy-iqtisodiy voqealarda hayotga tayyorlash zarurati bilan bog'liq. Ikkinchidan, pedagogik jamoa ta'lim sohasidagi o'zgarishlarni talab qilmoqda, bu pedagoglarning innovatsiyalarga g'ayrioddiy keng qiziqishidan dalolat beradi. Uchinchidan, mavjud umumiy ta'lim tizimini o'zgartirishdan menejerlar va siyosatchilar ham manfaatdor.

Innovatsiyalarni joriy etish uchun tayyor texnologiyalar mavjud emas. Maktablarga butun o'quv jarayonini isloh qilish va modernizatsiya qilish muammolarini har tomonlama hal qilish imkonini beradigan maxsus ilmiy va uslubiy ishlar mavjud emas. Mavjud ishlar innovatsion harakat nazariyasi va amaliyotining ayrim masalalarini hal qiladi. Innovatsiya deganda ta'lim jarayoniga yangi zamonaviy usullar, ishlanmalar, dasturlar: sog'liqni saqlash, axborot, o'quvchilarga yo'naltirilgan va maktab o'quvchilarining bilim sifatini oshiradigan boshqa ko'plab narsalarni joriy etish tushuniladi. Bu boshlang'ich umumiy ta'limning federal davlat ta'lim standartlarini amalga oshirish doirasida o'quvchilarning sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash bo'yicha ta'lim muassasalarining asosiy faoliyatida juda batafsil yozilgan.

“Tasviriy san'at” fani juda ko'p fanlararo aloqalarni nazarda tutganligi va atrofimizdagi deyarli butun dunyoning namoyishlarini o'z ichiga olganligi sababli (ya'ni, biz hamma narsani ko'rishni va tasvirlashni o'rganishimiz kerak), ko'pincha illyustrativ material yetarli emas, shuning uchun yaratilgan raqamli resurslar sizga sinfdagi o'quv jarayonini samaraliroq qilish imkonini beradi va o'qituvchining o'z kasbiy darajasini va o'quv materiali darajasini oshirish imkoniyatini beradi.

Endilikda o'quvchilarning zamonaviy ta'lim va tarbiyasini AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) dan foydalanmasdan tasavvur etib bo'lmaydi. Ular juda samarali, chunki ular tegishli pedagogik texnologiyalar bilan mohirona birlashtirilgan bo'lib, avtoritar maktabdan hamkorlik pedagogikasiga o'tishga imkon beradi, agar o'qituvchi va talaba axborot resurslari bilan teng munosabatda bo'lsa, yetakchilar bilan sherik bo'ladi.

O'qituvchining roli.

Yangi axborot texnologiyalari nafaqat yangi texnik vositalar, balki o'qitishning yangi shakl va usullari, ta'lim va tarbiya jarayoniga yangicha yondashuvdir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, masalan: loyiha metodologiyasi, axborot texnologiyalari, internet resurslaridan foydalanish o'rganishga shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirishga imkon beradi, bolalarning qobiliyatlarini, ularning bilim darajasini hisobga olgan holda o'rganishni individuallashtirish va differentsiallashtirishni ta'minlaydi. O'rganish, qiziqishlar va boshqalar.

Shunday qilib, AKTni joriy etish ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy maqsadi – ta'lim sifatini oshirish, ta'limning imkoniyatlarini oshirish, axborot makoniga yo'naltirilgan, axborot va axborotga bog'langan shaxsning barkamol rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Zamonaviy texnologiyalarning aloqa imkoniyatlari va axborot madaniyatiga ega.

Boshlang'ich maktabda ta'lim jarayonini axborotlashtirish muammosiga keyingi yillarda ma'lum darajada e'tibor qaratilmoqda. Farzandlarimiz allaqachon axborot jamiyatining a'zolari. Ularga tushadigan ma'lumotlar hajmi yigirma yil oldin tengdoshlariga tushgan hajmdan bir necha baravar ko'p.

Maktab jamiyatning bir bo‘lagi bo‘lib, u butun mam-lakatdagi kabi muammolarni bir tomchi suvda aks ettiradi. Shuning uchun ham o‘quv jarayonini shunday tashkil etish juda muhimki, bola darsda faol, qiziqish va ishtiyoq bilan ishlasin, o‘z mehnatining samarasini ko‘radi va uni qadrlay oladi. An’anaviy o‘qitish usullari va zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan, kompyuter texnologiyalari o‘qituvchiga ushbu qiyin vazifani hal qilishda yordam beradi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan, “Odam va kompyuter” tizimi tezda nafaqat mutaxassislar-ni, balki jamiyatning barcha a’zolarini tashvishga soladigan muammoga aylandi, shuning uchun kompyuterga ega bo‘lgan odamning ta’siri maktab ta’limi bilan ta’minlani-shi kerak. Biz buni qanchalik tez boshlasak, jamiyatimiz shunchalik tez rivojlanadi, chunki zamonaviy axborot jamiyati kompyuter bilan ishlash bilimini talab qiladi.

XXI asr - yuqori kompyuter texnologiyalari asri. Hayotning yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitida o‘zini qulay his qilish uchun zamonaviy yoshga nima kerak? Insonni to‘laqonli hayotga, mehnatga tayyorlash uchun XXI asrda maktab qanday rol o‘ynashi kerak va u qanday bo‘lishi kerak? Ko‘rinib turibdiki, faqat an’anaviy o‘qitish usul-laridan foydalangan holda bu muammoni hal qilish mum-kin emas.

Ta’limda AKTdan foydalanish axborot jamiyatini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi bilan birga bugungi kunning dolzarb mavzularidan biridir. Bugungi kunda ta’lim tizimi “kelajak zarbasi” sharoiti-da rivojlanmoqda - inson bir dunyoda tug‘iladi va o‘qiy-di, lekin u boshqa dunyoda mustaqil harakat qilishi kerak bo‘ladi. Bunday sharoitda maktab o‘quvchilarda yangi

ko'nikmalarni - bu dunyoga moslashish va o'zini topish qobiliyatini, mustaqil ravishda ma'lumot to'plash, tahlil qilish, umumlashtirish va boshqa odamlarga yetkazish, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish qobiliyatini shakllantirishi kerak. Talabalarning mustaqil ishlariga, ta'limning jamoaviy shakllariga, zarur ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining yangi modelini hayotga tatbiq etish davr talablariga adekvat javobdir.

"Maktab bu jarayonning muhim elementidir. Zamonaviy maktabning asosiy vazifalari - har bir o'quvchining qobiliyatini ochib berish, munosib va vatanparvar, yuqori texnologiyali, raqobatbardosh dunyoda hayotga tayyor shaxsni tarbiyalashdir. Maktab ta'limi shunday qurilishi kerakki, bitiruvchilar o'z oldiga mustaqil ravishda jiddiy maqsadlar qo'ya oladigan va ularga erisha oladigan, turli hayotiy vaziyatlarga mohirona javob bera oladi. ("Bizning yangi maktab" milliy ta'lim tashabbusi).

Ushbu transformatsiyada o'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) faol foydalanish muhim rol o'ynashi mumkin va bo'lishi kerak, chunki:

AKTni o'rganish va ta'lim jarayonida qo'llash talabalarga zamonaviy jamiyatda hayot va mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni egallash imkonini beradi;

AKT ta'lim sifatini oshiradigan ta'limning yangi shakl va usullarini ishlab chiqishning samarali vositasidir;

AKTdan keng foydalanish ta'limning mavjudligini oshirish, uzluksiz ta'limdan uzluksiz ta'limga (Life Long Learning - LLL paradigmasi) o'tish uchun sharoit yaratadi, bu esa axborot jamiyati va bilimga asoslangan iqtisodiyot-

ni rivojlantirish sharoitlariga doimiy moslashishni ta'minlaydi.

Axborotlashtirish ta'limni har tomonlama modernizatsiya qilish, ta'lim faoliyati mazmuni va shakllarini, maktabning butun yo'lini, ta'limni boshqarishni yangilashning zarur tarkibiy qismi va shartidir. Modernizatsiya dasturini axborotlashtirishsiz to'liq amalga oshirish mumkin emas.

Shu sababli, ta'limni axborotlashtirish Rossiya Federatsiyasi hukumati hujjatlarida ko'rsatilgan Rossiya Federatsiyasining ijtimoiy sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Rossiya ta'limini modernizatsiya qilish kontseptsiyasida ta'lim siyosatining asosiy vazifasi ta'limning zamonaviy sifatini uning fundamentalligini saqlab qolish va shaxs, jamiyat va davlatning hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlariga muvofiqligini ta'minlashdan iboratligi ta'kidlangan. Shu bilan birga, modernizatsiyaning asosiy vazifalaridan biri maktab ta'limining yangi zamonaviy sifatiga erishishdir va haqiqatan ham zarur bo'lishi uchun ta'limni axborotlashtirish maktabning ikkita asosiy vazifasini hal qilishga yordam berishi kerak: har bir kishi uchun ta'lim va yangi, hamma uchun ta'lim sifati.

Bolaning idroki o'zgarimoqda, u texnologik ramzlar va belgilar dunyosida, elektron madaniyat olamida yashaydi. O'qituvchi bola bilan bir tilda muloqot qilish uchun zamonaviy usullar va yangi ta'lim texnologiyalari bilan qurollangan bo'lishi kerak. Ana shunday usullardan biri bugungi kunda media-ta'limni fan o'qituvchisi ish tizimiga integratsiyalashdir. Yoshligidan "elektron muhit"ga kirgan bolani unda harakatlana olish, "o'qish", turli manbalardan olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish, uni

tanqidiy idrok etish ko'nikmalarini egallashga o'rgatish eng muhim vazifalardan biridir, zamonaviy maktab.

Tasviriy san'at darslari alohida suhbatdir. Ular yorqin, hissiy bo'lishi kerak, ko'plab tasviriy materiallarni o'z ichiga olgan, ovoz va video yozuvlardan foydalangan holda. Bularning barchasi multimedia imkoniyatlari bilan kompyuter texnologiyasi bilan ta'minlanishi mumkin. Tasviriy san'at darslari uchun o'qituvchilar va talabalar eng ajoyib, eng qiziqarli loyihalarni tayyorlashlari mumkin, bular rassomlik, arxitektura, haykaltaroshlik olamiga, rus va xorijiy tasviriy san'atning taniqli ustalari dunyosiga sayohat qilish darslari. Kompyuterdan foydalanish dunyoni ko'plab rassomlarning ko'zlari bilan ko'rish, aktyorning she'r o'qishini eshitish imkonini beradi. Ov klassik musiqa fonida. Bunday darslar go'zallik tuyg'usini uyg'otadi, o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi, cheklangan vaqt davomida keng san'at tarixiga oid material berishga imkon beradi.

1. Ta'lim jarayonida AKTdan foydalanishning maqsadga muvofiqligini tadqiq qilish va asoslash.

2. Tasviriy san'at darslarida AKTdan foydalangan holda ta'lim jarayonining samaradorligi va samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlash.

3. Olingan ma'lumotlar asosida tasviriy san'at darslarida AKTdan foydalangan holda turli ish shakllari va usullarini ishlab chiqish.

Keling, qo'yilgan vazifalarni hal qilish uchun eng dolzarb bo'lgan ta'lim standartining ba'zi qoidalariga to'xtalib o'tamiz:

- turli manbalarda ma'lumotlarni topish va qayta ishlash qobiliyati;

- vizual ma'lumotni og'zaki va aksincha tarjima qilish qobiliyati;

- axborot xabarlari o'rtasida assotsiativ va amaliy maqsadga muvofiq aloqalarni o'rnatish qobiliyati;

- muqobil nuqtai nazarlarni idrok etish va ularning har biri uchun "ma'qul" va "qarshi" asosli dalillarni ifodalash qobiliyati.

Ta'lim standartining ushbu elementlarini tanlash "San'at" ta'lim yo'nalishidagi fanlarni o'qitishning maqsad va vazifalari bilan bog'liq.

- Ushbu sohadagi kontent tushunchasi quyidagilarga asoslanadi:

- ma'naviy boy va estetik jihatdan rivojlangan shaxsni tarbiyalash;

- badiiy ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish;

- o'quvchilarda san'atning muayyan turlari bo'yicha amaliy faoliyat bilim va ko'nikmalarini shakllantirish;

- o'quvchilarni badiiy asar tomoshabinlari sifatida tarbiyalash, san'at bilan muloqotga bo'lgan ehtiyojni, muallifning badiiy niyatini, turli uslub va yo'nalishlar xususiyatlarini mustaqil idrok etish qobiliyatini rivojlantirish;

nafaqat badiiy ijodda zarur bo'lgan, balki o'quvchilarning kelajakda bir qator an'anaviy va zamonaviy kasblar bo'yicha bevosita bog'liq bo'lmagan ijodkor va malakali mutaxassis bo'lib yetishishlariga yordam beradigan tasavvur, xayoliy fikrlash, fazoviy tasvir, hissiy qobiliyat, ko'nikmalarni rivojlantirish.

San'at o'quv jarayonida AKTdan foydalanish samaradorligini ta'minlaydigan quyidagi shartlarni belgilab oling:

- Ilovalar bilan san'at darslarini ishlab chiqish (kompyuter taqdimotlari).

- Darslarni tayyorlash va o'tkazishda DER, EER, Internet - resurslardan foydalanish.

- Tasviriy san'at kabinetining elektron ma'lumotlar bazasini yaratish ...

- Tadqiqotning ilmiy yangiligi o'quv jarayonida tasviriy san'at darslarida AKTdan foydalanish sharoitlarini tafakkur, e'tibor, tasavvur va boshqalarni rivojlantirish omili sifatida o'rganishdadir.

San'at darsi - bu ajoyib saboq, vaqt va abadiyat, yaxshilik va yomonlik, daholik va o'rtamiyonalik, sevgi va nafrat bu yerda to'qnashadi.

San'at darslari badiiy madaniyatning shakllanishi va rivojlanishi uchun sharoit yaratishi kerakligi haqida uzoq vaqt va ko'p aytilgan, ehtimol maktabda tasviriy san'at (chizmachilik emas) shakllanishidan boshlab. Maktabda tasviriy san'at o'qituvchisi bo'lib ishlagan so'nggi yillarda meni dastlab savollar bilan band qildim: tasviriy san'at darslarini qanday qilib yanada hissiy, esda qolarli qilish kerak? Bolaning yangi, hayajonli, ichki impulslar va istaklar bilan uyg'unligini kutib, haqiqiy, haqiqiy san'at bilan uchrashuvga borishi uchun nima qilish kerak? Qanday qilib san'at darslari ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otadi, qiziqish uyg'otadi, o'z "men" ni ifoda etish istagini uyg'otadi?

B. M. Nemenskiy dasturining har bir darsi vizual diapazonga qurilganligi sababli, kompyuter va proyektor imkoniyatlaridan foydalanish bolalar uchun sinfning yopiq maydonini ochish va san'at olamiga sho'ng'ish imkonini beradi; ba'zan bolalar uchun mavjud bo'lmagan materiallar mavjudligini talab qilmasdan, rassom, dizayner va me'mor rolini o'ynash imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, kompyuter o'qituvchining o'rmini bosmasligini, faqat uni to'ldirishini yodda tutish kerak.

Turli illyustrativ materiallar, multimedia va interfaol modellar o'quv jarayonini butunlay yangi bosqichga ko'taradi. Psixologik omilni ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi: zamonaviy bola uchun eskirgan jadvallar va jadvallar yordamida ma'lumotni ushbu shaklda qabul qilish ancha qiziqroq. Darsda kompyuterdan foydalanganda ma'lumot statik jim rasm sifatida emas, balki dinamik video va ovoz ketma-ketligi sifatida taqdim etiladi, bu materialni o'rganish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup><https://www.prodlenka.org/metodicheskie-razrabotki/42656-ispolzovanie-ikt-na-urokah-izo>

## AMALIY MASHG'ULOTLAR ISHLANMALARI:

### **1-Mavzu: Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi dasturini o'rganish va rejalashtirish.**

Butun o'quv yiliga mo'ljallangan tasviriy san'at dasturiga mavzuli tasvirii jadval tuzish. O'quv yilining har bir choragiga dars mavzularini metodik jihatdan to'g'ri taqsimot qilishni o'rganish. - Dasturni o'rganib chiqish va rejalashtirish. Mavzularga oid ko'rsatmalar tayyorlash.

Metodik ko'rsatma. 1. Mashg'ulot mavzularini taqvimiy tasvirii rejalashtirilishi. Namunaviy dastur asosida tasviriy san'at darslarini rejalashtirish - eng murakkab ishlardan hisoblanib, u mavzularni tasvirii rejalashtirish dasturi deb nomlanadi.

Ta'lim-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish oldidan dasturni chuqur o'rganib chiqish zarur. Dastur asosiy bajariladigan topshiriqlarni va mashqlarni ro'yxatini beradi, ta'limni o'qitish mazmunini, yil davomidagi tartib va ketma-ketligini har bir topshiriqlarga ajratilgan soat hajmini va bajarish materiallarini ko'rsatadi. Sinfda har bir o'quvchi o'zlashtirish lozim bo'lgan bilim va malakalarni, o'quv choraklari va haftalarga taqsimlanishi kerak.

Dastur ta'limni o'quv vazifalarining murakkablashuvini metodik ketmaketlikda ochib bersa ham, ammo o'qitishning birmuncha xususiy savollariga (muammolariga) taalluqli emas. Ma'lumki, pedagogik jarayon - ijodiy dars san'ati. Shuning uchun ham dastur ma'lum bir yo'nalishga umumiy harakatdir. Dasturda ta'limning asosiy yo'nalishi berilgan xolos, uni amalga oshirilishi, birmuncha xususiy

savollarning javobini yechilishi - o'quv jarayonini tashkil qiluvchi o'qituvchining o'ziga bog'liq.

Ayrim bo'lg'usi o'qituvchi so'rashi mumkin, bajarishga imkoniyat bo'lmaydigan tavsiyanomalar berilgan bo'lsa dasturni qanday qilib bajarish mumkin. Masalan, tasviriy san'at asarlari haqida suhbat o'tkazish darslarida ma'lum asarlar reproduksiyalari tavsiya qilinadi, lekin ularni har doim ham kitob do'konlaridan xarid qila olmay-siz. Yoki qalamtasvir bo'limida natyurmort ma'lum bir narsalardan tuzilgan bo'lishi mumkin, lekin qishloq joy-larda ular bo'lmasligi mumkin.

O'quv dasturlari aynan asliga muvofiq to'g'ridan - to'g'ri bajarilishini talab qilmayapti. U faqat qanday ras-somlar bilan o'quvchilarni tanishtirish va qaysi asarlari musavvirlarni ijodiy tomonlarini yaqqolliroq ko'rsatib berayapti. Yetarlicha tushunarli, agarda o'qituvchi fondida ko'rsatilgan u yoki bu musavvirni asar reproduksiyasi bo-imasa, unda u boshqa rassom asarlari bilan almashtirilishi mumkin. Natyurmortga kerakli bo'lgan buyumlar ham yo'q bo'lsa, narsalarning shaklini murakkablik darajasi-ni hisobga olgan holda shakli shunga o'xshash buyumlar bilan o'zgartirish mumkin. Maktabda shaxsiy ish rejasini tuzishda o'qituvchi har bir sinf uchun yillik ish rejasini ishlab chiqishi zarur. Bunday yillik ish rejasini yaxsh-isi tasvirli bajarish maqsadga muvofiqdir. Ular ishlarni barcha kompleksini yaqqol tasvirlaydi. Maktabda chorakni so'nggi darslarini suhbat yoki narsani o'ziga qarab rasm ishlash bilan tugallaydi. Bunday tuzilgan rejalashtirishni muvaffaqiyatli deb hisoblab bo'lmaydi. Agarda rejalashtir-ishda chorakni so'nggi darsida mavzu asosida yoki bezakli rasm ishlash belgilangan bo'lsa, bolalarga shu ishni ta'til

vaqtida bayram bilan bog'lab davom ettirish imkoniyatini yaratib bergan bo'lamiz.

Mavzularni - tasvirli rejalashtirish dasturi, yutuq va kamchiliklarni yaqqol ko'rsatib turadi. Bundan tashqari, tasvirli rejada o'quv qo'yilmalarni (postanovkalarni) xarakterlarini va ularni metodik yo'nalishlarini aks ettirish yengil bo'ladi. Eng qulay yillik ish rejasi uni jadval tarzida tuzish, chunki uning kataklarida o'quv materiallari chorak bo'yicha va alohida darslar bo'yicha taqsimlanadi. Har bir katakda o'quv ishlarni turlari, darsning mavzusi va mazmuni yaqqol ko'rgazmali tasvirlanadi. Tasvirli - mavzuli reja dasturi o'ziga xos jadval sifatida to'rtta qatordan iborat (o'quv chorakning soniga qarab) bo'lib, ularni har bir chorakdagi o'tkaziladigan darslarning soniga qarab yana bir necha qatorlarga bo'linadi. Bu qatorlar esa o'z navbatida kataklarga bo'linadi Bular mavzular asosida tasvirlar bilan to'ldiriladi.

### *1-jadval*

Chorak yoki semestr	darslar	dars turlari	darsning mavzusi	darsning maqsadi	Qo'llanish materiallari	soat jami
I chorak	1-2	mavzu asosida rasm ishlash	«Kuz»	Kuz manzarasini kompozitsiyasini tuzish, tabiatni sevish	qalam, akvarel, guash	2 soat

Demak, birinchi qator sarlavhasida chorak belgisi, tartib raqami, dars soni, dars turlarining nomi, darsning mavzusi, maqsadlari va vazifalari, berilgan mavzu qanday materiallarda bajarilishi va unga necha soat ajratilgani ko'rsatiladi. Ushbu jadval to'rtta qatordan iborat bo'ladi,

lekin kataklari har bir choraqda bir xil emas, albatta, o'quv chorakni haftasiga bog'liqdir.

Masalan, 1-chorak 1.09 boshlanadi 4.11 tugallanadi

- 8-9 hafta 2-chorak 10.11 - 30.12

- 7-8 hafta 3- chorak 12.01 - 23.03

- 10-11 hafta 4- chorak 1.04 - 25.05 - 7-8 hafta

Shunday qilib, maktabda darsning soni jihatidan eng katta va cho'zilgan chorak uchinchi chorakdir. Tasvirlangan kataklarda ham darslarning raqami va rangli belgilar orqali dars turlarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir, masalan,

*2-jadval*

1	2-3	4	5	6-7	8
1	2	3	4	5	6

1. Qizil rang - mavzu asosida kompozitsiya; 2. Yashil rang - bezakli rasm ishlash; 3. Sariq rang - narsaning o'ziga qarab rasm ishlash; 4. Havo ko'k - haykaltaroshlik; 5. Jigarang - suhbat (idrok). Vazifani bajarishda o'quv rejasi-ni tuzish bilan bir vaqtda didaktik va metodik materiallar yig'ib boriladi. Bunga esa metodik va maxsus adabiyotlar, ulardan sitata shaklida ko'chirmalar, annotatsiyalar, bezakli materiallar, har xil metodik qurollar (chizmalar, jadvallar), halq ijodiy namunalari kiradi. Qanday shaklda mavzuli-tasvirli rejani bajarilishi talabalar bilan amaliy mashg'ulot o'tkazuvchi kafedra va uning o'qituvchilari hal qiladi. Amaliy mashg'ulotlar vaqtida o'qituvchi bilan birgalikda bir fikrga kelishilgandan so'ng talabalar tomonidan bajarilgan taxminiy varianti tasdiqlanadi va tamomila belgilagan qog'oz formatida bajariladi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> S.F.ABDIRASILOV "TASVIRIY SAN'AT O'QITISH METODIKASI (O'zbekiston Respublicasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan

## **2-Mavzu: Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi mashg'ulot turlariga dars bayonini va ishlanmasini tayyorlash.**

Dars mashg'ulot ishlanmasini tuzilishi Tasviriy san'atdan dars mashg'ulot ishlanmalari psixologikpedagogik, ilmiy-metodik o'quv adabiyotlarni chuqur o'rganish asosida va shu bilan birga o'rta maktabning tasviriy san'at dasturlari doirasida va o'quv qo'llanmalari orqali bajariladi.

Dars mashg'ulot ishlanmasida quyidagilar bo'lishi shart: - darsning turi; - darsning mavzusi; - darsning tipi; - darsning ta'limiy-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari; - darsning tuzilishi (qurilishi); - og'zaki takrorlash uchun savollar; - o'quv materialini ketmaketlik bayoni va uning hajmi; - darsning tushuntirish va mustahkamlashga ajratilgan vaqti; - ijodiy xarakterdagi mashqlarni sifati va bosqichlari; - mustaqil ishlarni mazmuni va bajarish usullari; - texnika vositasi va o'quv ko'rgazmali qurollardan foydalanishi.

Konspekt matnini so'ngida darsga tayyorgarlik ko'rishda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ko'rsatiladi (kitobning muallifi, nomi, nashr etilgan yili, nashriyoti va hajmi).

Dars mashg'ulot ishlanmasi illyustratsiyali bo'lishi mumkin. Unda sinf taxtasidan, sxemalardan, bosqichma-bosqich bajarilgan tasvirlardan, o'quv-buyumlar namunalardan, o'quvchilarni ijodiy ishlaridan va boshqalardan foydalanish nazarda tutiladi.

Dars mashg'ulot ishlanmasini yozishda iloji boricha qog'oz varog'ini o'ng tomonida ko'proq joy qoldirish

---

«5141600 - Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish» bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan); TOSHKENT-2012, 146-149-betlar.

maqsadga muvofiqdir. Chunki dars muhokamasi vaqtida bildirilgan mulohazalar va takliflar bilan to'ldirishlar kiritish mumkin.

Dars mashg'ulot ishlanmasi tushunarli yozuv bilan yoziladi yoki yozuv mashinkasida bajariladi. Muqova va titul varaqasi kafedra tomonidan tasdiqlangan sxema bo'yicha jihozlanadi.

Har bir talaba o'z mutaxassisligi bo'yicha har bir darsni yuqori darajada o'gishi uchun dars rejasi va uning ishlanmasini yozishi shart. Shuning uchun talabalarga yordam (eslatma) tariqasida darsning mashg'ulot ishlanmasi namunasini keltiramiz.

1. Dars (mashg'ulot)ning turi:.....

Masalan, a) Borliqni idrok etish va san'atni idrok h; b) Naturaga qarab tasvirlash; naturadan rasm ishlash naturadan haykal ishlash; d) Kompozitsiya: rangtasvir kompozitsiyasi, dekorativ kompozitsiya va haykaltaroshlik kompozitsiyasi.

2. Darsning mavzusi:.....

3. Darsning maqsadi:.....

Masalan, a) o'quvchilarga..... haqida (umumiy, to'liq, qisman) ma'lumot berish;

b) berilgan bilimlar asosida o'quvchilarda badiiy estetik dunyoqarashni shakllantirish;

d) o'quvchilarda turli ko'nikma va malakalami hosil qilish;

e) yoshlami har tomonlama rivojlantirish, ayniqsa, mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish;

f) o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirish, ularning estetik hislarini rivojlantirish;

g) yosh avlodni kelgusida kasb tanlashga to'g'ri yo'llash va hokazo.

4. Dars olishning metodlari va usullari. Perspektiv metodlari:

a) og'zaki (bayon qilish, tushuntirish, ma'ruza, suhbat);

b) ko'rgazmali (illyustratsiya, namoyon qilish);

d) amaliy (tajribalar, mashqlar va h.k.). Mantiqiy (logik) metodlar:

a) induktiv - aniq faktlardan umumiylikka;

b) deduktiv - umumiy tushunchalardan faktlarga;

d) analitik - faktlar asosida mavzuni chuqur o'rganish va h.k.

5. *Gnostik (ilmiy bilish) metodlari:*

a) reproduktiv (gapirib berish, namunaga qarab mashq qilish, instruksiya bo'yicha laboratoriya ishlari).

b) qisman izlanish (evristik metod: evristik suhbat, disput va h.k.).

d) problemali o'qitish va hokazo. Ta'limni boshqarish metodlari:

a) o'qituvchi rahbarligidagi o'quv ishlari;

b) o'quvchilarning mustaqil ishlari (kitob bilan ishlash, ijodiy ishlar, laboratoriya ishlari va h.k.).

*O'qishga qiziqishlarini rag'batlantirish metodlari:*

a) bilishga doir o'yinlar;

b) ta'limiy munozaralar;

d) qiziqarli vaziyatlar yaratish, yangihklarni bilishga qiziqtirish va h.k.;

*Og'zaki tekshirish metodlari:*

a) individual so'rash;

b) frontal so'rash;

d) og'zaki sinov.

Ma'lumki, o'qitishning har bir metodi o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyatida sodir bo'ladigan

ko'pgina usullardan iborat bo'ladi. Yuqorida ko'rsatilgan dars berish metodlari va usullaridan qaysi birini dars berish davomida (darsning qaysi bosqichida yoki vaziyatda) ishlatilishi lozim deb belgilanganligi haqida shu yerda yoki darsning bosqichlari yozilgan joyida aniq ko'rsatilishi kerak.

Darsning jihozlanishi: O'qituvchi uchun:

a) naturasi yoki maketi;

b) bosqich rasmlari;

Ko'rish qatori: diapozitiv, slaydda, rassom asarlarini reproduksiyalari.

Adabiy qator: yozuvchilar she'rlaridan parchalar.....

Musiqqa qatori: qo'shiqlar, kuylar.....

O'quvchilar uchun: albom yoki format qog'ozi, qaln, o'chirg'ich, bo'yoqlar (akvarel, guash), suv idish, o'yqalamlar, latta va hokazolar.

Sinf taxtasidan foydalanish: o'ng tomonda - tasvir chizilgan plakatlar; o'rtasida - videoproektor ko'rsatish uchun ekran; chap tomonda - material bayon qilishda bo'ryordamida tushuntirish uchun bo'sh qoldiriladi.

Darsning tuzilishi:

1. Tashkiliy qism -1-2 daqiqa,
2. O'tgan mavzuni so'rash - 7 - 10 daqiqa,
3. Yangi mavzuni bayoni - 13 -15 daqiqa,
4. Mustaqil ishlar - 22 - 25 daqiqa,
5. Dars yakuni va uyga vazifa berish - 3 - 4 daqiqa.
7. Darsning borishi.
8. Tashkiliy qism - 1 -2 daqiqa.

Sinfga kirish, salomlashish, ma'lum intizomni vujudga kehirish, davomatni aniqlash va jumalga belgilash.

5. O'quvchilardan o'tgan mavzuni so'rash – 7 - 10 daqiqa.

Savol avval o'rta tashlanadi, keyin qo'lini ko'targan o'quvchilardan bittasini javob berishga sinf taxtasiga chiqariladi.

1 savol..... o'quvchi A. Siz javob beringchi.....

2 savol..... o'quvchi V. Siz aytingchi.....

3 savol..... va hokazo.

O'tgan mavzuni yaqunlash va yangi mavzuga bog'lash – 3 daqiqa.

a) o'tgan mavzuni yakunlash;

b) o'tilgan mavzuni yangi mavzuga bog'lash;

d) yangi darsning mavzusi: « ..... » doskaga yozib qo'yiladi va bu darsning maqsad va vazifalari bayon etiladi.

7. Yangi mavzu materialini o'quvchilarga bayon qilish – 12 -15 daqiqa.

- Diqqat qiling..... aytingchi?.... (1 - savol, 2 - savol, 3 - savol va hokazo.) .....turlicha javob.

- to'g'ri lekin.....

- nima uchun? - ha, endi e'tibor bering.....materialni tushuntirish davomida yangi terminlar doskaga yozib qo'yiladi, vaqti-vaqti bilan pauza qilinadi.

- barcha o'quvchilarning faolligini oshirish maqsadida muammoli vaziyat yaratiladi, ularning bilib olishlari zarur bo'lgan vazifa aytiladi,

- qani kim aytib beradi?.....

- turlicha javoblar.....

1. Savollarga javobni ma'lum maqsadga yo'naltirishga harakat qilinadi. Bu vazifani turlicha hal qilish mumkin. Ular orasida quyidagilar eng muhim ahamiyatga egadir:

Tushuntirilayotgan materialni sermazmun, yangiliklarga tayangan holda ifoda etish, amaliy hayot bilan bog'lash, o'quvchilarning bilim va tajribalariga e'tiboran munozarali masalalami obrazli hamda jonli ifodalash, ularni faol fikr yuritishga unday digan, izlanishga majbur etadigan vaziyatlar yaratish va hokazo. Shunday qilib, yangi material mazmunini oldindan, tayyorlangan konspekt tarzida ko'rgazmali qurollar bilan birgalikda bayon etiladi. Yangi mavzu o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun ilg'or nazariyalarga, oldindan belgilangan usul va metodlarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Yangi mavzu konspekti to'la yoki tezis tariqasida beriladi.

2. O'quvchilarning amaliy mashg'uloti – 22-25 daqiqa.

O'quvchilar ijodiy mustaqil ishlaydilar. O'qituvchi ashg'ulot mobaynida oralab yurib o'quvchilarga individual yondashadi. Agarda yangi mavzuni to'liq tushunmagan yoki e'tiborsiz tinglagan o'quvchilar bo'lsa, savollar o'rta tashlanadi.

O'quvchilarning javoblari qoniqarsiz bo'lsa, a'lochi o'quvchilar yordamga chaqiriladi. Shu bilan birgalikda yangi dars ham mustahkamlab boriladi. Darsni yakunlashga qadar o'quvchilarning ishlaridan bir nechtasi olib bir-biriga taqqoslanib, tahlil etiladi va baholanadi.

8. Uyga vazifa berish - 3 - 4 daqiqa.

a) kelgusi yangi darsga tegishli terminlarni adabiyotlardan topib o'qiysiz

b) mavzuda rasm chizasiz va h.k.

9. Foydalanilgan adabiyotlar: Masalan:

1. Azimova B. Z. "Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi". T. "O'qituvchi", 1984

2. Darsliklar.....

3. Ayrim nashrlar, ensiklopediya, maqola va hokozo. Albatta, tasviriy san'at darslarini slaydalar, rangli lavhalar, musiqa, ashula, ertak, afsona, rivoyat va halq naqllari bilan boyitiladi.

Natijada darsni mazmunli tashkil qilish imkoniyatlari yuzaga keladi. O'qituvchi nutqida chiroyli so'zlarni topib, qo'llay bilishi, o'rai kelganda milliy o'zbek halq maqollaridan foydalana bilishi shart.

Darsga bunday yondashish, o'quvchilarni halq amaliy san'ati an'analariga yaqinlashtiradi, kamolot sari yetaklaydi, o'quvchilarning shaxsiy fikrlashlarini takomillashtiradi.

O'qitish metodikasi - bu nima? Ilmmi yoki san'atmi? O'qitish metodikasini nazariyasi - ilmdir, uning ma'lum mazmunlari va tavsiyalarini samaradorligi ilmiy asoslanib isbotlangan. O'qitishning o'zi esa, o'quv-tarbiyaviy jarayonga ta'sir qilib o'ziga jalb qila olish - bu san'atdir.

Nazariy va amaliy tomonlarini farqini bilib, metodikaga bir tomonlama qarashlar bo'lishi mumkin emas. O'qitish san'ati, dars konspektidagi nazariy bilimlarni ta'lim amaliyotida ijodiy foydalanishni talab etadi. Shuning uchun dars konspektini tuzishda asosiy e'tiborni bayon qilish shakliga emas, balkim o'quv materialini mazmunini yoritilishiga qaratilishi lozimdir.

Tajribadan ma'lumki talabalar amaliy mashg'ulotlar, pedagogik amaliyot natijasida o'zlari xilma-xil yangi va o'zgacha, qiziqarli, original ishlash turlarini yaratadilar. Hozirgi kunda boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari maktabda pedagogik amaliyot mobaynida va tasviriy san'at o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlarda dars ishlanmalarini tuzishda yuqorida ko'rsatilgan ma'lum bir shakldan foydalanishga qaratilgan<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> S.F. ABDIRASILOV "TASVIRIY SAN'AT O'QITISH METODIKASI (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan

### **3-Mavzu: Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi mashg'ulot turlariga ko'rgazmali qurollar tayyorlash.**

Tasviriy san'at darslarida ko'rgazmali qurollardan foydalanish ko'rgazmali obrazlarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi, bu darsni yanada qulay va qiziqarli qilish bilan birga, o'quvchilarning dars mavzusini chuqurroq va to'g'ri idrok etishiga, o'quvchilarning dars mavzusini yanada chuqurroq va to'g'ri idrok etishiga imkon yaratadi. O'qituvchi ularga nimani yetkazishga harakat qilmoqda.

Ko'rgazmali qurollar to'g'ridan-to'g'ri kuzatish imkonini bo'lmagan faktlar, hodisalar o'rtasida bog'lanishni yaratishda yordam berishi mumkin va o'qituvchining so'zi kuzatishni rag'batlantiradi va bolalarni kuzatuvlarni tushunish va sharhlashga yo'naltiradi.

O'rganilayotgan materialni umumlashtirish, takrorlashda faktlar, hodisalar yoki ularning aloqalari haqidagi bilim manbai o'qituvchining so'zi bo'lib, ko'rinish og'zaki xabarni tasdiqlash, tasvirlash, konkretlashtirish funksiyasini bajaradi yoki ma'lumotni o'z ichiga olgan xabarning boshlang'ich nuqtasidir. Bevosita idrok etish mumkin bo'lmagan hodisalar va aloqalar haqida. Ko'rgazmali qurollar o'quvchilarning mustaqil ishlari uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bunda o'qituvchi faqat vazifani belgilaydi va o'quvchilarning faoliyatini boshqaradi.

Shunday qilib, vizualizatsiya darsning barcha bosqichlarida qo'llaniladi: yangi materialni o'rganish, bilimlarni mustahkamlash, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, uy vazifasini bajarish va o'quv materialining o'zlashtirilishini tekshirish.

---

«5141600 - Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish» bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan), TOSHKENT-2012, 149-153-betlar.

Tasviriy san'at o'qituvchilari uchun yagona ko'rgazmali qurollar bazasining yo'qligi o'qituvchi tomonidan tasviriy san'at darslarida namoyish qilish uchun reprodukt-siyalar, fotosuratlar, qo'g'irchoqlar, dinamik vositalarni mustaqil izlash va tanlashga yordam beradi.

Ko'rgazmali qurollar o'quv qurollarining maxsus gu-ruhi bo'lib, tasviriy san'atning tasviriy xususiyatiga ko'ra unda keng qo'llaniladi. Ko'rgazmali qurollar quyidagilarga bo'linadi: hajmli (modellar, kolleksiyalar va boshqalar), bosma vositalar (rasmlar, plakatlar, portretlar, jadvallar va boshqalar), proyeksiya materiallari (filmlar, videofilm-lar, slaydlar va boshqalar). Zamonaviy ko'rgazmali qurollar o'quv funksiyalariga ega multimediali ensiklopediyalar, in-terfaol o'quv qo'llanmalar, elektron darsliklar hisoblanadi.

Nikonorova N. P. ning tasnifida san'at darslari uchun ko'rgazmali qurollar tabiiy va tasviriydir. Tasviriy ko'r-gazmali qurollar san'at asarlarining asl nusxalari va re-produksiyalari (nusxalari, reproduksiyalari, fotosuratlari), shuningdek, didaktik xarakterdagi bolalar rasmlari va tas-virlarini o'z ichiga oladi. Tabiiy ko'rgazmali qurollar, bu holda, shuningdek, sun'iy buyumlarni o'z ichiga oladi: to'ldirilgan qushlar va hayvonlar, qo'g'irchoqlar, hasharot-lar preparatlari, gerbariylar va boshqalar. N. P. Nikonor-ova tabiiy fondning ta'rifi bilan tanishtiradi: "Tabiiy fond – fanni o'qitish uchun mo'ljallangan tabiiy ko'rgazmali quroldir". Tabiiy fondga real obyektlar va modellar kiradi:

uy-ro'zg'or buyumlari (idishlar, o'yinchoqlar, qo'l san'atlari, asboblar, mebel va ularning maketlari va bosh-qalar);

Drperies va boshqa to'qimachilik (sochiq va bosh-qalar);

To'ldirilgan qushlar va hayvonlar, qo'g'irchoqlar, ha-sharotlar preparatlari, gerbariyalar va boshqalar;

Odamning boshi va qiyofasi ko'rinishini, ularning qismlarini aks ettiruvchi modellar; arxitektura detallari, haykaltaroshlik asarlari, buyumlar, geometrik jismlar va boshqalar;

O'quv qurollarining o'ziga xos turi sifatida tabiiy fondga qo'yiladigan talablar:

Kursning o'quv rejasiga muvofiqligi (masalan, uy-ro'zg'or buyumlari fondining ko'zalari nafaqat turli shakllarda, o'lchamlarda, balki ranglarda ham bo'lishi kerak, chunki dastur "shakl" o'quv muammosi bilan bir qatorda bir qator didaktiklarni ham o'z ichiga oladi. "rang" ta'lim muammosining vazifalari);

Fanning butun kursi davomida osondan qiyinga, oddi-ydan murakkabgacha ta'lim tizimini ta'minlash (masalan, tabiiy fondning sabzavot va mevalarining qo'g'irchoqlari ham oddiy, ham murakkab, ham murakkab ranglar va boshqalar bo'lishi kerak);

Badiiy did va atrofdagi voqelikka estetik munosabatni shakllantirishda ishtirok etish (masalan, parda va fondning boshqa obyektlari rangi, tuzilishi va boshqalar chiroyli bo'lishi, toza va burishmagan bo'lishi, o'quvchilarning didini ranjitmasligi, kitsch buyumlari). O'rta maktabda tabiiy fondan chiqariladi);

Shakli, rangi va dizayni bo'yicha aniq va ajralib tura-digan, obyektlarning o'lchami va nomenklaturasi bo'yicha har xil bo'lgan obyektlarning mavjudligi (tabiiy fondagi obyektlarning da'vo shakllari, teksturalari va ranglariga yo'l qo'yimaslik kerak).

Bosma vositalarga reproduksiyalar, o'quv jadvallari, diagrammalar, plakatlar, albomlar, chizmalar va boshqalar kiradi.

San'at darslarida kompyuter, noutbuk, multimedia proyektori kabi texnik o'quv qurollaridan foydalangan holda ko'rgazmali qurollarni (reproduksiyalar, kinofilmlar, taqdimotlar, fotosuratlar) namoyish etishni soddalashtirdi<sup>1</sup>.

#### **4-Mavzu: Pedagogik tasvirlar ishlash.**

Ko'rgazmali ta'lim didaktik prinsiplarning asosiy-iaridan biridir. Grafikali ko'rgazmali qurollar, asosan, matematika, adabiyot, tabiatshunoslik, tasviriy san'at darslarida ko'proq foydalaniladi. Bu esa badiiy asarlar reproduksiyalari, fotorasmlar, diafilmlar, diapozitivlar, kitob illyustratsiyalari kabilardir. Shu bilan birgalikda shuni aytish lozimki, o'qituvchi o'z tajribasida sinf taxtasida rasm ishlash yo'llaridan juda ham kam foydalanadi. Aftidan yo o'qituvchilarda bo'r bilan sinf taxtasida rasm ishlash ko'nikmalari yo'q yoki ular pedagogik rasimga yetarli e'tibor qaratmaydilar.

Pedagogik tasvir - bu o'qituvchining sinf taxtasiga, maxsus planshetlarga va o'quvchi rasm daftarining burchak chetiga tasvirlangan rasmlardir. Ayrim holda grafik ko'rgazmali qurollar pedagogik rasmlarning o'rni- ni bosolmaydi. Bularni tushunadigan tajribali o'qituvchilar og'zaki tushuntirish vaqtida namoyish etilgan ko'rgazmali qurollar kerakli bo'lgan tasavvur ko'rinish- larini hosil qilmagandan so'ng pedagogik rasmlardan keng foydalanishadi. Pedagogik tasvirlar tayyor jadvallar, rasmlardan o'zining bir qator afzalliklari bilan farq qiladi. Bu

<sup>1</sup> <https://infourok.ru/metodika-primeneniya-naglyadnih-posobiy-na-urokah-izo-2204003.html>

afzallik shundan iboratki, o'qituvchi o'z hikoyasini tasvir orqali ko'rsatishda, o'quvchilarning ko'z o'ngida tasvirni paydo bo'lishi, uning to'ldirilishi va tugallanish ko'rinishlarini dinamik jarayoni(holati)ni yaqqol ko'rsatish imkoniga ega bo'ladi.

Tasvir mustaqil ravishda yoki illyustratsiyalarni to'ldiruvchi bo'lib, ularning bo'lak qismlarini izohlab borishi mumkin. Oddiy, aniq tasvirlar u yoki bu voqeani, narsalarni obrazli, ko'rgazmali qilib ko'rsatadi. Lekin ularni biron-bir maxsus hozirliksiz bajarish mumkin emas. Noto'g'ri, pala-partish rasmlar, narsalar to'g'risida yanglish tasavvurlar beradi va estetik didni shakllanish jarayoniga salbiy ta'sir etadi. Va aksincha, mazmunli va chiroyli bo'r bilan bajarilgan tasvirlar narsalar to'g'risida haqqoniy va aniq tasavvurlar hosil qilishga yordam beradi. Savodli pedagogik rasm grafikali fikriashni, kuzatuvchanlikni o'stiradi.

Pedagogik rasmini chizishga qiziqishi fanning o'ziga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi. Odatda, og'zaki tushuntirish jarayonida tasvirlar bajarilib borilsa, o'quvchilarning diqqat-e'tiborini tortishi mumkin. O'quvchilarni bir vaqtda eshitish va ko'rish qobiliyatlari orqali olayotgan taassurotlari, o'zgacha yangi materialni chuqur va mustahkam o'zlashtirishida aniq tasavvurlar bo'lishida yordam beradi. Pedagogik rasmlarni tasvirlashda eng muhimi aniq, sxemali tarzda, narsalarni o'ziga xos xarakterli shaklini, o'lchamlarini, hajmini, ayrim paytda iloji boricha ranglarini ham to'g'ri tasvirlashdir. Ularni har bir shtrixi va chiziqlari ma'noli ishni bajaradi. Ko'rgazmali qurollar bilan bir qatorda pedagogik rasmlarni ham tarbiyaviy imkoniyatlari juda kattadir.

Pedagogik rasmlarning xususiyatlari quyidagilarda o'z aksini topadi:

1. Pedagogik rasmlar o'quvchilarni rasm chizishga bo'lgan qiziqishlarini o'stiradi.

2. Darsga faol ishtirok etishga yordam beradi.

3. O'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarni o'z vaqtida tuzatishga (yordam beradi) yo'naltiradi.

4. Rasmni qanday qilib chizishga yo'nalish beradi.

5. Tasvirlash bosqichlarini namoyish qilib ko'rsatadi.



Pedagogik tasvirlarning turlari bir nechta. Darsni hikoya qilish va tushuntirishning mazmuni va maqsadlariga ko'ra quyidagi u yoki bu pedagogik tasvirlash turlari qo'llaniladi:

a) chiziqli tasvirlash;

b) shtrixli tasvirlash;

d) tonalik (tusli) tasvirlash.

Chiziqli tasvir - eng oddiy va keng tarqalgan turi. Bu yerda narsalar yaxlit tutash chiziqlar yordamida yorug'lik manbalarisiz va shakl hajmisiz tasvirlanadi. Chiziqli tasvir o'z navbatida tekisli (yassilik) va perspektivali bo'lishi mumkin. Tekisli rasmda narsani faqat uzunligi va eni beriladi. Masalan, barg shaklining rasmi, tog'lar va h.k. Perspektivali chiziqli tasvirda narsalar uchta o'lchamdan iboratligini ko'rsatadi - bo'yi, eni va balandligi. Bunday rasmlarni bajarish mashaqqatli, negaki, perspektiva yordamida tasvirlashning asosiy qonunlarini bilish kerak va sinf taxtasida bo'r bilan ishlash tajribasiga ega bo'lishi kerak. Perspektivada tasvirlangan rasmda narsalar to'g'risida to'liq tasavvur beradi.



*16-rasm. Chiziqli tasvir.*

Shtrixli tasvir – qisqa chiziq shtrixlarning kombinatsiyasini o‘z ichiga oladi, odatda, ular chizilgan narsalarni soya tomonlarida joylashadi. Narsalarning hajmini ko‘rsatishda tasvirdagi shtrixlar buyum shakllarining yo‘nalishlari yumaloq va tekislik bo‘yicha yuritiladi. Narsaning hajmi ko‘rsatilmaguncha shtrixlar bir necha marotaba yurgiziladi. Chiziqli tasvirlashga qaraganda shtrixli tasvir murakkabroq, shu sababli ham undan foydalanishdan oldin muvofiq (tegishli) mashqlar talab qiladi.

Narsani faqatgina siluet yoki konturini emas, balki uning hajmini ham ko'rsatish kerak bo'lgan holda shtrixli tasvirlashdan foydalaniladi.






**17-rasm. Shtrixli tasvir.**




**18-rasm. Natyurmont. Bo‘r bilan ishlash.**

Tonallik (tusli) tasvir - bajarilishi yanada murakkabroq. Bunday usuldan narsani yanada yaxlit va ko'rgazmali ko'rsatishda qo'llaniladi. Tusli tasvirning bajarilishi quyidagicha: sinf taxtasiga narsaning tashqi ko'rinish chiziqlari bilan tasvirlanadi, unga bo'r surtilgan latta bilan yupqa qatlam yurgiziladi; qorongi bo'lgan joylari o'chiriladi, yorug' joylari bo'r bilan yanada kuchaytiriladi; undan keyin chizilgan narsani xarakterli qismlari bo'rttirib chizib qo'yiladi. Tusli rasmlarda ayrim hollarda rangli bo'rlardan ham foydalaniladi.



*19-rasm. Tusli tasvir.*

O'qituvchiga ko'pincha biron-bir ko'rinishni paydo bo'lishini, harakatini, dinamikasini tushuntirishga to'g'ri keladi. Ularning shu holatini ko'rsatish va afzal tushunishga **multiplikatsiya** - rasmlar bera oladi (ro'y berayotgan voqeani ketma-ketligini tasvirlovchi rasmlar). Har bir rasm, o'quvchilarning ko'z oldida paydo bo'ladi va tavsiflanadi (izoh beriladi). Agarda, o'qituvchining sinf taxtasida bo'r bilan ishlash malakasi bo'shroq bo'lsa, u paytda oldindan qog'ozga 3-4 bosqichda bajarilgan rasmlarni tayyorlab olishi mumkin.



**20-rasm. Multiplikatsiya tasvir.**

Dars vaqtida ularni ketma-ket ko'rsatib tushuntirish olib boriladi. Mashg'ulotning asosiy maqsadi - o'quvchilarni tasviriy san'atdan pedagogik rasmlarning xususiyatlari va tasvirlanadigan narsalarni boshlang'ich bosqichlarining metodik nozik sirlari bilan tanishtirish. Pedagogik rasmlar namoyish etishda tasviriy san'atda ishlatiladigan materiallardan rangli bo'rlar, rangli suv bo'yoqlar, ko'mir tayoqchalar, sangina va boshqalardan keng foydalanmog'i zamr.

Pedagogik rasm chizish borasida quyidagi umumiy eslatmalarga e'tibor qilish shart:

1. Pedagogik rasmni hamma vaqtda o'qituvchi tasvirlash bilan birgalikda og'zaki tushuntirib borishi kerak.

2. Sinf taxtasiga va planshetga chizilgan rasm iloji boricha kattaroq va hajmli bo'lishi kerak. Agarda tasvir kichik bo'lsa, oxirida o'tirgan o'quvchilarga yaxshi ko'rinmasligi ham mumkin.

3. Namoyish qilish paytida har bir ishlash uslubiga qisqacha tushuntirish berib borish kerak.

4. O'quvchilarni qog'oz formatining chetiga chizilgan rasmni tushunarli tasvirlash usullarini ko'rsatish yoki o'rgatish maqsadida bo'lishi kerak.

Pedagogik rasmlar barcha tasviriy san'at dars turlarida qo'llaniladi. Chizmatasvir mashg'ulotlarida yangi darsni bayon qilishda qo'llansa, kompozitsiya ishlash darslarida ko'pincha o'quvchilarning mustaqil ishlarida qo'llaniladi. Maxsus tayyorlangan planshetlarda rasm chizish orqali professor o'qituvchi o'quvchilarga rangtasvirni qanday ishlash texnikasi to'g'risida tushunchalar bera turib, uni amaliy jihatdan ko'rsatadi.

Akvarel bo'yog'i bilan rasm ishlash borasida ikki xil ranglarni aralashtirib uchinchi rangni hosil qilishni ko'rsatadi. Fazodagi rang tuslarini o'zgarishlari to'g'risida, uni akvarel bo'yog'i bilan ishlash texnikasini tushuntirish kerak. Darsda o'quvchilarga "alia-prima", "grizayl", "lessirovka" kabi usullarni shu planshetdan foydalanib tushuntiriladi. Maxsus rangli qog'ozlarga guash, bo'r bilan rasm ishlashni turlicha texnikalarda ishlash usullarini tahlil qilib ko'rsatadi.

O'quvchilarning mustaqil ishlari jarayonida o'qituvchi tomonidan ayrimlariga individual yondashish lozim.

O'quvchilarning qog'oz formatining bir chetiga tasvirlash bosqichlarini, yuborilgan xatolarni tuzatish yo'llarini ko'rsatib, tushunchalar beradi. San'atshunoslik asoslari mashg'ulotlarida belgili tushunchalarni qonuniyatlarini ko'rsatish maqsadida pedagogik rasmdan foydalaniladi.

Masalan, simmetriya, perspektiva va boshqa rasm ishlashda ko'pincha naqshlarning kompozitsiya qonunlarini ko'rsatish uchun pedagogik rasmlardan foydalanishadi.

Pedagogik rasm - o'quvchilarga estetik tarbiya berishda, bilim asoslarini tasvirlash ko'nikmalarini o'stirishda

asosiy omildir. Shu bilan birga o'quvchilar olgan bilimlarining hisoboti uchun o'quv dasturlarida ko'rsatilgan dars mavzulari asosida ko'chirma tasvirlar chizilgan albom topshirishlari kerak. Bunday albomlarda quyidagi mavzudagi rasmlar bo'lishi mumkin.

1. Bir necha shakldagi daraxtlar ko'rinishi.
2. Uy va yovvoyi hayvonlarning tasvirlari.
3. Uy-ro'zg'or buyumlari.
4. Sport o'yinining jihozlari.
5. Transport vositalari.
6. Qurilish va qishloq xo'jaligida ishlatiladigan vositalar.
7. Ustalik va duradgorlik vositalar.
8. Inson bosh qismining turli holatdagi tasvirlari.
9. Inson gavdasi turli xil harakatlarining ko'rinishlari<sup>1</sup>.

### **5-Mavzu: Pedagogik tasvirlar uchun – flora va fauna rasmlari.**

**Flora** (yangi lot. flora, lot. Flora – gullar va bahor xudosi; lot. flos – urug', floris – gul) – o'simliklarning muayyan hududda tarixan tarkib topgan taksonlari majmui. Flora muayyan geografik joyga taalluqli bo'lib, uning hozirgi tabiiy sharoiti, o'tmishi bilan bog'liq va u yer yuzidagi boshqa Flora bilan ozmi ko'pmi munosabatda bo'ladi. Bu jihatdan Flora muayyan hududdagi o'simliklar jamoasidan (o'simliklar qoplamidan) farq qiladi. "Flora" tushunchasi ma'lum hududdagi barcha o'simliklar taksonlarini o'z

---

<sup>1</sup> Sharabayev Ulug'bek Muxamedovich "PEDAGOGIK TASVIRLAR ISHLASHNING AMALIY AHAMIYATI", EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Innovative Academy Research Support Center, Volume 1 Issue 8, November 2021 ISSN 2181-2020, Page 264-267. <https://zenodo.org/record/5730096#.Y9KjnzBzIU>

ichiga oladi. Tuban va boshqa yuksak o'simlik turlari majmui, odatda, ma'lum sistematik birliklar bilan belgilanadi (mas, "sporali o'simliklar Florasi", "suvo'tlar Florasi" va boshqalar).

Florasi o'rganilayotgan material hajmi ma'lum darajada ixtiyoriy bo'lib, tanlangan joyga bog'liq (mas, O'zbekiston Florasi, Kavkaz Florasi, Zarafshon Florasi va h.k.). Har bir Florani bilish uning tur, turkum oila va boshqalarni aniqlashga, ya'ni Flora inventarizatsiyasiga asoslangan. Inventarizatsiyaning barcha turlari ma'lum belgilariga ko'ra Flora elementlariga ajratiladi. Jumladan, geografik elementlar o'zining geografik tarqalishiga ko'ra o'xshash, genetik elementlar esa geofafik kelib chiqishi va joylashish tarixiga ko'ra yaqin turlarni birlashtiradi. Flora yoshini tahlil qilish uning progressiv (kelib chiqish, joylashish vaqtiga binoan yoshi), konservativ va relik elementlarni aniqlashga imkon beradi. Har qaysi Floraning muhim belgisi uning sistematik strukturasi, ya'ni va tarkibida turli sistematik guruhdarning birlashishidan iborat.

Biror hududdagi o'simliklar sistematik tarkibini yorituvchi yirik asarlar ham, odatda, "Flora" deb nomlanadi. Ko'pincha Floraga mazkur xududda keng tarqalgan madaniy o'simliklar ham kiritiladi, lekin botanika bog'lari, oranjereyalarda o'stiriladigan o'simliklar kiritilmaydi. O'simliklar tushunchasi o'rniga Flora tushunchasining ishlatilishi noto'g'ri<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup><https://uz.wikipedia.org/wiki/Flora>



**21-rasm. Chiziqli flora tasvir.**



**22-rasm. Shtrixli flora tasvir.**




*23-rasm.* Tusli flora tasvir.




**Fauna** (lot. fauna – oʻrmon va dalalar xudosi, rim mifologiyasida hayvonlar podasi qomiysi) – muayyan hududda yoki akvatoriyada yashovchi xayvon turlari majmui. Fauna hayvonlarning turli guruhidan tashkil topgan boʻlib, biror xudud faunistik kompleksining tarixiy rivojlanishi jarayonida vujudga keladi. Tundra, tayga, oʻrmon, dasht, yarim choʻl, choʻl, pantropik va boshqa faunistik komplekslar bor. Muayyan Faunani tashkil etgan faunistik komplekslar miqdori turlicha boʻlishi mumkin. Har bir hududning oʻz avtohtonlari va immigrantlari bor. Fauna tarkibini oʻrganish natijasida undagi turlar boyligi aniqlanadi. Shunga koʻra, butun Yer shari yoki uning ayrim hududlari faunistik rnashtiriladi. Fanda Fauna turli sistematik kategoriyalardagi (mas, biror hududdagi qushlar Faunasi, qoʻngʻizlar Faunasi va h.k.), maʼlum davrga oid (mas, miotsen davri Faunasi va boshqalar) yoki maʼlum geologik qatlamga mansub hayvonlarni ifodalash uchun “Fauna” terminidan foydalaniladi. Hayvonot dunyosining sistematik tarkibi toʻgʻrisidagi yirik asarlar ham “Fauna” deb ataladi (Oʻzbekiston Faunasi va boshqalar<sup>1</sup>).

<sup>1</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Fauna>



**24-rasm. Fauna tasvir.**





### **6-Mavzu: Tasviriy san'at asarlarini badiiy tahlil qilish.**

Zamonaviy madaniyatning haqiqatlari ham o'zgardi. So'nggi paytlarda san'at asaridan kam bo'lmagan yashash muhiti san'atning mavjudligiga aylandi. San'at bilan aloqa ixtisoslashgan muassasalardan kundalik hayot sohasiga o'tadi. Qarama-qarshi jarayon ham bor – san'atning hayotga kiritilishi. Natijada “badiiy madaniyat” tushunchasi kengayib bormoqda, u nafaqat yuqori madaniyat hodisalarini, balki kundalik madaniyat faktlarini ham o'z ichiga oladi, ular yordamida ommaviy madaniyat muammolari, uning jamiyat hayotidagi o'rni va roli chambarchas bog'langan.

Shu nuqtai nazardan, o'qituvchi eksklyuziv baholovchi hokimiyat va san'at haqidagi asosiy ma'lumot manbasini yo'qotadi. Ammo shu bilan birga, u talabalar rivojlanishi va faoliyati uchun asosiy ko'rsatmalarni ko'rsatib, navigator maqomini oladi.

D. S. Lixachyov shunday yozgan edi: "San'at inson hayotini yoritadi va shu bilan birga muqaddas qiladi. Ammo san'at asarlarini tushunish oson emas. Buni o'rganish kerak - uzoq vaqt o'qish, butun umr ... Har doim san'at asarlarini tushunish uchun siz ijodkorlik shartlarini, ijodkorlik maqsadlarini, rassomning shaxsiyati va davr. Tomoshabin, tinglovchi, o'quvchi bilim, ma'lumot bilan qurollangan bo'lishi kerak ... Va men, ayniqsa, tafsilotlarning muhimligini ta'kidlamoqchiman. Ba'zida kichik narsa bizga asosiy narsaga kirishga imkon beradi. Nima uchun u yoki bu narsa bo'yalganini yoki bo'yalganini bilish qanchalik muhim!"

Shuning uchun, badiiy asarni tahlil qilganda, faqat badiiy obyekt haqidagi o'z tasavvurini insho bilan taqdim etish mumkin emas. Shu nuqtai nazardan, MHCni o'qitishda san'atshunoslikni tahlil qilish usullaridan foydalanish dolzarb bo'lib qoladi. MHC darklarida qo'llaniladigan san'atshunoslik tahlilining asosiy turlari qiyosiy-tarixiy, rasmiy ikonografik, tizimli bo'lishi mumkin.

1. Qiyosiy tarixiy tahlil. Bu eng samarali tahlil turlaridan biri. Bu, bir tomondan, taqqoslashga asoslangan - obyektlarning o'xshashliklari va farqlarini aniqlashning eng oddiy kognitiv operatsiyasi, ikkinchidan, tarixizm tamoyillariga asoslanadi, unga ko'ra, haqiqat vaqtning doimiy o'zgarishi nuqtai nazaridan qaraladi. Taqqoslash natijasida vujudga keladigan munosabatlarning eng oddiy turi - identifikatsiya (tenglik) va tafovutlar munosabati har qanday kuzatiladigan va tasavvur qilinadigan narsalarga nisbatan qo'llaniladi. Natijada, taqqoslashning o'zi bizga dunyoni izchil xilma-xillik sifatida ko'rsatish imkonini beradi. Bu asosiy operatsiya va uni qo'llashdan kelib

chiqadigan xulosalar umuman badiiy madaniyatni tushunish uchun juda muhimdir.

Har qanday madaniyat hodisasida uning o'ziga xosligini ham, xususiyatlarini ham, umuman madaniyat bilan hamjamiyatni ko'rish kerak. Taqqoslash - bu dinamik harakat. Bu dastlab qandaydir muxolifatni nazarda tutadi.

Madaniyatingizni tushunish uchun, unga xuddi tashqi tomondan qarash kerak. Taqqoslash, tavsifdan farqli o'laroq, ijodiy mahsuldor bo'lgan ikkita obyektning qarama-qarshiligini nazarda tutadi. Talabalarga taqqoslash uchun taklif qilingan asarlar vaqt, uslub, badiiy tilning ifodali vositalari qanchalik uzoq bo'lsa, solishtirish osonroq bo'ladi va natijalari shunchalik original va kutilmagan bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, hech bo'lmaganda bitta parametrda asarlar umumiy bo'lishi kerak - bu janrning umumiyliigi (portret, landshaft, natyurmort), shakllar tipologiyasi (qadimgi Misr va Mesoamerikalik piramida), umumiy maqsad va vazifa bo'lishi mumkin. (turli madaniyatlardagi ma'bad, yodgorlik qabr toshi), syujet, ikonografik konstantalar, format (vertikal, gorizontal, rondo) va boshqalar.

Potensial farq, ayniqsa, o'quvchilarni MHK muammolari bilan tanishtirishning birinchi bosqichlarida, ular fanning o'ziga xos muammolari to'g'risida hali xabar-dor bo'lmaganda, sezilarli bo'ladi. O'quvchilarning uslub-i o'xshash narsalarni solishtirish tajribasi etarli emas. Shunday qilib, Kramskoy va Perov portretlarini solishtirish samarali bo'lishi dargumon. Talabalarga noma'lum odamlarning portretlarini suratga olish va tahlil oxirida ularni taqdiri bilan tanishtirish yanada samaraliroq bo'ladi, shu bilan o'quvchilarning tahlil sifati va odamni hukm

qilish qobiliyati to'g'risida qo'shimcha fikr yuritishi uchun sharoit yaratiladi. Boshqa belgi tizimining ramziy maydoni.

Taqqoslangan tarixiy tahlil usullaridan o'quvchilarning san'at asari, davri, uslubi haqidagi hissiy qiyofasini yaratish va tuzatish uchun ham foydalanish mumkin. Shunday qilib, Novgorod va Vladimir-Suzdal knyazliklarining ma'bad arxitekturasini taqqoslash bizga farqlar, xususiyatlar, umumiylik xususiyatlarini ajratib ko'rsatish va natijada bir va boshqa arxitektura obrazini yaratish imkonini beradi.

- boladagi ma'lum bir hissiy kod. Qiyosiy tarixiy uslubning asosiy shakllari:

- qiyosiy tahlil;
- tarixiy-tipologik va tarixiy-genetik taqqoslash;
- o'zaro ta'sirga asoslangan o'xshashliklarni aniqlash.

Qiyosiy tahlil bir xil bo'lmagan obyektlarni taqqoslashni o'z ichiga oladi. Bu xaritalash bo'lishi mumkin:

- yirik madaniy hududlar (Sharq-G'arb);
- madaniy hududlar (Rossiya - G'arbiy Yevropa);
- stadionli heterojen madaniyatlar (an'anaviy halq madaniyati va "butparastlik-nasroniylik" tipidagi jahon dinlari madaniyati);
- uslublar (Uyg'onish-barokko, barokko-klassitsizm va boshqalar);

- san'atning har xil turlari va ularning ekspressiv imkoniyatlari. Taqqoslashning bu turi katta, asosiy muammolarni aniqlashdir. Tarixiy va tipologik taqqoslash kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lmagan hodisalar jamoasini aniqlashga qaratilgan. Masalan, Qadimgi Misr, Mesopotamiya va Markaziy Amerika madaniyatlari genetik jihatdan bog'liq emas va ularning o'xshashligi Qadimgi dunyo sivilizatsiyasiga tipologik mansubligi bilan belgilanadi. Tarixiy-tipologik taqqoslashda bir-birini to'ldiruvchi

ikkita jarayon muhim: farqlarni aniqlashga qaratilgan tahlil va jamiyatni amalga oshirishga qaratilgan sintez. Qadimgi dunyo madaniyatining umumiy xususiyatlari:

- ularning sehrli xarakteri;
- ierarxiya, kanonizm va an'anaviylik;
- mifologiyada terriomorfik va zoomorfik shakllarning tarqalishi;
- jamoaning shaxs ustidan hukmronligi.

Arxitekturada tabiiy shakllar qayta ishlab chiqariladi va tasvirlash tamoyillari ustunlik qiladi (piramida - tog', ustun - daraxt, muqaddas joy - g'or, saroy - g'or labirintlari).

Dunyo tog'ining qiyofasi - olamning umumiy asosiy modeli (ziggurat, piramida, stupa), Dunyo daraxti arxetipi esa fazoning ramziy tashkil etilishining asosidir.

Tarixiy va genetik taqqoslash umumiy kelib chiqishi bilan bog'liq o'xshashliklarni aniqlashga qaratilgan. Ta'lim faoliyatida bu usul rus madaniyatining badiiy asoslarini o'z tarixining ikkita burilish nuqtasida tubdan o'zgarishi bilan bog'liq.

Xristianlikning qabul qilinishi Vizantiya qonunlariga o'tishga olib keldi va Butrus islohoti bir necha bosqichlardan o'tdi va yangi davr G'arbiy Yevropa san'atining rasmiy tilini allaqachon o'rnatilgan tizimli tizim sifatida qabul qilishga olib keldi. Haqiqat Qadimgi rus arxitekturasini O'rta asr Armaniston, Gruziya, Bolgariya genetik jihatdan yaqin me'moriy maktablari bilan solishtirish qiziqarli xulosalarga va estetik idrokning boyishiga olib kelishi mumkin. Ularning dastlabki misoli-Vizantiyada yaratilgan ma'badning gumbazli turi. Xochli gumbazli ibodatxonalar ichki devorlarning gumbazini qo'llab-quvvatlash uchun Eronda ishlatilgan texnikadan foydalangan holda shakllangan.

G'arbiy Osiyo me'morlariga tanish bo'lgan binoning volumetrik-fazoviy qurilish printsipti birinchi xristian cherkovlari binolarining kompozitsion sxemasini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

1017-1037-yillarda hikmatli Yaroslav davrida Kievda Avliyo Sofiya sobori qurilgan. Vizantiyada bu tuzilishga to'g'ridan-to'g'ri o'xshashliklar yo'q edi, garchi soborning yadrosi o'zaro gumbazli sxema bo'yicha shakllangan bo'lsa.

Uslubiy nuqtai nazardan, qadimgi rus me'morchiligini boshqa milliy namunalar bilan taqqoslash, uning o'ziga xosligini tushunishni keskinlashtiradi, bu esa viloyat maktablari - Vladimir -Suzdal, Novgorod va boshqalarni an'anaviy o'qitish bilan sodir bo'lmaydi. Maktab xususiyatlari o'quvchilarga eski rus me'morchiligining monotonligi haqida taassurot qoldiradi. Milliy badiiy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari, uning o'ziga xos badiiy yutuqlari muammolari maktab o'quvchilarida qiziqishni kuchaytirdi. Bundan farqli o'laroq, ularga "aslida ota-bobolarimiz nimani yaratgan?" Degan savolga javobning mohiyatini etkazish osonroq. Madaniyatdagi o'zaro ta'sir - tashqi qarzlarni assimilyatsiya qilishning organik mohiyatini, talqinning o'ziga xosligini ochishga qaratilgan qiyosiy tahlilning yana bir turi. Bu masalalarni muhokama qilganda, eng samarali Yu Yu Lotmanning kontseptsiyasi bo'lib, u o'z madaniyati rivojlangan halqi xorijiy madaniyatlar bilan kesishishdan o'ziga xosligini yo'qotmaydi, aksincha, o'ziga xosligini yanada boyitadi. Originallikka boshqalarning bilishi bilan emas, balki o'z boyligining boyligi bilan erishiladi. Keyin begona odam begona bo'lishni to'xtatadi.

### **Rasmiy tahlil.**

Tasviriy san'atning har xil turlari tilining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda birinchi qadam san'atshunoslik maktabi deb ataldi. Uning yutuqlari MHC o'qitish uchun juda muhimdir. Birinchidan, rasmiy maktabning asosiy qoidalariga asoslangan tahlil - badiiy asarda kodlangan muallifning niyati va davrning aniq vazifalarini tushunishning birinchi qadami. Ikkinchidan, rasmiy tahlil kategoriyalari yordamida tasviriy san'atning metaforik tilini tushunish, shuningdek, talabalarning o'z-o'zidan reaksiyalari va baholarini tekshirish mumkin bo'ladi.

Arxitektura, haykaltaroshlik va rassomlik asarlarini rasmiy tahlil qilish tizimiga material, format, o'lcham, nisbatlar, to'qimalar, yorug'lik, rang, ritmik va kompozitsion tashkil etish, qurilish, tashqi muhit bilan o'zaro ta'sir, ichki va tashqi nisbati kabi parametrlar kiradi. tuzilish va makon, idrok va yashashning vaqtinchalik tayanch nuqtalari.

Rasmiy tahlilning yuqoridagi parametrlari umumta'lim maktablari tasviriy san'atning yangi avlod standartlari matniga kiritilgan. Ammo, afsuski, biz, o'qituvchi sifatida, tez-tez o'quvchilarga tahlil usulini o'rgatishni unutamiz, badiiy asarning insho tavsifi yoki u haqidagi his-tuyg'ular tavsifini almashtiramiz. Hech bo'lmaganda bir marta talabalar me'morchilik, haykaltaroshlik va rasm ishlarini berilgan koordinatalarda mustaqil tahlil qilishlari kerak. Aks holda, har qanday faoliyat, muammo yoki amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim haqida gap bo'lishi mumkin emas. San'atning har bir turi uchun parametrlar to'plami o'ziga xos xususiyatlarga ko'ra biroz farq qiladi.

### **Arxitektura tahlili.**

Kosmosni tashkil qilishning asosiy vazifasi bo'lgan arxitekturaning mavhumligi (tabiatda o'xshashlik yo'q) tufayli uni tahlil qilishning asosiy nuqtalari bo'lishi kerak.

- strukturaning maqsadi va vazifasi;
- atrof-muhitga mutlaq o'lchovlar va munosabatlar;
- qurilish uchun tanlangan material va uni majoziy talqin qilish xususiyatlari;
- reja;
- makon va massalarning umumiy tashkil etilishi (ustunlik qiladi: birinchi yoki ikkinchi va nima uchun?);
- dizayn va g'oyalar unga kiritilgan;
- bino miqyosi (odamning kattaligi, atrof-muhit bilan bog'liqligi);
- mutanosiblik (bino qismlarining bir -biriga nisbati va ularning bir -biriga aloqasi);
- ritm (makon va massalar, turli fazoviy hujayralar, strukturaviy bo'linishlar, teshiklar va boshqalar);
- jabhalar va ichki makonni kesishni tashkil qilish;
- rang va tovushning roli;
- haykaltaroshlik va monumental rasm bilan munosabatlar;
- tuzilish va unda oqayotgan hayotni idrok etishning vaqtincha tashkil etilishi.

Arxitekturani tahlil qilish uchun asarning shaxsiy yashash joyi yoki juda katta miqdordagi vizual materiallar - rejalar, bo'limlar, landshaft fotosuratlar, fasadlarning bir necha nuqtai nazardan olingan fotosuratlar, interyerlarning fotosuratlar va hokoza.

### **Rasmni tahlil qilish.**

Rasmni tahlil qilishda, u bir tomondan, mavhumlik bilan emas, balki voqelikning taniqli tasvirlari bilan

ishlayotganini, lekin boshqa tomondan, tasviriy tasavvur xayoliy (ya'ni, mavhum) emasligini hisobga olish kerak. Ikki o'lchovli tekislikdagi tasvir, voqelikning o'ziga xos talqini, uning o'zgargan qiyofasi. Ko'pincha, voqelikni tan olish, syujet muallifning xabarini dekodlash oson bo'lishi haqida noto'g'ri taassurot qoldiradi. Buni tahlil qilishda hisobga olish kerak. Rasmga qo'llaniladigan rasmiy tahlil birinchi sinfda o'qitiladigan syujetning ibtidoiy takrorlanishidan tubdan farq qilishi kerak.

Tahlilni tasviriy tasvir turini tanlashdan boshlash yaxshidir: bu devor rasmimi yoki molbert rasmi? Keyinchalik, biz ikki o'lchovli tekislik-rasm yuzasi dizayni bilan bog'liq bo'lgan rasm tasvirining tasviriy va ifodali-dekorativ funksiyalariga to'xtalib o'tishimiz kerak.

O'lchamlari, formati (gorizontal, vertikal aylana va boshqa variantlar) va ramka (hajmli obyekt sifatida ramka) xayoliy va haqiqiy tasvir nisbati chegaraviy parametrlarini aniqlaydi.

Muhim metaforik va ramziy toifalar ko'pincha tasvir qo'llaniladigan asos bilan bog'liq (tosh, yog'och, gips, shisha) va rasm chizish texnikasi (fresk, tempera, mozaika, yog', pastel va boshqalar). To'qimalarning muammolari nafaqat sirt dizayni, balki tasvirni ichki talqin qilish muammolari. Kosmik tashkilot (tekis yoki xayoliy makon) quyidagi savollar bilan bog'liq:

- chiziq, siluet, plastmassa hajmi, chiaroskuro talqini;
- nuqtai nazar, ufq chizig'ini tanlash;
- rasmning o'ng va chap tomonlarini tashkil qilish (rasm maydonidan o'ziga xos kirish va kirishlar);
- umuman ritmik tuzilish va kompozitsiya.

### **Haykallarni tahlil qilish.**

Haykaltaroshlikning o'ziga xosligi-bu uning haqiqati va moddiyligi, uch o'lchovli hajmi va teginish ta'siri va tajribasiga e'tibor. Haykalning asosiy mavzusi - inson qiyofasi, uning tili - inson tanasi va yuz ifodalari.

Aytishimiz mumkinki, bu san'atning eng antropomorfik turlaridan biri. Ammo haykaltarosh ko'r-ko'rona odam qiyofasini haqiqiy ko'rinishida takrorlamaydi, balki o'ziga xos ideal voqelikni yaratadi, unda ideal energiya shakllari g'oyalar plastmassa energiyasi phtisi shaklida mujassamlashadi. Biror kishiga alohida e'tibor, bir tomondan, tahlil parametrlari sonini, ikkinchidan, har bir nuqtani o'ta chuqur talqin qilishni talab qiladi.

Haykalning turini (monumental haykaltaroshlik yoki kichik plastmassa, tik turgan figura, haykallar guruhi yoki relyef) qaror qilib, uning hajmini va atrofdagi makon, me'morchilik va inson o'lchovi bilan aloqasini aniq belgilash, uning nuqtalarini aniqlash zarur. Muallif tomonidan rejalashtirilgan ko'rinish.

Haykaltaroshlikda material tanlash (tosh, bronza, yog'och, keramika va boshqa zamonaviy materiallar) juda muhim va bizga muallifning asosiy mafkuraviy pozitsiyalaridan birini ko'rsatadi. Qayta ishlash usuli (plastmassa yoki haykaltaroshlik), kesish va rang metaforasining imkoniyatlari, ichki tuzilmani (ramkani) tashkil etish, massalarning tuzilishga va bir-biriga nisbati, dinamika va statikaning nisbati, tektonik motorli kuchlanish va momentlari ko'p jihatdan bunga bog'liq.

Haykaltaroshlikdagi poydevor muammosi (yoki uning yo'qligi) rasmdagi ramka muammosiga o'xshaydi - bu san'at olami va haqiqat olami o'rtasidagi bog'liqlikdir. Haykaltaroshlik syujeti ikkinchi darajali, chunki har qanday

alohida syujet butun haykal uchun umumiy bo'lgan asosiy uchastka - uch o'lovli shaklni yaratish, inson tanasini yaratishdir.

Tajriba diapazoni “statik – harakat” muxolifati bilan cheklangan, lekin tajribaning intensivligi boshqa san'at turlariga qaraganda ancha yuqori va tomoshabindan irodaning muhim konsentratsiyasini talab qiladi. Haykalni idrok etish va tahlil qilishda bu xususiyatni hisobga olish kerak.

**Ikonologik tahlil.** “Sof shakl” dan tashqari, san'at o'ziga xos axborot tuzilmasi sifatida ma'lumotlarni saqlash va uzatish, shuningdek tomoshabinga ta'sir qilishning yana bir qancha usullariga ega.

O'rta asrlarning tajribasiz tomoshabinlari uchun san'at tilining mutlaqo boshqa jihatlarini, masalan, odatiy rasmiy syujet sxemalari yoki boshqacha qilib aytganda, Muqaddas Yozuv qahramonlari yoki voqealari tasvirlarining ikonografiyasi muhimroq edi. “O'rta asrlar ongi, ierarxiya g'oyasi bilan singib, XI-II asrlarga qadar azizlar, ramzlar, hatto ranglar ierarxiyasini shakllantiradi. Bu ramziylikni bilmasdan, biz ikonaning mazmunini to'liq tushuna olmaymiz, bu bizni chetlab o'tadi. Bu ikonaning majoziy tuzilishining asoslaridan biridir. Va agar rasmda rang hissiy va ma'lumotli rol o'ynasa, ikonka chizish ierarxiyasida ular kanonik rol o'ynaydi”. Cherkov san'atidagi kanonik sxemalar - bu tomoshabinni chaqmoq tezligida ta'sir qiladigan, bir tomondan, muqaddas tasvirning mazmunini va uning muqaddasligini, ya'ni boshqa olamga tegishli bo'lganini deyarli bir zumda anglashga imkon beradigan superform, supertekstning bir turi.

### **Boshqa tomondan.**

Ikonografiya san'at tarixidagi badiiy tilning kanonik tomonlarini o'rganadi. Uning usullari - bu shaxsni yoki syujet sxemalarini tasvirlashda qabul qilingan tipologik xususiyatlar va sxemalarni tavsiflash va tizimlashtirish, ma'lum bir davr, yo'nalish san'atiga xos bo'lgan shaxs tasvirlarining umumiylikni tahlil qilish. MHC o'qituvchisi uchun bu usulda allaqachon tugallangan natija juda muhim, bu bilan talabalarni tanishtirish zarur. Bu o'quvchilarga, bir tomondan, ikonka rasmini, buddizm va hinduizmning kanonik tasvirlarini yaxshiroq "o'qish" va tushunish, Shimoliy va Italiya Uyg'onish davri asarlarini shifrini ochish imkonini beradi, boshqa tomondan, ularni yanada sezgir qiladi. Kanon ichidagi o'zgarishlarga va Uyg'onish san'ati fathlarini va haqiqatning o'zini qayta baholashga yordam beradi, qat'iy tartibga solingan qonunni rad etish.

San'atshunoslik yo'nalishi sifatida ikonologiya ikonografiyadan ko'ra kengroqdir, chunki u nafaqat diniy kultlar o'rnatgan qonunlarni, balki badiiy asarlardagi har qanday barqaror syujet va tasviriy motivlarni (kompozitsion sxemalar, sxemalar bo'laklari, mavzular, syujetlar, atributlar, ramzlar va geraldik belgilar), ularning davrlarini davrlarga, san'atning bir turidan ikkinchisiga, ustadan ustaga o'tishi. San'at tarixining ikonologik maktabi san'at tilining bu barqaror elementlarini shakllarning xotirasini tashuvchilarning bir turi, yoki boshqacha qilib aytganda, "yashirin ma'no va xabarlar", shifrlangan kodlarni o'z ichiga olgan "ramziy shakl" deb hisoblaydi.

Ikonologik uslubning barcha murakkabligi uchun, u MHC daralarida talabalar uchun juda qulaydir. Gap shundaki, bolalikdan ertak o'qigan barcha bolalar xotira haqida ma'lum bilimlarga ega. Mifologiya, dostonlar va

ertaklarning xudolari va qahramonlarida maxsus sehrli xususiyatlarga ega narsalar borligini hamma biladi, ular nafaqat o'z vazifalarini bajarishga yordam beradi, balki ko'pincha o'z hayotiyligini ham o'z ichiga oladi.

Atributlarning turg'unligi, mifologik belgilar yaxlit qiyofasini yo'qotib, keyingi davrlar madaniyatida bo'lak shaklida bo'lishni davom ettiradigan holatlarda ishlatilishi mumkin. Bunday holda, atributlar ko'plab madaniy hodisalarni talqin qilish uchun yetakchi vazifasini o'tashi mumkin, bir-biriga mos kelmaydigan ko'rinishda davomiylilikni kuzatishga yordam beradi.

### **Strukturaviy tahlil.**

Strukturaviy tahlil imo-ishorali tizimlar asosida olib boriladi, shuning uchun semiotika (imo-ishora tizimlari haqidagi fan) va semantika (ma'nolar ilmi) bilan chambarchas bog'liq. San'at tarixini madaniy kodlar, ikkilik qarama-qarshiliklar, arxetip, mifologema kabi tushunchalar bilan bog'liq belgi va ramziy tizimlarning rivojlanish naqshlari nuqtai nazaridan ko'rib chiqish, bir tomondan, semantik, mazmunli komponentni mustahkamlashga imkon beradi. Birinchi navbatda o'smirni xavotirga soladigan badiiy madaniyatni o'rganish, boshqa tomondan, mazkur tarkibning shaxsiy o'qilishini ta'kidlash.

Qiyamat yo'nalishlari nuqtai nazaridan, butun jahon badiiy madaniyatining birligini tushunish xorijiy madaniyatlarning shakllari va qadriyatlariga nisbatan bag'rikenglik munosabatini rivojlantirishga olib keladi. Jahon daraxti, yo'l, ona ona, soya, donishmand chol, donishmand kampir, anima, qahramon, qahramon kabi barcha madaniyatlarga xos bo'lgan prototiplar MHC doirasida mustaqil ta'lim va loyiha faoliyati davomida faollikni kuchaytiradi.

O'quv komponenti va o'quvchilarning shaxsiy qiziqishini oshirish uchun ishlaydi ...

Beton buyumlar, aniqligini yo'qotmasdan, boshqa narsalar va tushunchalarning belgilariga (kodlariga) aylanib, ularni ramziy ravishda almashtirishi mumkin. Eng qadimiylaridan biri bu geometrik belgilar kodi va u bilan chambarchas bog'liq bo'lgan sonli simbolizmdir.

Kodlar juda boshqacha bo'lishi mumkin: zoomorfik, o'simlik, rang, oziq-ovqat, kimyoviy, raqamli, geometrik va boshqalar.

MHC darklarida qo'llanilganda, strukturaviy tahlil muhim ahamiyatga ega, chunki transformatsiya operatsiyalari birinchi o'ringa chiqadi, bu o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish nuqtai nazaridan juda muhimdir. Birlamchi obyektlar to'plamini ajratish, obyektlarni asosiy elementlarga bo'lish, transformatsion munosabatlarni aniqlash kabi operatsiyalarni bajarish, o'quvchilarning analitik qobiliyatlari, umumiy ko'rish qobiliyati, o'z bilimlarini tuzish va tizimlashtirish.

Jahon badiiy madaniyati kursining rivojlanayotgan salohiyati bevosita subyektning mafkuraviy tabiati, ijodkorlik, o'zini o'zi bilish bilan bog'liq. Bunday sharoitda o'qituvchi maktab o'quvchilarining mustaqil ishlarini kuzatuvchi, kuzatuvchi bo'lib qoladi.

San'at tahlili talabalarga madaniy yodgorliklar bilan muntazam tanishish asosida o'z fikrlash yo'nalishini tanlashga, insoniyatning ma'naviy rivojlanishining yaxlit va ko'p qirrali tasviri haqida tasavvurga ega bo'lishga va shu asosda imkon beradi. Rivojlanishning o'z versiyasini ishlab chiqish. MHC o'qituvchisi san'at tarixi sohasida ko'p tomonlama maxsus bilimlarga ega bo'lishi kerak. Bu alohida muammoga aylanadi, chunki hech bir pedagogika

oliy o'quv yurti "MHC o'qituvchisi" mutaxassisligini tayyorlamaydi. Bugungi kunda ushbu fanni o'qitishga jur'at etgan o'qituvchilar qat'iy va o'z-o'zini o'qitish doirasida joylashtirilgan. Bu nafaqat o'qitish usullariga, balki san'atshunoslik fanini o'rganishga ham tegishli. Badiiy asarni tahlilini shakl va mazmun doirasi bilan cheklash yoki insholarni idrok etish, badiiy obyektни o'rganishni u yoqda tursin, tanlanishning yagona usuli bo'la olmaydi.

Boshqa tomondan, badiiy asarni tahlil qilish faktologiya, elementar nazariy asoslar sohasidagi keng bilimsiz mumkin emas. Bu holda katta rolni turli xil ko'rsatma va ma'lumotli xarita-vazifalar, qidiruvni o'qitish usullaridan foydalanish, axborot texnologiyalaridan foydalanish mumkin. Darhaqiqat, jamiyatning axborotlashtirish asriga kirishi sharoitida, MHC o'qituvchisiga qo'yiladigan talablardan biri bu axborotni olish, ishlash va undan foydalanishning turli usullarini (ta'lim uchun kompyuter dasturlari, Internet, audiovizual vositalar) o'zlashtirishdir va boshqalar.)

Agar bu shartlar bajarilsa, MHKni maktabda o'qitish samarali o'quv muammolarini hal qilishga xizmat qiladi, bu esa bolalarga muammoli formulalarni mustaqil ishlab chiqish, muammolarni amaliy echimini tahlil qilish va shu orqali samarali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi<sup>1</sup>.

### **7-Mavzu: Tasviriy san'at darslarini metodik jihatdan ta'minoti.**

O'quv-metodik qo'llanmalar yaratilishi O'zbekistonda o'tgan asrning 30-yillaridan I. Ikromov tomonidan nashr etilishi bilan boshlandi. O'quv qo'llanmalar ham dasturlar

---

<sup>1</sup><https://mpradist.ru/uz/analiz-proizvedeniya-iskusstva-zhivopisi-analiz-proizvedeniya-izobrazitelno-iskusstva-opisanie-i.html>

asosida yoziladi. Ammo uning darslikdan farqi shundaki, dasturdagi "tizimlilik" tamoyiliga amal qilinmaydi. Shu boisdan o'quv qo'llanmalar fan mazmuni to'liq yoki uning biron qismi bo'yicha ham yozilishi mumkin. Shuningdek, u ko'proq ikkinchi shaxs tilidan ifoda etiladi. R. Hasanovning metodik qo'llanmalarida maktab tasviriy san'ati mashg'ulotlarini tashkil etishdan boshlab, ulami muntazam holda takomillashtirib borishning ilmiy asoslari ko'rsatib berildi. Bunda o'quvchilar qiziqishini oshirishdan boshlab, darslarning har bir bosqichini rivojlantirish, o'stirish va takomillashtirib borish imkoniyatlari, yo'l-yo'riqlari va uslubiy yo'nalishlari ilmiy jihatdan tahlil qilib beriladi. B. Oripovning metodik qo'llanmalarida esa kabinet sistemasining darslar samaradorligidagi o'rni, ro'lidan boshlanib, didaktikaning predmetlararo bog'lanish sistemasi, darsda olib boriladigan tarbiyaviy tadbirlar, darsga va fanga bo'lgan o'quvchilar qiziqishi, ularga berilayotgan bilim va malakalami muntazam bo'lishining eng samarali omillari haqida bahs yuritiladi.

Metodik qo'llanmalarda tasviriy san'atning o'qitilishidagi eng muhim muammolar va masalalar turli nuqtayi nazardan tahlil etib beriladi. Ularning metodik qo'llanmalarida va ilmiy-metodik tavsiyanoma, maqolalarida o'quvchilar bilimni baholash, tasviriy san'atning 45 minutli dars mashg'ulotlarini tashkil etish, o'tkazish, ularni tizimli takomillashtirib borish asosida dars va mashg'ulotlar texnologiyasi, didaktikasi va metodikasida o'quvchilarga berilayotgan bilim-malakalar samaradorligiga erishishning eng zamonaviy uslublari, mohiyati va mazmuni ish tajribalar, ilmiy tadqiqotlar xarakterida asoslab beriladi.

Metodik qo'llanmada tasviriy san'at darslari uchun o'quv didaktik sharoitning yaratilishi, tasviriy san'at

ta'limining pedagogik holati, o'quvchilarning darsdagi diqqati, psixologik asosi, o'quvchilar bilimni aniqlashning baho mezonlari, mahalliy va chet ellar tasviriy san'at materiallaridan foydalanish kriteriysi, tarbiyaviy ish-laming mohiyati, mazmuni, maktabda tasviriy san'atdan beriladigan bilim va malakalarning DTS talablari kabi ta'lim-tarbiya tizimining eng dolzarb muammolari ilmiy jihatdan tahlil qilib beriladi. Xullas, bugungi kunda mak-tabda tasviriy san'atning o'qitilishi, mashg'ulotlarning takomillashtirib borilishi va darslar samaradorligiga erish-ishning qator metodik asoslari ishlab chiqilgan bo'lib, ular asosida tasviriy san'at o'qituvchilari darslar samaradorli-gi uchun qator texnologik, didaktik va metodik imkoniyat-larga ega.

Ma'lumki, bugungi kunda maktab o'quv-texnika vositalari, asosan, epidoskop, kodoskop, LETI, filmskop, televizor, videomagnitofon, kompyuter kabilardan iborat-dir. Tasviriy san'atni o'qitishda molbert, taglik, reflekt kabi qo'shimcha texnik jihozlar ham qo'llaniladi. Bu narsalar naturani o'quvchi ko'rish gorizontiga moslashtirib olishda qo'llanadigan buyumlar, didaktik materiallar bo'lib, ular yarim mexanik uslubda ishlatiladi.

Reflekt-naturaga tushayotgan yorug'-soyalarning normal bo'lishi uchun qo'llaniladi. Molbertlar o'quvchilarning rasm chizish uchun moslamalari bo'lib, uni darsda va darsdan tashqari rasm chizishda ishlatiladi. Tasviriy san'atni o'qitishda ko'proq epidoskop qo'llaniladi.

Epidoskop-tasvirlarni kattalashtirish uchun zarur bo'ladi. Bu san'at asarlarining tahlili davrida juda ahamiyatlidir. Diapozitivlardan foydalanish uchun LETI apparati qo'llaniladi. Tasviriy san'at darslarida yaxshi ishlayotgan texnik vositalardan yana biri filmskopdir. Unda diafilm-

lar namoyish etiladi. Tasviriy san'atdan bugungi kunda ko'plab diafilmlar mavjud. Ayniqsa, san'at asarlarining tahlili davrida bu ancha samara beradi. Darsda texnika vositalaridan foydalanish ham me'yoriy bo'lib, 2-3-4 minutga boradi. Faqat suhbat darslaridagina ko'proq ishlatiladi. Agar biror film to'liq namoyish etiladigan bo'lsa, uni darsdan tashqari vaqtda amalga oshiriladi. Texnika vositalaridan foydalanish o'quvchilarning dars materialiga bo'lgan qiziqishini oshirib, dars samaradorligini ko'taradi<sup>1</sup>.

### **8-Mavzu: Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi mashg'ulotlaridan namunaviy darsni tashkil etish va o'tkazish**

Pedagogik tajribalardan shu narsa ma'lumki, o'quvchilarga beriladigan bilim va malakalarning samarali bo'lishi asosan o'qituvchining darsga qay darajada tayyorgarlik ko'rishiga bog'liqdir. Har bir tasviriy san'at o'qituvchisi o'z darsiga ham nazariy, ham amaliy jihatdan puxta tayyorgarlik ko'rsagina uning dars samaradorligi ham yuqori darajada bo'ladi. Ma'lumki, maktab tasviriy san'ati mashg'ulotlarini tashkil etish ancha murakkab.

Chunki tasviriy san'atnig dars mashg'ulotlari uchun bir qator didaktik va ko'rgazmali materiallar (rasm daftar, qalam, o'chirg'ich, akvarel bo'yog'i, palitra qog'ozlari kabilar) zarur bo'ladi. Shuningdek, natura va naturmort postanovkasini qo'yish uchun taglik, fon uchun material, yorag'-soyani me'yorda ko'rsatish uchun yoritish reflektlari va hokazolar zarur bo'ladi. Shuningdek, rasm

---

<sup>1</sup> B.N.ORIPOV "TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI, DIDAKTIKASI VA METODIKASI (Oliy o'quv yurtlarining «Badiiy grafika» va «San'atshunoslik» fakultetlari talabalari uchun o'quv-metodik qo'llanma)" Toshkent - «ILM ZIYO» - 2013, 96-98-betlar.

chiziladigan predmet-natura yoki obyektlar haqida ilmiy ma'lumotlarga ega bo'lish zarur. Bularning hammasi bo'ladigan dars konspektida o'z ifodasini topmog'i darkor. Shunga ko'ra tasviriy san'at o'quv predmetining har bir mashg'uloti uchun mukammal holda, ilmiy asosda yozilgan dars konspekti bo'lishi kerak.

Tasviriy san'at darsi bo'yicha yozilgan konspekt 45 daqiqali dars jarayonining har bir elementini ilmiy asosda ifodalab, unda amalga oshirilayotgan ta'limiy va tarbiyaviy faoliyatni bir me'yorda, tartibda, sistemali bo'lishini ta'minlamog'i lozim.

Tasviriy san'at darslari konspekti:

1. Darsning turi – tasviriy san'at mashg'ulotlari 5 turga bo'linadi. Bulardan qaysi biri bo'yicha dars o'tishi ko'rsatiladi.

2. Darsning mavzusi – darsda qanday mavzu o'rganilishi, o'qitilishi bayon etiladi.

3. Darsning maqsadi – darsning ta'limiy va tarbiyaviy maqsadi Davlat dasturi va standarti asosida ko'rsatib beriladi.

4. Darsning jihozlanishi – tasviriy san'atning har bir mashg'uloti uchun o'nlab o'quv-didaktik materiallar – jihozlar ro'yxati bayon etiladi.

5. Darsning boshqa o'quv fanlari bilan bog'lanishi – ma'lumki, tasviriy san'at hamma fanlarni o'qitishda eng asosiy manbaa va didaktik material hisoblanadi.

6. Dars rejasi – konspektida quyidagicha o'z aksini topadi:

- 1) tashkiliy davr – 2–3 daqiqa;
- 2) uy vazifasini ko'rish – 4–6 daqiqa;
- 3) yangi mavzuni bayon etish – 10–12 daqiqa;
- 4) yangi mavzu bo'yicha amaliy ish – 24–28 daqiqa;

5) uyga vazifa berish – 3–4 daqiqa;

6) darsni yakunlash – 1–2 daqiqa.

Tasviriy san'at o'quv predmeti bo'yicha yoziladigan dars konspekti ayniqsa yosh, yangi ish boshlayotgan tasviriy san'at o'qituvchilari uchun juda zarur va ahamiyatlidir. Chunki tasviriy san'at bo'yicha yoziladigan dars konspekti o'qituvchining keyingi faoliyati uchun ilmiy-ijodiy material, pedagogik-metodik tajribalarning monumetal bazasini bunyod etadi. Chunki katta pedagogik tajribalar ana shu dars konspekti asosida yig'ib boriladi<sup>1</sup>.

### **9-Mavzu: O'quvchilarni tasviriy san'at standartlari bilan tanishtirish va tahlil qilishga o'rgatish.**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 16-avgust qaroriga ko'ra 1999-2000-o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablarida barcha fanlar qatori tasviriy san'at ta'limi bo'yicha ham davlat standartlari joriy etildi. Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqilishi avvalo O'zbekistonning mustaqilligi, uning jahon hamjamiyatiga faol kirib borayotganligi bilan bog'lanadi.

Mazkur standartlar O'zbekiston tarixida birinchi bor yaratilishi bo'lib, u respublikamiz maktablarida ta'limni yuqori ilmiy-metodik asosda tashkil etish hamda uni jahon standartlari darajasiga olib chiqishga sharoit yaratadi. Davlat standartiga ko'ra tasviriy san'at ta'limi mazmuni boshlang'ich sinflarda quyidagi to'rt yo'nalishda bayon etilgan:

1. Borliqni idrok etish.
2. San'atni idrok etish.

---

<sup>1</sup> B.N.ORIPOV "TASVIRIY SAN'AT VA UNI O'QITISH METODIKASI" (Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma 2-nashri), "ILM ZIYO" TOSHKENT - 2012, 163-165-beilar.

3. Naturaga qarab tasvirlash.

4. Kompozitsiya.

Tasviriy san'at o'quv predmetining maqsadi o'quvchilarda ma'naviy madaniyatning ajralmas qismi hisoblangan badiiy madaniyatni, tasviriy savodxonlikni shakllantirishdan iborat. Mazkur yo'nalishlar bo'yicha tasviriy san'at o'quv predmetini o'qitishda har bir o'qituvchi asosiy e'tibomi nimalarga qaratilishini bilib olishi kerak bo'ladi. Tasviriy san'atni o'qitishda o'qituvchining e'tibor berishi lozim bo'lgan asosiy jihatlar quyidagilardan iborat:

- borliqdagi va san'atdagi go'zalliklarni ko'ra bilish, idrok etish va qadrlashga o'rgatish;

- badiiy - ijodiy qobiliyatni o'stirish;

- tasviriy san'at qonun-qoidalarining oddiy nazariy asoslarini o'rgatish;

- tasviriy malaka (rasm ishlash, haykal yasash v.b.)larni rivojlantirish;

- estetik va badiiy didni o'stirish;

- bolalarning badiiy fikr doirasini kengaytirish;

- bolalarga tasviriy, amaliy va me'morlik san'ati yuzasidan asosiy tushunchalar berish (san'atning turlari, janrlari, oqimlar, atama va iboralar v.b.);

- san'atga qiziqishni o'stirish va unga nisbatan muhabbatni tarbiyalash;

- tasviriy, amaliy san'at asarlarini badiiy idrok etishni va undan estetik zavqlanish hissini tarbiyalash;

- bolalarda badiiy kasb-hunarlar haqida tasavvurlarni shakllantirish.

Bu vazifalar maktabda tasviriy san'at darsini olib boruvchi har bir o'qituvchini mutaxassis bo'lishligini talab etadi. Chunki, standart mazmuni mutaxassis o'qituvchilar uchun mo'ljallab tuzilgan. Tasviriy san'at ta'limi davlat standar-

ti san'atning uch turi - tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atlari mazmunini aks ettirgan bo'lib, u avvalo milliy o'zbek san'atini, uning badiiy an'alarini, ayrimmashhur o'zbek tasviriy, amaliy, me'morchilik san'atlari ustalarining hayoti va ijodini, O'zbekistonda san'atning bu turlari rivoj topgan markazlarni, O'zbekistondagi yirik san'at muzeylarini bilish tasviriy san'at o'quv predmetini vazifalaridan biri ekanligini qayd qiladi. Bundan maqsad milliy san'at vositasida o'quvchilarga badiiy ta'lim berish bilan bir qatorda ularda shaxsni estetik, axloqiy va mehnat tarbiyasini amalga oshirishdan iboratdir.

Milliy o'zbek san'atini chet el va jahonning hozirgi zamon ilg'or san'atiga qaraganda kengroq va chuqurroq o'rgatishdan maqsad har bir o'zbek o'quvchisi o'z halqining tarixini, adabiyotini bilishi shart ekanligi kabi, uning san'atini ham nisbatan kengroq bilishiga erishishdir. Milliy san'at ta'lim mazmunida poydevor bo'lishi lozim.

Ularni o'rganmasdan turib, yoshlarimiz badiiy madaniyatli shaxs bo'la olmaydi. Aks holda milliy qobiqqa o'ralashib qolish oqibatida ular jahon standartlari darajasiga chiqaolmaydilar. Ayniqsa, yoshlarimiz qadimgi Misr, Yunoniston, Hindiston me'morchiligi, Afg'oniston, Iroq, Turkiya miniatyura rangtasvir asarlari, Yevropada Uyg'onish davri tasviriy san'ati, rivojlangan G'arb mamlakatlarining hozirgi zamon tasviriy va me'morchilik san'ati namunalarini o'rganmasdan va bilmasdan turib madaniylashgan shaxs bo'lish mumkin emas.

Tasviriy, amaliy, me'morchilik san'atlari bo'yicha atama va iboralar, tushuncha va ma'lumotlar o'zlashtirilishi lozim bo'lgan malakalami o'z ichiga oladi. Bu materillarni bolalar tomonidan o'zlashtirilishini nazorat qilish esa ularning bilimlarini tekshirishga doir test materiallarini,

bolalar tomonidan bajarilgan tasviriy ishlarni baholash mezonlari va boshqa materiallar tayyorlash alohida ahamiyat kasb etadi. Ular o'z o'mida o'quvchilarning bilim va malakalarini tez va oson baholash imkonini beradi.

Davlat ta'lim standartlari bo'yicha boshlang'ich maktablarning to'rtinchi sinf bitiruvchi o'quvchilar bevosita quyidagilarni bilishlari lozim: Tasviriy san'at darslarida ishlatiladigan ish qurollari va materiallarni - albom, qalam, mo'yqalam, stek, bo'yoq, palitra, guash, akvarel;

- rang nomlarini;

- kishilar hayotida tasviriy san'atning tutgan o'rni, uning asosiy tur va janrlarini;

- rasm ishlash jarayonlarining o'ziga xos go'zalliklarini;

- avvalgi sinfdagiga nisbatan qo'shimcha bir qator rasmlar va haykaltaroshlarning ismi-famlyasini, ularning asarlari nomlarini;

- bu asarlarda tasvirlangan voqea-hodisalardagi go'zalliklarni ko'ra bilish va asar mazmunini so'zlab berishni;

- tasviriy san'at iboralarini (iliq, sovuq, axromatik va xromatik rang nomlarini);

- dekorativ haykaltaroshlikda qo'llaniladigan dekorativ elementlarning nomini;

- tabiiy materiallarning nomlari va ularni mashg'ulotga tayyorlashni.

Boshlang'ich maktablarning to'rtinchi sinflarini bitiruvchi o'quvchilar quyidagi malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirishlari lozim:

Ko'nikmalar:

- o'z ish joyini mashg'ulotga tayyorlash;

- qalam va mo'yqalamni to'g'ri ushlay olish;

- to'g'ri va qiya ko'rinishdagi chiziqlarni qiynalmasdan o'tkaza olish;

- borliqni idrok etishdan olgan taassurotlarini ishlagan rasmlarida aks ettira olish;

- rasm chizib bo'lingach, qog'oz sirtini suv bilan yuvib bo'yash jarayoniga tayyorlash;

- suv bo'yoq (akvarel) bilan ishlash tartibini (suv-bo'yoq bilan ishlashdan oldin unga suv tomizib chiqish, mo'yqalamni bo'yoqqa tez- tez botirib turishni);

- ranglarning murakkab tuslarini hosil qila olish (masalan, ko'kish, yashil, qizg'ish, jigarrang, qoramtir va h.k.);

- mo'yqalanini ish tugagandan so'ng tozalab yuvib qo'yish;

- o'z ish joyini yig'ishtirib qo'yish; Malakalar:

- haykaltaroshlikdan 2-3 ta figurali yaxlit kompozitsiya tuza olishni;

- loydan yoki plastifindan haykallar ishlashda alohida-alohida, "yaxlit" va "aralash" ishlov berish usullaridan foydalana olishni;

- ranglarning murakkab tuslarini hosil qilish (masalan, ko'kish, yashil, qizg'ish, jigarrang, qoramtir va h.k.);

- rasmda narsalarni kompozitsiya qonuniyatlariga bog'liq ravishda joylashtirishni;

- dekorativ ishlarda asimmetrik tasvirlarni ifodalashda muvozanatni saqlay olishni;

- o'simliksimon naqsh elementlaridan mustaqil naqsh kompozitsiyasini tuza olishni;

- tabriknoma kompozitsiyalarini ishlay olishni<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> S. E. ABDIRASILOV "TASVIRIY SAN'AT O'QITISH METODIKASI" (O'zbekiston Respublicasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan «5141600 - Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish» bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan), TOSHKENT-2012, 40-44-betlar.

**10-Mavzu: Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining  
sinf doskasida ishlashi va o'quvchilar grafik  
madaniyatini shakllantirish usullari.  
Sinf doskasida bo'r bilan ishlash.**

Sinf doskasida bo'r bilan ishlash ko'nikmasi tasviriy san'at o'qituvchisi malakasini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Bunda o'qituvchining bo'r bilan ishlash malakasi alohida o'rin tutadi.

Bo'lg'usi o'qituvchilarda sinf doskasida bo'r bilan ishlash malakasini quyidagi ko'nikmalarni shakllantirishdan boshlash kerak: bo'r bilan ishlayotganda doska oldida turish tartibi; doskada tasvirni to'g'ri joylashtirish (komponovka)ni qanday rejalashtirish kerakligi; qanday yorug'-soya berish kerakligini; umumlashtirish jarayoni va hokazolar.

Sinf doskasida ishlash - katta san'at bo'lib, uni oldidan zaruriy tayyorgarliklar va mashqlar orqali egallanadi. O'quvchilarning chizmachilik darslaridagi grafik faolligi oshirish, chizma ustida ishlashda harakatlarining mantiqligini va ketma-ketligini shakllantirishda o'qituvchining sinf doskasida ishlash mahoratining ahamiyati katta.

Sinf doskasida ishlash mahorati darsning tarkibiy qismi bo'lib, unga quyidagi tashkiliy va metodik xarakterdagi talablar qo'yiladi:

1. Zarur jihozlar va qurollarni tayyorlash: bo'rni (jumladan, rangli bo'rni ham) yo'nib tayyorlash; sirkulga bo'r o'rnatib qo'yish, quruq va namlangan gubka (yoki latta)ni tayyorlash.

2. Sinf doskasida ishlashda grafik harakatlarning kompozitsion va masshtabli tasvirlarini avvaldan belgilab olish.

3. Sinf doskasida ishlash vaqtida o'qituvchi o'zi chizayotgan tasvirlarni gavdasi bilan bekitib ishlasa, bu o'quvchilarning g'ashiga tegishini esda saqlashi kerak. Shunga o'xshash salbiy holatlar bo'lmasligi uchun o'qituvchi alohida mahoratni egallashi kerak.

4. Chizish bosqichlarini o'quvchilarga tushuntirib berish kerak. Ba'zi hollarda bunday yasashlarni o'qituvchi oldindan tushuntiradi, yoki tayyor tasvirda bayon qiladi.

5. Chizishga qarab qanday qog'oz turlarini tanlashni ham aytib o'tiladi.

6. Umumlashtirib tugallashni ham o'rgatadi.

7. O'qituvchining chizmani yakunlamasdan qoldirishiga, uni bajarish paytida tez-tez o'chirib to'g'rilashlariga o'quvchilar salbiy munosabat bildiradilar. Buning oldini olish uchun bayon qilinadigan material va grafik yasashlarning hajmi hamda vaqtini oldindan belgilab olish kerak.

Sinf doskasida ishlashda ko'pincha o'quvchilar bilan aloqaning qisqa muddatga uzilib qolishi natijasida o'qituvchida psixologik qiyinchiliklar tug'ilishi mumkin. O'qituvchi dars davomida o'quvchilar diqqatini jalb qilib turishi kerak. Busiz ta'limning pedagogik maqsadlariga erishish mumkin emas. Shuning uchun yuqorida aytilganidek sinf doskasida doimiy mashq qilib borish o'qituvchining og'ir faoliyatidagi muvaffaqiyati garovidir. Ish muvaffaqiyatini faqatgina yaxshi grafika va sinf doskasida tez chizma bajarishgina hal qilmaydi. O'qituvchi darsga tayyorlanish jarayonida chizmaning sinf doskasida joylashishi, ko'rinishi, komponovkasini ham puxta o'ylab olishi kerak. O'quvchilarning murakkab detallar bo'yicha grafik materiallarni yuzaki. Rasman o'zlashtirishlaridan saqlanish uchun sinf doskasida bajariladigan chizmalarni metodik jihatdan

to'g'ri ketma-ketlikda, bosqichlar bo'yicha bajarib borish kerak. Doskada ishlash metodikasini o'quvchilarga ko'rsatib borishning ahamiyati juda katta. Sinf doskasida bo'r bilan grafik tasvir (rasm) chizish jarayonini o'quvchilar katta qiziqish, e'tibor bilan kuzatadilar. Shuning uchun o'qituvchi sinfda o'quvchilar bilan og'zaki grafik muloqot ko'nikmalarini egallaganligi muhim ahamiyatga ega.

Agar o'qituvchi tasvir chizish jarayonida sinf bilan uni bajarish bosqichlari bo'yicha muloqot ham olib borsa, bunda o'quvchilar bu jarayonning bevosita ishtirokchilariga "aylanadilar". Ularning ish daftarlaridagi grafik tasvirlari ham shu orqali savodli va sifatli bajariladi. Aksincha, o'qituvchi sinfda orqa o'girib, doskada uzoq vaqt mobaynida so'zlamidan asdan grafik tasvir bajarish bilan band bo'lsa, o'quvchilar o'z holiga tashlab qo'yilib, nazoratsiz qolib ketadi. Buning natijasida o'qituvchi mavzuni bayon qilish tartibini "yo'qotib", muammoga "qayta kirish", o'quvchilar diqqatini jalb qilish uchun ortiqcha vaqt sarflaydi. Shunday salbiy holat kelib chiqmasligi uchun o'qituvchi butun dars davomida vaziyatni qoida saqlashga harakat qilishi lozim.

Demak, bo'lg'usi o'qituvchi sinf doskasida bo'r bilan ishlash malakasini shakllantirish uchun faqat amaliy ishlar bilan chegaralanib qolmasdan, balki sinf doskasiga tegishli nazariy ma'lumotlarni ham puxta o'zlashtirgan bo'lishi kerak. O'quvchilar grafik madaniyatini shakllantirish hamisha tasviriy san'at o'qituvchisining diqqat markazida turishi kerak. Tasviriy san'atdan tanishtirish darsidan boshlab o'qituvchi o'quvchilarda grafik madaniyatni shakllantirish ustida doimiy ravishda shug'ullanib borishi zarur. O'quvchilar tasviriy madaniyatini belgilovchi sifatlarga ularning Tasviriy san'at savodxonligi, ba-

diy grafika elementlari bilan tanishligi (rasm sola bilish qobiliyati), Tasviriy san'at tarixining umumiy masalalari va hozirgi ahvoli, hamda kompyuter grafikasi bilan tanishligini kiritish mumkin. Tasviriy san'at savodxonlik o'quvchilarda obrazli va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi<sup>1</sup>.



**25-rasm. Doska bilan ishlash jarayoni.**

## **11-Mavzu: Tasviriy san'at darslarida kompyuterdan foydalanish yo'llari.**

Tasviriy san'at darsida axborot texnologiyalaridan foydalanishda yagona yondashuvni amalga oshirish uchun fan o'qituvchisi quyidagi imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak:

---

<sup>1</sup> E. U. RO'ZIYEV, A.O.ASHIRBOYEV "MUHANDISLIK GRAFIKASINI O'QITISH METODIKASI"(O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan «Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi» bakalavriyat yo'nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan), TOSHKENT - 2010, 181-186-betlar

1. Darsda ular bilan ishlash uchun didaktik materiallarni (vazifa variantlari, jadvallar, chizmalar, diagrammalar, chizmalar) tayyorlash uchun matnli, raqamli, grafik va ovozli ma'lumotlarni qayta ishlash;

2. MS Power Point taqdimot muharriri yordamida ushbu o'quv material uchun slaydlar yaratish va darsda taqdimotni namoyish etish;

3. Mavjud intizomli dasturiy mahsulotlarni o'z intizomida qo'llash;

4. O'quv dasturlarini qo'llash (o'qitish, kuchaytirish, nazorat qilish);

5. Darslarga va darsdan tashqari mashg'ulotlarga tayyorgarlik jarayonida Internetda kerakli ma'lumotlarni qidirish;

6. Internetda kerakli ma'lumotlarni topish uchun talabalar bilan ishlashni tashkil etish;

7. Mustaqil ravishda testlarni ishlab chiqish yoki tayyor qobiq dasturlaridan foydalanish, kompyuter sinovlarini o'tkazish.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jarayonida o'qituvchi o'z kasbiy darajasini va magistrnlarni (ba'zan talabalar bilan bir vaqtda) bilim olishning yangi vositalarini takomillashtiradi.

Bolalarning ko'nikmalariga asoslanib, o'qituvchi asta-sekin o'z darslariga AKTdan foydalanishning quyidagi shakllarini kiritishi mumkin va kerak:

5-sinfdan boshlab o'quvchilar tomonidan AKT bo'yicha maxsus bilimlarni talab qilmaydigan shakllar, masalan, kompyuterni boshqarish shakllari (testlar) qo'llanilishi mumkin. Ushbu davrda o'qituvchi o'zi yoki o'rta maktab o'quvchilari tomonidan yaratilgan taqdimotlar asosida darslarni o'tkazishi mumkin. Keyinchalik, siz

darsni tayyorlash va o'tkazishning turli bosqichlarida ushbu mavzu bo'yicha multimedia o'quv qo'llanmalari bilan ishlashni mashq qilishingiz mumkin. Ushbu davrda talabalar tomonidan fanlar va elektron entsiklopediyalarda ESM asosan ma'lumot manbai sifatida qabul qilinadi. Sinov va imtihonlarga tayyorgarlik ko'rishda har xil AKT turlaridan foydalanish tavsiya etiladi<sup>1</sup>.

Nazoratning kompyuter shakllaridan foydalangan holda dars o'quvchilarning bilimlarini (darsning turli bosqichlarida, turli maqsadlar uchun) kompyuter dasturi yordamida test shaklida o'tkazish imkoniyatini nazarda tutadi, bu sizga ushbu mavzu bo'yicha bilim darajasini tez va samarali qayd etish, ularning chuqurligini obyektiv baholash imkonini beradi (kompyuter belgilaydi).

O'rta maktabda fan bo'yicha imtihon allaqachon dizayn, tadqiqot, ijodiy ishlarni majburiy multimedia hamrohi yordamida himoya qilish shaklida o'tkazilishi mumkin. Multimedia qo'llanmalari bilan ishlash darsda bir vaqtning o'zida tasviriy, statistik, uslubiy, shuningdek audio va video materiallardan foydalangan holda ish shakllarini diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

Bunday ish darsning turli bosqichlarida bajarilishi mumkin:

- Uy vazifasini tekshirish shakli sifatida;
- Muammoli vaziyatni yaratish usuli sifatida;
- Yangi materialni tushuntirish usuli sifatida;
- O'rganilayotganlarni birlashtirish shakli sifatida;
- Dars davomida bilimlarni sinash usuli sifatida.

Kompyuter taqdimotlaridan foydalangan holda darslar shuningdek yangi materiallarni interfaol rejimda tushuntirish uchun darslar va dars-ma'ruza va darslarni

---

<sup>1</sup> <https://fayllar.org/axborot-kommunikatsiya-texnologiyalari.html>

umumlashtirish va dars-ilmiy konferentsiya hamda loyihalarni himoya qilish va integratsiyalashgan dars va dars-taqdimot va dars-darsdir. Onlayn konferentsiya muhokamasi.

Dizayn ishlarini himoya qilish darsi talabalarning ijodiy salohiyatini anglashning o'ziga xos usuli, o'z bilim va ko'nikmalarini amalda ijodiy ravishda qaytarish usuli hisoblanadi. Ushbu turdagi darslarda AKTdan foydalanish materialni taqdim etish shakllaridan biri, taqdimot tuzilishini aks ettiruvchi talabalarni faollashtirish usuli hisoblanadi.

Barcha holatlarda, AKT "vositachi" sifatida ishlaydi, bu "insonning tashqi dunyo bilan aloqasida sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqaradi". Natijada, o'qituvchi va talaba nafaqat axborot texnologiyalarini o'zlashtiribgina qolmay, balki eng qimmatli o'quv resurslarini tanlash, baholash va qo'llashni o'rganadilar, shuningdek o'zlarining shaxsiy media matnlarini yaratadilar<sup>1</sup>.



**26-rasm. Dars jarayonidan AKT vositalari.**

<sup>1</sup> <https://fayllar.org/ozbekiston-respublikasi-oliy-va-orta-maxsus-talim-va-zirliqi-na-v256.html?page=3>

## **12-Mavzu: Chet el tasviriy san'at o'qitish metodlari tarixi haqida.**

“Tasviriy san'at o'qitish metodikasi” kitobi ketma-ketlik bosqichlari asosida tasvirlar chizish, mustaqil ravishda tasviriy va amaliy mavzularga kompozitsiyalar ishlash, loy va plastilindan har xil narsalar haykalchalarini yasash, rang xususiyatlari bilan yaqindan tanishtirish, tasviriy san'at tarixi asoslarini o'rganish hamda umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida tasviriy san'at o'qitish metodikasiga oid materiallarni o'z ichiga oladi. Talabalarga ta'lim berishning asosiy shakllari: ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar ishlari va mustaqil tayyorlanish.

Talabalar ma'ruzalarda Tasviriy san'at fani va uni o'qitish metodika fanining nazariy asoslari, metodlari (usullari) va uning tarixiy rivojlanishini o'rganadilar, tasvirlashning nazariy asoslari, san'at tarixidan qisqacha ma'lumotlar hamda umumta'lim boshlang'ich maktablarining tasviriy san'at bo'yicha dasturlari mazmuni bilan tanishadilar. “Tasviriy san'at o'qitish metodikasi” fanining amaliy mashg'ulotlarida talabalar qalam yordamida tasvirlashning oddiy asoslaridan boshlab murakkab narsalarni tasvirlashgacha bo'lgan chuqur bilim va amaliy malakalarni o'zlashtiradi. rangtasvir va kompozitsiya bo'limlarida rang bilan ishlash xususiyatlarini amalda bajarish, badiiy asarlarga esa illyustratsiyalar ishlashni o'rganadilar.

Tasviriy san'at o'qitish metodikasi bo'yicha to'la bilimlarga ega bo'lish, ayniqsa, O'zbekistonda va chet ellarda fanning o'qitish tarixi, o'quv fanning maqsad va vazifalari, ta'limning mazmuni, shakllari, usullari haqida chuqur bilimlarga ega bo'lish tasviriy san'at o'qituvchi faoliyatida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, bugungi o'quvchi kelajakda ishchi, xizmatchi, muhandis, shifokor, o'qituvchi, yurist yoki harbiy mutaxassis yoki biron bir sohani yaratuvchisi bo'ladilar. Ularni har biri uchun rasm chizish, undan foydalanish lozim bo'ladi. Shu boisdan har bir kishi rasm chizishni, grafik tasvirlarini bilishi maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda har bir shaxsni grafik bilimga ega bo'lishi uning o'ziga ham, jamiyatga ham suvdek zarur. Shunga ko'ra fransuz faylasufi Didro, bundan qarayib 300 yillar avvaldanoq, "Qaysi bir mamlakatda rasm chizishni o'qish-yozish kabi bilsalar edi, bu mamlakat barcha sohalarida har qanday mamlakatni quvib yetadi va ortda qoldiradi" - degan edi.

N. Rostotsevning "Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi" kitobida "Tarix shohidkim, jahonga mashhur geograflar, tarixchi, adabiyotchi, shoir, yozuvchilar, konstruktor va boshqa soha allomalari rasm chizishni juda yaxshi bilganlar" deb yozilgani ham bejiz emas.

Shunga ko'ra Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Gyote, Gyugo, Anderson, Pushkin, Tagor, Mendeleyev, B. Zokirov kabi turli soha ijodkorlari rasm chizish bilan jiddiy shug'ullanib kelganlar. Tasviriy san'at o'qitishiga doir eng qadimgi va o'rta asr boshlaridagi (Misr, Yunon, Qadimgi Rim) ma'lumotlar. Tasviriy san'at o'qitish metodikasini rivojlantirishda Uyg'onish davri rassomlarining xizmatlari (Chennino Chennini, Leon Alberti, Leonardo da Vinchi, Albrext Dyurer). XVII-XIX asrlarda G'arbiy Yevropada rasm chizishni o'rgatish metodikasiga bo'lgan turli qarashlar. Misr, Yunoniston, Rim, jahonda tasviriy san'atni o'qitilishiga dastlabki ma'lumotlar qadimgi Misr va Yunonistonda eramizdan avvalgi III asrlarga doir materiallar mavjud.

Qadimgi Misrda tog' qoyalariga o'yib ishlangan haykallar, shuningdek, rangtasvir asarlari o'zining yuksak badiiyligi va ishlanish texnikasi jihatidan kishilarni hayratga solib kelmoqda. Bunga eng qadimgi Misrda rasm chizishga o'rgatishga doir tarixiy manbalar guvohlik beradi. Tasviriy san'atni o'qitish ishi bilan odamlar qadimdan shug'ullanib kelganliklari ko'proq qadimgi Misr manbalarida saqlanib qolgan. Misr maktablarida rasm ishlashga o'rgatish muntazam ravishda chizmachilik bilan bog'liq holda amalga oshirilgan.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda maktabni tugallab chiqayotgan yoshlar ma'lum maydon yuzasini o'lchash va uni qog'ozga tushura oladigan, bino planini chiza oladigan, ariq va kanallarning sxemasini tasvirlay oladigan bo'lishlari talab etilgan. Rasm bolalarni yozish savodini chiqarishda ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Masalan, harfni o'rgatish uchun narsalarning tasviri chizdirilgan. Bolalarni rasm chizishga o'rgatishda qo'lni erkin harakat qilishiga alohida e'tibor berilgan. Erkin, yengil, ravon chiziqlar chizish doskada yoki papirus qog'ozlarda bajarilgan.

Shuni ham alohida qayd qilish lozimki, bu davr maktablarida faqat bolalar o'qiganligi sababli ularga nihoyatda yuqori talablar qo'yilgan. Shuning uchun ham talab va ko'rsatmalarga rioya qilinmaganda bolalar qattiq jazolangan, hattoki, yog'och bilan kaltaklangan. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, Misrda rasm chizishga o'rgatish qadimgi Yunonistondan ancha avval boshlangan.

Italiyalik XV asr me'mori, artisti, yozuvchisi va olimi L. B. Alberti shunday deb yozadi: "Misrliklarning yozishicha, rangtasvir ishlash ularda Yunonistondan 6 ming yil avval mavjud bo'lgan". Rasm chizishga o'rgatish qadimgi Yunonistonda ham o'ziga xos yo'nalishda amalga

oshibrilgan. Rasm ishlash uchun yog'och taxta ustiga asalari mo'mi surtilgan va uning ustini bo'yoq bilan sidirg'a bo'yalgan. Rasm ana shu yuza ustiga o'tkir metall yoki suyak bilan chizilgan. Noto'g'ri chizilgan rasm qol bilan ishqalanib, chiziqlar o'rni to'ldirib o'chirilgan. So'ngra tekis yuzaga yangi rasm ishlangan.

Keyinchalik u barcha maxsus ya'ni Yunonistonda Efess, Fivan va Sakkion badiiy maktablarda vujudga keldi va rasm chizish shu maktablarda o'rgatildi. Yunon rassomlari borliqni va keyinchalik Yunonistonda rasm ishlashning bir necha o'ziga xos maktablari paydo bo'lgan. Ular orasida tasviriy san'at va uni o'qitish taraqqiyotida eng ko'zga ko'ringan maktab bu Sakkion maktabi katta rol o'ynagan va tasviriy san'atni rivojlanishiga katta hissa qo'shgan maktabdir. Bu maktabda o'qitish ishlari ilmiy asosda tashkil etilgan bo'lib, bolalar ko'proq tabiatga, uning qonuniyatlarini bilishga qaratilgan.

Sakkion maktabining asoschisi va shu maktabda o'qigan Pamfil shu maktabning mashhur rassomi bo'lgan. Pamfil rasm chizishning ta'lim va tarbiyaviy ahamiyatini ko'rsatib bergan. U tasviriy san'atga ilmiy nuqtai nazardan birinchilardan bo'lib shu fanni rivojlanishini oldinga surgan. Tasviriy san'atni asosi bo'lgan Qalamtasvirga yuksak baho berarkan shunday deydi: "Qalamtasvir ishlashda yuqori darajada aniqlik va ilmiy asos berish kerak". Bu haqda uning zamondoshi Pliniy shunday deb yozgan edi: "Uning sayharakati bilan avval Sakkionda, so'ngra Yunonistonda hamma bolalarga rasm chizishni o'rgatish lozimligi belgilab qo'yilgan. Boshlang'ich ta'lim rasm chizishdan boshlanishi qayd qilingan edi".

**Uyg'onish davri.** Uyg'onish davrida Italiya tasviriy san'ati va uni o'qitish metodi katta rol o'ynagan. Bu

davrda rasm chizish umumiy ta'lim beradigan o'quv predmetlari qatoriga kiritildi. Mashhur rassomlardan Chennino Chennini, Leon Batista Alberti, Leonardo da Vinchilar bu borada e'tiborga loyiq ishlarni amalga oshirganlar. Ularning asarlarida fan va san'at o'rtasidagi aloqalar, proporsiya, perspektiva, anatomiya masalalari asosiy o'rinni egalladi. Ularning fikrlariga ko'ra naturaga qarab rasm ishlash o'qitishning asosini tashkil etishi lozim hisoblangan. Ayniqsa, Leonardo da Vinchi tasviriy san'atni o'qitish metodikasi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. U o'zining, "Rangshunoslik" nomli kitobida rassomlikni jiddiy ilmiy fan sohasi deb qaraydi. U ko'p yillar davomida anatomiya, rang, kishi a'zolari o'rtasidagi mutanosiblik qonuniyatlarini ishlab chiqqan.

Tasviriy san'atni o'qitishni takomillashtirishda Uyg'onish davrining nemis rassomlaridan A. Dyurerning xizmatlari katta bo'ldi. U birinchi bo'lib rasm ishlashni yengillashtirish uchun geometrik metodni o'ylab topdi.

Uning fikricha, har qanday buyum, narsalar asosida geometrik jism shakli yotadi. Shuning uchun u yoki bu narsalarni tasvirlashda avval geometrik jism shaklini chizib olinishi lozim, keyin ular umumlashtirilib, haqiqiy tasvir hosil qilinadi. Keyinchalik uning bu metodi Ashbe, Chistyakov kabilarning pedagogic faoliyatlarida keng qo'llanila boshlangan. Hozirgi kunlarda ham bu metod o'z kuchini yo'qotganicha yo'q<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Shuxrat Nazarovich Mamatqulov "CHET ELLARDA TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISH TARIXIDAN. ROSSIYADA QALAMTASVIR O'QITISH METODLARI". Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 5 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 DOI: 10.24412/2181-1385-2022-5-594-600 SJIF: 5,7 | UIF: 6,1, 594-598-betlar.

### **13-Mavzu: Rossiyada tasviriy san'atni o'qitish metodlarining o'ziga xos ko'rinishlari.**

**XVIII-XIX asrlarda Rossiya.** Rasm chizish Rossiya maktablarida umumiy ta'lim o'quv predmeti sifatida XVIII asrning boshlarida paydo bo'ldi. Bu davrda rasm chizish fani Dengiz akademiyasi, Xirurgiya maktabi va Kadetlar maktabida, fanlar akademiyasi qoshidagi Gimnaziya, qizlar tarbiya bilim yurtida o'qitilgan.

Bu o'quv yurtlarida rasm chizishga o'rgatish rassomlar tayyorlash uchun emas, balki yoshlarni kasbiy faoliyati va kelajak hayotlarida foydalanishlari uchun kerak bo'ladigan soha deb qaralar edi. 1934-yilda rus rassomi A. Sapojnikov birinchi bor umumiy ta'lim maktablari uchun "Rasm chizish kursi" nomli darslikni yaratdi. Mazkur darslik naturaga qarab rasm chizishga asoslangan edi. Darslik realistik rasm ishlash asosida qurilgan bo'lib, unda perspektiva, rasm chizishda geometrik metoddan foydalanish maqsadga muvofiqligi bayon etilgan.

Rossiyada tasviriy san'atni umumiy ta'lim maktablarida o'qitilishiga doir yirik fundamental asar yaratganlardan biri G. A. Gippius bo'ldi. Uning "Очерки теории рисования как общего учебного предмета" nomli asarida o'sha davrdagi rasm chizishga o'rgatishdagi eng ilg'or g'oyalar o'z aksini topgan edi. Rossiya maktablarida rasm chizish ommaviy tarzda o'qila boshlangach rassom o'qituvchilarning yetishmasligi muammosi paydo bo'ladi.

Maxsus o'qituvchilar tayyoriash maqsadida 1825-yilda Moskvada va 1879-yildan esa Sank-Peterburg badiiy akademiyasi qoshida rasm o'qituvchilari tayyorlovchi kurs ochildi. Bu kurslar uchun dastur, metodik materiallar tayyorlashda badiiy akademiya professori P. Chistyakov faoliyat ko'rsatdi. Bu davrda tuzilgan dastur va qo'llan-

malarda A. Sapojnikovning geometrik ko'chirish metodlari amaliyotdan chiqarilib, maktabda rasm darsi faqat natural metod asosida rasm ishlashdan iborat ekanligi qayd qilindi. Rus sovet badiiy ta'limining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatganlardan biri D. N. Kardovskiy edi. Bu badiiy ta'lim tizimi realistik san'at prinsiplariga asoslangan bo'lib, D. N. Kardovskiyning tashabbusi va sa'y-harakati bilan 1942-yili Moskva pedagogika instituti qoshida badiiy-grafika fakulteti ochildi.

D. Kardovskiy. "Rasm chizish" qo'llanmasidan. Rossiyada rasm chizish metodikasini takomillashtirishda 1933-yilda tashkil topgan "Bolalar badiiy tarbiyasi markaziy uylari" muhim ahamiyat kasb etdi. Bu markaz faoliyati bilan bog'liq holda P. Ya. Pavlinovning "Графическая грамота", N. Radlovning "Рисование с натуры", "Сборник заданий по рисованию", Ya. Bashilov va E. Kondaxchanlarning "Детский рисунок" va boshqa qo'llanmalari chop etildi.

XX asrning ikkinchi yarmida Tasviriy san'at metodikasiga doir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Natijada, rasm chizish bo'yicha 1963-70-yillarda I-VI sinflar uchun sinov darsliklari tayyorlanib, nashr etildi. Bu darsliklar V. V. Kolokolnikov (1 va 2-sinflar), S. A. Fyodrov, M. N. Semyonova (3 va 4-sinflar), E. E. Rojkova, E. L. Xersonskaya (5-sinf), L. L. Makoed (6-sinf) lar muallifligida tayyorlandi. Yorug'-soya qonunlari ham o'z aksini topgan edi. Shu bilan bir qatorda Sapojnikov sim, karton, gips kabi materiallardan narsalar tuzilishi, perspektiv qisqarishi, hajmiga doir metodik ko'rgazmali qurollar majmuasini ham yaratdi. Muallifning tavsiyalariga ko'ra har qanday natija asosiga turli hajmli va yuzali geometrik shakllar yotishi, shuning uchun ham Rossiya maktablarida ta'lim mazmuni-

ni islox qilish borasida hukumat qarorlari asosida rasm chizish o'quv predmetini maqsad va vazifalari va ta'lim mazmuni bir necha bor qayta ko'rib chiqildi.

Natijada, 1970-yilda "Рисование" o'quv predmetining nomi "Tasviriy san'at" deb o'zgartirildi. Bu nomda tayyorlangan dasturda estetik tarbiya vazifalari hamda rassomlar asarlarini o'rganilishiga doir qismlar kengaytirilgan edi. V. E. Savinskiy. Qalamtasvir Rossiyada XX asrning ikkinchi yarmida "Tasviriy san'at" o'quv predmetini o'qitilishini yaxshilashda bir qator pedagog olim va metodistlar faollik ko'rsatdilar.

Natijada "Tasviriy san'at" darsliklaridan tashqari ko'plab ilmiy-metodik va metodik adabiyotlar nashr etildi. Bunda G. V. Labunskaya, V. V. Alekseeva, V. S. Sherbakov, A. G. Shimanskaya, A. V. Karlson, G. I. Orlovskiy, R. I. Korguzalova, A. S. Brajnikova, N. N. Rostovtsev, V. S. Kuzin, E. V. Shoroxov, T. Ya. Shpikalova, B. P. Yusov kabilar samarali mehnat qildilar<sup>1</sup>.

#### **14-Mavzu: O'rta Osiyo va O'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitilishi.**

O'zbek halqi o'zining qadimgi tasviriy, amaliy, me'morchilik san'atlari va madaniyati bilan faxrlansa arziydi. Chunki, O'zbekiston xududida eramizdan avval ham tasviriy san'atning rangtasvir, haykaltaroshlik, me'morchilik turlari nihoyatda rivojlangan bo'lib, ularning namunalari Varaxsha, Afrosiob, Qalchayon, Tuproq

---

<sup>1</sup> Shuxrat Nazarovich Mamatqulov "CHET ELLARDA TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISH TARIXIDAN. ROSSIYADA QALAMTASVIR O'QITISH METODLARI", Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 5 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 DOI: 10.24412/2181-1385-2022-5-594-600 SJIF: 5,7 | UIF: 6,1, 598-600-bellar.

qal'a, Bolalik tepa, Ayrtom, Dalvarzin tepa, Fayoz tepa. Qo'yqirilgan qal'a, Ajina tepa, Teshik qal'a va boshqalar bir qator joylardan topilgan. Yana shuni ham qayd qilish lozimki, bu asarlar eramizdan avvalgi IV-I asrlarda yaratilgan bo'lib ularning yoshi 5-6 ming yilga to'g'ri keladi. Bu asarlarning badiiyligi hozirgi zamon rassomlari va haykaltaroshlarining asarlaridan qolishmaydi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bunday yuksak badiiy saviyadagi asarlarni o'sha davrda to'plangan ilg'or tajriba, tasviriy san'at maktablarisiz yaratish mumkin emas. Ma'lumki, san'at bir necha avlodning ko'p yillar davomida shakllangan an'analari, ustaning shogirga o'tkazgan bilimlari asosidagina taraqqiy topadi. Bu esa so'zsiz umumiy badiiy ta'lim yo'nalishida bo'lmasa ham, kasbiy badiiy ta'lim shaklida rivojlanganligidan dalolat beradi. Ma'lum davrlarda O'zbekiston xududidagi san'at taraqqiyotida uzilishlar ro'y berganligining sabablari, Iskanadar Zulqaynar, mo'g'illar, arab, rus istilollariga borib taqaladi. Amir Temur mustaqil davlat tuzgan davrda tasviriy san'atning miniatyura turini gullab-yashnagani ham buning yaqqol dalilidir. Amir Temur davrida miniatyura va kitob grafikasi shunchalik tez rivojlandiki, u na faqat Sharq, hattoki Yevropa mamalatlari san'atiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Natijada, Samarqand, Buxoro, Xirotda miniatyura maktablari bilan bir qatorda Bag'dod, Tabriz, Sheroz, Ozarbayjon, Xind, Isfaxon, Turk miniatyura makatblari ham shakllandi va rivojlandi.

Mazkur miniatyura maktablari rassomchilikdan kasbiy ta'lim yo'nalishida rivojlangan bo'lsa-da, lekin ular dan umumiy ta'lim tizimidagi tasviriy san'atni o'qitishda bimalol foydalansa bo'ladi. Xususan, umumiy o'rta

ta'lim maktablari uchun tayyorlangan dasturlarda san'atshunoslik asoslari, rangtasvir va qalamtasvir ishlash, naturaga qarab tasvirlash, borliqni idrok etish bo'limlari mavjud bo'lib, kasbiy badiiy va umumiy badiiy ta'lim tizimlari o'rtasiga qat'iy chegara qo'yib bo'lmaydi. Tasviriy san'atning nazariy asoslari hisoblangan rang, hajm, perspektiva, kompozitsiya asoslari kabilar, ham kasbiy, ham umumiy ta'lim tizimida o'rganiladi. Faqat tasviriy san'atni o'qitilishida talaba va bolalarning yoshlari, idroki, psixologik xususiyatlari, tasviriy malakalari hisobga olinishi lozim, xolos.

Tasiriy san'at tarixida buyuk naqqosh va musavvir Kamoliddin Behzodga Xiroflik Mirak naqqosh ustozlik qilgani, unga miniatyura rangtasviri sirlarini o'rgatgani haqida ma'lumotlar bor. Shuningdek, ustoz Miroq naqqoshning Xirof "Nigoristoni" (San'at akademiyasi) bo'lganligi va unda Komoliddin Behzod tarbiya olganligi ham ma'lum.

Professor Orif Usmonov o'zining "Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi" nomli kitobida Behzod Tabrizda yashagan vaqtda nafis tasviriy san'at maktabini yaratganini qayd qiladi. U yerda musavvir o'z atrofiga eng iste'dodli yoshlarni to'plagan, ularga san'atining sir-asrorlarini o'rgatgani va Tabrizda Sulton Muhammad, Mirzo Amir, Oqo Mirak, Muzaffar Ali, Sulton Muhammad Nur, Shomuxammad Nishopuriy, Yusuf Mullo, Mir Ali, Rizo Abbosiy, Mahmud Muzaxxib, Mavlono Yoriy, Xasan Bag'dodiy, Abdulla Sheroziy, Darvesh Muhammad, Mir Said Ali, Qosim Ali, Xeraviy singari o'nlab iste'dodli musavvirlarni tarbiyalaganligini yozadi. Uning shogirdlari Behzodning tasviriy san'at uslubini davom etirganlari ham rasmiy ma'lumotlardan ayon. O'zbekistonda hozirgi

zamon ta'lim tizimining paydo bo'lishi XX asrning birinchi choragiga to'g'ri keladi.

Rossiyada Oktyabr inqilobi so'zsiz uning mustamlakasi hisbolangan Turkistonga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Yangi tuzum o'zini ko'rsatish maqsadida e'tibordan chetda qolgan chorizimning mustamlaka o'lkalariga e'tibor qaratdi. Shu maqsadda u bir guruh fan va madaniyat vakillarini Turkistonga yubordi. Shulardan bir guruhi Sankt-Peterburg va Moskvalik rassomlar edilar. Ularning bir qismi ijodiy ish bilan shug'ullansalar, ayrimlari yoshlar badiiy ta'limiga o'z e'tiborlarini qaratdilar. Bu rassomlar Turkistonning yirik shaharlarida badiiy studiyalar tashkil etdilar, o'z asarlarining ko'rgazmalarini o'tkazdilar.

O'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitilishiga doir dastlabki ma'lumotlar 1918-yilda Toshkentda badiiy kommuna ochiladi, bir yildan keyin Samarqandda Turkiston o'lka badiiy halq maktabi ishga tushadi.

1920-yilda Andijonda rangtasvir maktabi, Yangi Buxoroda san'at to'garagi tashkil etildi, musulmonlar uchun tasviriy san'at kurslari ochildi. Bir yildan so'ng respublikada badiiy maktab va studiyalar soni 29 taga etdi va unda shug'ullanuvchilar soni 500 kishidan oshib ketdi.

1921-yil kuzida ochilgan badiiy politexnikumda 170 o'quvchidan 150 tasi o'zbeklar edi. 1924-yilda Toshkent tasviriy san'at muzeyi qoshida badiiy studiya ochildi. Unda M. Kupriyanov (Mashhur Kukrinikslar guruhidan), S. CHuykov, mahalliy yosh rassomlardan O'. Tansiqboevlar yoshlar bilan mashg'ulotlar olib bordilar.

1927-yilga kelib Toshkent va 1929-yilda O'zbekiston poytaxti hisoblangan Samarqandda badiiy bilim yurti tashkil etildi. Bu bilim yurtlariga ko'proq mahalliy yoshlar qabul qilindi. Bu bilim yurtlarining asosiy maqsadi rassomlar

tayyorlash bo'lsa-da umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun o'qituvchilar tayyorlash borasida ham ma'lum rol o'ynadi. Shu bilan birga ta'lim tizimida estetik va badiiy ta'lim masalalariga ham e'tibor qaratila boshlandi.

1918-yilda umumiy ta'lim maktablari uchun ishlab chiqilgan "Osnovnoe prinsipno ediniy trudovoy shkolo" nomli asosiy hujjatda "Estetik ta'lim deganda qandaydir sodda bolalar san'atini o'qitilishini tushunmaslik lozim, u xissiyot organlari va ijodiy qobiliyatlarni muntazam rivojlantirib boradi va u go'zallikdan zavqlanish va ularni yaratuvchanlik imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu elementdan mahrum qilingan mehnat va ilmiy ta'lim jonsiz gavdaga o'xshab qoladi. Chunki hayotdagi zavq va ijod quvonchi mehnatning ham, ilmning ham yakuniy maqsadidir" deb yozilgan edi. Bu hujjat O'zbekiston maktablari uchun ham asos qilib olindi.

Bolalar ijodi bilan shug'ullanayotgan ko'pchilik rassomlar bolalar ijodini ideallashtirdilar va Yevropada keng fus olgan "Erkin ijod" deb ataluvchi tushukunlikka yuz tutgan nazariyadan kelib chiqqan qarashlarni yoqladilar. Bu yo'nalishdagi mutaxassislar pedagog faqat bola ijodini erkin rivojlantirishi va malakasini oshirishga yordam berishi lozim deb qaradilar. Mana shunday mutaxassislardan biri Peterburglik an'atshunos A. V. Bakushinskiy edi. U o'zining "Xudojestvennoe tvorchestvo i vospitanie" nomli kitobida badiiy tafakkur va badiiy ijodga to'liq erkinlik berish kerak, bolalarning badiiy didini, badiiy asarini "tuzatish", "qotillik hisoblanadi" deb yozdi. Bu fikr o'sha davr pedagogika nazariyasiga tamomila zid edi.

**O'zbekistonda XX asr boshlarida tasviriy san'atni o'qitilishi.** Ma'lumki, jamiyatning tarixiy rivojlanishi bilan kishilarning psixologiyasi ham o'zgarib boradi. Kishilar,

xususan, bolalar esa ularni o'rab olgan muhitda asosan ta'lim bilan tarbiyaning uyushgan qoldagi ta'sirida rivojlanadi. Asrlar davomida yig'ilgan o'zlarining tajriba bilim va malakalarini yoshlarga o'tkazadilar. Natijada yoshlarning dunyoqarashlarini shakllantirish, bilim va ijodiy qobiliyatlarini o'stirish ko'p jihatdan tarbiyaning yo'nalishga bog'liq bo'ladi.

O'qituvchi yoki tarbiyachining ta'sir kuchini tan olmagan, bolalarni o'qituvchidan ajratib qo'ygan "Erkin ijod" nazariyasi yoshlarning badiiy tarbiyasiga ta'sir ko'rsatdi. Bu nazariya O'zbekistonda nashr etilgan dasturlarda va umumiy ta'lim va tarbiyaviy ishlarda o'z aksini topdi.

Xususan, O'zbekiston maktablari uchun 1935-yilda nashr etilgan "Rasm va loy ishi" nomli dasturda "Erkin rasm chizish" bo'limi mavjud bo'lib, bu bo'limga I sinfda 8 soat, II sinfda 6 soat, III sinfda 4 soat, IV sinfda 2 soat vaqt ajratilgan edi. Sobiq ittifoq Hukumatining 5-sentyabr 1931 y. "O nachalnoy i sredney shkole", 25 avgust 1932 y., "Ob uchebnox programmax i rejune v nachalnoy i sredney shkole" nomli qarorlarida maktablar ishini yanada takomillashtirish tadbirlari ishlab chiqilgan bo'lib, ularda ta'lim-tarbiya jarayonida mahalliy materallardan foydalanish ta'kidlab o'tilgan edi. Shu Hukumatning 12 fevral 1933 y. "Ob uchebnikax dlya nachalnoy i sredney shkolo'" nomli qarorida "Har bir o'lka va viloyatlarga halq maorifi kommisariatining ruhsati va uning tasdig'i bilan o'lkashunoslik materiallari asosida boshlang'ich sinflar uchun o'quv kitoblarini nashr etish huquqi berilsin" deb ko'rsatib o'tildi.

Natijada maktab dasturlari qayta ko'rib chiqildi. Rasm darslarining asosini naturaga qarab rasm ishlash,

mavzu asosida rasm ishlash, dekorativ rasm ishlash, san'at haqida suhbat o'tkazish mashg'ulotlari tashkil etdi. Bu dasturlarda o'lkashunoslik materiallari ko'p bo'lmasada, har qalay o'z aksini topdi, eng muhimi bu dasturda darsdagi o'qituvchining yetakchilik roli katta ekanligi belgilab qo'yildi. Mazkur nazariya yuzasidan Rossiyada Ham, Yevropada ham katta tortishuv va tanqidiy fikrlar bildirildi. U badiiy tarbiya sohasida ham salbiy, ham ijobiy rol o'ynadi. Uning salbiy tomoni bolalar ijodiga rahbarlikni inkor etilishi va pedagogika nazariyasiga zid yo'l tutilganligi edi. Ijobiy tomoni esa ko'proq bolalar tasviriy ijodiga etiborni kuchaytirish, bolalar shaxsiga hurmat va muhabbat bilan munosabatda bo'lish, pedagogik hamkorlikka yo'naltirilgan mustaqillik va ijodni ro'yobga chiqarish bilan belgilanadi.

1924-yilga kelib maktab o'quv rejalarida rasm darslari o'z o'rnini topmagan bo'lsa-da ayrim rassomlar bolalar tasviriy ijodini rivojlantirishga harakat qildilar. Ana shunday iqtidorli yosh grafik rassomlardan biri Iskandar Ikromov edi. U 1925-yilda "Maorif va o'qituvchi", keyin "Alanga" jurnallarida rasm chizishga doir maqolalar e'lon qildi. 1932-yilga kelib uning "Rasm chizishni o'rganish qo'llanmasi", 1933-yilda esa "Kitob va jurnallar qanday nashr etiladi" albomi nashr etildi. 1935-yilda rassomning "Harf yozishni o'rgan" kitobi ham chop etildi. Bu maqola va kitoblar yagona mehnat va politexnika maktablari talablari asosida yaratilgan "Rasm" predmeti dasturlariga mos edi. Mazkur ishlar faqat umumiy ta'lim maktablari uchungina emas, balki tasviriy sa'nat studiyalari, klublar, havaskorlik to'garaklari, grafikani mustaqil o'rganuvchilar uchun ham ahamiyatli bo'ldi.

1920-yilgi o'quv rejalarida san'atga doir o'quv predmetlariga tegishli o'rin ajratilmagan bo'lsa-da, 1929-yilga kelib bu kamchilik bartaraf etila boshlandi. Maktablarda maxsus rasm o'quv predmetlari o'qitila boshlandi. Lekin O'zbekiston maktablari Rossiya maktablari uchun yaratilgan dasturlar asosida ishlay boshladi. Bu dasturlar ma'lum miqdorda O'zbekiston sharoitiga moslab lokalizatsiyalashgan edi. Shu munosabat bilan O'zbekiston halq morifi kommissarligi tegishli joylarga yuborilgan xatida shunday deyilgan edi: "Majmuaning maqsadi unga tegishli material mazmuni, majmua bilan ishlash metodlari lokalizatsiya qilinadi. O'qituvchi oldindan o'lkashunoslik materiallarini to'plab olgan holda, o'z tumani hayotiga oid eng xarakterli jihatlarni dasturga kiritadi".

Shu munosabat bilan boshlang'ich sinf "Rasm va loy ishi" dasturiga o'lka materiallari kiritila boshlandi. Ular tevarak-atrof tabiatiga doir narsalar, O'zbekiston halq amaliy san'atiga doir materiallar edi.

Tasviriy san'at predmeti metodikasi shakllanishida 1934-yilda Toshkentda, keyinchalik Respublikamizning har bir viloyat markazlarida tashkil etilgan "Markaziy badiiy tarbiya uylari" katta rol o'ynadi. Bu tarbiya uylari o'quvchilarni badiiy jihatdan tarbiyalashga oid dasturiy va metodik materiallarni ishlab chiqdi. Badiiy tarbiya uylarida boshqa sho'ba bilan bir qatorda tasviriy san'at sho'basini ham bo'lib, unda uch yillik tasviriy san'at studiyasi ham tashkil etilgan edi.

Bu badiiy tarbiya uyidagi ikkinchi sho'ba bolalar rasmlarining ko'rigini tashkil etish bilan shug'ullangan. Uchinchi sho'ba esa nihoyatda serqirrali bo'lib, uning asosiy vazifasi bolalar bilan rasm darslarida ish olib

boruvchilarga metodik yordam ko'rsatish hisoblanardi. Shuningdek, bu sho'ba qo'yidagi ishlarni ham olib borgan:

- tasviriy san'at studiyalari uchun mashg'ulotlar dasturini ishlab chiqish;

- maktab tasviriy san'at to'garaklari uchun mashg'ulot mavzularini ishlab chiqish;

- 1-6 sinflarda rasm mashg'ulotlarining mazmuni va mavzularini ishlab chiqish;

- 1-6 sinflarda rasm darslarining ahvolini o'rganish va o'qituvchilarga metodik yordam ko'rsatish;

- shahar maktablarining rasm o'qituvchilari uchun seminar tashkil etish;

- Respublika viloyatlaridan kelgan o'qituvchilar va to'garak rahbarlari uchun seminarlar tashkil etish va ularga tegishli yordam ko'rsatish.

1936-yildan boshlab Respublika miqyosida yuzaga kelgan pioner uyi va saroylari ta'lim-tarbiya, omnaviy-badiiy, texnikaviy, tabiatshunoslik kabi bir qator ish shakllarini o'zida mujassamlashtirgan muassasa ekanligini ko'rsatdi. Natijada, badiiy tarbiya uylarining vazifalari ana shu pioner uylari va saroylariga olib berildi. Pioner uyi va saroylarining soni yildan-yilga oshib borib, sifat jihatdan yangi mazmun kashf eta boshladi.

Respublikamiz uchun tayyorlangan va nashr etilgan dasturlar mazmuni va vazifasi jihatidan Rossiya maktablari uchun tayyorlangan dasturdan deyarli farq qilmagan, lekin uning hamma bo'limlarida mahalliy sharoit va materiallar ma'lum miqdorda hisobga olingan edi. Xususan, narsaga qarab rasm chizish darslarida Respublikamizga xos bo'lgan predmetlar va tabiat mahsulotlari, dekorativ ishlar bo'limida o'zbek amaliy san'at namunalarini chizdirish tavsiya etilgan edi.

1939-yillarda maktablarda rasm darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarda tasviriy malakalarni o'stirish, ko'proq rasm chizishga o'rgatishdan iborat bo'lishi lozim deb topildi. Shuning uchun ham rasm darslarida tarbiyaviy tomonlarga yetarlicha e'tibor berilmadi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida va qisman undan keyingi yillarda ham rasm darslarining vazifalari o'zgardi, uning mazmunida ta'limdan ko'ra tarbiyaviy jihatlar kuchaytirilgan bo'lib, unda asosiy e'tibor vatanparvarlik va baynalminal tarbiyaga qaratildi. Shu maqsadda rasm darslari vatanparvarlik va baynalminal mazmundagi tasviriy san'at asarlari bilan boyitildi. Ular ko'proq rassomlarning nemis-fashist bosqinchilarining kirdikorlarini ochib tashlashga qaratilgan asarlardan iborat edi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng "Rasm" predmetining o'qitilishiga e'tibor kuchaytirildi va u maktab o'quv rejalarida tegishli o'rinni egalladi. 1947-48 o'quv yili uchun tuzilgan o'quv rejada "Rasm" uchun haftasiga I-sinfda 1 soat, II- sinfda 1 soat, III-IV-sinflarda 0,5 soat, V-sinfda 1 soat vaqt ajratilgan bo'lib, natijada umumiy haftalik soatlar 4 soatni tashkil etdi.

1950-60 yillar davomida tayyorlangan va nashr etilgan dasturlarda "Rasm" o'quv predmetining vazifasi urushga qadar tuzilgan dasturlardan farq qildi. 1953-yilda nashr etilgan dastur "Rasm solish" deb nomlanib u o'quvchilarni tarbiyalashda katta rol o'ynashi ta'kidlangan bo'lsa, 1956-yilda nashr etilgan "Rasm" dasturida esa bu predmetning vazifasi o'quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalash vazifasiga xizmat qiladigan va o'quvchilarni har tomonlama kamol toptirishga yordam beradigan o'quv predmetlaridan biridir deb ko'rsatildi. 1958-59 o'quv yiliga kelib, o'quv rejasida rasm chizishga

ajratilgan soatlar oshdi va u 1-6 sinflarda qaftasiga I soatdan o'qitila boshlandi.

Umuman olganda, 50-yillarda Respublika hukumati tomonidan maktablarda rasm predmetining o'qitilishiga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Bu avvalo maktablar uchun o'qituvchi kadrlar tayyorlashda o'z aksini topdi. Ma'lumki, maktabda badiiy ta'limni rivojlantirish ko'p jihatdan pedagogik kadrlar tayyorlashga bog'liq edi. 1950-yillarda bu masala bilan Samarkand va Toshkent badiiy bilim yurtlarini birlashtirish natijasida tashkil topgan P. P. Benkov nomidagi badiiy bilim yurti shug'ullana boshladi. Bu badiiy bilim yurti halq xo'jaligini, xususan umumta'lim maktablarini yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondira olmasa-da, maktablarda rasm o'quv predmetlarning o'qitilishini sifat jihatidan yaxshilashga ma'lum miqdorda ta'sir ko'rsatdi. Bu ta'sir maktablar bilan bir qatorda, maktabdan tashqari olib boriladigan seminar, konferensiya, yig'ilishlarda ham o'z ifodasini topdi. Shuningdek, badiiy bilim yurtini bitirib chiquvchilar maktablarda tashkil etilgan ko'rgazmalarda ham ishtirok etdilar.

Tasviriy san'atning o'qitilishini takomillashtirishda 1955-yilda Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika institutida tashkil etilgan badiiy-grafika fakulteti katta rol o'ynadi. Mazkur fakultetda kunduzgi, kechki va sirtqi bo'limlar orqali yuqori malakali kadrlar tayyorlana boshlandi. Shuni ham qayd qilish lozimki, mazkur fakultetda dastlabki yillarda kadrlarni kasbiy tayyorgarligi ancha yuqori bo'lib, o'sha yillar bu fakultetda mashg'ulotlarni Respublikamizning yirik rassomlari olib bordilar. Masalan, O'zbekiston halq rassomi A. Abdullaev, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan rassomlar Y. Elizarov, M. Saidov, A.

Yurovskiy, T. Oganosov, shuningdek Leningrad badiiy akademiyasini va Moskva badiiy institutini yangigina bitirib kelgan yosh lekin talantli rassomlar R. Choriev, N. Kovinina va boshqalar shular jumlasidandir.

1964-70-yillarda kadrlar tayyorlash boshqa yo'nalishlarda amalga oshirildi. Bu davrda boshlang'ich sinf metodikasi fakultetlarida "Boshlang'ich sinf va tasviriy san'at o'qituvchisi" mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlandi. Bunday yo'nalishlardagi mutaxassislar Toshkent, Urganch, Qarshi, Namangan pedagogika institutlarida tayyorlandi. Keyinchalik bu yo'nalish o'zini oqlamagach, yana Toshkent va Buxoro pedagogika institutlarida badiiy-grafika fakultetlari ochildi. 1970-yilda tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchisi mutaxassisligi bo'yicha Toshkent va Buxoro pedagogika institutlari bilan bir qatorda Andijon, Kattaqo'rg'on, Samarqand, Angor, Xiva, Xo'jayli, Shahrixon pedagogika bilim yurtlarida ham kadrlar tayyorlana boshlandi

1980-yil boshlarida tasviriy san'at o'qituvchisi ixtisosligi bo'yicha yiliga tayyorlangan kadrlar soni 800 kishidan ortdi. Bu faqat O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarining tasviriy san'at o'qituvchilariga bo'lgan ehtiyojlarini yaqin yillarda qondirish mumkinligini bildirar edi.

Bolalarga rasm chizishni o'rgatish bo'yicha ilmiy, metodik ishlar ko'lamini kengaytirish maqsadida 1960-yilda O'zbekiston pedagogiki fanlari ilmiy tadqiqot instituti qoshida musiqiy-badiiy ta'lim bo'limi tashkil etildi. Bu bo'lim O'zbekiston maktablarida tasviriy san'atni o'qitish metodikasiga doir bir qator dolzarb masalalarni tadqiqot qilishga kirishdi. Ular "Tasviriy san'atdan 1-3 sinf o'quvchilarining bilim, malaka va

ko'nikmalari darajasini aniqlash" "Narsaga qarab rasm chizish mashg'ulotlari samaradorligini oshirish yo'llari", "Boshlang'ich sinflarda mavzu asosida rasm chizish jarayonida estetik tarbiya" "O'zbekiston maktablarida tasviriy san'atni o'qitishning mazmuni va metodikasini takomillashtirish", "O'zbekiston dekorativ-amaliy san'ati vositasida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni estetik tarbiyalash", "Estetika asoslari va san'atshunoslik" dan fakultativ kurs, "O'zbekiston umumta'lim maktablarida naqqoshlik to'garagi mashg'ulotlarining mazmuni va metodikasi", "Maktabda tasviriy san'atni boshqa o'quv predmetlari bilan o'zaro bog'liqligi" va boshqa tadqiqotlar shular jumlasidandir. O'tkazilgan tadqiqotlarning natijalari asosida maktablar uchun dasturlar, darsliklar, qo'llanmalar, ilmiy, metodik tavsiyalar ishlab chiqildi va ular Respublika maktablariga tadbiiq qilindi. Yana bu bo'lim o'z faoliyati davomida tasviriy san'atni o'qitishga doir ilmiy xodim, tadqiqotchi-aspirantlar hamkorligida quyidagi ishlarni tayyorladi va nashr etdi: "Tasviriy san'at" (1-3 sinflar uchun dastur. -Toshkent: O'qituvchi, 1965-1981); "Tasviriy san'at" (4-6 sinflar uchun dastur. -Toshkent: O'qituvchi, 1967-1981); "Naqqoshlik" (Maktab va pioner uylari va saroylari uchun dastur. -Toshkent: O'qituvchi, 1976); "Tasviriy san'at va loy ishi" (Maktab tayyorlov guruhlari dastur. Toshkent, 1980.) kabilar shular jumlasidandir.

1965-yildan boshlab Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutining estetik tarbiya bo'limida tasviriy san'at o'qitish metodikasi bo'yicha olib borilayotgan ishlarni tartibga solish maqsadida darslik yaratishga kirishildi. 1969-yilda I-sinf uchun "Tasviriy san'at" (A. Jilsova, R. Hasanov); 1974-yilda II sinf uchun "Tasviriy san'at" (R.

Hasanov, A. Jilsova); 1976-yilda III sinf uchun “Tasviriy san’at” (R. Hasanov, A. Jilsova); 1977 yilda IV sinf uchun “Tasviriy san’at”

(R. Hasanov, B. Oripov va boshqalar) nashr etildi. 1-3 sinflar uchun nashr etilgan darsliklar keyingi yillarda bir necha bor qayta chop etildi. 1970-yildan boshlab maktablarda tasviriy san’atni o’qitish muammosi yuzasidan estetik tarbiya sho’basi qoshida Toshkent va Buxoro pedagogika institutlarining o’qituvchilari, Ushinskiy nomidagi o’qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash Markaziy instituti va viloyat o’qituvchilari malakasini oshirish institutining metodistlari, O’zbekiston maorif vazirligining metodistlari, aspirant-tadqiqotchi sifatida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordilar. Mazkur masalalar bilan bir qatorda maktab tasviriy san’at o’qituvchilari ham shug’ullandilar. O’zbekiston umumta’lim maktablarida tasviriy san’atni o’qitishni yaxshilashda olib boriladigan tadqiqotlarning natijasi sifatida quyidagi nashr qilingan metodik qo’llanma va ko’rgazmali qurollar alohida ahamiyat kasb etdi: “Narsaning o’ziga qarab rasm chizish” (R. Hasanov), – Toshkent: O’qituvchi, 1969; “Boshlang’ich sinflarda naqsh chizish metodikasi” (R. Hasanov), – Toshkent: O’qituvchi, 1972; “Tasviriy san’atdan tablitsalar” (R. Hasanov),- Toshkent: O’qituvchi, 1975 ; “ 1-3 sinflarda tasviriy san’at darslari” (R. Hasanov),- Toshkent: O’qituvchi, 1977; “ Rasm chizish va uni o’qitish metodikasi” (Z. Egamberdiev, R. Hasanov va boshqalar),- Toshkent: O’qituvchi, 1977; “Tema asosida rasm chizish jarayonida estetik tarbiya” (R. Hasanov),-Toshkent: O’qituvchi, 1980; “Boshlang’ich sinflarda tasviriy san’at darslari” (R. Hasanov), - Toshkent: O’qituvchi, 1983; “Yosh avlodni san’at vositasida estetik

tarbiyalash” (R. Hasanov), -Toshkent: O‘zbekiston, 1982; “Maktab chizmachilik, tasviriy san‘at kabinetlarini tashkil etish va o‘quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar” (B. Oripov), -Toshkent: O‘qituvchi, 1974; “Tasviriy san‘at dasrlari samaradorligini oshirish omillari” ( B. Oripov), - Toshkent: O‘qituvchi, 1978; “Naqqoshlik” (Q. Qosimov), -Toshkent: O‘qituvchi, 1982. Yana shu narsani ham quvonch bilan ta’kidlab o‘tish lozimki, Pedagogika fanlari institutining estetik tarbiya bo‘limi 1970-yildan boshlab muntazam ravishda maqolalar to‘plamini nashr eta boshladi. Bu to‘plam bo‘lim ilmiy xodimlari, tadqiqotchi-aspirantlarning ishlaridan tashkil topgan bo‘lib, ularda tasviriy san‘atni o‘qitishga katta o‘rin ajratilgan edi.

Tasviriy san‘atning o‘qitilishini yaxshilashda A. Shohamidov, M. Nabievlarning 1964-yilda nashr etilgan “I-IV sinflarda rasm darslari” metodik qo‘llanmasi, O. Apuxtinning 1965-yilda nashr etilgan “San‘at haqida suhbatlar” nomli qo‘llanmalari o‘qituvchilar tomonidan iliq kutib olindi. 1970-yilga kelib tasviriy san‘at o‘qituvchilarining ish tajribalari ko‘zga ko‘rina boshladi va ularning faoliyatlari ancha faollashdi. Natijada mamlakatimizda bir qator mahoratli o‘qituvchilar A. Shohamidov (Toshkent shahri, 22 maktab), E. Risqullaev (Toshkent shahri, 81-maktab), Belonoshkin (Toshkent shahri, 188-maktab), O. Dadaxonov (Namangan shahri, 26-maktab), A. Abdullaev (Shahrixon shaxri, 1-maktab), I. Boboniyozov (Urganch shahri, 35 maktab-internat), G. Turobboev (Namangan shaxri, 29-maktab), K. Mansurov (Toshkent viloyati, 27-maktab), P. Mustafoev (Shahrisabz shahri, 6-maktab), A. Mannopjonov (Namangan viloyati, 12-maktab) va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Shuningdek, Respublika pedagogik o‘qishlariga

qatnashayotgan muallimlar soni ham ortadi. Masalan, 1963-yilgi Respublika pedagogika o'qishlarida bironta ham tasviriy san'at o'qituvchisi qatnashmagan bo'lsa, 1970-yilga alohida estetik tarbiya sho'basida tashkil etildi. 1972-yilda esa "Estetik tarbiya" sho'basida "Tasviriy san'at" kichik sho'basida ish olib bordi va unda 17 ma'ruza tingladi. Keyingi pedagogik o'qishlarda ma'ruzachilarning soni yana ham ko'payib bordi. Ta'lim-tarbiya jarayonida yaxshi natijalarga erishib, pedagogik o'qishlarda muvaffaqiyatli qatnashganliklari uchun bir qator taniqli o'qituvchilar vazirlikning mukofotlariga ham sazovor bo'ldilar. Tasviriy san'at o'qituvchilarining mahoratini oshirish va ilg'or pedagogik tajribalarni tashviqot qilishda Respublika miqyosida o'tkazilayotgan seminar va konferensiyalar katta rol o'ynadi.

1969-yilda estetik tarbiyaga bag'ishlangan Respublika seminar kengashi 1970-yilga kelib an'anaviy Respublika konferensiyaga aylandi va u har yili galmagdan Respublikamizning viloyatlarida o'tkazib turildi. Samarqand, Jizzax, Xorazm, Buxoro, Namangan, Andijon konferensiyalarida o'qituvchi, tarbiyachi, halq maorifining rahbar-xodimlari bilan bir qatorda ilmiy xodimlar, metodistlar ham ma'ruzalar bilan ishtirok etdilar. Ma'ruzalarda dolzarb masalalarni ko'tarib chiqdilar. Bunday ilmiy-amaliy konferensiyalar faqat Respublika miqyosida emas, balki viloyat, shahar, tuman miqyosida ham o'tkazib turildi.

O'zbekiston vazirlar mahkamasining 1966-yil 31-dekabr qaroriga muvofiq, O'zbekiston Vazirlar kengashining 1967-yil 22-martidagi farmoyishi asosida O'zbekiston maktablaridagi ta'lim mazmunini aniqlash bo'yicha komissiyalar tuzildi. Boshqa fanlar qatori

maktablarda tasviriy san'at bo'yicha ham komissiya ishladi. Bu komissiyaga maktab o'qituvchilari, halq maorifining xodimlari, metodist, ilmiy xodim, rassom, san'atshunoslar jalb etildi.

"Tasviriy" san'at deb nomlangan yangi dastur loyihasi shu vaqtgacha amalda qo'llanib kelingan "Rasm" predmeti asosida O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutida yaratildi.

Uni tuzishga yuqorida qayd etilgan qaror asos bo'ldi:

a) maktabda ta'limning mazmuni va strategiyasini fan, texnika va madaniyat taraqqiyotining hozirgi darajasiga mos keltirish;

b) maktabda ta'lim va tarbiyani Hayot bilan, mehnat bilan bog'lanishini yanada mustahkamlash;

v) bir-biriga bog'liq bo'lgan o'quv fanlari o'rtasida aloqa o'rnatish. Bu orqali o'qitish samaradorligini oshirish, zarur bilimlarni egallashda bolalarning bilish va fikrlash qobiliyatlarini o'stirishga yordam berish;

g) o'quvchilarning o'quv mashg'ulotlari va mustaqil ishlarining kengaytirilishi, ularni ortiqcha ish bilan band qilmaslik va xokazolar. Shuningdek, dasturni tuzishda quyidagi tomonlar ham hisobga olindi:

a) so'nggi yillarda yaratilgan O'zbekiston tasviriy san'ati asarlaridan keng foydalanish;

b) boshlang'ich ta'limni 1-3-sinflar bilan chegaralanishi munosabati bilan boshlang'ich va 4-6-sinflarda tasviriy san'at mashg'ulotlari mazmuniga aniqlik kiritish;

v) zamon talablari asosida tasviriy san'at predmetining vazifalarini aniqlash;

g) naturadan rasm chizish darslari uchun o'zbek halqining hayotida keng qo'llaniladigan narsalar va iste'mol buyumlaridan keng foydalanish;

d) dekorativ rasm darslarida o'zbek halq amaliy san'ati namunalaridan chizish uchun tavsiya etish.

Mazkur dasturda shartli ravishda hajmsiz deb hisoblangan narsalarning rasmini (papka, daftar, portfel, barg va boshqalar) ishlash 1-3- sinflardan 4- sinfga ko'chirildi.

1967-1968-o'quv yilidan boshlab yangi dastur loyihasi Respublikamizning Namangan, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahrining qator maktablarida sinab ko'rildi.

O'zbekiston Maorif vazirligi va O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutining tekshiruvlari natijasida yangi ta'lim mazmuni ko'pchilik o'quvchilar tomonidan yaxshi o'zlashtirilmayotganligini ko'rsatdi. Shuningdek, dasturdagi badiiy qurish-yasashga doir materiallar esa o'quvchilar kuchiga mos emasligi ham ma'lum bo'ldi. Shuning uchun bu bo'lim keyingi yillarda dasturdan chiqarib tashlandi.

Yangi dastur o'quvchilarning estetik tarbiyasiga aloqador bo'lgan tashkilotlar muassaslar, uyushmalarning faoliyatini qo'yidagi yo'nalishlarda faollashtirishni nazarda tutgan edi:

a) har yili mantazam ravishda o'quvchilar rasmlari respublika ko'rgazmalarini o'tkazish;

b) tasviriy san'at bo'yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish natijasida maktab to'garaklari, san'at maktablari, pedagogika bilim yurtlari va institutlari uchun bir qator dastur, darslik, qo'llanma va to'plamlar tayyorlash va nashr etish;

v) umumiy ta'lim maktablarida yirik rassomlar asarlaridan ko'chma ko'rgazmalar tashkil etish;

g) O'zbekiston rassomlar uyushmasi qoshida o'quvchilar estetik tarbiyasi bo'yicha komissiya tashkil etish.

Maktablarda so'nggi yillarda tasviriy san'atning o'qitilishini yaxshilash bo'yicha bir qator yirik tadbirlar o'tkazilgan bo'lsa-da bu sohada keskin o'zgarishlar ro'y bermadi. Chunki, ko'pchilik tasiriy san'at o'qituvchilari maxsus ma'lumotga ega emas edilar. Benkov nomidagi badiiy bilim yurtini birtiruvchilarining ko'pchiligi maktablarda tasviriy san'atdan haftalik dars soatlari kam bo'lganligi sababli u yerda ko'p qo'nim topishmas edi.

Oliy maxsus ma'lumotli o'qituvchilar tayyorlaydigan Nizomiy nomli TashDPIning badiiy-grafika fakultetining bitirib chihayotgan yoshlarning o'qituvchilik faoliyatlari ham ana shunday tugardi.

Tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchilarining etishmasligi unga jiddiy e'tibor berishlikni talab etdi. Natijada O'zbekiston maorif vazirligi kollegiyasining 1974-yil 26-avgustda "Pedagogika o'quv yurtlarida musiqa va ashula, tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchilarini tayyorlash va bu predmetlarning Respublika umumta'lim maktablari va pedagogika o'quv yurtlarida o'qitilishini yanada yaxshilash haqida" gi qaror qabul qilindi.

O'zbekiston maorif vazirligining mazkur qarori Qoraqalpog'iston Respublikasi maorif vazirligi, Respublika viloyatlari, Toshkent shahar halq maorifi bo'limlariga hamma umumta'lim maktablari, o'quv yurtlarini maxsus ma'lumotli mutaxassislar bilan ta'minlash choralarini ko'rishni, vazirlikning reja-moliya boshqarmasiga, oliy va o'rta maxsus pedagogika o'quv yurtlarining musiqa, badiiy-grafika fakultetlarida musiqa, tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchilarini kechki va sirtqi bo'limlarida ham tayyorlashni maqsadga muvofiqligini ko'rib chiqishni yukladi.

Tasviriy san'atning o'qitilishini yaxshilash borasida qabul qilingan O'zbekiston maorif vazirligi kollegiyasining O'zbekiston rassomlar uyushmasi boshqarmasi bilan hamkorlikdagi 1979-yil 27-iyunda "Maktabgacha tarbiya muassasalarining tarbiyalanuvchilari, o'qituvchilar va pedagogika o'quv yurtlarining o'quvchi-yoshlari badiiy tarbiyasini yanada yaxshilash choralari haqida" qabul qilgan qarori salmoqli o'ringa ega bo'ldi.

Qarorda o'tgan davrda tasviriy san'at bo'yicha halq maorifi va rassomlar uyushmasi tizimida qo'lga kiritilgan yutuqlar tilga olindi va kamchiliklar, ularning bartaraf etish yo'llari ko'rsatildi. Xususan, unda Qoraqalpog'iston Respublika viloyatlari, Toshkent shahar halq maorifi bo'limlariga, pedagogika o'quv yurtlarining rahbarlariga tezkorlik bilan maktabgacha va maktabdan tashqari tarbiya muassasalari, maktablar, pedagogika o'quv yurtlarida badiiy tarbiyani yaxshilashning aniq tadbirlarini ishlab chiqish topshirilgan edi.

1980-yilning aprelida Toshkentda "O'quvchi yoshlar badiiy tarbiyasininig ahvoli va uni yaxshilash choralari haqida" deb nomlangan seminar, kengash o'tkazilishi mazkur qarorni bajarishdagi dastlabki qadam bo'ldi. Mazkur tadbirni Maorif vazirligining tarbiyaviy ishlar bo'limi, rassomlar uyushmasi bilan hamkorlikda o'tkazdi. Kengashda 400 dan ortiq o'qituvchi, tarbiyachi, halq maorif xodimlari, ilmiy xodimlar ishtirok etdi, yuzdan ortiq ma'ruzalar tinglandi va tavsiyalar ishlab chiqildi.

1981-yil martida sobiq ittifoq rassomlar uyushmasining tashabbus asosida Toshkentda navbatdan tashqari "O'quvchi yoshlarni badiiy-estetik tarbiyalashning vazifalari" mavzusida Butunittifoq ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi.

1981-yil O'zbekiston maorif vazirligi T. N. Qori Niyoziy nomidagi pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutiga tasviriy san'atdan yangi dastur loyihasini ishlab chiqishni topshirdi.

O'zbekiston umumta'lim maktablarining boshlang'ich (1-3) sinflari va IV-VI sinflar uchun "Tasviriy san'at" yangi dasturlari tayyorlandi va unda quydagilarga rioya qilindi:

1. O'zbekiston tasviriy va amaliy san'atlari, adabiyot va musiqa asarlaridan o'rinli foydalanish.

2. O'zbekiston tabiati, tabiat mahsulotlari, turmushda qo'llaniladigan narsalardan keng foydalanish.

3. O'zbekiston ko'p millatli Respublika ekanligini hisobga olgan holda baynalminal tarbiyaga ko'proq e'tibor berish.

4. Materiallar tanlashda O'zbekiston maktablari o'qituvchilarining bilim darajalari past ekanligini hisobga olish.

5. O'zbekiston maktablari o'qituvchilari badiiy qiziqishlarini hisobga olish.

Yangi dasturga o'tish bo'yicha O'zbekiston maorif vazirligida keng ko'lamdagi ish rejasi ishlab chiqildi. Unda yangi dastur bo'yicha o'qituvchilarni qayta tayyorlash, o'quv metodik majmualar ishlab chiqish va nashr etishga alohida e'tibor berilgan edi. Xususan, tasviriy san'atdan I-III- va IV-VI sinflar uchun dasturlar tayyorlandi va nashr etildi.

Keyinchalik yangi dasturlar asosida R. Hasanovning "Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'at darslari", "Birinchi sinfda tasviriy san'at darslari", "Ikkinchi sinfda tasviriy san'atni o'qitish", "Uchinchi sinfda tasviriy san'at darslari", "Maktabda tasviriy san'atni o'qitishni takomillashtirish yo'llari" nomli metodik qo'llanmalari chop etildi.

O'zbekiston maktablarida tasviriy san'atni o'qitishga doir Respublikada birinchi bor "O'zbek maktablarida badiiy ta'lim va tarbiyaning metodik asoslari" nomli monografiya R. Hasanov muallifligida tayyorlandi va "Fan" nashriyoti tomonidan nashr etildi. Bu davrlarda R. Hasanovning "Tasviriy san'at", "O'zbekiston tasviriy san'ati tarixi" nomli fakultativ mashg'ulotlar dasturlari birinchi bor ishlab chiqildi va maktablarga etkazildi.

Bu davrga xos bo'lgan jihatlardan yana biri tasviriy san'at talimi mazmunini takomillashtirish edi. Shu maqsadda 1-4-sinflar uchun "Tasviriy san'at va badiiy mehnat" dasturlari yaratildi. Bu dasturlar tasviriy san'atni xar bir sinfdan qaftasiga 2 soatdan o'qitilishiga mo'ljallab tuzilgan edi.

Shuningdek, bu davrlarda to'garaklar uchun Q. Qosimovning "Naqqoshlik", A. Vosiqovning "Rangtasvir", A. Mirzaxmedovning "Yog'och o'ymakorligi", O. Xudoyorovanning "Kashtachilik" dasturlari ham nashr etildi. 1980-yillarda O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitishni takomillashtirish maqsadida keng ko'lamda kadrlar tayyorlash, ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar o'tkazish, o'qituvchilarni tegishli ilmiy va metodik adabiyotlar bilan ta'minlash, san'at bayramlari tanlovlar o'tkazish kabi bir qator ishlar amalga oshirildi. Shunga qaramasdan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitilishi talablar darajasida bo'la olmadi. Chunki, maktablarda dars olib borayotgan o'quvchilarning ko'pchiligi maxsus ma'lumotga ega emas edilar.

Tasviriy san'atni o'qitishdagi moddiy-texnikaviy asos, xususan, darslar uchun zarur bo'lgan gipsli geometrik shakllar, qush va hayvon tulumlari, meva va sabzavotlarning

mulyajlari, tablitsa va reproduksiyalar, dipozitiv, diafilm, kinofilmlar Rossiyadan keltirilayotganligi sababli ular ko'pchilik maktablarda mavjud emasdi. Maktablarda xonalarning etishmasligi oqibatida ko'pchilik joylarda tasviriy san'at xonasi tashkil etilmay qolardi<sup>1</sup>.

### **15-Mavzu: Mustaqillik yillaridagi tasviriy san'atni o'qitilishi.**

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab Respublikamizda halq ta'limini tubdan isloh qilish, uni jahonning rivojlangan mamlakatlari darajasiga olib chiqish masalasi kun tartibiga qo'yildi. Shu maqsadda 1992-iyulda "Ta'lim tug'risida" gi qonun e'lon qilindi. Bu hujjatda ko'rsatilgan reja va tadbirlarni amaliyotga joriy etish davlat siyosatining ustivor yo'nalishi deb qaraldi.

Natijada umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi barcha o'quv fanlari qatori "Umumta'lim maktablarida tasviriy san'at ta'limi konsepsiyasi" ham tayyorlandi va u O'zbekiston halq ta'limi vazirligi kollegiyasining 5-may 1993-yilgi 5-5 sonli qarori bilan tasdiqlandi. Mazkur konsepsiyada qayd qilinganidek, uni tayyorlashda quyidagi omillar hisobga olingan edi:

- mustaqil O'zbekiston sharoitidagi o'zbek bolasini shakllantirishga bo'lgan zamonaviy talablar;

- ta'lim-tarbiyani milliy madaniyat va san'at asosida amalga oshirishni kuchaytirish;

- ta'lim-tarbiyani amalga oshirishda O'zbekiston Sharq mamlakati ekanligini hisobga olish va shu asosda badiiy ta'lim mazmuniga tegishli o'zgartirishlar kiritish;

---

<sup>1</sup> <https://fayllar.org/orta-osiyo-va-ozbekistonda-tasviriy-sanatni-oqitilishi.html?page=4>

- maktabdagi badiiy ta'limni amalga oshirishda bolalarni fikrlashga, ishga ijodiy munosabatda bo'lishlikni kuchaytirish, ularni yuksak did va madaniyatli qilib shakllantirishga qaratish;

- maktabda bolalarni tasviriy san'atdan bilim va malakalarni puxta egallashlariga qaratish, shu asosda tabaqalashtirilgan badiiy ta'limni joriy etish;

- O'zbekiston maktablarida tasviriy san'at ta'limi mazmunini dunyo standartlari darajasiga olib chiqish.

Bu g'oyalar so'zsiz barkamol komil insonni shakllantirishga zamin bo'lib, unda tasviriy san'atni o'qitishning yaqin va uzoq yillarda rivojlantirishga mo'ljallangan yo'nalishlari bayon etildi.

Konsepsiyadan tegishli xulosalar chiqargan holda tasviriy san'atdan davlat ta'lim standarti va variativ dasturlarni ishlab chiqish ishlari boshlab yuborildi. Natijada 1-4-sinflar uchun 270 soatga mo'ljallangan "Tasviriy san'at va badiiy mehnat", 1-7-sinflar uchun 245 soatga mo'ljallangan "Tasviriy san'at" dasturlari tayyorlandi. Shuningdek, 1-8-sinflar uchun mo'ljallangan 560 soatli "Tasviriy san'at" dasturi ham ishlab chiqildi. Bu dasturlar ko'p nusxada nashr etilib, amaliyotga joriy etildi. Yangi dastur milliy mustaqillik mafkurasi asosida tayyorlangan bo'lib, u tasviriy san'at o'quv predmetining maqsad va vazifalari, ta'lim mazmuni, moddiy-texnikaviy asoslarda o'z ifodasini topdi. Tasviriy san'at darsliklarini yaratish bilan bir qatorda o'qituvchilar uchun o'quv-metodik adabiyotlar ham tayyorlandi. Natijada R. Hasanov va X. Egamovlarning birinchi sinf o'qituvchilari uchun "Tasviriy san'at va badiiy mehnat darslari" (-Toshkent: O'qituvchi, 1997), R. Hasanovning 5-sinf o'qituvchilari

uchun "Tasviriy san'at darslari" (-Toshkent: O'qituvchi, 1997.) nomli qo'llanmalari chop etildi.

Yangi dasturlar asosida tasviriy san'at darsliklarini yaratish muammosi paydo bo'ldi. Natijada 1996-1998-yillar davomida 1-4-sinflar uchun "Tasviriy san'at va badiiy mehnat" darsliklari yaratildi, biroq ulardan 1998-yilda faqat birinchi sinf darsligi chop etildi, xolos. Mazkur darslik O'zbekiston maktablari uchun rus, qozoq, qirg'iz, turkman, tojik, qoraqalpoq tillarida ham nashr etildi. Boshqa sinflari esa 1999-yilda yangi o'quv rejalari va ta'limning davlat standartlari ishlab chiqilishi munosabati bilan nashr etilmay qoldi. Ta'limning davlat standartida bu o'quv predmetiga har bir sinfdan haftasiga bir soatdan vaqt ajratilgan edi. R. Hasanovning fakultativ mashg'ulotlar uchun "Tasviriy san'at" (1989), "O'qituvchining o'zi ustida mustaqil ishlash dasturi" (1993), "Tasviriy san'at darsliklarini yaratish mezonlari" (1994), O. Xudoyorovning "O'zbekiston maktablarida tasviriy san'atni o'qitish tarixidan" (1993), B. Boymetov va N. Tolipovlarning "Maktabda tasviriy san'at to'garagi" (1995) nomli risollari ham amaliyotchilarga etkazildi. O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutining "San'at va chizmachilikni o'qitish nazariyasi va metodikasi" bo'limida "O'quvchilarni tasviriy san'atdan mustaqil ishlari", "Tasviriy san'atdan sinfdan tashqari ishlar metodikasi"ga oid tadqiqotlar ham olib borildi. 1995-yilda buyuk naqqosh va musavvir Kamoliddin Behzod tavalludining 540-yilligi munosabati bilan pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutida "Kamoliddin Behzod hayoti va ijodini o'rganishning pedagogik ahamiyati" mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumani o'tkazildi. 2000-yilda esa Kamoliddin Behzod tavalludining 545-yiligi munosabati bilan "Kamoliddin Behzodni jahon

tasviriy san'ati va ta'lim tizimiga ta'siri" mavzusida ana shunday anjuman o'tkazildi. Ikkala anjuman materiallari ham to'plam shaklida chop etildi.

1997-yilda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hujjatlarining e'lon qilinishi katta tarixiy voqea bo'ldi. U amaldagi ta'lim tizimidan tubdan farq qiluvchi yangi tizim bo'lib, unda ta'lim sohasini 1997-2006 va undan keyingi yillar uchun ish rejasi va taraqqiyoti belgilab berilgan edi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da estetik turkumdagi fanlarni o'qitilishiga alohida e'tibor berilgan bo'lib, xususan uning "Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari" qismida uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish prinsiplaridan biri ta'limning ijtimoiylashuvi deb qaraldi. Unda ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish lozimligi qayd etiladi. Ushbu Hujjatda dasturni ro'yobga chiqarishning birinchi bosqichida barcha fanlardan davlat ta'lim standartlarini yaratish va amaliyotga joriy etish belgilab berildi. Barcha fanlar qatori "Tasviriy san'at" o'quv predmetidan ta'limning davlat standarti ham tayyorlandi. Mazkur standartda o'quvchilarni 1-7 sinflarda tasviriy san'atdan o'zlashtirishlari lozim bo'lgan bilim va malakalar belgilab berilgan edi. Unda tasviriy san'at o'quv predmetining maqsad va vazifalari, faoliyat turlariga doir ko'rsatmalar ham bayon etilgan bo'lib, tasviriy san'at mashg'ulotlarining turlari sifatida borliqni idrok etish (1-4 sinflar), badiiy qurish-yasash (1-4-sinflar), naturaga qarab tasvirlash (1-7-sinflar), san'atshunoslik asoslari

(1-7-sinflar), kompozitsiya (1-7-sinflar) bo'limlari qayd qilindi.

Vazirlar Maqkamasi tomonidan qabul qilingan davlat ta'lim standarti bo'yicha 1999-yilda o'quv rejalariga o'zgartirishlar kiritildi. Unga ko'ra tasviriy san'at o'quv predmeti 1-7-sinflarda o'qitilib, uning nomi hamma sinflarda "Tasviriy sanat" bo'lib qoldi. Bu o'zgarishlar asosida yangi darsliklar yaratish muammosi paydo bo'ldi. Bu darsliklar 2001-yilda R. Hasanov tomonidan 1-3-sinflar uchun tayyorlandi. Lekin, ular Respublika halq ta'limi Vazirligi darsliklar sonini ko'payib ketganligini vaj qilib ularni nashr etishni lozim topmadi. Bulardan biri birinchi sinf darsligi 2001-2002-yillarda chop etildi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitishni takomillashtirish borasida bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilib, yaxshi natijalarga erishildi. Bu tadqiqotlarning natijalari dissertatsiya shaklida himoya qilindi. Ular R. Hasanovning 1994-yilda "O'zbekiston umumta'lim maktablarida badiiy ta'lim va tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari" mavzusida doktorlik, A. Turdalievning 1996-yilda "Tasviriy san'at darslari va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni badiiy kasb-hunarlariga yo'llash", O. Xudoyorovning 1997-yilda "O'zbekiston umumta'lim maktablarida tasviriy san'at o'qitilishining shakllanishi va taraqqiyoti" mavzularidagi nomzodlik dissertatsiyalaridir.

Mustaqillik yillarida tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashga alohida e'tibor berila boshlandi. Xususan, 2002-yilga kelib Toshkent, Buxoro, Namangan, Guliston, Andijon davlat universitetlarida, Nukus, Angren, Jizzax davlat pedagogika institutlarida maxsus fakultet va bo'limlar faoliyat ko'rsata boshladi. Tasviriy san'at

o'qituvchilari Xiva, Denov, Shahrisabz, Qarshi, Samarqand, Kattaqo'rg'on, Jizzax, Andijon pedagogika bilim yurtlari qoshida ham tayyorlandi. Mustaqillik yillarida R. Hasanov tomonidan tayyorlangan va chop etilgan 1-7-sinflar uchun "Tasviriy san'at" dasturi (1994 y.), "Tasviriy san'at ta'limi konsepsiyasi" (1995 y.), "Tasviriy san'atdan davlat ta'lim standarti" (1999 y.), "Tasviriy san'atdan davlat ta'lim standartlarini amaliyotga joriy etish" (2000 y.), "Tasviriy san'atdan topshiriqlar, ularni nazorat qilish va baholash" (2003 y.) nomli ishlari mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitilishini yaxshilashga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi.

Tasviriy san'atdan sinfdan tashqari ishlar umumiy o'rta ta'lim tizimida muhim o'rinni egallaydi. Ular tasviriy va amaliy san'at, me'morchilik kabi san'at turlari bo'yicha amalga oshiriladi. Bular sinfdan tashqari ishlar, to'garaklardagi mashg'ulotlar, uchrashuv, ko'rgazma, tanlov, san'at kechalari kabi qator yo'nalishlarda o'tkaziladi va ular o'quvchilarni badiiy-ijodiy ehtiyojlarini qondirish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ulardagi individuallik va inte'dodni ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Shu bilan birga u yoshlarning badiiy va estetik fikr doirasini kengaytiradi hamda didini rivojlantiradi.

Tasviriy, amaliy san'at va me'morchilikdan tashkil etiladigan to'garaklar umumiy o'rta ta'lim maktablarining barcha sinflarini qamrab oladi. Ular kichik (1-4-sinflar), o'rta (5-7-sinflar), katta (8-9-sinflar) guruhlardan tashkil topadi va ular rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, naqqoshlik, ganchkorlik, misgarlik, kashtachilik, yog'och o'yimakorligi, badiiy sopoldo'zlik, shuningdek, me'morchilik, san'atshunoslik to'garaklari hisoblanadi.

To'garaklar san'atning u yoki bu turi yoki janri asosida ham tashkil etilishi mumkin. Bu to'garaklarning turlari ularga ajratilgan soatlar hajmi va ta'lim mazmuni bolalarning istaklari, mayllari va maktab imkoniyatlari, bolalarning yoshlik xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Maktab to'garaklarining maqsad va vazifalari asosan bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hisoblanar ekan, ularni qat'iy reja asosida muntazam olib borilishi talab etiladi.

To'garaklar har bir maktabda san'atning turlari, guruhlar bo'yicha bitta yoki bir nechta bo'lishi mumkin. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida to'garak rahbarining asosiy e'tibori quyidagilarga qaratiladi:

- tasviriy yoki amaliy san'at to'garaklariga qiziqishi qobiliyati bor o'quvchilar qabul qilinadi hamda har bir guruhda ularning soni 10-15 tadan oshmasligi lozim. Aks holda ular bilan olib boriladigan ishlarning sifati pasayib ketadi.

- to'garakda bolalarning qiziqishi, idroki, tasviriy malakalari, ijodiy qobiliyatlari o'rganilib va ma'lum vaqt mobaynida sinovdan o'tkazilib, qabul qilinadi. To'garaklarda tasviriy va amaliy san'at ta'limi mazmuni alohida e'tiborga loyiq. Ta'lim mazmunining to'g'ri belgilanishi to'garak ishini muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Shuning uchun rahbar mavjud dasturlarni o'rganib chiqishi va shu asosda o'zining mahalliy sharoitlari, bolalarning tayyorgarligi va imkoniyatlari, moddiy-texnikaviy asosning mavjudligiga qarab ta'lim mazmuniga oid o'z rejasini ishlab chiqadi.

To'garaklar tasviriy va amaliy san'atning qaysi turi yoki janri yuzasidan bo'lishligidan qat'iy nazar,

u amaliy va nazariy qismlardan tashkil topadi. Tasviriy san'atdan amaliy ishlar bevosita, naturaga qarab rasm ishlash, kompozitsiya, suvrat namunalarini ko'chirish kabi yo'nalishlarda amalga oshiriladi. Amaliy san'atga doir (naqqoshlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, badiiy sopoldo'zlik, misgarlik, kashtachilik v.b.) to'garaklarda bolalar naqsh namunalaridan ko'chirish, mustaqil ijodiy kompozitsiyalar ishlashdan tashqari tasviriy san'at to'garaklaridagi kabi naturaga qarab rasm ishlash bilan ham shug'ullanadilar. Bunday darslarda o'qituvchi tasvirlashning nazariy asoslari hisoblangan yorug'-soya, perspektiva, rangshunoslik qonunlariga ham alohida e'tibor beradi. Bu qonun va qoidalarga doir maxsus mashg'ulotlar tashkil etilishi ham mumkin. Rangtasvir, haykaltaroshlik va grafika to'garaklari mashg'ulotlarida kompozitsiyalar ishlashga katta o'rin beriladi. Bolalar tasviriy san'atni barcha janrlari (manzara, turmush, natyurmort, tarixiy, batal, animal, portret, afsonaviy, marina) bo'yicha mustaqil kompozitsiya ishlash, tayyor san'at asarlari namunalaridan ko'chirish bilan shug'ullanadilar. Ular adabiy asarlarga illyustratsiyalar ishlash, badiiy bezak ishlariga doir topshiriqlarni ham bajaradilar.

Naturaga qarab rasm ishlash mashg'ulotlarida to'garak a'zolarining yoshlari yoki guruhlariga qarab tabiat mahsulotlari (barglar, gullar, meva va sabzavotlar), uy-ro'zg'or, mehnat buyumlari, texnika, sport, san'atga doir predmetlar, me'morchilik obidalari, turgan yoki harakatdagi odam, qush, hayvonlar rasmlari chizdiriladi.

Bunday mashg'ulotlarda, gipsli geometrik shakllar, rezetkalar, odam va hayvonlarning gipsli shakllari, meva va sabzavotlarning mulyajlari, qush va kichik o'lchovdagi hayvonlarning tulumlarini o'quv mashg'ulotlarida chizdi-

rish qo'yilgan maqsadga erishishni yengillashtiradi. Yuqorida qayd qilingan buyum va narsalar topshiriqning vazifasiga qarab aloqida yoki to'p holda, harakatda yoki harakatsiz holatlarda chizdirilishi mumkin. Bunday mashg'ulotlar mavzuga oid rassomlar asarlarining reproduksiyalarini namoyish etish va tahlil qilish bilan qo'shib olib boriladi. Shuningdek, bu mashg'ulotlarni uzoq, qisqa muddatda, darsda, mustaqil tarzda amalga oshiriladi.

Beriladigan topshiriqlar mavzu va mazmun jihatda bolalarning yoshi, qiziqishi, tasviriy imkoniyatlariga yarasha bo'ladi.

Kompozitsiya mashg'ulotlarini bolalar uchun qiziqarli bo'lishligi uchun manzara va turmush janrlaridan tashqari, tarixiy, batal janrlarda "Spitamen qo'zg'oloni", "Jizzax to'zg'oloni", "Muqanna qo'zg'oloni", "Manguberdining to'g'illarga qarshi kurashi" kabi mavzularda rasm ishlash uchun tavsiya etilsa, afsonaviy janrda "Suv parilari", "Devlar Hayoti", "Kentavrlar janggi", "Ajdarlar bilan kurash", "Boshqa sayyoralarda" kabi mavzular tavsiya etiladi. Shu bilan birga animal janrdagi ona va bola hayvonlar haqidagi mavzular ham bolalarda katta qiziqish hosil qiladi. Tasviriy va amaliy san'atdan nazariy bilimlar to'garaklarning turiga qarab oddiy yoki murakkab mazmun va hajmda beriladi.

Xususan:

1. San'atshunoslik to'garaklari (Tasviriy san'atning alohida tur va janrlari. O'zbekiston tasviriy san'ati. U yoki bu davr tasviriy san'ati). Bunday to'garaklarda nazariy bilimlar bolalarga ancha keng va chuqurroq hajmda beriladi.

2. Tasviriy san'at (rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika) to'garaklari. Bunday to'garaklarda nazariy bilimlar o'rtacha hajmda beriladi.

3. Amaliy-bezak san'ati to'garaklari.

Bunday to'garaklarda nazariy bilimlar qisqartirilgan hajmda beriladi. Biroq, halq amaliy san'ati tarixi uni nazariy asoslari, halq ustalari, amaliy san'atda ishlatiladigan ish qurollari va jihozlar, materiallar, ish uslublari, halq san'ati rivoj topgan markazlar, san'at va viloyat o'lkashunoslik muzeylari, ulardagi eksponatlar haqida keng ma'lumotlar berilishi talab etiladi<sup>1</sup>.

### **16-Mavzu: Tasviriy san'at ta'limida didaktik prinsiplar.**

**Didaktika** (yunoncha – o'rgatuvchi, ta'lim beruvchi demak) pedagogikaning ta'lim va tarbiya nazariyasiga oid sohasidir. Hozirgi zamon pedagogikasida didaktikaga ta'lim va tarbiya berish nazariyasi bilan shug'ullanadigan alohida soha sifatida qaraladi. Ta'lim mazmunini aniqlash hamda o'qitishning eng samarador usul va yo'llarini topish didaktikaning asosiy vazifasidir.

Didaktika – o'qituvchida ma'lum qonun va qoidalar asosida ishlashni talab qiladi. Didaktika – o'qituvchining mashg'ulot olib borishiga yordam beradi, uni nazorat qiladi. Shu boisdan didaktika – sinf, sinf doskasi, parta, darslik, o'quv qurollari, tarqatma materiallar, ko'rgazmalar va boshqa texnik qurollarni doimiy, sifatli, talab darajasida bo'lishini taqozo etadi. Shuningdek, u o'quv jarayonining ilmiy asosda bo'lishini ham nazorat qiladi.

---

<sup>1</sup> <https://fayllar.org/orta-osiyo-va-ozbekistonda-tasviriy-sanatni-oqitilishi.html?page=6>

Didaktika o'z xususiyatiga ko'ra dars berish yoki o'quv-tarbiya ishining qonuniy chegarasidir. O'qituvchi undan chiqib ham ketolmaydi, e'tibordan ham qoldirmaydi. Didaktika juda qadimdan shakllangan bo'lsa-da, XVII asrga kelib, buyuk chex pedagogi Y. O. Komenskiy (1592–1670) pedagogika fani tarixida yaratilgan didaktik prinsiplari to'plab, uni bir butun sistemaga soldi. Bu prinsiplarning maktab faoliyatida qo'llanishiga oid qonun-qoidalarni ishlab chiqdi va butun bir didaktika sistemasini yaratdi. Y. O. Komenskiy o'zining buyuk xizmatlari bilan maktab, o'quv-tarbiya sistemasini yaratib berdi. U maktab sistemasiga, ta'lim sistemasiga va tarbiya nazariyasiga asos soldi<sup>1</sup>.

Y. O. Komenskiy – sinf dars sistemasini yaratib, maktabda o'qitiladigan umumta'lim xarakteridagi fanlarni ham ishlab berdi. Shu o'rinda umumta'lim fanlari qatoriga rasm san'atini ham kiritdi. Rasm hamma fanlarni o'rgatishga asos bo'lishini ham aytib o'tdi. Biz boshqa o'quv fanlari qatori tasviriy san'atni o'qitishda didaktikaning qanday qonun-qoidalaridan, talablaridan, prinsiplaridan foydalanish zarurligi haqida gapirganda uning tarbiyaviylik, ilmiylik, sistemalilik, ko'rgazmalilik, faollik, amaliyot bilan nazariyaning birligi va bog'liqligi kabi o'nlab prinsiplarini nazarda tutamiz<sup>2</sup>.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at darslarini didaktik prinsiplarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Faqat amaliyot bilan nazariyani uzviy bog'lagan holdagina dars va darsdan tashqari ishlarda ta'lim va tarbiyaning samarali bo'lishiga erishish mumkin. Didaktik prin-

<sup>1</sup> <https://muhaz.org/fani-boyicha.html?page=5>

<sup>2</sup> B. N. ORIPOV "TASVIRIY SAN'AT VA UNI O'QITISH METODIKASI" (Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma 2-nashri), "ILM ZIYO" TOSHKENT - 2012, 139-140-betlar

siplar va ularning asosiy masalalari Yevropaning buyuk pedagog-olimlari YA. A. Komenskiy, J. J. Russo, I. G. Pestalotssilar tomonidan ishlab chiqilgan. Shuningdek, didaktik prinsiplarni ishlab chiqishda F. A. Disterveg va K. D. Ushinskiylar ham katta hissa qo'shganlar. Ular tomonidan ilgari surilgan g'oya hozirgi zamon didaktikasining asosini tashkil etadi.

Didaktik prinsiplar hisoblangan ta'lim va tarbiyaning birligi, ko'rgazmalilik, ilmiylik, onglilik va faollik, muntazamlik va ketma-ketlilik, ta'lim mazmunini bolalarning kuchi va yoshiga mos bo'lishi maktabda tasviriy san'atni o'qitishda alohida ahamiyat kasb etadi<sup>1</sup>.

Maktabda tasviriy san'atni o'qitishda didaktik prinsiplar professorlar N. N. Rostovsev, V. S. Kuzin, R. Hasanovlar tomonidan ishlab chiqilgan.

Ta'lim va tarbiya birligi prinsipi didaktik prinsiplarning eng asosiylaridan hisoblanadi va bu tasviriy san'atni o'qitish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, bugungi kunda ta'lim-tarbiyaning asosiy qismlaridan biri o'quvchilarni milliy istiqlol mafkurasi ruhida tarbiyalash hisoblanadi.

O'. Tansiqboevning "Jonajon o'lka", X. Rahmonovning "May tongi", N. Karaxanning "Oltin kuz", Z. Inog'omovning "Choyga", Y. Elizarovning "Natyurmot" kabi asarlarida O'zbekiston ko'rk-jamoli yorqin aks ettirilgan. O'quvchilarni bunday asarlar bilan tanishtirishda bolalarda ona-vatanimizga bo'lgan ilk muhabbat paydo bo'ladi, shu zaylda ularda ona-vatanga, o'lkaga nisbatan mehr-muhabbat tuyg'ulari yanada kuchayadi.

Tasviriy san'at darslarida millatlararo totuvlik va baynalminal tarbiyani amalga oshirish imkoniyatlari ham

<sup>1</sup> <https://muhoz.org/fani-bovicha.html?page=5>

katta va u turli mavzularda kompozitsiya ishlash, boshqa millat va halqlar hayotini ifodalovchi suratlarning reproduksiyalarini, halq ertaklariga ishlangan illyustratsiyalarni namoyish etish orqali amalga oshiriladi.

“Mehmonlarimiz”, “Chet el delegatsiyasini kutib olish”, “Turistlar” mavzularida rasm chizdirish yuzasidan o‘tkaziladigan suhbatlarda o‘quvchilar ongiga millatlararo totuvlik, do‘stlik tushunchalarini singdirishga harakat qilinadi. Asar mazmunini ochishga yordamlashuvchi suhbatlar, turli millat va halqlarning qiyofalarini tasavvur etish, bolalar ijodining takomillashuviga, tasavvurlarining boyishiga olib keladi.

Turli millat yozuvchilarining asarlari va halqlarining og‘zaki ijodiga xos illyustratsiyalar o‘quvchilarga boshqa millatlarning hayoti, orzusi, g‘oyalari bilan tanishish, sevish va tushunish imkonini beradi.

Tasviriy san‘at darslarida millatlararo do‘stlik, totuvlik Respublikamiz va chet el rassomlari tomonidan yaratilgan asarlar orqali ham amalga oshirildi. Respublikamiz rassomlari tomonidan yaratilgan asarlar orasida o‘zbek halqining hayoti va mehnati, uning boshqa halqlar va millatlar bilan totuvligi, ba‘zi chet halqlarining hayoti va mehnati aks ettirilgan suratlarni ko‘rish mumkin.

P. P. Benkov (“Dugonalar”), A. Abdullaev (“Shomahmudovlar oilasi”), L. Abdullaev (“Demobilizatsiya qilinganlarni kutib olish”), Q. Husniddinxo‘jaev (“Navoiy va Jomiy”), A. Siglinsev (“Mening uyim, sizning ham uyingiz”), O‘.Tansiqboev (“Issiqko‘l oqshomi”) va boshqalarning bir qator asarlari millatlararo totuvlik, do‘stlik g‘oyalarini aks ettirganligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, tasviriy san‘at dasturiga bir qator Sharq va G‘arb mamlakatlari rassomlarining ijodini o‘rganish

ham kiritilgan. Leonardo da Vinchi, Rafael, Mikelanjelo, Rembrant, Rubens, Kent, Pikisso, Matiss va boshqa chet el rassomlarining asarlari do'stlik va hamkorlik g'oyalari amalga oshirishda boy material bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, dasturda Misr, Hindiston, Xitoy, Eron, Yaponiya kabi mamlakatlarning me'morchiligini o'rgatish ham nazarda tutilgan. O'qituvchi bunday san'at asarlarini tahlil qilar ekan, ularning o'ziga xos hamda umumiy belgilarini ta'kidlab o'tishi maqsadga muvofiq.

O'quvchilar tasviriy san'at asarlarini o'rganish orqali chet el mamlakatlari halqlarining mehati va mehnatdagi jasoratlari, an'analari, odatlari, turmush tarzi hamda tabiati bilan oshno bo'ladilar.

Jamiyat qurilishining muaffaqiyati har bir kishining mehnat qilish darajasiga bog'liq. Shuning uchun kishilarning jamiyat uchun nafi bo'lgan mehnatga nisbatan xatti-harakati asosiy ko'rsatkich sanaladi. Bu sifat mehnat tarbiyasi jarayonida vujudga keladi.

Tasviriy san'at darslarini o'quvchilar mehnat tarbiyasini amalga oshirishdagi imkoniyatlari katta. Bu masala tasviriy san'at darslarining barcha turlari - naturaga qarab tasvirlash, kompozitsiya, san'atshunoslik asoslari mashg'ulotlari mazmunida ko'zda tutilgan.

Naturani o'ziga qarab tasvirlash jarayonida o'quvchilar turmushda qo'llaniladigan turli buyumlar, sabzavot va mevalar tasvirini ishlaydilar. O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilar mustaqil ish boshlamaslaridan oldin naturani qisqacha tahlil qilib, faqat buyumlar shakli, proporsiyasi, rangi va tuzilishi haqidagina emas, balki ularni yaratish uchun sarflangan katta mehnat haqida ham gapirib beradi.

Masalan, turmushga qo'llaniladigan ayrim san'at buyumlarining o'ziga qarab rasmini chizdirishda o'qi-

tuvchi o'quvchilarga buyumlarning vazifasi, shakli, ularning qanday materiallardan yasalgani, buning uchun qancha mehnat sarflangani va hokazolar haqida to'xtaladi. Shuningdek, o'zbek halq amaliy san'ati haqidagi suhbat darslarida o'qituvchi ularning turlari va ustalarning mehnat shijoatining o'ziga xos jihatlari haqida gapiradi.

“Paxta terimi”, “Fermada”, “Hosilni yig'ib-terib olish”, “Maktab yer uchastkasida”, “Qurilishda” kabi ishlar o'quvchilarni kattalar mehnati bilan tanishtiradi. Ishlab chiqarish korxonalariga qilingan sayohat bu masalada muhim ahamiyat kasb etadi. Sayohatda bolalar kishilarning qanday mehnat qilayotganlarini kuzatadilar, mehnat sharoitlari va uni tashkil etish yo'llari bilan tanishadilar, kattalar mehnatining natijalarini ko'radilar. Sayohat chog'ida ular kattalar mehnatining ahloqiy tomonini, ularning mehnatga bo'lgan munosabatini, mehnatning jamoaviy harakterini o'rganadilar. Bolalarni sayohat jarayonida o'lgan taassurotlari ularning rasmlarida aks etadi, natijada o'quvchilarning mehnat haqidagi tasavvurlari yanada kengayadi.

Tasviriy san'at dasturida halqimizning fidokarona mehnati va uning go'zalligni aks ettiruvchi asarlarini o'rganish hamkovzda tutilgan. O'. Tansiqboevning “Paxtani sug'orish”, “Chorovoq qurilishida”, Z. Inog'omovning “Choyga” va boshqa asarlari shular jumlasiga kiradi.

Bolalar o'zbek rassomlari asarlarining qahramonlari bo'lmish artist A. Hidoyatov, halq Hofizi Mulla To'ycha Toshmuxammedov, amaliy san'at ustasi U. Jo'raqulov va boshqa o'z baxtini mehnatdan topgan kishilar bilan suvratlar orqali uchrashar ekanlar, ular, mehnat jamiyat hayotining, har bir shaxsining asosiy qonuni ekanligiga

ishonch hosil qiladilar. Bunday darslarda o'quvchilarni turli kasblarga yo'llash imkoniyatlari ham paydo bo'ladi.

Natijada, o'quvchilar mehnat inson baxt-saodatining ma'naviy va axloqiy manbai, har qanday inson mehnat qilmog'i va mehnatni sevmog'i lozim, degan xulosaga keladilar. Shuningdek, bolalar odamlar faqat o'zi uchun emas, jamiyat uchun mehnat qilishlari kerak, mehnat kishilariga va ular yaratgan buyumlarga nisbatan hurmat bilan qarash lozimligi haqida tasavvurga ega bo'ladilar.

Maktabda tasviriy san'at estetik turkumdagi o'quv predmeti xisoblanib, o'quvchilarda badiiy va estetik didning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, ya'ni tasviriy san'at darslarida san'atdagi va borliqdagi go'zallikni ko'rish, tushunish va qadrlay olish hissi takomillashadi.

Naturani tahlil qilish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning diqqatini buyumlar shaklining nafisligi, qismlarning proporsionalligi, shakl va rang uyg'unligi, mazmun, shakl va vazifaning mosligi kabilarga jalb etadi. Natijada, o'quvchilarda naturaga nisbatan emotsional - estetik munosabatlar oshadi.

O'quvchilar naqsh chizishda, dekorativ - bezak ishlarida tabiat elementlaridan foydalanadilar. Bunga tabiat mahsulotlari yaxshi material bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilar tabiat materiallari va hayvonot dunyosini stilizatsiyalashtirib, takrorlanmas va chiroyli naqshlar tuzadilar.

Borliqni idrok etish va kompozitsiya darslarida tabiatni kuzatish va uni rasmlarda aks ettirish bolalar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar dars jarayonida tabiatni kuzatar ekanlar, ular daraxtlarning tuzilishini, shox-shabalarining shakl va yo'nalishini turli-tumandagi, barglarning rangi va shakli, nafisligi va yoqimlilikini

bilib oladilar. Shuningdek, gullarning rangi va shakli, xilma-xilligi, bahor va kuz manzarasining go'zalligi, nina-chi, kapalak, qushlarning yengil va nafis parvozi ham o'quvchilarni hayajonlantiradi.

Yuqori badiiy saviyada yaratilgan tasvriy san'at asarlarini o'rganishda o'quvchilar ulardan estetik zavq olishadi. Suvrat kompozitsiyasining muvaffaqiyatli yechilishi, ranglarning hamohangligi, borliqning haqqoniy tasviri bolalarni hayajonlantiradi. Bu faqat estetik tarbiyaga taalluqligina bo'lmay, balki, bolalarning tasviri ijodiga, ularning san'atga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalashga bevosita aloqadordir. Bu borada manzara va natyurmort janrlarining roli kattadir.

San'at asarlari haqidagi suhbatlarda o'qituvchi, rassom ko'rganini shunchaki aks ettiribgina qolmay, balki u borliqdagi eng qiziq, eng chiroyli narsa va hodisalardan ta'sirlanib chizganligi, lozim bo'lgan taqdirda, u ko'rgan - kechirganlari va eshitganlarini mubolag'a bilan tasvirlashini hikoya qilib beradi.

Naturaga qarab tasvirlash jarayonida bolalar buyumlarning shakli, rangi, tuzilishini tahlil qiladilar. Masalan, choynakli natyurmotni tahlil qilganda, bolalar e'tibori choynakni turmush uchun zarur bo'lgan buyumlardan biri ekanligiga, uning shakli mazmuniga mosligi, uning qanday vazifaga mo'ljallanganligi, maqsadga muvofiqligi, ishlatishga qulayligi va hakozalarga qaratiladi. Dekorativ bezak darslari o'quvchilarning badiiy didini, ijodiy qobiliyatini o'stirish imkoniyatlariga ega. Darslarda o'quvchilar simmetriya, ritm, ranglarning mutanosibligi, kompozitsiyaning qonun va qoidalari bilan tanishadilar.

O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlari naqsh chizish, kitob muqovasi uchun eskiz ishlash, otkritka, choynak

va dazmol uchun taglik eskizini ishlash jarayonida o‘stirib boriladi. O‘quvchilarning estetik tarbiyasida N. Karaxanning “Oltin kuz”, YU. Elizarovning “Taruqli natyurmort”, O‘.Tansiqboevning “Tog‘larda kuz”, “O‘zbekistonda mart”, L. Salimjonovanning “Natyurmort” nomli asarlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Ilmiylik prinsipi didaktik prinsiplarning eng asosiy-laridan biri bo‘lib, u fan asoslarini chuqur o‘zlashtirmasdan o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish mumkin emasligini bildiradi. Boshqa o‘quv predmetlaridagi kabi bu prinsip tasviriy san‘at darslarida ham amalga oshiriladi.

Tasviriy san‘at atrof-muhitni his etish, undagi voqea va hodisalarni o‘ziga xos jihatlarini bilishni talab etadi. Shu boisdan tasviriy san‘at darslarida o‘quvchilar chiziqli va havo perspektivasi, yorug‘-soya, rangshunoslik, kompozitsiya qonunlarini yaxshi bilishlari talab etiladi. Shuningdek, odam va hayvonlarning plastik anatomiyasi haqida yetarlicha ma‘lumotlarga ham ega bo‘lishlari lozim. Tasviriy san‘at dasturida o‘quvchilarning bu qonunlarni o‘zlashtirishlari ko‘zda tutiladi. Perspektiva qonunlarini o‘zlashtirmasdan realistik tasvir yaratish mumkin emas, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Rassom yoki o‘quvchining rasm chizish uslubi har xil bo‘lishi mumkin, lekin rasm yoki san‘at asarlarining qurilishi bir xil, ilmiy asosda bo‘lishi shart. Perspektiva qonunlari hisoblangan chiziqli va havo perspektivasi, ufq chizig‘i, kesishish nuqtasi, kuzatish nuqtasi, buyumni bir yoki ikki kuzatish nuqtasi asosida rasmini ishlash, o‘lchovlarni o‘zgarish perspektivasi, och-to‘qlikni o‘zgarish perspektivasi, ranglarni o‘zgarish perspektivasi, shakl va chegaralardagi aniqlikni kamayishi perspektivasi va boshqa realistik rasm ishlashga o‘rgatishning asosini tashkil etadi.

Ilmiylik prinsipi tasviriy san'at o'qituvchilaridan dars jarayonida va sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarga berilayotgan barcha material va ma'lumotlar ilmiy bo'lishligini, maktab amaliyotida tekshirilgan hamda o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishligini talab etadi.

Tasviriy san'atni o'qitishda san'atning inson hayotidagi rolini tushuna bilish juda muhimdir. Jumladan, san'at ijtimoiy ongning alohida shakli ekanligini nazarda tutish kerak. Tasviriy san'at o'qituvchisi shuni tushunishi kerakki, o'quvchilar borliqdagi narsalarni chizish jarayonida ularning faqat tashqi ko'rinishinigina emas, balki uning ma'lum qonuniyatlariga asoslangan ichki tuzilishni ham bilib olishlari talab etiladi. Ko'p hollarda bu qonuniyatlarni bilmaydigan o'quvchilar buyumlarning shaklini to'g'ri tasvirlashda yanglishadilar.

Ko'rgazmalilik prinsipi tasviriy san'atni o'qitishda borliqdagi narsa va hodisalarning mohiyatini bilishga, uning xarakterli xususiyatlari va qonuniyatlarini o'rganishga ko'maklashadi.

Naturani o'rganish chog'ida (sinfdan va plenerda) o'quvchilarning kuzatuvchanlik va mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

O'qituvchida har doim ham o'rganilayotgan obyektning ko'rsatish imkoni bo'lavermaydi, bunday hollarda unga ko'rgazmalilik yordam beradi. Bu esa o'quvchilarda mazkur sohaga bo'lgan qiziqishni jonlantiradi.

O'quvchi naturadan rasm chizish jarayonida doim izlanadi, shakllarni solishtiradi, naturaning tuzilishi, o'lchovlari, shakllari, rangi kabilarni bilib oladi. Shubhasiz, bularning hammasi o'quvchilarda kuzatuvchanlikni rivojlanishiga olib keladi.

Ma'lumki, bolalarda fikrlash konkretlikdan abstraktlikka borish jarayonida rivojlanadi. Tushuncha va abstrakt qoidalar ma'lum dalil, misol va obrazlar bilan mustahkamlangandagina o'quvchilar ongiga oson etib boradi.

Ko'rgazmalilik tasviriy san'at darslarida boshqa o'quv predmetlaridagidek yordamchi emas, balki o'quvchilarda tushuncha va tasavvurlar hosil qiluvchi asosiy materialdir.

Naturaning o'ziga qarab rasm chizish darslarida uni naturasiz tasavvur etib bo'lmaydi, bu o'rinda tasviriy san'at darslarida ko'rgazmalilik prinsipining roli juda katta.

Darslar uchun ko'rgazmali qurollar tayyorlash va tanlashda ularga quyidagicha talablar qo'yiladi:

1. Darsning maqsad va vazifalariga mosligi.
2. O'quvchilarning yosh xususiyatlariga mosligi.
3. Ko'rgazmaning aniqligi, tushunarli bo'lishi.
4. Tasvirning sifatli bo'lishi.
5. Ko'rgazmalar o'zining rang-barangligi bilan o'quvchilarda zavq va qiziqish uyg'otishi.
6. Estetik talablarga mosligi.

Rasmlar, asarlarining reproduksiyalari, badiiy asarlarga ishlangan illyustratsiyalarni tanlashda quyidagilar e'tiborga olinishi kerak:

1. Materiallarning g'oyaviyligi.
2. Badiiyliigi.
3. Tasviriy san'at darslarining o'quv-tarbiya vazifalariga mosligi.
4. Bolalar idrokiga mosligi.

Ko'rgazmalilikdan o'rinli, maqsadga muvofiq ravishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda foydalanilsa, u yaxshi natijalar berishi mumkin.

Ko'rgazmalilikning ikki turi mavjud:

1. Tabiiy ko'rgazmali qurollar. 2. Tasviriy ko'rgazmali qurollar.

Tabiiy ko'rgazmali qurollarga shakli, rangi, tuzilishi tabiiy bo'lgan buyumlar (meva va sabzavotlar, turmush buyumlari, o'quv qurollari, amaliy san'at buyumlari va hokoza)ni kiritish mumkin.

Tasviriy ko'rgazmali qurollarga rasmlar, tablitsalar, hayvon va qushlarning tulumlari, suratlarning reproduksiyalari, geometrik gipsli shakllar, pedagogik rasmlar, fotografiya va boshqa sun'iy usul bilan tayyorlangan tasviriy vositalar kiradi. Sanab o'tilgan ko'rgazmali qurollar quyidagicha guruhlanadi:

1. Mehnat va turmush buyumlari. Bu guruhga geometrik shakllar, sabzavotlar, mevalar, qushlar, hayvonlar, gullar va o'simliklar, amaliy san'at buyumlari.

2. Buyumlarning tuzilishi, perspektiva qonunlari, yorug'-soya, rangshunoslik, dekorativ stilizatsiyaga doir, geometrik shakldagi simdan yasalgan modellar, vidoiskatel va boshqa ko'rgazmalar.

3. Rasmlar va tablitsalar. Unda rasm va naqsh chizishdagi ketma-ketlilik, atrof-muhitning perspektiv ko'rinishlari, amaliy san'at asarlarining tasvirlari.

4. Rassomlar asarlarining reproduksiyalari, amaliy san'at asarlarining tasvirlari. Bunday ko'rgazmali qurollar yordamida yorug'-soya va rangshunoslik, kompozitsiya qonunlari tushunitiriladi.

5. Bolalarga naturani chizishda ketma-ketlilikni, har xil eksponatlar bilan ishlash uslubini, buyumlarning qurilishini, tasvirlanayotgan predmetlar va obyektlarning fazoviy holatini ko'rsatuvchi pedagogik rasmlar va boshqalar.

6. Namoyish qilinadigan ko'rgazmali qurolar (diapozitivlar, diafilmlar, slaydalar, kinofilmlar). Bular orqali o'quvchilar turli rassomlar, halq amaliy san'ati ustalari bilan, tasviriy san'at asarlarini yaratish texnikasi va texnologiyasi bilan tanishadilar.

Ayrim o'qituvchilar ko'rgazmalilikning rolini noto'g'ri baholab, bu masalada qo'pol xatoga yo'l qo'yadilar. Ular ko'p hollarda ko'rgazmali qurolning mavjud emasligidan yoki ularning rolini noto'g'ri tushunganliklaridan o'quvchilarga turmushda uchraydigan buyumlar, o'simliklarning rasmini xotiradan tasvirlashni vazifa qilib beradilar. Xotiradan rasm chizishni suiste'mol qilish, atrof-muhitdagi buyumlarning shakli, tuzilishi, rangi, yorug'-soyasini noto'g'ri idrok qilishga olib keladi.

Har qanday turdagi narsaning o'ziga qarab rasmini chizish, kompozitsiya, san'atshunoslik asoslari darslarida va sinfdan tashqari ishlarda ko'rgazmalilik o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Ilyustrativ rasm ishlash darslarida badiiy asar mazmuni bilan bog'liq o'sha davr kishilarining hayoti va mehnati, tabiat va me'morchilik ko'rinishlari, shuningdek mavzu bilan bog'liq tabiat obyektlarini kuzatishga aloqador bo'lgan ko'rgazmali qurollar namoyish etiladi.

Dekorativ kompozitsiya darslarida ko'rgazmalilikdan turli yo'nalishlarda foydalaniladi. Masalan, "Navro'z" bayrami uchun taklifnoma bezak eskizini ishlash darsida shu mavzulardagi otkritkalar ko'rgazma vazifasini o'taydi. Shuningdek, choynak va dozmol tagliklarining badiiy eskizini tuzish darslari uchun choynak, dazmol va turli xil tagliklar ko'rgazma bo'lib hisoblanadi.

Sanatshunoslik asoslari darslarida rassomlar asarlarining reproduksiyalari yoki diapozitivlari, slayda, diafilm,

kinofilmlar namoyish etiladiki, ularsiz san'at asarlari haqida fikr yuritish qiyin. Shuningdek, san'at asarlarining reproduksiyalari, rasm chizishdagi ketma-ketlikni ko'rsatuvchi rasm-sxemalar, rangshunoslik, yorug'-soya, kompozitsiya va perspektiva yuzasidan tablitsalarni ko'rsatilishi, o'qitishda texnika vositalaridan foydalanish va boshqalar ham ko'rgazmalilikning samarali shakllaridan hisoblanadi.

Pedagogik rasm chizishning keng tarqalgan turi o'qituvchining doskada yoki qog'ozda rasm chizib ko'rsatishi hisoblanadi va u bolalarga amaliy yordam berishda qo'l keladi.

Pedagogik rasmning qiymati shundaki, u bevosita o'quvchilarning ko'z o'ngida bajariladi. U o'qituvchining fikrlarini o'quvchilarga oson va sodda qilib yetkazishda yordam beradi.

Doskadagi rasm o'qituvchining asosiy g'oya va fikrlarini o'zida aks ettirishi lozim. Tasodifiy va ikkinchi darajali rasmlarga sinf doskasida o'rin bo'lmasligi kerak.

Doskada rasm chizish hamma o'qituvchilarning ham (hattoki tajribali va ma'lumotli o'qituvchining ham) qo'lidan kelavermaydi. U o'qituvchidan ma'lum tayyorgarlikni talab etadi. Bu tayyorgarlik esa alohida mashqlarni bajarishni nazarda tutadi.

Tasviriy san'atni o'qitish metodikasiga doir ko'rgazmali qurollar yetarli bo'lmagan hollarda ularni o'qituvchilarning o'zlari tayyorlashlariga to'g'ri keladi. Bunda shuni hisobga olish lozimki, hamma ko'rgazmali qurollar ham foydali bo'lavermaydi, ba'zan ayrim ko'rgazmali qurollar o'quv va tarbiyaviy ishlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi ham mumkin.

O'qituvchi ko'rgazmali quoldan foydalanish me'yorini bilgandagina u ijobiy natijaga erishishi mumkin. Ko'rgazmali materiallarning haddan tashqari ko'p bo'lishligi o'quvchilar diqqatini asosiy masaladan chalg'itadi va natijada asosiy narsa e'tibordan chetda qolishi mumkin. Ko'rgazmalilikning yetarli bo'lmasligi esa o'qituvchi tomonidan fikrni chala va yuzaki bo'lishgiga olib keladi.

Ko'rgazmali quoldan foydalanish masalalari o'qituvchining nutqi bilan ham bog'liq. Nutq va ko'rgazmalilikning uyg'unligi ikki jihatdan foydali bo'lishi ish joyda ko'rinadi. Chunonchi, birinchidan, o'qituvchining nutqi ko'rgazmalilikka ko'maklashsa, ikkinchidan ko'rgazmalilik o'qituvchi nutqiga ko'maklashadi.

Tasviriy san'atni o'qitishda, ayniqsa narsaning o'ziga qarab rasm ishlash va san'atshunoslik asoslari darslarida ikkinchi yo'l ko'proq qo'llaniladi.

Agar ko'rgazmalilikning birinchi yo'li bilim, qonun va tushunchalarni o'zlashtirishga yordam bersa, ikkinchi yo'li pedagogga bu qonun-qoidalarni, atrof-muhitdagi hodisalarni isbotlashda o'qituvchiga ko'maklashadi. O'qituvchining so'zi sinfda zaruriy muhit hosil qilishda, o'qituvchilarning ijodiy faoliyatini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun o'qituvchining nutqi ravon, tushunarli va ma'noli bo'lishi lozim.

O'qitishning ongli bo'lish va o'quvchilarning bilish faolligi prinsipi o'quv jarayonining o'stiruvchi va tarbiyalovchi rolini oshirishga olib keladi. Onglilik prinsipining ahamiyati fan, texnika va madaniyat gurkirab rivojlangan hozirgi davrda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Bu prinsip o'qituvchi tomonidan berilayotgan bilimlarni ongli, tushungan holda o'zlashtirishni bildiradi. O'quvchilar bu bilimlarni ko'r-ko'rona emas, balki

berilayotgan tushuncha ma'lumotlarni ma'no mohiyatini anglab yetgandagina uning bilimlari chuqur va mustahkam bo'ladi va u bolalar xotirasida uzoq saqlanadi. Bunga erishish uchun o'quvchilarning faolligi diqqati va mustaqil ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, o'ziga qarab rasm chizish darslarida naturani sinchiklab o'rganish ularning tuzilishi, hajmi, shakli, o'lchov va ranglaridagi xarakterli xususiyatlarini bilish kerak bo'ladi.

Masalan o'quvchi:

- san'atni kishilar hayotidagi ahamiyatini tushunib etishi;

- kompozitsiya ishlaganda uning qonun va qoidalariga rioya qilishi;

- naturaning tuzilishi, o'lchovlari, shakllari, ranglariga qat'iy rioya qilishi;

- har qanday narsa asosida u yoki bu geometrik shakl yotishi;

- rasm chizganda ufq chizig'ini chizib olish va yagona ko'rish nuqtasiga rioya qilishi.

Tasviriy san'at asarlariga oid materiallarning ongli o'zlashtirilishi ilmiylik prinsipidagidek perspektiva, rangshunoslik, optika va yorug'-soya qonunlari, anatomiyadan ba'zi ma'lumotlarga ega bo'lishi bilan bog'liq. Bu qonunlarni egallamasdan turib, o'quvchilar o'z tasviriy faoliyatlarini to'g'ri amalga oshira olmaydilar.

Faraz qilaylik, o'quvchi uyida chizish uchun geometrik shakldagi turmush buyumlaridan natyurmot qo'ydi. U perspektiva qonunlari, ufq chizig'i, kuzatish nuqtasi, buyum va surat tekisligi, kesishish nuqtasi, narsalarning o'lchovlarini perspektiv qisqarishini bilmay turib o'z oldiga qo'ygan maqsadini to'g'ri hal qila olmaydi. Yorug'-soya qonunlari hisoblangan tabiiy va sun'iy

yoritish, tushuvchi va shaxsiy soya, nutura yoritilganida soyalarning joylashuvi, yorug'-soya, yarimsoya, blik, refleks va boshqalarning bilmagan o'quvchi buyumlarning hajmini to'g'ri tasvirlay olmaydi.

O'qitishning samaradorligi ko'p hollarda o'quvchilarning uydagi va darsdagi faolligiga bog'liq. Bu faollik xilma-xil bo'lishi kerak. Topshiriq yuzasidan mavzuni belgilashda o'quvchilarning hayvonlar, qushlar, sportga bo'lgan katta qiziqish uyg'otishini hisobga olish lozim bo'ladi.

O'quv jarayonini samarali bo'lishida solishtirish, taqqoslash, naturani kuzatish va tahlil qilishning ahamiyati katta. Natura tahlilini savol-javob shaklida o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi, aks holda o'quvchilar naturani yuzaki o'rganish bilan cheklanib qolishlari mumkin.

Buyumlarni to'g'ri chizish uchun ularning tuzilishi, shaklini to'g'ri belgilash bilan birga fazoviy holatini to'la tasavvur etish kerak bo'ladi. Shundagina predmetlar rasmini ishlashga o'tish mumkin. O'quvchilardan tasviriy san'atga oid atamalarni ongli o'zlashtirishlarini talab etilishi va ularni buzib ishlatilishiga yo'l qo'ymaslik lozim. Rasm chizish jarayonida o'quvchilarning ba'zi atamalarni o'zlashtirib olishlarini o'zi yetarli emas, ularga atamalarning kelib chiqishi, ahamiyati haqida ma'lumotlar berish kerak bo'ladi. Bu esa o'quvchilarga ilmiy tushunchalarni, atamalarni to'g'ri ishlatishlariga yordam beradi. O'quvchilar hodisalarning bir-biri bilan o'zaro bog'liqligini tushunishlari juda muhim. Hodisalarni o'rganishda ularning rivojlanishini nazarda tutgan holda qarama-qarshilikning sabablarini ham tushuntira olishlari kerak bo'ladi.

O'quvchilarning faolligini oshirishda maqsadga muvofiq yo'naltirilgan muammoli vazifalarni qo'llash katta yordam beradi. Tadqiqot natijalari va o'qituvchilarning ishlari shuni ko'rsatadiki, tasviriy san'atni o'qitishda o'zlashtirib bo'lingan bilim va malakalar ularni faqat tiklashgagini emas, balki yangi materiallarni chuqur anglashga, dunyoqarashga doir xulosalar chiqarishga xizmat qiladi. Mantiqiy vazifalarni hal etish muammoli o'qitish bilan bog'lanadi. Muammoli vaziyatlar hosil qilish esa mantiqiy vazifalarni yechishga sharoit yaratadi. Mantiqiy fikrlash predmet va hodislardagi eng muhim tomonlarni ajrata olish, ko'p dalillar ichidan tipiklarini ko'rsata olish, shakllangan tushunchalardan to'g'ri foydalanish, perspektiva, rangshunoslik, kompozitsiyaning asosiy qonun va qoidalariga rioya qilish imkonini beradi. O'quvchilar ufq chizig'i, chiziqli va havo perspektivasi, kesishish nuqtasi, buyumlar shaklining perspektiv qisqarishi haqida to'liq ilmiy tushunchalarga ega bo'lishlari kerak.

Dialektik tarzda fikr yuritish formal, mantiqiy fikrlash bilan bog'liq va unga doimo tayanishni nazarda tutadi. Mantiqiy fikrlash obyektiv borliq hodisalar mantiqini aks ettiradi. Qaysiki, unda hamma narsa o'zaro bog'liq va aloqadordir.

Atrof-muhitni to'g'ri tushunish uchun o'quvchilar hodisalarning sabablari va oqibatlarini ko'rib va bilib olishlari kerak. Bu esa dialektik fikrlash va xulosa chiqarishning shakllanishiga ko'mak beradi.

Bizningcha, o'qitishda o'quvchilarning mustaqil bilim olish jarayonini faollashtirishda va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda bilimlarning muammoli bayon etish yo'lidan keng foydalanish va qisman izlanish va ilmiy

tadqiqot metodlarini qo'llash lozim. O'qitish jarayonining samaradorligini oshirish bevosita o'quvchilarning faol psixik faoliyati (intellektuallik, emotsionallik) bilan bog'liqdir. Bunda g'oyalarni chuqur tushunish kamlik qiladi. Lekin, shunday amaliy faoliyat tashkil qilish lozimki, unda g'oyalar ichki hissiyotlar tufayli to'la ong-li ravishda harakat orqali yaqqol namoyon bo'lsin, mustahkamlansin. Bunga badiiy asarlarni ifodali o'qish, hikoya qilish, muzika tinglash, slaydlar ko'rsatish orqali erishish mumkin. Agar o'qituvchi voqea va hodisalarni ta'riflashda ularning go'zalligi, nafisligi, yoqimlilikiga alohida e'tibor bersa, talay natijalarga erishishi mumkin. Shuningdek, buyumlarning shakllari, o'lchovlaridagi proporsionallik, yorug'-soya nisbatlari va boshqalarni san'at asarlari orqali tahlil qilib berish lozim.

O'qitishni faollashtirish uchun o'quvchilarni muntazam va maqsadga muvofiq ravishda rag'batlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Yaxshi ishlarni butun sinfga ko'rsatish yoki ularni maktab ko'rgazmasiga tavsiya etish, o'z kuchiga ishontirish, obyektiv tanqid, turli xildagi yordamlar orqali o'quvchilarni rag'batlantirish mumkin. O'qituvchining tajriba va bilimi kuchli o'quvchining mustaqil faoliyatiga qaratilgan bo'lishi kerak. Bolalarga ishora, yordamchi savol, ish yo'nalishi va kamchiliklarini ko'rsatish orqali yordam berish kerak.

Boshqa fanlarda bo'lganidek, tasviriy san'at darslarida ham materiallarni muntazam va ketma-ket bayon etish prinsipi muhim ahamiyatga ega. Bu prinsip butun kurs davomida o'quv materiallarini mantiqan izchil joylashishini va har bir mavzu oldindan olingan bilim, malaka va tajribalarga suyangan holda, yangi materiallarni o'tilganlar bilan bog'lab bayon etilishi lozimligini nazarda tutadi.

Amaldagi tasviriy san'atdan davlat ta'lim standarti materiallarni bayon etishning faqat ma'lum ketma-ketlikda amalga oshirishnigina emas, balki uning muntazam bo'lishligini ham nazarda tutadi.

Ba'zan shunday hollar ham bo'ladiki, bunda o'qituvchilar bilim berishning bu muhim prinsipini to'g'ri baholay olmaydilar. O'quvchilarga berilayotgan vazifalarda bolalarning ilgari olgan bilim va malakalari hisobga olinmaydi. Natijada ular berilgan vazifani uddalay olmaydilar. Shuning uchun ish rejalarini shunday tuzish kerakki, o'quvchilar har bir darsda yangidan yangi masalalarni hal etsinlar. Lekin, yangi materiallarni o'quvchilar o'tilgan materiallarni o'zlashtirib va mustahkamlab olganlaridan so'nggina berish lozimligini hisobga olish lozim.

Narsaning o'ziga qarab rasm chizish darslarini kompozitsiya darslari bilan, san'atshunoslik asoslari darslarini narsaning o'ziga qarab, kompozitsiya darslari bilan bimalol bog'lash mumkin. Tasviriy san'at darslarining har bir turini o'zaro bog'liqlikda amalga oshirish orqali yaxshi natijalarga erishish mumkin. Bir o'quv fanining boshqa o'quv fanlari bilan aloqasi tasviriy san'atni o'qitishda yagona tizimni tashkil etish imkonini beradi. Ayrim hollarda shunday bo'ladiki, hamma mavzular ham o'tilgan materiallar bilan bog'lanavermaydi. Bu o'qituvchidan o'quv materiallarini chuqur o'rganishni, natura uchun buyumlarni, suvratlar, reproduksiyalar, slaydlar va boshqa ko'rgazmalarni tanlashga jiddiy munosabatda bo'lishlikni talab etadi.

Masalaga bunday yondashilganda materiallarni bayon etishda parallelizm va qaytarilishlarga yo'l qo'yilmaydi. Masalan, pedagog taqvimiy yillik mavzularni

rejalashtirganda o'quvchilarning rangshunoslikdan oladigan bilimlari quyidagicha ketma-ketlikda bo'lishi mumkin: asosiy va hosila ranglar, hosila ranglarni hosil qilish, ranglar kontrastligi, qonunlari, iliq va sovuq ranglar, atrof-muhitni ranglar ta'sirida o'zgarishi, murakkab hosila ranglar, rang va yorug'lik, buyumlar rangini uning foni bilan aloqasi, havo perspektivasi va boshqalar.

Tasviriy san'atni o'qitishda nazariy materiallarni amaliy materiallar bilan bog'liqligi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Nazariya bilan amaliyotning bog'liqligi bolalarning tasviriy faoliyatida, dars jarayonida, to'garak mashg'ulotlarida, jamoa ishlarida, ya'ni devoriy gazetalar chiqarish, albom bezash va shu kabilar orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, tasviriy san'at janrlari yuzasidan nazariy mashg'ulotlardan so'ng ana shu janrlarda amaliy mashg'ulotlarni o'tkazilishi, o'tilganlarni mustahkamlash, yangisini oson o'zlashtirish imkonini beradi.

O'qitishning o'quvchilar yoshiga va kuchiga mos bo'lishi prinsipi berilayotgan bilimlar yoki ular o'zlashtirilishi lozim bo'lgan materiallarni murakkablik darajasini bolalar yoshiga va kuchiga mos bo'lishini nazarda tutadi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ayrim o'qituvchilar 5-7-sinflarda ham to'rtburchak, doira shaklidagi naqshlar ishlashni davom ettiradilar. Bu topshiriqlar 3-4-sinflardagi vazifalardan deyarli farq qilmaydi. Bulardan tashqari, o'quvchilarga doskaga chizilgan tayyor naqshdan nusxa ko'chirish tavsiya etiladi. Bundan, ular beriladigan topshiriqlarning bolalarga oson bo'lishiligini nazarda tutadilar. Lekin, topshiriqlarning o'ta jo'n bo'lishi ham yaxshi emas, ular birinchidan bolalarning mustaqil fikrlashlarini susaytirsa, ikkinchi tomondan ulardagi rivojlanishni to'xtatadi.

Ma'lumki, o'quvchilar harakat va qobiliyat jihatidan bir-birlaridan farq qiladilar. Bu vaziyat o'qituvchidan o'quvchilar bilan yakkama-yakka ish olib borishni talab qiladi, ya'ni o'qituvchi bolalarni bilim va malakalari darajasini hisobga olgan holda ularga turlicha murakkablikdagi vazifalarni ishlab chiqadi, ularning tasviriy ishlarini to'g'rilashga ba'zi nazariy va amaliy vazifalarni tushintirish maqsadida doskada rasm ishlab ko'rsatishiga to'g'ri keladi.

O'qitishning o'quvchilar yoshiga maosligi prinsipi qadimdan qo'llanib kelingan. Bunda, yaqindan uzoqqa, ma'lumdan noma'lumga, oddiydan murakkabga, osondan qiyinga, konkretlikdan abstraktlikka prinsiplariga asoslaniladi. Pedagogikada bu prinsip qadimdan tajribadan o'tganligi sababli o'qituvchini o'z faoliyatida shu yo'ldan borishi ko'zlangan maqsadga erishuviga asos bo'ladi. Kezi kelganda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, hamma oson narsalar ham bolalarga tushunarli bo'lavermaydi va aksincha murakkab materiallar tushunarli bo'lishi ham mumkin. Bunda o'quvchilarning yoshi, pedagogik-psixologik xususiyati, bilim darajasi, tayyorgarligi, qobiliyati muhim rol o'ynaydi. Masalan, tasviriy san'atni o'qitishda yaqindan uzoqqa borish prinsipida ish tutish maqsadida o'qituvchi avval bolalarga yaqin bo'lgan o'zbek halqining tabiati, turmushi, mehnatini tasvirlovchi O'zbekiston rassomlari asarlarini, so'ngra O'rta Osiyo, Sharq, Yevropa mamlakatlari san'atini o'rgatadi.

Yuqoridagi fikrlardan maktabda tasviriy san'atdan dars va darsdan tashqari ishlar jarayonida didaktik prinsiplarga rioya qilishning nihoyatda muhimligini sezib olish qiyin emas. Didaktik prinsiplar o'quvchilarning badiiy ta'limi, tarbiyasi va rivojlanishiga shart-sharoitlarni yaratadi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> <https://muhaz.org/fani-boyicha.html?page=5>

## **17-Mavzu: Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at fanini o'rganish. Tasviriy san'atdan darslarini loyihalash va modellashtirish.**

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda va ixtisoslashtirilgan davriy nashrlarda, o'quv jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanish to'g'risidagi maqolalar va risolalar tobora ko'proq uchraydi. Maktab uchun mo'ljallangan elektron darsliklar va boshqa darsliklar ro'yxati yuzlab. Shubhasiz afzalliklar mavjud. Darhaqiqat multimedia texnologiyasi - bu o'qituvchining axborot madaniyatini shakllantirishning metodologik va nazariy asoslarini amaliy amalga oshirish. Zamonaviy o'qituvchi uchun kompyuter jarayonida o'zini o'quv jarayonida ko'rish tobora qiyinlashib bormoqda.

Aksariyat o'qituvchilar o'quv jarayonini vizualizatsiya qilish uchun bitta kompyuter va multimediya proektoridan foydalanishni afzal ko'rishadi. Bu yo'l ancha foydalidir: muammo hal qilindi sog'liqni saqlash (katta ekran monitor monitorining oldida talabalarning ishlashini cheklash muammosini olib tashlaydi); Proektordan foydalanish o'quv jarayonini yanada samarali boshqarish imkonini beradi. Shu bilan birga, Power Pointda, asosan, multimediya taqdimot darslarining tahlili, shuningdek elektron darsliklardan olingan parchalar ularning o'quv samaradorligini juda pastligini ko'rsatmoqda. Ushbu darslarni ishlab chiquvchilar xususiyatlari bilan tanish emasdarslarni o'tkazishning mutlaqo yangi shakli.

Ta'lim dizayni – tizimga kiritilgan o'quv materiallarini loyihalashtirish, ishlab chiqish, baholash va ulardan foydalanish jarayonida samarali o'quv ishlari (o'qitish va o'qitish) to'g'risidagi bilimlardan (tamoyillardan) foydalanish.

Shu bilan birga, dars axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining asosiy g'oyalarini amalga oshirishning bevosita vositasi sifatida eng puxta ishlab chiqishni talab qiladi. Bu litmus testi bo'lib, muayyan rivojlanish samaradorligini ko'rsatadigan darslardir. Bu yakuniy natija ham, dizaynning oxirgi bosqichi, ma'lum texnologiyalarni ishlab chiquvchilar tomonidan ilgari surilgan g'oyalarni amalga oshirish.

Bunday darslarni tayyorlash odatdagi rejimga qaraganda ancha puxta tayyorgarlikni talab qiladi. Kabi tushunchalardars ssenariysi, yo'nalishi dars - bu holda, nafaqat yangi o'rganilgan atamalar, balki darsga tayyorgarlikning muhim qismi. Kelajakdagi multimedia darsini loyihalashda o'qituvchi katta ekranga texnologik operatsiyalar ketma-ketligi, axborotni yetkazib berish shakllari va usullari to'g'risida o'ylashi kerak. O'qituvchi o'quv jarayonini qanday boshqarishi, darsda pedagogik aloqa qanday ta'minlanishi, o'quvchilar tomonidan doimiy ravishda fikr-mulohaza yuritish, ta'lim samaradorligini rivojlantirish haqida darhol o'ylash kerak. Keling, yana bir nechta atamalarni aniqlaymiz.

“Multimediya ko'magi bilan dars”. Shubhasiz, bu darsning nomi, qayerda o'quv samaradorligini oshirish uchun multimediya qo'llaniladi.

Bunday darsda o'qituvchi o'quv jarayonining asosiy ishtirokchilaridan biri bo'lib qoladi, ko'pincha ma'lumotlarning asosiy manbai va ular multimediya texnologiyalaridan foydalangan holda ko'rish qobiliyatini oshirish, bir vaqtning o'zida bir nechta ma'lumot kanallarini ulash, o'quv materialini yanada tushunarli qilish uchun foydalanadilar. Masalan, V. F. Shatalovning tezislarini qo'llab-quvvatlash texnologiyasi ekranda “qo'llab-quvvat-

lash” bo‘laklari ma’lum rejimda paydo bo‘lganda butunlay yangi sifatga ega bo‘ladi. Istalgan vaqtda o‘qituvchi batafsil ma’lumot olish, animatsiya yordamida o‘rganilayotgan materialni “jonlantirish” va hokazolarni bajarish uchun giperhavola orqali foydalanishi mumkin.

Darsni multimediya bilan ta’minlash darajasi va vaqti har xil bo‘lishi mumkinligi aniq: bir necha daqiqadan to to‘liq soatgacha. Kelajakdagi multimediya darsini ishlab chiqishda, dasturchi qanday maqsadlarni ko‘zlayotganini, ushbu dars o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha darslar tizimida yoki butun o‘quv kursida qanday rol o‘ynashi haqida o‘ylashi kerak. Multimedia darsi nima uchun?

- yangi materiallarni o‘rganish, yangi ma’lumotlarni taqdim etish;
- o‘tmishni birlashtirish, o‘qitish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- takrorlash, olingan bilim va ko‘nikmalarni amaliy qo‘llash uchun;
- bilimlarni umumlashtirish, tizimlashtirish.

Zudlik bilan aniqlanishi kerak: buning yordamida darsning o‘quv va tarbiyaviy ta’siri kuchayadi, shunda multimedia darslarini o‘tkazish yangi mashg‘ulotlarga qiziqish bo‘lmaydi. Bunga asoslanib, o‘qituvchi kerakli narsani tanlaydi darsning shakllari va usullari, o‘quv texnologiyasi, o‘qitish texnikasi. Agar multimediya darsi tasodifiy slaydlar to‘planiga emas, balki mazmunli butun mahsulotga aylangan bo‘lsa, maksimal o‘rganish samarasiga erishishi mumkin. Og‘zaki, vizual, matnli ma’lumotlarning aniq ro‘yxati slaydni o‘zgartiradimashg‘ulot epizodi. Dasturchi har bir epizodni mustaqil qismga aylantirishga harakat qilishi kerak didaktik birlik.

Slaydni tayyorlash epizodi va unga shunday muomala qilish didaktik birlik, ishlab chiqaruvchi aniq bo'lishi kerak u ushbu epizodda qanday ta'lim vazifalarini bajaradi, qanday qilib u ularning amalga oshirilishiga erishadi.

Multimedia darsining aniq afzalliklaridan biri bu kengaytirilgan ko'rish. K. D. Ushinskiyning mashhur iborasini eslang: "Bolalarning tabiati aniq ko'rinishni talab qiladi. Bolaga unga tanish bo'lmagan beshta so'zni o'rgating, va u uzoq vaqt davomida behuda azob chekadi; lekin yigirmata bunday so'zlarni rasmlar bilan bog'lang - va bola ularni pashshada o'rganadi. Siz bolaga juda oddiy fikrni tushuntirasiz va u sizni tushunmaydi; siz qiyin rasmi o'sha bolaga tushuntirasiz va u sizni tezda tushunadi ... Agar siz so'zlarni olish qiyin bo'lgan sinfga kirsangiz (va biz bunday darslarni qidirmaymiz), rasmlarni ko'rsatsangiz, sinf gapira boshlaydi va eng muhimi gapiring."

Vizualizatsiyadan foydalanish yanada muhimroq, chunki maktablarda, qoida tariqasida, jadvallar, diagrammalar, reproduksiya va rasmlarning zarur to'plamlari mavjud emas. Bunday holda, proyektor bebaho yordam ko'rsatishi mumkin. Biroq, kutilayotgan samaraga taqdimotning ba'zi talablariga rioya qilish orqali erishish mumkin.

Tanib olish yozma yoki og'zaki ma'lumotlarga mos keladigan ko'rinadiganlik;

Dinamika ravshanlik taqdimoti. Namoyish vaqti eng maqbul bo'lishi va ayni paytda o'rganilayotgan ta'lim to'g'risidagi ma'lumotlarga mos kelishi kerak. Ta'sirni haddan tashqari oshirmaslik juda muhimdir.

Yaxshi o'ylangan algoritmlar lavhalar rasmlar. O'qituvchi o'z vaqtida taqdim etish uchun tayyorlangan ko'rgazmali qo'llanmalarni yopib qo'ygan (topshirgan) darslarni

eslaylik. Bu juda noqulay edi, o'qituvchiga vaqt kerak bo'ldi, darsning tempi yo'qoldi. Multimedia vositalari o'qituvchiga kerakli tasvirni hozirgi paytda aniqlik bilan taqdim etish imkoniyatini beradi. O'qituvchiga ekrandagi tasvirlarning ketma-ketligini batafsil o'rganib chiqish kifoya qiladi, shunda o'quv effekti imkon qadar katta bo'ladi. Optimal o'lcham ko'rinishi. Bundan tashqari, bu nafaqat minimal, balki maksimal darajalarga ham tegishli bo'lib, ular o'quv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi va talabalarning tez charchashiga hissa qo'shishi mumkin. O'qituvchi monitor ekranidagi maqbul tasvir hajmi hech qanday tarzda projektorning katta ekranining optimal tasvir o'lchamiga mos kelmasligini yodda tutishi kerak.

Optimal miqdortaqdim etdi ekrandagi tasvirlar. O'quvchilarni chalg'itadigan slaydlar, fotosuratlar va hokazolar soniga e'tibor bermaslik kerak, asosiy narsaga e'tibor berishga imkon bermaydi.

O'quv epizodini tayyorlashda o'qituvchi albatta bosma nashrni taqdim etish muammosiga duch keladimatin .  
Quyidagi matn talablariga e'tibor berishingiz kerak:

- ✓ tuzilishi;
- ✓ hajm;
- ✓ format.

Ekrandagi matn aloqa birligi vazifasini bajarishi kerak. U kiyadi yoki bo'ysunuvchi belgi, o'qituvchiga semantik yukni kuchaytirishga yordam berish, yoki o'qituvchi qasddan ovoz bermaydigan ma'lumotlarning mustaqil birligi.

Tabiiyki, ekranda ta'riflar paydo bo'lganda atamalar, asosiy iboralar. Ko'pincha ekranda biz tezis darslarining qandaydir rejasini ko'ramiz. Bunday holda, asosiy narsa uni haddan oshirmaslik, matnни ekranga yopishtirmaslik.

Ekrandan katta hajmdagi yozuvlar kam qabul qilinganligi uzoq vaqtdan beri ravshan. O'qituvchi iloji boricha bosilgan matnni aniqlik bilan almashtirishga harakat qilishi kerak. Aslida, bu ham matn, ammo boshqa tilda taqdim etilgan. Ta'rifni eslangmatn kabi entsiklopedik kataloglardabitta maqsad bilan cheklangan grafik yoki tovushli til belgilarining ketma-ketligi (lat. Textus - ulanish ...).

Bosilgan matnning ekrandan qanday namoyish etilishi muhim ahamiyatga ega. Ko'rinish bilan bir qatorda, matn o'qituvchi oldindan o'ylab qo'ygan vaqtda paydo bo'lishi kerak. O'qituvchi taqdim etilgan matnga sharh beradi yoki og'zaki ma'lumotni yaxshilaydi. O'qituvchi hech qanday holatda ekrandagi matnni takrorlamasligi juda muhimdir. Shunda talabalar kiruvchi ma'lumotlarning qo'shimcha aloqasi xayoliga ega bo'lmaydi.

Garchi o'qituvchi yoki talaba tomonidan bosilgan matnning nusxasi ko'paytirilsa didaktik jihatdan asosli. Ushbu uslub boshlang'ich maktabda o'qituvchi turli xil idrok kanallarini bog'lab, o'rganishga kompleks yondashuvga erishganida qo'llaniladi. O'qish, og'zaki sanash va hokazolarni takomillashtirish.

Multimedia didaktik o'yinlarini o'tkazishda har qanday yoshda bosma matnning nusxasi ham majburiydir. Shu tarzda, o'qituvchi barcha talabalar uchun teng sharoitlarga erishadi: og'zaki ma'lumotni osonroq qabul qiladiganlar uchun ham, bosma matnda ma'lumotni olish osonroq bo'lganlar uchun. Multimedia darsini tayyorlashda dasturchi kamida elementar g'oyalarga ega bo'lishi kerakrang, rangli gamut bu dizaynga muvaffaqiyatli ta'sir qilishi mumkinrangli skript mashg'ulot epizodi. Psixologlar va dizaynerlarning ranglarning o'quvchilarning kognitiv faolligiga, ranglarning kombinatsiyasiga, ekrandagi

ranglarning optimal soniga va hokazolarga ta'siri to'g'ri-  
sidagi tavsiyalariga e'tibor bermaslik kerak. Eslatib o'ta-  
miz, monitor va katta ekrandagi ranglarni sezish sezilarli  
darajada farq qiladi. Multimediya darsini birinchi navbatda  
proektor ekraniga tayyorlash kerak. Darsda foydalanish  
ham bir xil darajada muhimdir. Tovush, ovoz rol o'ynashi  
mumkin.

- ✓ ovoz effekti;
- ✓ ovozli tasvir;
- ✓ tovush hamrohligi.

Sifatida ovoz effekti tovush o'quv faoliyatining  
boshqa turiga o'tib, o'quvchilar e'tiborini jalb qilish uchun  
ishlatilishi mumkin. Microsoft Office ovoz effektlari  
multimedia to'plamining mavjudligi ularning majburiy  
ishlatilishini anglatmaydi. Shovqin effektini didaktik  
jihatdan oqlash kerak. Masalan, multimediyali o'quv  
o'yinida shovqinli shovqin effekti savolni muhokama  
qilishni boshlash uchun signal yoki aksincha, munozarani  
tugatish uchun signal va javobni taqdim etish zarurati  
bo'lishi mumkin. Tovush ularga ortiqcha hayajonlanmasligi  
uchun o'quvchilar bunga odatlanganlari juda muhimdir.

Muhim rol o'ynaydiovovzli tasvir qo'shimcha ma'lumot  
kanali sifatida. Masalan, hayvonlar yoki qushlarning  
vizual surati ularning hayqiriqlari, qo'shiqlari va boshqalar  
bilan birga bo'lishi mumkin. Tarixiy shaxsning surati  
yoki fotosurati uning yozilgan nutqi bilan birga bo'lishi  
mumkin.

Va nihoyat, ovoz mashqlar rolini o'ynashi mumkin  
tovush hamrohligi vizual rasm, animatsiya, video. Bunday  
holda, o'qituvchi darsda tovushni ishlatish qanchalik  
oqilona ekanligini sinchkovlik bilan sinab ko'rish kerak.  
Saundtrek paytida o'qituvchining o'rni qanday bo'ladi?

Tovushni quyidagicha ishlatish maqbulroq bo'ladi matnni o'rganish darsga o'z-o'zini tayyorlash jarayonida. Darsning o'zida tovushni minimal darajaga tushirish tavsiya etiladi.

Zamonaviy texnologiyalar, o'zingiz bilganingizdek, multimediya darslarida videofilmlarning parchalarini muvaffaqiyatli ishlatishga imkon beradi. Video va animatsiyadan foydalanish o'quv samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Bu film, aniqrog'i kichik o'quv qismi bo'lib, u o'quv jarayonini vizuallashtirish, jonli natijalarni taqdim etish va real vaqtda o'qitish jarayonida turli jarayonlarni simulyatsiya qilishga imkon beradi. Qayerda harakatsiz rasm, stol mashq qilishda yordam bermasa, ko'p o'lehovli harakatlanuvchi rasm, animatsiya, kadroplan, videotasvir va boshqalar yordam berishi mumkin. Biroq, video ma'lumotlardan foydalanganda tejashni unutmaslik kerak surati dars. Video parchasi juda qisqa vaqt ichida bo'lishi kerak va o'qituvchi uni ta'minlashga g'amxo'rlik qilishi kerak fikrlar talabalar bilan. Ya'ni, video ma'lumotlarga yigitlarni muloqotga olib keladigan, yuz berayotgan voqealarni sharhlashga olib keladigan bir qator rivojlanish masalalari qo'shilishi kerak. Hech qanday holatda ham siz o'quvchilarni passiv fikrlovchilarga aylantirishga yo'l qo'ymasligingiz kerak. Video parcha saundtrekini o'qituvchi va talabalarning jonli nutqi bilan almashtirish ma'qul.

Yana bir jihatni ta'kidlash kerak: multimedia darsining o'zi. Dars qanday rivojlanmasin, ko'p narsa o'qituvchining unga qanday tayyorlanishiga bog'liq. Bunday tadbirning mohirona o'tkazilishi ba'zi bir televizion dasturning shoumeniga o'xshaydi. O'qituvchi nafaqat (va) shunchaki emas, kompyuterni yaxshi bilishi, darsning mazmunini bilishi kerak, lekin uni yaxshi sur'atda, qulaylikda olib

borishi, o'quvchilarni bilim jarayoniga doimiy jalb qilishi kerak. Ritmning o'zgarishi haqida o'ylash, o'quv faoliyatining shakllarini diversifikatsiya qilish, agar kerak bo'lsa, pauzaga qanday qarshi turish va ijobiy natijani qanday ta'minlash haqida o'ylash kerak.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, darslarni multimediya bilan kuzatib borish tufayli o'qituvchi taxtada ishlagan vaqtga qaraganda o'qish vaqtining 30 foizini tejaydi. U taxtada yetarli joy yo'q deb o'ylamasligi kerak, yozilgan hamma narsa aniqmi yoki yo'qmi, sifatli bo'rnima ekanligi haqida tashvishlanmasligi kerak. Vaqtni tejash bilan o'qituvchi dars zichligini oshirishi, uni yangi tarkib bilan boyitishi mumkin. Yana bir muammo olib tashlanmoqda. O'qituvchi doskaga o'girilganda, u beixtiyor sinf bilan aloqani yo'qotadi. Ba'zan u hatto orqasida shovqin eshitadi. Multimedia qo'llab-quvvatlash rejimida o'qituvchi doimiy ravishda "xabardor bo'lish", o'quvchilarning reaksiyalarini ko'rish, o'zgaruvchan vaziyatga o'z vaqtida munosabat bildirish imkoniyatiga ega.

Ta'lim tarkibidagi eng muhim o'zgarishlardan biri og'irlik markazining o'qishdan o'qishga o'tishidir. Ta'lim berish. Bu talabalar uchun odatiy "mashg'ulot" emas, balki bilimlarni kengayishi emas, balki o'quv jarayonining barcha ishtirokchilariga o'qitishga ijodiy yondashish, va eng avvalo uning asosiy an'anaviy tandemidir: o'qituvchi - talaba. Ta'lim oluvchilar va trenerlarning hamkorligi, ularning o'zaro tushunishi ta'limning eng muhim shartidir. Atmosferani yaratish kerak o'zaro ta'sirlar va o'zaro javobgarlik. Faqat balandlar huzurida turtki. Ta'lim sohasidagi o'zaro hamkorlikning barcha ishtirokchilari ijobiy saboq olishlari mumkin. Rus tili va adabiyoti darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari

darslarda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning asosiy yoʻnalishlari;

- o Vizual maʼlumotlar (tasviriy, koʻrgazmali materiallar);

- o Interfaol namoyish materiallari (mashqlar, maʼlumot diagrammalari, jadvallar, tushunchalar);

- o Simulyator;

- o Sinov.

Asosan, ushbu yoʻnalishlarning barchasi dasturdan foydalanishga asoslangan MS Power Point darslarda nimaga erishishga imkon beradi? Maktab oʻquvchilarining kognitiv faolligini ragʻbatlantirish, bu yangi material boʻyicha prezentatsiyalar yaratish, hisobot tayyorlash, qoʻshimcha materiallarni mustaqil oʻrganish va prezentatsiyalar tayyorlashda - materialni darsda belgilashda yordam beradigan referatlar tayyorlashda ishtirok etish orqali amalga oshiriladi;

- Asosiy oʻquv vaziyatlarini modellashtirish orqali oʻrganilayotgan materialni chuqur tushunishni ragʻbatlantirish;

- Oʻquv materialini inglizcha;

- Tegishli fanlar bilan integratsiya: tarix, jahon sanʼat madaniyati, musiqa;

Talabalarni oʻqitish motivatsiyasini oshirish va fanga qiziqishni birlashtirish;

Oʻquv materialini taqdim etish uchun turli xil shakllar, uy vazifalari, mustaqil ish uchun topshiriqlar;

Talabalarning xayolotini rivojlantirish;

Taʼlim vazifalarini bajarishda ijodiy yondashuvni rivojlantirishga yordam berish.

Darsga tayyorgarlik jarayonida media-resurs imkoniyatlari media manbalaridan foydalanishning aniq

misollarini ko'rib chiqaylik. Darslarda badiiy asarlarni san'atning boshqa turlari bilan taqqoslamasdan zamonaviy adabiyot darsi imkonsizdir. Ushbu organik sintez o'qituvchiga uyushmalar oqimini boshqarishga, talabalarning tasavvurini uyg'otishga va ularning ijodiy faolligini rag'batlantirishga yordam beradi. Darsning aniq va vizual asoslari uni yorqin va ajoyib. Shuning uchun esda qolarli qiladi. Uslubiy adabiyotlar rasmlar, reproduksiya, portretlar va fotosuratlar bilan ishlashda katta tajribaga ega bo'ldi, ammo o'qituvchi har doim tarqatma materiallar muammosiga duch keladi. Ushbu muammoni kompyuter axborot texnologiyalari yordamida hal qilish mumkin, bu ko'rgazmali va axborot materiallari taqdimotini tayyorlashga imkon beradi (dars uchun zaruriy sharhlar bilan jihozlangan slayd rasmlari to'plami), veb-sayt yaratadi va shu bilan mavzu bo'yicha materiallarni umumlashtiradi. Ushbu dastur doirasida adabiyot darslarida, Moskva badiiy teatrida nutqni rivojlantirish, rasmlarni taqqoslash, turli xil rassomlarning asarlarini bir xil ish bilan taqqoslash mumkin. Dars uchun talabalar nafaqat portretlar, fotosuratlar, illyustratsiyalar bilan tanishish, balki kino parchalarini ko'rish, audio yozuvlar, musiqa parchalarini tinglash va hatto muzeyga ekskursiyalarga ham borishlari mumkin.

Bunday darsga tayyorgarlik ijodiy jarayonga aylanadi va darsning kompyuter elementlarining ko'ngilocharligi, yorqinligi, yangiligi, boshqa uslubiy uslublar bilan birgalikda darsni g'ayrioddiy, qiziqarli va unutilmas holga keltiradi. Albatta, kompyuter o'qituvchining jonli so'zlarini darsda, badiiy asarni o'rganishda, ijodiy muloqotda o'mini bosa olmaydi, lekin u yaxshi yordamchiga aylanishi mumkin.

✓ Rus tilidagi o'quv kompyuter dasturlari bir qator muammolarni hal qilishi mumkin:

- ✓ talabalarning fanga qiziqishini oshirish;
- ✓ talabalarning bilim darajasi va sifatini oshirish;
- ✓ talabalar bilan suhbatlarga vaqtni tejash;

talabalarga mustaqil ravishda nafaqat sinfda, balki uyda ham o'qish imkoniyatini berib;

0 o'qituvchiga bilimlarini oshirishga yordam berish.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga ega bo'lgan o'qituvchi dars uchun didaktik materiallarni (test ishlari, tarqatma materiallar va rasmlar materiallar) yaratish, ko'paytirish va saqlash qobiliyatiga ega. Sinf darajasiga qarab darslarning oldiga qo'yilgan vazifalar, agar topshiriqlarning terilgan versiyasi tezda o'zgartirilsa (to'ldiriladi, siqiladi). Bundan tashqari, bosma didaktik materiallar estetik jihatdan yoqimli ko'rinadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari darsga tayyorgarlik jarayonida qo'shimcha ma'lumot izlashni sezilarli darajada kengaytiradi. Internet qidiruv tizimlari orqali badiiy va badiiy matnlarni, biografik materiallar, fotosuratlar va rasmlarni topishingiz mumkin. Albatta, ko'plab asarlar tekshirish, tahrirlashni talab qiladi. Biz ularni to'liq ishlatishga chorlamaymiz, ammo dars uchun didaktik materiallarni ishlab chiqishda maqolalarning ayrim qismlari foydali bo'lishi mumkin va darsning shaklini taklif qiladi.

Eng samarali ish shakli - bu o'quv taqdimoti bilan ishlash. Taqdimot - slaydlar ko'rinishidagi materialni taqdim etish shakli, unda jadvallar, diagrammalar, chizmalar, illyustratsiyalar, audio va video materiallar taqdim etilishi mumkin<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> <https://fayllar.org/ozbekiston-respublikasi-oliy-va-orta-maxsus-talim-va-zirli-gi-na-v256.html?page=3>

## **18-Mavzu: O'qituvchining darsga tayyorlanishi. Dars mashg'ulotlarini rejalashtirish.**

Pedagogika tarixidan ma'lumki, "O'qituvchi – kishi ruhining injeneridir" – deydi Y. O. Komenskiy.

Chunki, o'qituvchi avvalambor saxiy qalb egasi, ochiq-ko'ngil, to'g'riso'z, pok, halol, xullas, barcha ijobiy fazilatlarni o'zida mujassam eta olgan shaxs bo'lishi lozim.

Ya'ni: – o'qituvchi keng tafakkurga ega bo'lmog'i, buning uchun u o'z fanidan tashqari ham bilimlar egasi bo'lmog'i, tabiat va jamiyatning rivojlanishi qonuniyatlarini bilmog'i zarur; – o'qituvchi ham ta'lim beruvchi, ham tarbiya beruvchi shaxs bo'lishi kerak. Shu boisdan u ta'lim va tarbiya nazariyasini yaxshi bilishi, o'qitish didaktikasi va metodikasini puxta egallagan bo'lishi kerak; – o'qituvchi o'z fanini „a'lo“ darajada bilishi, unga tegishli bo'lgan barcha sohalarni o'zlashtirgan va tinimsiz o'z ustida ijodiy ishlashi lozim; – o'qituvchi bola shaxsini yaxshi tushunishi, ular bilan ishlash usullarini mukammal bilmog'i shart; – o'qituvchi jismoniy va ma'naviy jihatdan baquvvat, yoqimli, ziyrak bo'lishi, ayniqsa, ko'z qarashlari va mimikasi kuchli, suyunganini ham, g'azablanganini ham ko'z qarashlari, mimikasida ifoda eta bilishi, qattiqqo'l, prinsipli, haqiqatgo'y va o'quvchilarga mehribon bo'lishi kerak. Shuningdek, u o'qish, yozish, rasm chiza olish mahoratini egallagan har qanday holatda o'zini boshqara olishi lozim.

Maktab tasviriy san'at o'qituvchisi, eng avvalo, o'z fanidan o'quvchilarga umumta'lim xarakteridagi fan sifatida ta'lim va tarbiya berish vazifasini bajaradi. Shuningdek, tasviriy san'at o'qituvchisi o'quvchilarni mazkur o'quv fanini o'qitish asosida narsalarni e'tibor bilan ko'rishga, predmetlar shakli, rangi va mohiyatini tahlil qil-

ishga o'rgatadi. O'qituvchi dars mavzusini o'quvchilarga oson, qisqa, tushunarli qilib yetkazishga harakat qiladi. U dars jarayonida har bir o'quvchi bilan alohida-alohida ish olib borishi lozim.

Darsni bosqichlarga bo'lib, har bir daqiqadan unumli foydalanib o'tkazishi lozim. O'quvchilar bilimini tekshirishdan boshlab, uyga vazifa berishgacha bo'lgan hamma jarayonlarni erinmay amalga oshirish zarur. Xullas, maktab tasviriy san'at o'qituvchisining bosh vazifasi bolalarda endi shakllanib kelayotgan tasvirlash qobiliyatini o'stirishdan iborat bo'lib, ularga qalamni ushlabdan boshlab, rasm daftarni parta ustiga qo'yishni, rasmi chiziladigan narsa va voqeani kuzatishni, olingan taassurotlarni qog'oz yuzasiga tushirishni o'rgatishi lozim. Shuningdek, o'quvchini rasm chizishda mustaqil ishlashga, tashabbusga va ijodkorlikka boshlovchi ham o'qituvchidir. O'qituvchi rasm chizishga o'rgatish bilan birga, o'quvchilarga estetik tarbiya ham beradi. Ularga mehnatga, ijodga, o'z o'lkasiga, Vataniga, halqiga muhabbat ruhini singdirib boradi<sup>1</sup>.

Namunaviy dastur asosida tasviriy san'at darslarini rejalashtirish - eng murakkab ishlardan hisoblanib, u mavzularni tasvirii rejalashtirish dasturi deb nomlanadi. Ta'lim-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish oldidan dasturni chuqur o'rganib chiqish zarur. Dastur asosiy bajariladigan topshiriqlarni va mashqlarni ro'yxatini beradi, ta'limni o'qitish mazmunini, yil davomidagi tartib va ketma-ketligini har bir topshiriqlarga ajratilgan soat hajmini va bajarish materiallarini ko'rsatadi. Sinfda har bir o'quvchi

---

<sup>1</sup> B.N.ORIPOV "TASVIRIY SAN'AT VA UNI O'QITISH METODIKASI" (Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma 2-nashri), „ILM ZIYO“ TOSHKENT - 2012, 156-157-betlar.

o'zlashtirish lozim bo'lgan bilim va malakalarni, o'quv choraklari va haftalarga taqsimlanishi kerak.

Dastur ta'limni o'quv vazifalarining murakkablashuvini metodik ketma-ketlikda ochib bersa ham, ammo o'qitishning birmuncha xususiy savollariga (muammolariga) taalluqli emas. Ma'lumki, pedagogik jarayon - ijodiy dars san'ati. Shuning uchun ham dastur ma'lum bir yo'nalishga umumiy harakatdir.

Dasturda ta'limning asosiy yo'nalishi berilgan xolos, uni amalga oshirilishi, birmuncha xususiy savollarning javobini yechilishi - o'quv jarayonini tashkil qiluvchi o'qituvchining o'ziga bog'liq. Ayrim bo'lg'usi o'qituvchi so'rashi mumkin, bajarishga imkoniyat bo'lmaydigan tavsiyanomalar berilgan bo'lsa dasturi qanday qilib bajarish mumkin. Masalan, tasviriy san'at asarlari haqida suhbat o'tkazish darslarida ma'lum asarlar reproduksiyalari tavsiya qilinadi, lekin ularni har doim ham kitob do'konlaridan xarid qila olmaysiz. Yoki qalamtasvir bo'limida natyurmort ma'lum bir narsalardan tuzilgan bo'lishi mumkin, lekin qishloq joylarda ular bo'lmasligi mumkin. O'quv dasturlari aynan asliga muvofiq to'g'ridan - to'g'ri bajarilishini talab qilmayapti.

U faqat qanday rassomlar bilan o'quvchilarni tanishtirish va qaysi asarlari musavvirlarni ijodiy tomonlarini yaqqoliroq ko'rsatib berayapti. Yetarlicha tushunarli, agarda o'qituvchi fondida ko'rsatilgan u yoki bu musavvirni asar reproduksiyasi bo'lmasa, unda u boshqa rassom asarlari bilan almashtirilishi mumkin. Natyurmortga kerakli bo'lgan buyumlar ham yo'q bo'lsa, narsalarning shaklini murakkablik darajasini hisobga olgan holda shakli shunga o'xshash buyumlar bilan o'zgartirish mumkin.

Maktabda shaxsiy ish rejasini tuzishda o'qituvchi har bir sinf uchun yillik ish rejasini ishlab chiqishi zarur.

Bunday yillik ish rejasini yaxshisi tasvirli bajarish maqsadga muvofiqdir. Ular ishlarni barcha kompleksini yaqqol tasvirlaydi. Maktabda chorakni so'nggi darslarini suhbat yoki narsani o'ziga qarab rasm ishlash bilan tugallaydi. Bunday tuzilgan rejalashtirishni muvaffaqiyatli deb hisoblab bo'lmaydi. Agarda rejalashtirishda chorakni so'nggi darsida mavzu asosida yoki bezakli rasm ishlash belgilangan bo'lsa, bolalarga shu ishni ta'til vaqtida bayram bilan bog'lab davom ettirish imkoniyatini yaratib bergan bo'lamiz. Mavzularni - tasvirli rejalashtirish dasturi, yutuq va kamchiliklarni yaqqol ko'rsatib turadi. Bundan tashqari, tasvirli rejada o'quv qo'yilmalarni (postanovkalarni) xarakterlarini va ularni metodik yo'nalishlarini aks ettirish yengil bo'ladi. Eng qulay yillik ish rejasi uni jadval tarzida tuzish, chunki uning kataklarida o'quv materiallari chorak bo'yicha va alohida darslar bo'yicha taqsimlanadi. Har bir katakda o'quv ishlarni turlari, darsning mavzusi va mazmuni yaqqol ko'rgazmali tasvirlanadi.

Tasvirli - mavzuli reja dasturi o'ziga xos jadval sifatida to'rtta qatordan iborat (o'quv chorakning soniga qarab) bo'lib, ularni har bir chorakdagi o'tkaziladigan darslarning soniga qarab yana bir necha qatorlarga bo'linadi. Bu qatorlar esa o'z navbatida kataklarga bo'linadi. Bular mavzular asosida tasvirlar bilan to'ldiriladi.

Demak, birinchi qator sarlavhasida chorak belgisi, tartib raqami, dars soni, dars turlarining nomi, darsning mavzusi, maqsadlari va vazifalari, berilgan mavzu qanday materiallarda bajarilishi va unga necha soat ajratilgani ko'rsatiladi. Ushbu jadval to'rtta qatordan iborat bo'ladi,

lekin kataklari har bir choraqda bir xil emas, albatta, o'quv chorakni haftasiga bog'liqdir.

Masalan, 1-chorak 1.09 boshlanadi 4.11 tugallanadi - 8-9 hafta;

2-chorak 10.11 - 30.12 - 7-8 hafta;

3-chorak 12.01 - 23.03 - 10-11 hafta;

4-chorak 1.04 - 25.05 - 7-8 hafta.

Shunday qilib, maktabda darsning soni jihatidan eng katta va cho'zilgan chorak uchinchi chorakdir. Tasvirlangan kataklarda ham darslarning raqami va rangli belgilar orqali dars turlarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Abdirasilov Sunatulla Fayzullayevich "Tasviriy san'at o'qitish metodikasi" (O'zbekiston Respublicasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan «5141600 - Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyasi uchun bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik sifatida tayyorlangan) Toshkent - «Fan va texnologiya» - 2012, 146-147-betlar.

## XULOSA

Tasviriy san'at inson ongiga tezda ta'sir etib, unda ega hislar uyg'otadigan, ma'naviy olamini boyitadigan san'at turlaridan biridir. Shu bilan birga, tasviriy san'at inson shaxsining shakllanishi va kamolga yetishiga yordam beradigan tarbiyachi hamdir. Pedagogika kollejlarida ta'lim oluvchi talabalarning tasviriy san'atdan maxsus bilim va malakalarga ega bo'lishi ularning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini, badiiy didini, rang sezishi va tasavvurini rivojlantiradi, buyuk rassomlar yaralgan asarlar go'zalliklarini ko'ra bilishga, ularni idrok etishga olib keladi. Tasviriy san'at nazariy asoslari bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish, ayniqsa, qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya, qurish-yasash, haykaltaroshlikdan malaka hosil qilish, manzarali, mavzuli kompozitsiya yaratish, odam shaklini turli harakatlar va kiyimlarda tasvirlash usullari, haykaltaroshlik, dizayn san'ati, tasviriy san'at tarixi haqidagi ko'nikma va ma'lumotga ega bolish tasviriy san'at o'qituvchisi faoliyatida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi yo'nalishlarda maxsus fanlardan biri hisoblanadi va o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

1. O'quvchilarga tasvirlash asoslarini o'rgatish, ya'ni tikuvchilik texnologiyasi, kiyimlarni loyihalash ishlarini amalda oshirishda badiiy ijodiy, kuzatish qobiliyatlarini shakllantirish;

2. O'quvchilarning badiiy ijodiy qobiliyatlarini o'stirish, ularning badiiy didini tarbiyalash, borliq va san'atdagi

klassik va hozirgi zamon san'at go'zalliklarini ko'ra bilishga o'rgatish;

3. O'quvchilarni eskiz tayyorlashda detallarini to'g'ri ko'rsatish, qonun-qoida asosida tasvirlashni o'rgatish, shu bilan birga, to'garak ishlarini mahalliy materiallardan unumli foydalangan holda o'tish.

Yuqoridagi fikrlarni yosh avlodga o'rgatish biroz sabr va matonat, yangi qirralarni talab qilgani uchun ushbu o'quv qo'llanmani shu yo'rinda tayyorladik. O'ylaymizki, tasviriy san'atni o'qitish metodikasi haqidagi ma'lumotlarimiz sizga manzur bo'ldi.

## TEST SAVOLLARI

**1. Yangi pedagogik texnologiyalarda o'quvchilar bilimini baholashda qanday nazorat tizimidan foydalanamiz?**

- A. 100 ballik;
- B. 12 ballik;
- C. Ko'p ballik;
- D. 120 ballik.

**2. Innovatsiya nima?**

- A. Yangilik yaratish;
- B. Qisqartirish;
- C. Metod;
- D. Qoida va usullar.

**3. Usul nima?**

- A. Ko'zlangan maqsadga erishish yulida avvaldan belgilangan eng qisqa yo'ldir;
- B. Muayyan ma'noda tartibga solingan faoliyat;
- C. Oldindan belgilangan o'quv tarbiya jarayonini amalga oshirish;
- D. Texnik vositalarni qo'llashda inson salohiyati.

**4. "Ichki baho" deganda nimani tushunasiz?**

- A. Dars davomida o'quvchi bahosini sinf jurnaliga qayd etishdan oldin, o'qituvchining o'z shaxsiy jurnaliga qayd qilishi;
- B. Baxolash shaxsga bog'liq bo'lgani;
- C. Nazoratchi shaxsga bog'liq emas;
- D. O'qituvchining shaxsiy jurnaliga baho qo'yishi.

**5. Evristik metod nima?**

- A. O'zini yechishni kafolatlaydi, oldindan algoritim tuzilmaydi;
- B. Katoiy yo'llanma;
- C. Masala yechishni kafolatlaydi, yechishning bir xil-ligini ta'minlamaydi;
- D. Bilim, iqtidor.

**6. O'qitish metodlarini tanlash nimalarga bog'liq?**

- A. O'quv materiallarining mantiqiy yo'nalishi, maz-muni va mustaqil ish xarakteriga;
- B. Mashg'ulot turi va tipiga;
- C. Mashg'ulot mavzusiga;
- D. O'quv materiallarining mantiqiy yo'nalishi.

**7. Uzlüksiz ta'lim tizimi qaysi javobda to'g'ri ko'r-satilgan?**

A. Maktabgacha ta'lim, umumiy urta ta'lim, o'rta maxsus kasb-xunar ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim;

B. O'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-xunar ta'lim tizi-mi, oliy ta'lim, kadrlar malakasini oshirish, maktabdan tashqari ta'lim;

C. Bog'cha, maktab, institut, aspirantura, doktorantura, mustaqil tadkikotchilik, maktabdan tashqari ta'lim, malaka oshirish muassasalari, nodavlat ta'lim muassasalari;

D. Maktabgacha ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni kayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim.

**8. Bilim sifatini aniqlashda qaysi usulning muhim-lik darajasi yuqori?**

- A. og'zaki

- B. imtihon;
- C. test;
- D. amaliy.

**9. Masofadan o'qitish qanday amalga oshiriladi?**

- A. Kommunikatsion texnologiyalar orqali;
- B. O'quv adabiyotlari orqali;
- C. Kompyuter texnikasi orqali;
- D. Internet orqali.

**10. Pedagogning qaysi jarayonini sahnadagi aktyorlar faoliyatiga o'xshatish mumkin?**

- A. Xatti-harakat, mashg'ulot olib borish jarayonini;
- B. Estetik his-tuyg'u;
- C. Muloqoti, bilimi;
- D. So'zlashish, qiyinish madaniyati.

**11. Loyihalash metodi nima?**

A. Loyihalash metodi – didaktik maqsadga erishish uchun muammolarni topish, aniqlash va ularni ishlab chiqish (texnologiyalarni) usullaridir;

B. Loyihalash an'anaviy o'qitishga xos bo'lgan ma'lum ish-harakatning qanday bajarilishini tushunish va bunday harakatlarning bajarilishi tartibi bilan tanishish;

C. Loyiha bu ta'lim rejasidir;

D. Loyihalash metodi – didaktik maqsadga erishish uchun muammolarni topish.

**12. Darsning texnologik xaritasi nima uchun xizmat qiladi?**

A. O'qituvchi va talaba faoliyati hamda unga taqsimlangan vaqt me'yorini har bir bosqich bo'yicha to'g'ri belgilash;

B. Mashg'ulotni me'yorida tashkil etish;

- C. Talabalar faoliyatini faollashtirish;
- D. O'qituvchining vaqt me'yorini har bir *hozqich* bo'yicha to'g'ri belgilash.

**13. O'quv mashg'uloti jarayonida o'qituvchining suhbat ta'limning qaysi metodiga kiritiladi?**

- A. Ozaki;
- B. Amaliy;
- C. Kurgazmali;
- D. Yozma, amaliy;

**14. O'quvchilar badiiy ijodiga doir Rossiyada «Erkin tarbiya» nazariyasining vakillaridan biri kim?**

- A. A. Bakushinski
- B. V. Beer
- C. D. Kardovskiy
- D. N. Radlov

**15. Jahon tarixida rasm chizishga o'rgatish metodikasi bo'yicha dastlabki samarali mehnat qilgan mutaxassislar qaysi qatorda to'g'ri berilgan?**

- A. Pamfil, CHennini, Alberti, Leonardo da Vinchi
- B. Dyupyui, Ashbe, Prang, Russo
- C. Gete, SHmidt, Prang, Bryullov
- D. Tedd, Kulman, Karrachi, Renuar

**16. «Didaktik evristika»-bu...**

- A. Evristik ta'lim nazariyasi, Pedagogik evristikaning bir ko'rinishi
- B. Evristik ta'lim nazariyasi
- C. Pedagogik evristikaning bir ko'rinishi
- D. Ta'limiy evristika

### **17. Innovatsion maqsadlar deganda...**

A. Yangi maxsulotni ishlab chiqarish, yangi texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha qo'yiladigan maqsadlar tushuniladi;

B. Har kuni qabul qilinadigan va amalga oshiriladigan odatiy maqsadlar tushuniladi;

C. Korxonaga va ayrim xodimlarga qiyinchilik tudiradigan maqsadlar tushuniladi;

D. Yangi texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha qo'yiladigan maqsadlar tushuniladi.

### **18. Muammoli ta'lim metodining ta'rifi qaysi javobda keltirilgan?**

A. Ilmiy bilish jarayonining obyektiv qarama-karshiliklarini ochish va ularni hal qilishga qaratilgan, fikrlashga o'rgatish va bilimlarni ijodiy o'zlashtirishga qaratilgan ta'lim metodi;

B. O'qituvchi o'quvchilarning bilimiga tayanib, yangi materialni bayon qiladi hamda bilimlarni ijodiy o'zlashtirishga qaratilgan ta'lim metodlarini qo'llaydi;

C. Biror soxada yangi yutuklarni tushuntiradi;

D. Ilmiy bilish jarayonini hal qilishga qaratilgan, fikrlashga o'rgatish va bilimlarni ijodiy o'zlashtirishga qaratilgan ta'lim metodi.

### **19. Loyihalashtirish metodini qo'llash natijasida ... . Qoldirilgan nuqtalar o'rniga mos suzlarni toping?**

A. Loyiha ko'rinishidagi bilim olinadi;

B. Ta'lim oluvchi baho oladi;

C. Ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyati yaratadi;

D. Ta'lim oluvchi baho oladi, loyiha ko'rinishidagi bilim olinadi.

**20. O'quv materialini tanlashda qaysi prinsipga rioya qilinadi?**

A. O'quv materialini soddadan-murakkabga tomon rivojlantirib borish;

B. Osondan boshlash lozim;

C. Talabalarga faqat oson mavzulami utish kerak;

D. O'quv materialini murakkabdan-soddaga tomon rivojlantirib borish.

**21. Yosh fizika o'qituvchi uzining ish faoliyatida qanday psixologik muammolarga duch keladi?**

A. Ijtimoiy munosabat, guruhdan kurkish, talaba va o'qituvchi o'rtasida ziddiyatning xosil bulishi;

B. Dustlik, hamjihat bo'lib ishlash, xizmatdagi mutanosiblik;

C. Mensimaslik, buyruk, ayblash, kesatik;

D. Ijtimoiy munosabat, buyruk, ayblash, xizmatdagi mutanosiblik.

**22. Jamoaviy ijodiy ishni tayyorlash metodikasi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**

A. O'quvchi-talabalar bilan birgalikda tanlab olish rejasini hamkorlikda tuzish, reja asosida kichik ijodiy guruhlarga bulinish va topshiriqlar olish, tadbirni tayyorlash, tadbirni o'tkazish, utkazilgan tadbirni tahlil qilish, yakun yasash;

B. Utkaziladigan tadbirni reja asosida tayyorlash va utkazish;

C. Tadbirni kizikarli va ta'sirchan etib tayyorlash, hamkorlik pedagogikasi prinsiplari asosida tayyorlash va o'tkazish, tahlil qilish;

D. O'quvchi-talabalar bilan birgalikda tanlab olish rejasini hamkorlikda tuzish, reja asosida kichik ijodiy guruhlarga bulinish va topshiriqlar olish.

**23. O'qitish metodlarini tanlash nimalarga bog'liq?**

- A. O'quv materiallarining mantiqiy yo'nalishi, mazmuni va mustaqil ish xarakteriga;
- B. Mashg'ulot turi va tipiga;
- C. O'qituvchi bilimiga;
- D. O'qituvchining qobiliyatiga.

**24. O'qitishda bo'lgan yondoshuvlarning qiyosiy tasniflari?**

- A. Og'zaki tushuntirish, ko'rgazmali tushuntirish, texnologik, tanqidiy izlanish;
- B. Tushuntirish, texnologik, tanqidiy izlanish;
- C. Og'zaki tushuntirish, ko'rgazmali tushuntirish;
- D. Ko'rgazmali tushuntirish, texnologik, tanqidiy izlanish.

**25. "Metod" – bu....**

- A. Metod – bu yunoncha "yo'l, yo'riq", usul orqali maqsadga erishishdir;
- B. Metod – bu grekcha so'zdan olingan bo'lib uslub demakdir;
- C. Metod – bu lotincha so'zdan olingan bo'lib, axborotni uzatish usulidir;
- D. Metod – axborotni uzaytirish usuli.

**26. Pedagogik faoliyat texnologiyasi nima?**

- A. Ta'lim, tarbiya va rivojlantirish texnologiyasi;
- B. Muayn fanlarni didaktikaga asoslanishi;
- C. Darsning boshlanishini tashkil etish uy vazifasini tekshirish;

D. Darsning maqsadi va vazifasini bayon qilish, yangi materiallarni tushuntirish.

**27. An'anaviy metodika nimaga asoslanadi?**

A. Psixologiya, pedagogika, falsafa, tarix, sotsiologiya kabi fanlarga asoslanadi;

B. Eksperimental psixologiyaga;

C. Klassik psixologiyaga, falsafa, tarix, kvant mexanikasi, mantik va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar;

D. Klassik psixologiyaga, psixologiya, pedagogika, Eksperimental psixologiyaga.

**28. "Ta'lim metodi" nima?**

A. O'quv jarayoning kompleks vazifalarini yechishga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati;

B. Metod qoida va usullar yig'indisi, ta'lim shakllarini qulaylashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning o'zaro ta'sirini inobatga olib o'qitish metodidir;

C. Ishlab chiqarilayotgan maxsulotlar sifatini yaxshilash uchun yangi usul va metodlarni ishlab chiquvchi va takomillashtiruvchi fan;

D. Kompleks vazifalar.

**29. Pedagogik texnologiya...**

A. O'quv jarayonida yangi metodlarni qo'llash, o'quv materiallarini yangicha talqin etish, o'qitishda yangi informatsion texnologiyalarni kiritish jarayonidir

B. Jarayondagi fan texnika va jarayonning rivojlanib borishi

C. O'quv jarayonida yangi metodlarni qo'llash

D. Jarayondagi fan texnika va jarayonning rivojlanib borishi, o'quv materiallarini yangicha talqin etish,

o'qitishda yangi informatsion texnologiyalarni kiritish jarayonidir.

**30. "Texnologiya" so'zining lug'aviy ma'nosi?**

- A. Texne – mahorat, san'at, logos-tushuncha;
- B. Buyumni tayyorlash jarayoni;
- C. O'quv elementi;
- D. Bilim, iqtidor.

## GLOSSARIY

**AKVAREL** – lotincha «suv» boʻlib, suvga qoriladigan boʻyoq.

**AKTIV RANGLAR** – ruhni tetiklashtiruvchi iliq ranglar.

**ASOSIY RANG** – tabiatdagi sariq, qizil, zangori ranglar. Shu ranglarni bir-biriga ozmi-koʻpmi aralashtirish natijasida boshqa ikkinchi darajali ranglar kelib chiqadi.

**AXROMATIK RANG** – yunoncha rangsiz degan maʼnoni bildirib, ular bir-biridan yutadigan yoki tarqatadigan yorugʻlik kuchi bilan farq qiladi. Ularga oq, qora va kulranglar kiradi.

**AXROMATIK SIRT** – oʻzida muayyan rang tuslarini aks ettirmaydi. Sirtlar bir-birlaridan faqat yorugʻlik kuchlari, tuslari va yorugʻlikni yutish darajalari bilan ajralib turadilar.

**BIR VAQTDAGI QARAMA-QARSHILIK** – yorugʻlik kuchi va tuslarining qoʻshni ranglarga bogʻliq ravishda oʻzgarishi.

**BOʻYOQ** – yupqa qatlami qurigandan soʻng shaffof boʻlmagan, sirni yemiruvchi moddalardan saqlaydigan va unga chiroyli tashqi koʻrinish beradigan parda hosil qiladigan modda. Moyli boʻyoqlar, guash, akvarel, tempera va boshqa boʻyoq turlari mavjud. Boʻyoqlar qogʻoz, karton, tunuka, gazmol, yogʻoch va boshqa materialli buyumlarni boʻyash uchun ishlatiladi. Har bir boʻyoq turi oʻziga xos xususiyatga va ishlatish texnologiyasiga ega. Boʻyoqlardan boʻyoqchilikda, texnikada, halq amaliy sanʼatining koʻpgina turlarida keng foydalaniladi.

**DIAPAZON** – rang tus sezishning kengligi darajasi, xilma-xilligi ko‘lami.

**ESKIZ** – muayyan asar yoki naturaning kichik hamda katta oichamdagi tez ishlangan nusxasi. Eskizlar guash, moybo‘yoqlar, akvarel va hokazo bilan qog‘ozga, xolstga, kartonga ishlanadi.

**ETUD** – tabiat manzaralaridan, masalan, quyoshning chiqish va botish paytlaridan qisqa vaqt ichida ko‘chirilgan chiziqli yoki rangli tasvir.

**ETUDNIK** – ikki xil bo‘ladi: moybo‘yoqlar uchun hamda suv bilan ishlatiladigan bo‘yoqlar mo‘ljallangan etudnik. Etudnikka ishlatishiga qarab, moybo‘yoqlari, mo‘yqalamlar, akvarel bo‘yoqlari, qog‘ozlar va hokazolar solib qo‘yiladi. Moybo‘yoqlar uchun ishlatiladigan etudniklar katta va kichik o‘lchamlarda bo‘lib, oyoqchalari yig‘iladi.

**FON** – rangtasvirda «tag rang», «zamin» sifatida qo‘llaniladi. Bunda fon har xil materiallardan, masalan, qizil, oq, zangori va hokazo rangli gazmollardan, manzara ishlashda tog‘lardan, daraxt, osmon va boshqalardan iborat bo‘lishi mumkin. Fon har xil materiallardan, masalan, qizil, oq, zangori va hokazo rangdagi gazmollardan, manzara ishlashda tog‘lardan, daraxt, osmon va boshqalardan iborat bo‘lishi mumkin.

**GAMMA** – muayyan munosabatdagi ranglar sarasi (ranglaming shartli tizmasi).

**GARMONIYA** – ranglar uyg‘unligi. Qadimgi yunon afsonalarida keltirilishicha, go‘zallik ma‘budasi qizining ismi «Garmoniya» ekan. «Garmoniya» tub ma‘nosi bilan go‘zallik ramzidir. Asrlar o‘tishi bilan bu ibora, umuman, ismi jismiga monand, hamohang, shaklan mutanosib,

uyg'un, mukammal, har jihatdan barkamol degan ma'noni kasb etadi.

**GUASH** – fransuzcha, italyanacha suv bo'yog'i degan ma'noni bildiradi. U suvli, uncha tiniq bo'lmagan bo'yoq. Guash shirach va belila aralashtirib, suv qorilgan bo'yoq bo'lib, akvarelga, bo'yoqlaming yumshoq xillariga o'xshasa-da, oq bo'yoq qo'shilganligi, bo'yoq qatlamlarining xiraligi bilan farq qiladi. Guash bo'yoqlari plastmassa, shisha bankachalarda, tyubiklar holida ishlab chiqariladi. Guash bo'yog'i quyuq qaymoq ko'rinishda bo'ladi. U qurib qolmasligi uchun ustiga glitserin, suv, kuchsiz olcha shirasi va boshqalar quyiladi. Guash bo'yog'ida ishlashning o'ziga xos texnologiyasi bo'lib, mo'yqalamda oson olinishi, quriganda uqalanib, surkalib ketmasligi, tag qismidagi bo'yoq qavatining bir tekisda to'la berkitadigan bo'lishi kerak. Guash bo'yog'ining tarkibiy bog'lovchisi dekstrin, glitserin hisoblanadi. Guash bo'yog'ini tayyorlashda bo'yoq kukunlaridan foydalaniladi. Guash bo'yog'ida akvarel mo'yqalamlari va ulardan biroz qattiqroq mo'yqalamlar hamda bo'yoqlar uchun chiqarilgan mo'yqalamlardan ham foydalaniladi. Maxsus rassomchilik va badiiy ishlarida alohida emulsiyalardan tayyodangan guash bo'yoqlar ishlatiladi. Ular o'zining tiniqligi, rangining chiroyliligi bilan farqlanadi. Guashning flyuoressensiyali guash deb ataladigan turi ham boiadi. U olti xil rangda bo'lib, polietilen tyubiklarga solingan bo'ladi. Bu guash turini akvarel va temperalar bilan aralashtirib, ishlatsa ham boiadi. Flyuoressensiyali guash o'zining chiroyliligi, tiniqligi va yorqinligi bilan ajralib turadi. Umuman, guash bo'yoqlari rasmlar, naqshlar har xil gazeta, plakatlar, shiorlar yozishda va boshqalarda ishlatiladi.

**HAL** – biror naqshga (tasvirga) tayyorlangan tilla yoki kumush bo‘yoq yog‘i, aluminiy, jez, ruh, qalay, kumush hamda oltinlardan tayyorlangan kukun. Metall buyumlarni hallashda ishlatiladi. Buyumlar sirtiga hal galvani usulda yoki metallash, kimyoviy ishlov berish yo‘li bilan qoplanadi. Metallmas buyumlar sirtiga metall hamda metall qorishmalaridan tayyorlangan kukun, ya‘ni hal yuritiladi. Halni lokka qorib, keyin esa biror sirtga suriladi. Zargarlik va arxitektura detallariga juda yupqa qilib zarhal, ya‘ni oltin suvi yurgiziladi.

**ILIQ RANG** – o‘tni, qizigan jismlarni, quyoshni eslatuvchi sariq, to‘q sariq, sarg‘ish, zarg‘aldoq, qizil va boshqa ranglar.

**INTENSIVLIK** - ranglarning zichligi, to‘yinganligi, rangdorligi, ravshanligi.

**KOLER** – biror joyga tayyorlangan bo‘yoq.

**KOLORIT** – badiiy asardagi yetakchi rang.

**KOMPOZITSIYA** – lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, bir-biriga nisbatan ma‘lum tartibda joylashtirish, birlashtirishni anglatadi.

**KUKUN** – bo‘yoq tayyorlashda ishlatiladigan qattiq jismlarning maydalangan zarralari.

**LAZUR** – havorang, zangori bo‘yoq.

**LOK** – sirtga surtilganda qotib, yaltiroq qattiq parda hosil qiluvchi oiganik moddalar aralashmasi.

**MOYBO‘YOQ** – san‘atda keng qo‘llaniladigan bo‘yoq turi. U zig‘ir moyini bo‘yoq kukuniga qorishtirish natijasida hosil bo‘ladi.

**OMIXTA RANGLAR** – ikkita rangni aralashtirib hosil qilingan rang tusi. Masalan, qizil bilan sariq rangni bir-biriga aralashtirib, zarg‘aldoq rang hosil bo‘ladi.

**ORALIQ RANG** – rang doirasini tashqi halqasida sariq, yashil, ko‘kish, binafsha va hokazo tartibida joylashadigan ranglar.

**PERSPEKTIVA** – qisqarish demakdir. Havo perspektivasi, rang perspektivasi, tabiatdagi har xil perspektivalar, masalan, temir yo‘llarining qisqarishi.

**PIGMENT** – kukuni unga o‘xshaydi, rangli quruq bo‘yoq. Ganch o‘ymakorligida qirim va zaminni rangli qilishda tez ganchga qo‘shib, rang tayyorlanadi. Bezak ishlarida rangli bo‘yoqlar tayyorlashda turli pigmentlardan foydalaniladi.

**QADMIY** – qadmiy (kimyoviy element, yaltiroq, oq metall) bo‘yoqlarga qo‘shiladigan modda.

**QIZIL KESAK** – tuproqning bir turi bo‘lib, ganch o‘ymakorligida bo‘yoq sifatida maydalab ishlatiladi. Chunchi, rangli ganch tayyorlashda gul ganchga yoki tez ganchga maydalab, elakdan o‘tkazib qo‘shiladi. Avval ganch o‘ymakorligida ishlatilgan, hozir esa har yangi bo‘yoqlar tayyorlashda ishlatiladi.

**QUYOSH SPEKTRI** – yorug‘likning prizma orqali taralashidan ekranda hosil bo‘lgan rangli nurlar tasmasi.

**QO‘SHIMCHA RANGLAR** – qizil, sariq va zangori bo‘yoqlarning aralashuvidan hosil bo‘lgan omixta ranglar.

**RANG LAVHALAR** – tezlik bilan, dastlabki taassurotlaiga asoslangan holda bo‘yoq bilan bajariladigan tasvirlar.

**RANG UYG‘UNLIGI** – «kolorit», tasvirda ranglarning o‘zaro bir- birini to‘ldirishi, muvofiq kelishi, umumiy rang jilvasiga bo‘ysunganligi.

**RANGLARNING ARALASHMASI** – bir necha ranglardan hosil bo‘lgan rang.

**RANGLAR MAJMUYI** – ishlatilayotgan bo‘yoq xillarining ko‘pligi.

**RANG TUSI** – ranglaming xarakterli xususiyatlaridan biri, ya‘ni, ranglaming to‘lqin uzunligiga qarab aniqlanadigan xossasidir. Shunga ko‘ra qizil, sariq va hokazo ranglaming och va to‘q tuslari idrok qilinadi va aniqlanadi.

**RANG GAMMASI** – naqqoshlikda yetakchi rang, uning xususiyatini belgilovchi ranglar majmuyi.

**RANG KONTRASTI** – rang qarama-qarshiligi, bir xil rangning o‘z atrofidagi ranglarga bog‘liq holda o‘zgartirib, idrok qilinishi. Masalan, to‘q rang yonida och rang tusi yanayam ochroq, to‘q rang tusi esa yanada to‘qroq holda idrok qilinadi.

**RANGLARNING VAZMINLIGI** – ranglaming kishida og‘ir va yengil taassurotlar uyg‘otuvchi xususiyati, to‘q va och ranglar.

**RANGLAR GARMONIYASI** – ranglaming bir-biriga muvofiq tushishi.

**RANGLARNING TENGLASHISH QONUNI** - tenglik, ranglaming o‘zaro muvofiqlashuv qonuni, to‘ldiruvchi va qarama-qarshi ranglar misolida ko‘rish mumkin.

**RANGLARNING TOZALIGI** – mazkur rangning spektr rangga yaqinlashtirib borishi. Spektr ranglar eng toza ranglardir.

**RANGLARNING FAZOVIIY XUSUSIYATI** - ranglaming zichligi, yengilligi, yuzani uzoqlashtirib yoki yaqinlashtirib ko‘rsatish qobiliyati.

**RANG TO‘YINGANLIGI** – to‘yinganlik. Xromatik rangining to‘yinganligi deb, rang tusining yorqinligi bo‘yicha o‘ziga teng keladigan kulrangni o‘z rang tusini saqlagan holda ko‘p yoki kam miqdorda singdirish qobiliyati.

**RANG HALQASI** – ranglarning doira bo‘ylab, spektr ranglari kabi joylashishi.

**RANG YORQINLIGI** – rangning yorug‘lik nurlarini ko‘p yoki kam miqdorda aks ettirish xususiyatidir. Bunda yorug‘lik nurlari ko‘p aks etsa, rang och tusda, kam yetganda esa to‘q tusda idrok qilinadi.

**RASM** – qog‘oz, faner, mato, metall, ganchga, devor va boshqalarga chizib, o‘yib va bo‘yab ishlangan tasvir.

**SILUET** – soya tasvir demakdir. Oq fonda bir xil rangda. Masalan, qora, kulrang va hokazolar yassi ko‘rinishda tasvirlangan. Hajmsiz tasvir, surat (odam yoki buyumlar tasviri va rasmi).

**SIMMETRIYA** – yunoncha so‘z bo‘lib, o‘lchovlarning bir-biriga mosligi, tangligi, mutanosibligidir. Simmetriyaning bir qancha turlari bor.

**SINKA** – mayda unga o‘xshagan mayin rang pigment. Uni ganch o‘ymakorlari ba‘zi hollarda xoka tayyorlashda va rangli ganch tayyorlashda ishlatadilar.

**SOVUQ RANGLAR** – muzni, qomi, suvni eslatuvchi zangori ko‘kish, yashil, to‘q binafsha va havoranglardir.

**STILIZATSIYA** - umumlashtirish. Tabiatda gul, novda, barg, qush, hayvon, odam va boshqalarni naqqosh tomonidan umumlashtirib tasvirlanishi.

**TANLAB SINGDIRISH** – buyumlarning spektrdagi barcha ranglarni yutib, birortasini qaytarish xususiyati. Masalan, biror buyum qizil nurlarni qaytarsa – yashil bo‘lib ko‘rinadi va hokazo.

**TEMPERA** – lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, «aralashtirish» degan ma‘noni anglatadi. Tempera ham suv bilan ishlatiladigan bo‘yoqlar turkumiga kiradi.

**TUS** – yorug‘lik miqdori, rang tusi kabi ma‘nolarni anglatadi. Badiiy asarda ranglar birikmasining umumiy tusi, yorug‘roq yoki xiraroq ekanligi tushuniladi.

**TUS MUNOSABATI** – to‘q ochiq (rang, ayni paytda tus oq-qoraligi bilan biigalikda nisbatlarini aniqlash).

**TUSH** – maxsus qora bo‘yoq, grafikada ishlatiladi.

**TO‘LDIRUVCHI RANG** – ikkita rang aralashmasining natijasi: ma‘lum miqdorda aralashtirilganda axromatik rang hosil qiladigan ikkita xromatik rang. To‘ldiruvchi rang tusidan qo‘shimcha rang tuslari hosil bo‘lmaydi.

**XIRA RANG** – vaqt o‘tishi bilan jilosini yo‘qotgan rang tusi. Ba‘zan ikkita rang tusi o‘zaro aralashganda ham xira, xunuk rang tuslari hosil bo‘lishi mumkin.

**XROMATIK KONTRAST** - biror rang tusining u bilan yonma-yon turgan rang tusi ta‘sirida o‘zgarishi.

**XROMATIK RANGLAR** – muayyan rang tusiga ega bo‘lgan bo‘yoq: qizil, yashil, ko‘k va hokazolar.

**XROMATIK SIRT** – o‘zida xromatik rang tuslarini aks ettirgan sirt. U tanlab singdirish qobiliyatiga ham ega.

**SHU‘LA** – refleksga o‘xshash, lekin atrofdagi narsalarga urilib qaytgan nurlardan hosil bo‘ladi va yorqinlanib turadi.

**CHEGARA QARAMA-QARSHILIGI** – ko‘proq axromatik ranglarda kuzatiladi. Masalan, och kulrang yonma-yon turganda, ikkalasining birlashgan joyiga qaralsa rang tusi xuddi to‘q tusdagi kulrangga, ba‘zan qoraga o‘xshab ketadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdirasilov S. Tasviriy san'at o'qitish metodi-kasidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish. T.: 1996.
2. B. N. Oripov Tasviriy san'at va uni o'qitish meto-dikasi 2-nashri, Ilm Ziyo "Toshkent" – 2012.
3. S. Abdirasilov, B. Boymetov, N. Tolipov Tasviriy san'at Cho'pon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent - 2006.
4. B. Oripov. Tasviriy san'at va chizmachilik kabineti, sinfdan tashqari ishlar. T., 1974-y.
5. B. Oripov. Tasviriy san'at darslari samaradorligini oshirish omillari. T., 1978-y.
6. Abdirasilov Sunatulla Fayzullayevich Tasviriy san'at o'qitish metodikasi Toshkent – "Fan va texnologiya" - 2012.
7. Abdirasilov S. Tasviriy san'at atamalari. T.: Nizo-miy nomidagi TDPU rizografida, 2003.
8. Abdirasilov S., Boymetov B., Tolipov N. Tasviriy san'at. T.:Cho'lpon, 2006.
9. Ishmuhamedov R. J. Innovasion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. T.: Nizomiy nomidagi TDJ, 2004.
10. B. N. Oripov. Tasviriy san'atni o'qitish uslubiyoti. N., 2001- y. (o'quv qo'llanma).
11. B. N. Oripov, B. B. Oripov. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi (dastur). N., 2001-y.
12. M. Nabyiev, B. Azimova. Rasm chizishni o'rgatish metodikasi. T., 1976-y.

13. B. Oripov. Rasm chizish va uni o'qitish metodikasi (dastur).T., 1986- y.

14. R. Hasanov. Tasviriy san'at mashg'ulotlarini takomillashtirish. T., 1986-y.

15. R. Hasanov. Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'at darslari.T., 1983-y

16. B. Oripov, A. Turdialiyev. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. T., 1991-y.

17. R. Hasanov, H. Egamov. Maktab tasviriy san'at darslari. T., 1995-y.

18. Majidov J. Tasviriy san'atdan maktabdan tashqari ishlar. T.: O'qituvchi. 1983.

19. E. I. Ro'ziyev, A. O. Ashirboyev. Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi. Toshkent - 2010

20. Mirzaahmedov M. A. Boshlang'ich naqsh ishlash metodikasi. T.: O'qituvchi, 1976.

21. Н. Н. Ростовцев. Учебный рисунок. М.: «Просвещение», 1984.

22. Н. Н. Ростовцев. Академический рисунок. М.: «Просвещение», 1984.

23. Афанасьева О. В. Использование ИКТ в образовательном процессе.

24. Кодесникова И. В. Информационно-компьютерные технологии на уроках искусства.

25. Губайдуллин И. А. «Использование информационно-коммуникативных технологий в целях формирования положительной мотивации к обучению на уроках изобразительного искусства и черчения»

<https://cyberleninka.ru/article/n>

<https://uz.wikipedia.org/wiki/Fauna>

<https://www.google.com/search?>

## MUNDARIJA

KIRISH .....	3
<b>I BOB. TASVIRIY SAN'AT O'QITISH METODIKASI FANINING NAZARIY MAZMUNI.</b>	<b>5</b>
Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi fanining maqsad va vazifasi.....	5
<b>II BOB. TASVIRIY SAN'ATNI CHET ELLARDA O'QITILISHI .....</b>	<b>11</b>
Chet ellarda tasviriy san'atni o'qitish tarixidan. Rossiyada qalamtasvir o'qitish metodlari.....	11
XVIII-XIX asrlarda G'arbiy Yevropada rasm chizishni o'rgatish metodikasiga bo'lgan turli qarashlar. ....	17
<b>III BOB O'RTA OSIYO VA O'ZBEKISTONDA TASVIRIY SAN'ATNING O'QITILISHI .....</b>	<b>24</b>
O'ra Osiyoda tasviriy san'atning o'qitilishi.....	24
O'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitilishiga doir dastlabki ma'lumotlar.....	26
<b>IV BOB. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT TA'LIMI MASHG'ULOTLARINING MAZMUNI.....</b>	<b>31</b>
Tasviriy san'at o'qituvchilarini o'quv-metodik majmualar bilan ta'minlanishi. ....	31
Umumiy o'ra ta'lim maktablarida tasviriy san'at ta'limining maqsad va vazifalari, mashg'ulotlarining mazmuni .....	37

13. B. Oripov. Rasm chizish va uni o'qitish metodikasi (dastur). T., 1986- y.

14. R. Hasanov. Tasviriy san'at mashg'ulotlarini takomillashtirish. T., 1986-y.

15. R. Hasanov. Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'at darslari. T., 1983-y

16. B. Oripov, A. Turdialiyev. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. T., 1991-y.

17. R. Hasanov, H. Egamov. Maktab tasviriy san'at darslari. T., 1995-y.

18. Majidov J. Tasviriy san'atdan maktabdan tashqari ishlar. T.: O'qituvchi. 1983.

19. E. I. Ro'ziyev, A. O. Ashirboyev. Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi. Toshkent - 2010

20. Mirzaahmedov M. A. Boshlang'ich naqsh ishlash metodikasi. T.: O'qituvchi, 1976.

21. Н. Н. Ростовцев. Учебный рисунок. М.: «Просвещение», 1984.

22. Н. Н. Ростовцев. Академический рисунок. М.: «Просвещение», 1984.

23. Афанасьева О. В. Использование ИКТ в образовательном процессе.

24. Кодесникова И. В. Информационно-компьютерные технологии на уроках искусства.

25. Губайдуллин И. А. «Использование информационно-коммуникативных технологий в целях формирования положительной мотивации к обучению на уроках изобразительного искусства и черчения»

<https://cyberleninka.ru/article/n>

<https://uz.wikipedia.org/wiki/Fauna>

<https://www.google.com/search?>

## MUNDARIJA

KIRISH .....	3
<b>I BOB. TASVIRIY SAN'AT O'QITISH METODIKASI FANINING NAZARIY MAZMUNI.</b>	<b>5</b>
Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi fanining maqsad va vazifasi.....	5
<b>II BOB. TASVIRIY SAN'ATNI CHET ELLARDA O'QITILISHI .....</b>	<b>11</b>
Chet ellarda tasviriy san'atni o'qitish tarixidan. Rossiyada qalamtasvir o'qitish metodlari.....	11
XVIII-XIX asrlarda G'arbiy Yevropada rasm chizishni o'rgatish metodikasiga bo'lgan turli qarashlar. ....	17
<b>III BOB O'RTA OSIYO VA O'ZBEKISTONDA TASVIRIY SAN'ATNING O'QITILISHI .....</b>	<b>24</b>
O'rta Osiyoda tasviriy san'atning o'qitilishi.....	24
O'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitilishiga doir dastlabki ma'lumotlar.....	26
<b>IV BOB. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT TA'LIMI MASHG'ULOTLARINING MAZMUNI .....</b>	<b>31</b>
Tasviriy san'at o'qituvchilarini o'quv-metodik majmualar bilan ta'minlanishi. ....	31
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at ta'limining maqsad va vazifalari, mashg'ulotlarining mazmuni .....	37

Umumiy o'rtta ta'lim maktablarida tasviriy san'at darslarining mazmuni.....	51
Tasviriy san'at davlat ta'lim standarti (maktab, oliy ta'lim).....	65

## **V BOB. TASVIRIY SAN'AT DARSINI**

<b>TASHKIL ETISH VA O'QITISH METODIKASI.....</b>	<b>76</b>
Tasviriy san'atni o'qitishda didaktik prinsiplar.....	76
Boshlang'ich 1-4 sinflarda "Tasviriy san'at"ni o'qitish metodikasi.....	97
5-7 sinflarda "Tasviriy san'at"ni o'qitish metodikasi.....	105
Tasviriy san'atni o'qitish metodikasidan topshiriqlar. Ularni nazorat qilish va baholash.....	152
Tasviriy san'atda borliqni idrok etish.....	162
Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi fanidan darsdan tashqari ishlarni tashkil etish metodikasi...	167

## **VI-BOB TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHISI**

<b>JIHATLARI.....</b>	<b>174</b>
Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi o'qituvchisi tashkilotchi, metodist va ijodkor.....	174
Mahoratli o'qituvchi va zamonaviy innovatsion va interfaol usullari, axborot va pedagogik texnologiyalar.....	186
O'qituvchining tasviriy ijodiy ishlari va tabaqalashtirib o'qitish.....	195

## **VII BOB TASVIRIY SAN'AT XONASINI**

<b>TASHKIL ETISH.....</b>	<b>206</b>
Tasviriy san'at o'qitish metodikasi xonasini tashkil etish va jihozlash.....	206
Tasviriy san'at xonasini jihozlash.....	208

<b>VIII-BOB. TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. ....</b>	<b>211</b>
Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi	
mashg'ulotlarining zamonaviy ta'limi. ....	211
Tasviriy san'atni o'qitishda	
AKT vositalaridan foydalanish. ....	219

**AMALIY MASHG'ULOTLAR ISHLANMALARI: .... 235**

1-Mavzu: Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi dasturini o'rganish va rejalashtirish. ....	235
---	-----

2-Mavzu: Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi mashg'ulot turlariga dars bayonini va ishlanmasini tayyorlash. ....	239
--	-----

3-Mavzu: Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi mashg'ulot turlariga ko'rgazmali qurollar tayyorlash. ....	246
--	-----

4-Mavzu: Pedagogik tasvirlar ishlash. ....	249
--	-----

5-Mavzu: Pedagogik tasvirlar uchun -- flora va fauna rasmlari. ....	258
--	-----

6-Mavzu: Tasviriy san'at asarlarini badiiy tahlil qilish. ....	264
---	-----

7-Mavzu: Tasviriy san'at darslarini metodik jihatdan ta'minoti. ....	278
---	-----

8-Mavzu: Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi mashg'ulotlaridan namunaviy darsni tashkil etish va o'tkazish. ....	281
--	-----

9-Mavzu: O'quvchilarni tasviriy san'at standartlari bilan tanishtirish va tahlil qilishga o'rgatish. ....	283
--	-----

10-Mavzu: Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining sinf doskasida ishlashi va o'quvchilar grafik madaniyatini shakllantirish usullari. Sinf doskasida bo'r bilan ishlash. ....	288
11-Mavzu: Tasviriy san'at darslarida kompyuterdan foydalanish yo'llari. ....	291
12-Mavzu: Chet el tasviriy san'at o'qitish metodlari tarixi haqida. ....	295
13-Mavzu: Rossiyada tasviriy san'atni o'qitish metodlarining o'ziga xos ko'rinishlari. ....	300
14-Mavzu: O'rta Osiyo va O'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitilishi. ....	302
15-Mavzu: Mustaqillik yillaridagi tasviriy san'atni o'qitilishi. ....	324
16-Mavzu: Tasviriy san'at ta'limida didaktik prinsiplar. ....	333
17-Mavzu: Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at fanini o'rganish. Tasviriy san'atdan darslarini loyihalash va modellashtirish. ....	355
18-Mavzu: O'qituvchining darsga tayyorlanishi. Dars mashg'ulotlarini rejalashtirish. ....	367
XULOSA .....	372
TEST SAVOLLARI .....	374
GLOSSARIY .....	383
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .....	391

*Ilmiy nashr*

**Ergasheva Orifaxon Xolmuratovna**

# **TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISH METODIKASI**

**O'quv qo'llanma**


*Direktor: N. Hoshimov*

*Muharrir: H. Boyboboyev*

*Tex.muharrir: E. Rahimov*

*Sahifalovchi: M. Hoshimov*

*Musahhah: M. Abdurahimova*



«Farg'ona kitob olami» MChJ  
«Farg'ona» nashriyoti

9066



Bosishga ruxsat etildi: 05.09.2024-y.  
Bichimi: 84/108 <sup>1</sup>/<sub>32</sub>. Nashriyot b/t: 25,0.  
Times garniturası. Adadi: 30 dona. Buyurtma № 81.

«Farg'ona kitob olami» MChJ «Farg'ona» nashriyoti.  
150100. Farg'ona sh. Kashtanzor ko'chasi, 7-A uy.

«ALPHA BRAND» MCHJ  
Farg'ona shahar, Ulug'vor ko'chasi, 70-uy.